



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (<https://tilvaadabiyot.uz>)

<https://oak.uz/pages/4802>

2024-yil. 5-son

BUYUK SARKARDA VA DAVLAT ARBOBI AMIR TEMUR TAVALLUDIGA 688 YIL



2024-yil
5-son

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruz Manukyan

Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Klimentina Ismailova. Mikrofon qarshisidagi teatr: kecha, bugun, ertaga	3
Gulchehra Imomova. Badiiy sintezning janrlararo tafovuti va uning o'ziga xosligi	6
Husniddin Norqulov. O'smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda moddiy qadriyatlarining o'ziga xosligi	9

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Saodat Adilova. O'zbek tilini masofadan o'qitishning yangi imkoniyatlari	14
Madina Mirkasimova. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirish tizimi	16
Muxtasarxon Asqaraliyeva. Zamonaviy yondashuvlar asosida tarbiya darslarini tashkil etish zarurati	18
Nigora Ne'matova. Chet tilda mustaqil ta'lim olishning lingvopsixologik va metodik xususiyatlari	21
Bahora Toyirova. Ingliz tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish	23
Клара Ибатова. Технология проблемного обучения	25
Шаира Курбанова. Использование художественного текста на уроках русского языка в группах с нерусским языком обучения	27
Zarina Kurbanova. Methods of teaching english for beginners	29
Elmira Moydinova. Methodological basis of forming professional	31

TILSHUNOSLIK

Utkir Sattarov. XX asr tilshunosligida F.De.Sosyurning lingvistik qarashlari	34
Nilufar Yuldosheva. Til birliklari asimmetriyasi	36
Dildor Bazarova. Sintaktik variantdosh birliklar haqida	38
Tursunmurod Oydinov. Jahon tilshunosligida fonologiyaning vujudga kelishi	40
Marjona Xayrullayeva. Joy nomlari asosida shakllangan toponimlar	42
Shaxnoza Aliyeva. So'z ma'nosi ko'chishi va derivatsion jarayon	44
Feruz Rahmatova. O'zbek tilida ayrim somatizmlarning ma'no xilma-xilligi: ko'pma'nolilik	47
Madina Asqarova. Korpus lingvistikasining paydo bo'lishi va shakllanishi	49
Раъно Насирова. Референция экспрессивных и эмоциональных фразеосем в английской фразеологии	52
Nigora Mukhamedova. Functional and pragmatic analysis of syntax structures	55



Elektron jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsifiya etilgan ilmiy nashrdir.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Eshnazar Jabborov. Alisher Navoiy asarlaridagi ma'rifiy ramziy tizim talqini	57
Gulhayo Haydarova. XX asr o'zbek g'azaliyotida vazn masalalari	59
Sofiya Jumayeva. Maxtumquli yoshnomalari poetikasi va raqamlar haqiqati	61
Botir Oqbutayev. Maxtumquli ijodi Najmiddin Komilov talqinida.....	64
Abduvali Axatov. Ilohiy ishq kuychisi	66
Zebuniso Rasulova O'zbek xalq sehri ertaklarida tabu bilan bog'liq tushunchalar	68
Ro'ziboy Tangirov. Shukur Xolmirzayevning xarakter yaratish mahorati	71
Muhabbat Fazliddinova. Yusuf Amiriyning "Dahnoma" asari o'rganilishi.....	73

TADQIQOT

Amonkeldi Axmatov. Rustam Abdurahmonov kim bo'lgan?	75
Dilnoza Mamirova. Reklama matnida xronotop	77
Zulayho Abdurahmon. Alisher Navoiy asarlarida tavba talqini	79
Zulfiyaxon Masodiqova. Oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitish samaradorligini ta'minlash mexanizmlari	82
Mahfuza Muxtorova. Kichik lirik janrlar badiiyati.....	83
Mushtariy Alikulova. Aleksandr Kuprinning so'z qo'llash mahorati.....	86
Kamola Abdurashidova. "Zamonaviy afsonalar" folklor janri sifatida.....	88
Ziyoda Bazarova. Hikoyalarda lisoniy shaxs shakllanishiga nutq janrlarining ta'siri	92
Bori Nigmanov. Yosh futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish xususiyatlari	94
Odinaxon Mahamadjonova. Andijon bolalar folklorida hayvonlar timsoli	96
Дилмура Умарова, Сарвар Умаров. Проблемы связного высказывания (текста) на занятиях русского языка	100
Лилия Абдусаматова. Художественное время и пространство в повестях В. Быкова	103
Dildora Khalikova. Bridging sociolinguistic competence in journalism through grammar: practical insights.....	106
Sokhiba Rasulova. Effective practices for developing reading comprehension	109
Mamura Saidova. The notion of function and context within the communicative approach	111

TARJIMASHUNOSLIK

Зульфия Тухтаходжаева. Сложности перевода фразеологических единиц и пути их преодоления	113
--	-----

KICHIK TADQIQOT

Rayhonoy Yangiboyeva. Navoiyning orifona g'azalini adabiyot to'garaklarida o'qitish tamoyillari	115
Rajabboy Abdiyev. "Oydinda yurgan odamlar" qissasidagi "oila" konsepti bilan bog'liq maqollarning lingvomadaniy tahlili.....	116
Dilbar Mirnosirova. Ontolingvistika doirasidagi assotsiativ tajribalarning o'ziga xos jihatlari	122
Marjona Shomurodova. Bir g'azal matni: tadqiq va tahlil	124
Mohidil Usmonova. Ravnaq lirikasida ma'naviy san'atlar	126
Jalilova Muxlisa Zafarjon qizi. Bola tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq ayrim etnografizmlar haqida	129
Navruza Fayzullayeva. Lutfiy "Devon" idagi antonimlarning ba'zi xususiyatlari.....	131
Sabina Ruziyeva. Erkin A'zam asarlari lingvopoetikasi	134
Нигора Абдуллаева. Развитие профессиональных коммуникативных компетенций студентов при изучении языка	135
Наргизахон Валиева. Анализ фразеологических единиц с антропонимическими компонентами в английском языке	137
Zemfira Kendjayeva. Social features of kinem in english and russian languages.....	139
Исраилова Максуда, Шарипов Бобур. Важность и роль латинского языка в изучении иностранных языков	141
Gulmira Bozorova. Erkin Vohidov she'riyatida talmeh san'ati	144

Klimentina Ismailova,
*O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti va
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)*

MIKROFON QARSHISIDAGI TEATR: KECHA, BUGUN, ERTAGA...

Annotatsiya: maqola o'ziga xos radioeshittirish shakli sifatida milliy radioteatrning paydo bo'lishi va rivojlanishiga bag'ishlangan. Mustaqil dramatik san'at formati sifatida radioteatr paydo bo'lishiga sabab omillar ko'rib chiqiladi. Radioefirda dramatik spektakllar translyatsiyasining ilk tajribalari tahlilga tortiladi, milliy radiodramaturgiyaning tipik namunalari tadqiq etiladi. Betakror radioinstsenirovkalarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan omillar aniqlanadi. O'z imkoniyatlarini aniqlash, mavzu ko'lamini kengaytirish orqali O'zbekiston radioeshittirishi tuzilmasida musiqiy-adabiy kompozitsiyalarga yaqin, lekin murakkabroq fabulaga ega birinchi milliy radiopyesalar nomiga munosib dasturlarni yaratish tomon sekinlik bilan, biroq mo'tadil siljigani ko'rsatib beriladi. O'zbekistonning aniq ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivoji davrlari kontekstida radioteatr va radiojurnalistikaning o'zaro bir-biriga ta'siri asoslab beriladi. Tarixiy istiqbolda "sahnalashtirilgan radioteatr" yo'li ko'rsatiladi – oddiy retranslyatsiya va yanada samalari ovozi yechimlarni izlashdan shakl bo'yicha soddalashtirilgan va ifoda vositalariga ko'ra oddiy "audiomutolaaga"cha. Muallif tomonidan milliy radioteatrning paydo bo'lishi va rivojlanishida g'oyaviy va estetik yondashuvlar aloqadorligining evolyutsiyasi ishonchli tarzda namoyish qilib beriladi.

Kalit so'zlar: radioteatr, radioasar, radiokanal, dramaturgiya, translyatsiya, radioefir, tinglovchilar.

Annotation: the article is devoted to the formation and development of the national radio theater as a specific form of radio broadcasting. The prerequisites of the radio theater as an independent format of dramatic art are considered. The analysis of the first experiments of broadcasting dramatic performances on the radio is carried out, typical samples of early national radio drama are studied. The factors that influenced the emergence of the original radio dramatizations are revealed. It is shown how, learning its own capabilities, expanding the subject, the radio broadcasting of Uzbekistan slowly but steadily moved towards the creation of programs claiming to be the first national radio plays, in their structure close to musical and literary compositions, but with a more complicated plot. The historical facts confirming the creative searches of domestic broadcasters in the field of music and noise design of radio performances are presented. The mutual influence of the radio theater and radio journalism in the context of specific periods of socio-political and cultural development of Uzbekistan is substantiated. In historical retrospect, the path of the "staged radio theater" is traced – from simple retransmission and the search for the most effective methods of sound solutions to a simplified in form and somewhat meager in expressive means "audio reading". The author convincingly shows the evolution of the relationship between ideological and aesthetic positions in the formation and development of the national radio theater.

Keywords: radio theater, radio performance, radio channel, drama, broadcast, radio broadcast, listeners.

Аннотация: статья посвящена становлению и развитию отечественного радиотеатра как специфичной формы радиовещания. Рассматриваются предпосылки радиотеатра как самостоятельного формата драматического искусства. Проводится анализ первых опытов трансляции драматических спектаклей в радиоэфире, исследуются типичные образцы ранней национальной радиодраматургии. Выявляются факторы, повлиявшие на возникновение оригинальных радиоинсценировок. Показано, как познавая свои собственные возможности, расширяя тематику, радиовещание Узбекистана медленно, но неуклонно продвигалось к созданию передач, претендующих на звание первых национальных радиопьес, в структуре своей близких к музыкально-литературным композициям, но с более усложненной фабулой. Приводятся исторические факты, подтверждающие творческие поиски отечественных вещателей в области музыкального и шумового оформления радиоспектаклей. Обосновано взаимовлияние радиотеатра и радиожурналистики в контексте конкретных периодов социально-политического и культурного развития Узбекистана. В исторической ретроспективе прослеживается путь «постановочного радиотеатра» – от простой ретрансляции и поиска наиболее эффективных приемов звукового решения к упрощенному по форме и несколько скучному по выразительным средствам «аудиочтению». Вторым убедительно показана эволюция взаимоотношения идеологических и эстетических позиций в становлении и развитии национального радиотеатра.

Ключевые слова: радиотеатр, радиоспектакль, радиоканал, драматургия, трансляция, радиоэфир, слушатели.

Avvalambor, "Mikrofon qarshisidagi teatr" — bu radiodagi ommabop rukn emasligini aniqlashtirib olsak. "Mikrofon qarshisidagi teatr" — bu ham teatr postanovkalarining translyatsiyasini, ham radiostansiyaning ijodiy kuchlari bilan yaratiladigan dramaturgik asarlarning original radioinstsenirovka shaklida efirga uzatishni o'z ichiga oluvchi o'ziga xos eshittirish shakli.

Radiospektakl tinglovchilarga ta'sir ko'rsatish borasida eng kuchli va o'zgacha radioeshittirish shakllaridan biri sanaladi. U ilk radiopyesalarning paydo bo'lishi bilan butun dunyo bo'ylab keng ommalashdi. Rivojlangan

davlatlarda mazkur janr bugun ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, yuqori baholanadi. Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Rossiya radiopostanovkalari tan olingan adabiy-badiiy radioijod durdonalari hisoblanadi.

Ilk radiospektakllar XX asrning 20-yillarining boshlariga oid. U vaqtlarda magnit tasma yozib olish amaliyoti mavjud bo'lmagani bois, ular to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatilar edi. Spektakllar radiostudiyaning o'zida ijro etilardi, rejissyorlar va ovoz operatorlari audio effektlari bilan tajriba o'tkazishga cho'chigani sababli, aktyorlar mutlaq tinchlikda ishlashardi. Aktyorlarga bo'm-bo'sh

studiyada rol ijro etish qiyinchilik tug'dirardi. Shuning uchun keyinchalik radiospektakllarga tomoshabinlarni taklif etishni, hatto chiptalarni sotishni boshlashdi. Bu tajriba spektakllar translyatsiyasini biroz jonlantirdi, aktyorlarga obrazga kirishishga yordam berdi. Shunga qaramay, spektakllar translyatsiyasi sifati u vaqtlarda past, signal kuchsiz bo'lgan.

Radioteatni badiiy eshittirish shakli sifatida rivojlantirishga original, radio uchun maxsus yozilgan pyesalarning paydo bo'lishi jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu janrning ilk qaldirg'ochi esa ingliz dramaturgi Richard Xyuzning radio uchun maxsus yozilgan "Xavf" pyesasi sanaladi. U 1924-yil 15-yanvarda efirga uzatildi. Ma'lum bo'lishicha, mazkur asarni teatr sahnasida ijro etishning imkoni ko'zda tutilmagan, boisi voqealar avariya tufayli suv ostida qolayotgan chuqur shaxtada zulmat ichida sodir bo'lyapti. O'lim xavfi ostida qolgan uch nafar shaxtachi umidlari bir uchqun otib, bir so'nib yordam kutaytilar.

Sovet davridagi birinchi radiospektakl original ssenariy asosida 1925-yilning 25-dekabrida efirga uzatildi. Uning nomi "Mariya Volkonskayaning uyidagi oqshom". Radiopyesa dekabristlar qo'zg'olonining yuz yilligiga bag'ishlab yozilgan, Nikolay Volkonskiy unga rejissyorlik qilgan.

O'zbekistonda radioteatr Yevropaga qaraganda kechroq shakllandi. Respublika teatrlaridan spektakllarni translyatsiya qilish davrini bosib o'tmay, milliy radioeshittirish to'g'ridan-to'g'ri original radiopyesalarni yaratishga yuzlandi. 30-yillar edi... O'zbek radiojurnalistlari arsenalida shorinofon – ovoz yozish apparati; katta bo'lmagan, biroq o'zlariga tegishli, radiospektakllarda qo'llanila boshlagan keng tarqalgan tovushlardan iborat fonoteka bor edi. Milliy va jahon adabiyoti klassikasiga oid mashhur romanlar, qissalar, pyesalar asosida radioinstsenirovkalarni tayyorlashda Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va boshqalar ishtirok etganlar. 1938-yilda Abdulla Qodiriyning "Sarob" romani radio efirida "sahnalashtirilgan".

Aynan 1938-yilda radioteatr tarixida badiiy eshittirishning mazkur fenomeniga dunyo hamjamiyatining e'tiborini jalb etgan voqea sodir bo'ldi. Bu sensatsiya Gerbert Uellsning "Dunyolar kurashi" nomli romani asosida yaratilgan radiopyesa bo'ldi, uni mashhur amerikalik aktyor va rejissyor Orson Uells efirga tayyorladi. "Kolombiya" radioeshittirish kompaniyasi "Dunyolar kurashi" instsenirovkasini ishlashga qabul qilib olganida O.Uells unga maksimal darajada hujjatli reallik xarakterini berishga harakat qildi. U radiopyesaga boshqa nom berdi – "Marsdan hujum", voqea joyini AQShga ko'chirdi va romanni shu darajada qayta ishladiki, "tinglaganda u juda emotsional, ammo shu bilan birga, sodir bo'layotgan voqealar to'g'risidagi xronikal hisobot sifatida qabul qilinardi"[1, 59]. Radiospektakl oddiy yengil musiqa bilan boshlandi, biroq sal o'tmay uni, odatda, "Yangiliklar"ni o'qiydigan suxandon chiqishi bo'lib, Marsda yorqin uchqunlar kuzatilgani, keyin esa Nyu York yaqiniga meteorit tushgani haqida xabar berdi. Kishilar uzoqroqqa ketish ilinjida vokzallarga qarab

yo'l oldi, kasalxonalariga tushdi. Politsiya va gazetalarida telefon qo'ng'iroqlari tinmadi: kishilar ofat ko'lamini aniqlamoqchi va unga qay tarzda qarshi turish mumkinligini bilib olmoqchi edi. Sodir bo'layotgan voqealar haqqoniyligi borasida hech kim bosh ham qotirmadi, vaholanki, soat boshidagi dasturda bu "Dunyolar kurashi" instsenirovkasi ekani va roman matniga jiddiy o'zgartirishlar kiritilmagani xabar qilingan edi. Bu voqea radioinstsenirovkaning kishilar psixologiyasiga ta'sir kuchini anglashga yordam beradi.

Radioteatr rivojlanishidagi qiyinchiliklar borasida nemis shoiri va dramaturgi Gyotening "Egmont" asarining milliy radiodagi instsenirovkasi bilan bog'liq voqea dalolat beradi. Urusholdi vaqtda O'zbekiston rahbariyati uchun yoshlarda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash muhim edi. Gyote qalamiga mansub zo'ravonlikka qarshilik, mustaqillikka chaqirik ruhiga yo'g'rilgan pyesa esa bu maqsadlarga juda mos keldi. "Egmont" tragediyasidagi "Zindonda" sahnasini ijro etishga qaror qilindi. Nemis adibining asaridan parchani tarjima qilish Usmon Nosirga, bosh qahramon monologi esa – buyuk aktyor Abror Hidoyatovga topshirildi"[2]. Lekin radioinstsenirovkaga tayyorgarlik jarayonida repressiyalar natijasida Usmon Nosir hibsga olindi, ish to'xtab qoldi. Ma'lum vaqt o'tgach, boshqa arxiv hujjatlari guvohlik berishicha, Abror Hidoyatov monospektaklga ovoz berdi, lekin undan matnni kim tarjima qilgani sir tutildi. E'tiborlisi, 50-yillarda respublika radiosida "Egmont" tragediyasiga yana murojaat qilindi. Betxovenning o'lmas musiqasi fonida graf Egmont monologini Ubay Burxon a'lo darajada ijro etdi. Radiopostanovka radiotinglovchilar orasida shunday katta muvaffaqiyat bilan kutib olingani, 60-70-yillarda ham uni mamlakat radiokanallari efir setkasiga bir necha bor kiritishgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida radioteatr nisbatan sust rivojlanib bordi, asosiy resurslar axboriy-targ'ibot va musiqaviy eshittirishga yo'naltirilgan edi. Aksariyat aktyorlar frontga chiqishlar bilan qatnardi. Shunga qaramay, bu vaqtda Turob To'la "Vatan qizi" radiopyesasini yozdi, u o'zbek ayollarining urush yillarida ko'rsatgan jasoratlariga bag'ishlangan edi. Ushbu radiopyesa asosidagi radiospektakl 1943-yilda efir yuzini ko'rdi.

Urush yillarida Toshkent teatrlari sahnalarida Moskva, Leningrad, Kiyev truppalari chiqish qilardi. Masalan, Toshkentda ikki mavsum V.Mayakovskiy nomidagi Moskva Revolyutsiya teatri o'ynadi. Respublika radiosi efirida ham Mariya Babayeva, Osip Abdulov, Solomon Mixoels va boshqalar ijrosidagi spektakllar parchalari tez-tez yangrab turdi. 1942-yilda efirga chiqqan "Moskvada bahor" spektakli radioversiyasi tinglovchilar tomonidan o'zgacha iliqlik bilan kutib olindi.

Urushdan keyingi ilk yillarda radioteatr rivojidadagi o'zgacha burilish yasagan voqea Aleksey Tolstoyning "Oltin kalit" ertagining 1949-yilda chiqqan postanovkasi bo'ldi"[3]. Bu radiospektakl radioteatni alohida mahorat darajasiga ko'tardi. Ovoz ko'pincha yomon bo'lardi, tasma chaynalib qolardi, lekin rejissyor Roza loffe bu o'ziga xoslikdan ijodkorlik maqsadlarida foydalanish yo'lini o'ylab topdi. Shu tariqa bugun ham radioeshittir-

ish amaliyotida keng foydalaniladigan usul – “buratino effekti” (magnit tasmasini tezlashtirish yoki sekinlashtirish) paydo bo’ldi. Mazkur radiospektaklning yana bir o’ziga xos jihati shundaki, rejissyorning yangicha g’oyasi bilan, bir aktyor — Nikolay Litvinov — spektaklda barcha rollarni ijro etdi.

Radioteatr chin ma’noda gullagan davr 50-60-yillarga to’g’ri keladi. Monospektakllar – bir aktyor ishtirokidagi postanovkalar – ommalashdi. Dramaturgik eshittirishning ushbu shakli ilk bor V.N. Yaxontov tomonidan amalga oshirildi, uni bir aktyor teatri asoschisi deb tan olishlari bejiz emas”[4].

O’zbekiston radiosida eng yorqin monospektakllar sirasiga O’zSSR xalq artisti Yayra Abdullayeva tomonidan ijro etilgan “Medeya” va “Monolog” (Zulfiya qalamiga mansub) kiradi.

Radioda aynan shu davrda “Mikrofon qarshisida teatr” rukni joriy etildi. Rukn doirasida Komil Yashin (“Hamza” pyesasi), Uyg’un (“Kapalak” pyesasi), Oybek (“Bolalik” qissasi asosida) asarlari asosida radioinstsenirovkalar berib borildi. 1953-yilda Toyir Yunus rejissyorligida Hamzaning “Boy ila xizmatchi” pyesasi “sahnalashtirildi”.

1957-yilda tashkillashtirilgan va Hindistonning o’z mustaqilligi uchun ozodlik kurashi haqida bayon qiluvchi Sharof Rashidovning “Kashmir qo’shig’i” qissasining radioinstsenirovkasi keng muhokamalarga sabab bo’ldi”[5].

Alohida ta’kidlash joizki, o’zbek adiblarining ba’zi asarlari ittifoqdosh respublikalar radiolarida radioinstsenirovkalar yaratishda asos qilib olindi. 1959-yilda Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasi asosidagi radiospektakl Moskva radiosida rejissyor Boris Golubovskiy rahbarligida tayyorlandi. Urushdan keyingi o’zbek qishlog’ining mashaqqatli kunlari, byurokratizmga qarshi kurashda inson xarakterlarining shakllanishi haqida tinglovchilar Lev Sverdlin, Eduard Martsevich, Raisa Gubina va boshqa aktyorlarning mahoratli ijrosi orqali bilib olishdi.

70-80-yillarda radioteatr rivoji O’tkir Hoshimov (“Dunyoning ishlari”, 2-qism), O’lmas Umarbekov (“Qiyomat qarz”, “Odam bo’lish qiyin”), Dadaxon Nuriy (“Begona”) va boshqalar kabi zamonaviy mualliflar asarlarini instsenirovkasi tomon davom etdi.

O’sha vaqt radioteatri zamonaning dolzarb muammolari, ma’naviyat masalalariga diqqati bilan xarakterlanadi. Radioinstsenirovkalar ko’pincha murakkab shakldagi dasturlar, xususan, radiojurnallar, radio-kompozitsiyalar ichiga kiritiladi. Shu vaqtgacha respublika faxriylari “Dugonalar”, “Tabassum” radiojurnallari, “Vatandosh” studiyasi turkum dasturlariga kiritilgan mini-instsenirovkalarni iliq xotiralar bilan eslaydilar.

Ayni shu davrda radioasarlarga ovoz berishga Temurmaliq Yunusov, Yoqub Ahmedov, Gulchehra Jamilova va boshqa sahna ustalari jalb etila boshladi.

Shu yillarda radioteatr taraqqiyoti haqida fikr yuritganda ko’p yillar respublika radioqo’mitada ishlagan rejissyor Mastura Is’hakova ijodi haqida aytib o’tish kerak. U kishi yozib olgan N.Dumbadzening “Abadiyat qonuni”

romani, A.Kuprinning “Anor bilakuzuk”, “Dunyo xalqlari ertaklari” radiospektakllari, ko’plab nazmiy kompozitsiyalar O’zbekiston radiosi “Oltin fond”ga kirgan.

Radio rivojiga davlat dotatsiyalarining qisqarishiga sabab bo’lgan teleradio detsentralizatsiyasi badiiy eshittirish hajmining ixchamlanishiga olib keldi. Yaxshi radiospektakllar o’rnini ko’proq radioasarlarga sharhiga o’xshab ketadigan qisqa instsenirovkalar egalladi. Shunga qaramay, bu davrda O’zbekiston komso-mol markaziy ko’mitasi qoshidagi “Yoshlik” radioteatri doirasida yosh mualliflar asarlari asosida radiopostanovkalar qo’yib boriladi.

Milliy radioteatr rivojidagi yangi bosqich 2000-yil-larga to’g’ri keladi. Yangi asr boshidayoq 90-yillarning oxirida paydo bo’lgan nodavlat radiostantsiyalar radio-san’atni egallashda novatorlikni namoyon qila boshladi. Shu davrda radiostantsiyalarda “Taqqirdar” (“Grand”, 2000), “Shahar bekatlari” (“O’riat Dono”, 2001) kabi radioseriallar tinglovchilar e’tiboriga havola etildi. Mazkur turkumlarning o’ziga xosligi nafaqat ma’naviy qadriyatlar tizimining parokanda bo’lishi, katta avlodlar bilan munosabatlar, “ertangi kunga ishonch”ning yo’qligi singari yoshlar uchun dolzarb muammolarni ko’tarishda, balki ushbu loyihalarni radio ichki resurslari yordamida amalga oshirishga intilishda edi. O’ziga xos uslubni izlashda xususiy radiostantsiyalar radioseriallarga musiqiy bezak berishda tajriba o’tkazishdan, ovozli effektlarni kombinatsiya qilishdan cho’chimas edi. Radiopostanovkalar personajlarining “yirik plan”larini ovozli bezaklashdan, “ovozli mizanstsena”lardan unumli foydalanishda ularning hissasi katta.

“O’riat Dono” radiosining dramaturglar va yozuvchilar bilan hamkorlik tajribasi ham e’tiborga molik. 2012-yilda radiostantsiya rahbariyati va yozuvchi Tohir Malik o’rtasida o’sha vaqtda hali dunyo yuzini ko’rmagan “Halovat” asarining radioinstsenirovkasi haqida kelishuv imzolandi. Natijada, “Ramazon fonusi” rukni ostida 30 qismlik radioloyiha tayyorlandi. Matnni O’zbekiston xalq artisti Afzal Rafiqov o’qidi. Radiopostanovka tinglovchilar tomonidan iliq kutib olindi, ularning iltimosiga ko’ra u bir necha bor efirga takror uzatildi. Mazkur badiiy radioloyihaning musiqiy bezagi alohida sinchkovlik bilan tanlandi. Musiqiy fon sifatida “Segoh”, “Cho’li Iroq”, “Bayot”, “Chorgoh” va boshqa mashhur mumtoz kuylaridan foydalanildi, milliy musiqiy asboblardan – tanbur, sato, ud, nayning “jonli” ijrosi keng qo’llanildi.

Bugun radioteatr asta-sekinlik bilan bo’lsa-da, O’zbekiston radiokanallari eshittirishlarida o’z o’rnini yo’qotib boryapti. Bozor tijoriylashuvi sharoitida “mikrofon oldidagi teatr” ko’p mablag’ talab etuvchi va norentabel ekani ravshan bo’lmoqda. Uni monetizatsiyalash usullari hanuz o’ylab topilmadi. Ayni damda to’laqonli radiospektakllarni faqat davlat radiokanallar efirida kuzatish mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy bozorda radioteatrning jiddiy raqibi – audiokitoblar paydo bo’ldi. Ularni yozib olish nisbatan kam vaqt va mablag’ talab etadi. Shuningdek, mualliflik huquqiga talablar tubdan o’zgardi va sezilarli qat’iylashtirildi, bu o’z navbatida, radiospektakllar va radioinstsenirovkalar ijodkorlari uchun

yana bir to'g'on bo'ldi.

Shunga qaramay, milliy radiokanallar eshittirish dasturlarida "Teatr mikrofon oldida" ("Mahalla") – har kuni soat 23.00da, "Radioteatr" ("O'zbekiston") – har kuni 23.00da, "Radioteatr" ("Yoshlar") – seshanba va chorshanba kunlari 23.30da efirga uzatiladi. «Yoshlar» kanalida har kuni soat 21.00 da «Bor ekanda, yo'q ekan...» radioertaklari yangraydi. Teatr klassikasi va zamonaviy dramaturgik asarlarning yuqori namunalari vatandoshlarimiz, ayniqsa, yoshlar orasida targ'ib etishning ahamiyatini anglagan holda "O'zbekiston", "Yoshlar", "Mahalla" kanallari jurnalistlari "Radioteatr" va "Teatr mikrofon qarshisida" ruknlari doirasida P. Qodirovning "Gavharshodbegim", Ch. Avaz va S. Ahmedovning "XV asr afsonasi", "Alpomish" (M. Qo'shmoqov instsenirovkasi) va ko'plab boshqa tarixiy postanovkalarni yaratishdi. Umummilliy kanallar efirida O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "Oltin fondi"dan o'rin olgan radiopostanovkalar, radiospektakllar tez-tez efirga uzatiladi. So'nggi yillarda audiokitoblarga ham alohida e'tibor qaratila boshladi. Masalan, «O'zbekiston» kanalida kuniga ikki marotaba «Radiokitob» rukni uzatiladi (05.00 va 15.30da). Radiokanaldagi ushbu yangilik tufayli tinglovchilarda nafaqat klassika va zamonaviy adabiyot bilan tanishish, balki yozuvchilar va shoirlar yaratayotgan ajoyib obrazlar olamiga sho'ng'ish imkoniyati paydo bo'ldi.

Radiospektakllar va radioinstsenirovkalarning boy merosini saqlab qolish borasida xorijiy eshittiruvchilar tajribasi e'tiborga loyiq. Masalan, Rossiyaning BK-MTGGK studiyasi «Maystra» ovoz yozish studiyasi bilan hamkorlikda 2003-yildan bugunga qadar Davlat teleraudiofondagi sovet radiospektakllarini raqamlashtirish bilan shug'ullanib keldi. Natijada, «Radiospektakllar oltin fondi» turkumi yaratildi» [6]. U 10 qismdan iborat bo'lib, bu to'plamning tugal hajmi emas, avvalgi yillar radiopostanovkalari tasmlari ustida ish bugun ham davom etyapti.

Fikrimizcha, O'zbekiston radioeshittirishi "Oltin fondiga" kirgan milliy radioasarlarning raqamlashtirilishi borasidagi faoliyat ham ayni muddao bo'lar edi. Bu, nazarimizda, o'sib kelayotgan avlodga jahon va milliy madaniyat, san'atga qiziqishni faollashtirib, ularda badiiy va estetik did shakllanishiga, o'tmish merosiga ehtirof paydo bo'lishiga sabab bo'lardi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, nazarimizda, radio yana uzoq vaqt teatr va adabiyotdan quvvat oladi. Radio o'z tabiatiga ko'ra dramaturgik xarakterga ega. Lekin zamonaviy sharoitda u yangi asosda bo'lsa-da, o'tmish tajribasini takrorlay olmaydi. Badiiy eshittirish, shu jumladan, radioteatr imkoniyatlari shu bilan cheklanmaydi, uning o'ziga xos yo'lida bizni yana ko'plab kashfiyotlar kutmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. Гаг Н. А. Радиотеатр в системе жанров радио: исторический и культурологический аспекты: диссертация ... кандидата филологических наук: 10.01.10. Воронежский государственный университет. - Воронеж, 2014.
2. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/iogann-gyote/gyote-egmont-tragediyadan-parcha/>
3. <http://staroeradio.ru/audio/3578>
4. <http://teatr-lib.ru/Library/Yahontov/one/>
5. <https://sputniknews.uz/20231003/sharof-rashidov-biografiya-39547973.html>
6. <https://monateka.com/article/261219/>

Gulchehra IMOMOVA,
QarshiDU Filologiya fanlari doktori

BADIIY SINTEZNING JANRLARARO TAFOVUTI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: mazkur hikoyada badiiy sintez va uning turli janrlarda voqe bo'lish imkoniyatlari bir xil emasligi tahlillarda ko'rib chiqildi. Lirik janrlarda badiiy sintez nihoyatda sermahsul ekanligini ko'rish qiyin emas. Cho'lpon, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva kabi shoirlar ijodida lirik sintezning go'zal namunalari ko'ramiz.

Epik janrlarga kelganda shuni ochiq aytish kerakki, roman va qissa janrlarida yetuk badiiy sintez namunalari obraz miqyosidagina amalga oshirilgan. Bu maqolada mavzu yuzasidan A.Qahorning "Bashorat" hikoyasini tahlil qilishga urindik.

Kalit so'zlar: janr, sintez, tafovut, lirik, epik, obraz, xarakter, konflikt, pafos, hikoya.

Annotation: in this story, the possibility of artistic synthesis and its occurrence in different genres is not the same. It is not difficult to see that artistic synthesis in lyrical genres is extremely fruitful. We see beautiful examples of lyric synthesis in the work of poets such as Cholpon, Usman Nasir, Hamid Olimjon, Gafur Ghulam, Erkin Vahidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Halima Khudoyberdiyeva.

When it comes to epic genres, it should be clearly stated that in novel and short stories, examples of mature artistic synthesis were realized only on the scale of the image. In this article, we tried to analyze the story «Prophecy» by A. Qahhor.

Key words: genre, synthesis, difference, lyric, epic, image, character, conflict, pathos, story.

Shu o'rinda badiiy sintez va uning turli janrlarda voqe bo'lish imkoniyatlari bir xil emasligini alohida qayd etib o'tish zarur. O'zbek realistik adabiyoti janrlariga nazar tashlansa, lirik janrlarda badiiy sintez nihoyatda sermahsul ekanligini ko'rish qiyin emas. Cho'lpon, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva kabi shoirlar ijodida lirik sintezning go'zal namunalari ko'ramiz.

Аннотация: в этой рассказе возможность художественного синтеза и его возникновение в разных жанрах неодинакова. Нетрудно видеть, что художественный синтез в лирических жанрах чрезвычайно плодотворен. Прекрасные примеры лирического синтеза мы видим в творчестве таких поэтов, как Чулпан, Усман Насир, Хамид Олимджон, Гафур Гулям, Эркин Вахидов, Абдулла Орипов, Рауф Парфи, Халима Худойбердиева.

Говоря об эпических жанрах, следует четко сказать, что в романе и рассказах примеры зрелого художественного синтеза реализовывались лишь в масштабе изображения. В этой статье мы попытались проанализировать рассказ А. Каххора «Пророчество».

Ключевые слова: жанр, синтез, различие, лирика, эпопея, образ, персонаж, конфликт, пафос, сюжет.

Epik janrlarga kelganda shuni ochiq aytish kerakki, roman va qissa janrlarida yetuk badiiy sintez namunalari obraz miqyosidagina amalga oshirilgan. Biz bunga yuqorida buyuk adibimiz Chingiz Aytmatovning «Sohil bo'ylab chopayotgan olapar» qissasining tahlilida amin bo'ldik.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, qirg'iz adabiyotida roman va qissa janrlarida badiiy sintezning nodir namunalari faqat Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissasi, «Asrga tatigulik kun», «Qiyomat» romanlarida yaratildi.

Bu darajadagi badiiy sintez o'zbek yirik epik asarlarida ham bo'y ko'rsatdi. Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani, Abdulla Qahhorning «Sinchalak» qissasi, O'tkir Hoshimovning hikoyalardan iborat qissalari fikrimizning dalilidir. Bu katta epik janrlardagi badiiy sintezni tahlil qilish alohida muammoga mavzu bo'ladi.

Albatta, keyingi yillarda o'zbek adiblaridan Xurshid Do'stmuhammad o'zining «Bozor» romanida, Shoyim Bo'tayev «Shamol o'yini» qissasida badiiy sintez qilishga intildilar. Ammo ularning bunday tajribalari g'oyaviy-badiiy jihatdan o'zini to'la oqlay olmadi.

O'zbek hikoyachiligiga nazar tashlansa, XX asrning 20-yillaridan tortib hozirgi taraqqiyot bosqichiga qadar badiiy sintezning rang-barang qirralari yaratilganligining guvohi bo'lamiz. Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzayev, Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad kabi adiblar asarlari fikrimizni to'la tasdiqlaydi.

Demak, o'zbek nasrining hikoya janrida badiiy sintez qo'llash imkoniyatining boyligi bilan boshqa janrlardan alohida ajralib turadi.

Biz, o'zbek realistik hikoyachiligining ibtidosidan tortib hozirgi taraqqiyot bosqichiga qadar bo'lgan davrida mazkur janrning sintezlash imkoniyatlarini bevosita adiblarning g'oyaviy-estetik konsepsiyalarini rivojlanish tamoyillari bilan bog'liqlikda o'rganishga harakat qilamiz.

Abdulla Qahhorning «Bashorat» (1936) hikoyasi ayni qatag'on yillari yozilgan. Hikoyadagi real voqelik bilan diniy qarashlar sintezi haqida keyinroq batafsil to'xtalamiz. Bu o'rinda faqat shuni aytish mumkinki, hi-

koyadagi g'oya ko'knori Said Jalolxon tilidan emas, balki xushyor kishi tilidan aytilganda edi, Abdulla Qahhor davr siyosatiga, tuzumiga qarshi fikrlovchi ijodkor sifatida qoralanishi shubhasiz edi. Buni yaxshi bilgan adib ko'knorilar ustidan kulish niqobi ostida yangi tuzumga, siyosatga xos nuqsonlarni hajv ostiga oladi.

Hikoya mamlakatda siyosiy qatag'onlar avj olgan bir davrda – 1936-yilda yozilgan. Ayni shu davrlarda o'zbek xalqini paxta yakka hokimligi niqobi ostida iqtisodiy va siyosiy jihatdan hukmron mafkura quliga aylantirish harakati boshlangan edi. Mohiyat e'tibori bilan paxta yakka hokimligi siyosati xalqimizning og'ir kulfatlarga, og'ir iqtisodiy turmush tarziga giriftor etishning bir yo'li edi. Bu narsaning qanchalar dahshatli oqibatlariga olib kelishi faqat XX asrning 80-yillariga kelib ayon bo'ldi.

Abdulla Qahhor esa bu voqealarni 30-yillardayoq chuqur anglab yetgan edi. Ammo mafkuraning qayralgan qilichi unga o'z noroziligini ochiq bayon etishga izn bermas edi. Biroq ijodkor mas'uliyati va burchi unga jim o'tirishga ham yo'l bermas edi. Nohaq siyosat va unga qarshi turuvchi ijodkor vijdoni adibni mafkuraviy badiiy sintez orqali norozilik bildirishga da'vat etdi. O'z g'oyasini ko'knorining xomxayollari orqali ifodalash imkoni adibning barcha tahlikalar xavfidan qutqarib qoldi. Mantiqan olib qaralsa, ko'knorining xayoliga nimalar kelmaydi, deysiz? Ana shu xayollar pardasiga o'zining g'oyaviy-estetik bahosini yashirish adib tomonidan kashf etilgan badiiy shakl vazifasini o'taydi.

Bu narsaga alohida urg'u berish maqsadida Abdulla Qahhor ushbu hikoyasiga «Ola qarg'a qag' etadi, o'z vaqtini chog' etadi» xalq maqolini epigraf sifatida keltiradi. Haqiqatan ham, ola qarg'aning «qag'» etishi o'z kayfini chog' etishdan boshqa narsani anglatmaganidek, ko'knorining ham xayol surishi ma'nisiz narsadir. Ana shu tariqa adib asarning bosh g'oyasini hayotiy sabablar bilan pishiq va puxta pardalashga erishadi.

Said Jalolxon pashshalar podshosining ko'magi bilan ko'rinmas odamga aylanib, kolxoz raisini qo'rqitib paxta o'rniga ko'knor ekishga ko'ndiradi. Bu adib ko'zlagan hikoya bosh g'oyasining ifodasidan iborat edi. Ammo mazkur g'oya qanchalar pardalanmasin, un-

ing tub mohiyati aniq bilinib turadi. Shu bois mafkuraviy badiiy sintezning ushbu qatlamiga ikkinchi bir voqeani sintezlab yuboradi.

Bu voqea esa pashsha yordamida Said Jalolxonning xon qilib ko'tarilishi, mulla Shamsiddinning unga vazir etib tayinlanishi hamda ularning birgalikda adadsiz qo'shin bilan g'azotga o'tlanishlaridan iborat. Said Jalolxonning otdan qulashi va hushidan ketishi, mulla Shamsiddin yordamida ko'mir tutuniga to'lgan uydan tashqariga chiqib o'ziga kelishi mafkuraviy sintezning birinchi qatlamidagi qaltis siyosiy g'oyani biroz bo'lsa-da, yashirishga yordam beradi. Chunki 20-yillarda yo'qqa chiqqan g'azot g'oyasi Said Jalolxonning xomxayollarida qayta jonlangan edi.

Adib mafkuraviy sintezning bir qatlamidan ikkinchi qatlamiga o'ziga xos badiiy detallar vositasida o'tadi. Bu detallar esa ramziy xarakterga ega bo'lib, ular Said Jalolxon xayolida kechayotgan voqea-hodisalarni makoniy va zamoniy jihatdan bir-biriga bog'lashga xizmat qiladilar. Masalan, Said Jalolxonning cho'l-biyobonda paydo bo'lishi, allaqayerdan topilgan temir qozonning toshbaqa tuxumi ustiga to'nkarilib qo'yilishi, qozon ustida pashshaning somon cho'pini ushlab turishi, qozon atrofida toshbaqaning aylanishi va qozonning parchalanib, toshbaqa bilan tuxumning yo'q bo'lishi ko'knori xayolining mohiyati puch ekanligini ko'rsatadi. Chunki toshbaqa yurishidek sekin o'tuvchi vaqt natijasida somon cho'pining temir qozonni parchalab yuborishi Said Jalolxonning orzulari ko'knori xayolidan boshqa narsa emasligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqilsa, hikoyaning "Bashorat" deb nomlanishi kinoyali ramziy ma'no kasb etadi. Modomiki, hikoya ikki qatlamli badiiy sintezdan tashkil topgan ekan, ushbu qatlamlardan qaysi biri adibning badiiy konsepsiyasini ifodalashda dominantlik (ustuvorlik) qiladi degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Chunki ko'pqirrali mafkuraviy sintezda barcha qatlamlarning bir xilda vazifa ado etishi mumkin emas. Ana shu nuqtai nazardan qaralsa, hikoyadagi birinchi qatlam adibning g'oyaviy-badiiy konsepsiyasini ifodalashda muhim o'rin tutadi. Binobarin, hikoyadagi badiiy sintezning birinchi qatlamli dominantlik vazifasini o'tagan. Ikkinchi qatlam esa birinchi qatlamning mohiyatini yashirishga, pardalashga xizmat qiladi.

Hikoyaning nihoyasida mulla Shamsiddin tilidan "Bu bir bashorat"¹ deyilishi badiiy sintezning ikkala qatlamli mohiyatini ochishga yordam beradi. Birinchi qatlam mohiyati vaqtlar kelib xalq o'zi egalik qilgan yerlarga o'zi istagan ziroatlarni eka olish huquqini qo'lga kiritadi, degan fikrni olg'a surishdan iborat edi. Bu bashorat milliy istiqloq tufayli amalga oshdi.

Ikkinchi qatlam mohiyati esa birinchi qatlamdagi mafkuraviy e'tirozni yashirib turuvchi vosita vazifasini o'taydi. Chunki kishilar o'rtasida nifoq tug'diruvchi har

qanday diniy, milliy nizolar mohiyati puch harakatdan iboratligi tarixan sinalgan narsadir.

"...davrlar o'tishi bilan olamning yangidan yangi qirralarini muttasil kashf qilib boruvchi ijodkorga anglangan va his etganlarini ifodalash uchun o'zi faoliyat yuritayotgan san'at imkoniyatlari kamlik qilib qolishi mumkin. Shu bois ham u san'at turlari o'rtasidagi chegaralarni "buzib" o'tib, o'z ijodiy niyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy-ruhiy ehtiyojlarini qondirishning yangi imkonlarini topishga urinadi. Ayni shu joyda san'at turlari aro sintez hodisasi sodir bo'ladi.

Yana bir san'atshunos A.Zis san'atlar taraqqiyoti ikki turli tendensiya asosida kechishini ta'kidlaydi. Ularning birinchisi "sintezga moyillikdan iborat" bo'lsa, ikkinchisi "har bir alohida san'atning mustaqilligini saqlab qolish"ga intilishda namoyon bo'ladi. Ko'rinadiki, san'at taraqqiyotida badiiy sintezning o'rni beqiyos, san'atlar rivoji bevosita badiiy sintez jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda kechadi. Shunday ekan, san'atni anglashda badiiy sintezni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, muayyan asar taqdim qilayotgan go'zallik, aslida, bir necha san'at turlarining hamkorligida yaratilgan bo'lishi, ijodkor ifoda mukammalligiga erishish yo'lida badiiy sintez imkoniyatlaridan samarali foydalangan bo'lishi mumkin² va bularning barchasi badiiy obraz yaratish bilan bog'liq hodisa.

Inson ongining yuksala borishi, mana shu asosda ijtimoiy-badiiy ongning taraqqiy etishi asta-sekin voqelikni ongli tarzda in'ikos ettirishga olib keldi. Mana shundan haqiqiy ongli badiiy ijod – badiiy obraz yaratish, binobarin, dastlab sinkretik san'at, keyinroq san'at turlari vujudga kelishiga olib keldi. Asta-sekin inson o'zi yashab turgan dunyo mohiyatini, o'zi mansub urug' yoki qabila, elat va xalqlar, shuningdek, yakka insonlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettirishga, shu orqali voqelikka, inson ruhiga ta'sir etishga intildilar. Kishilar o'rtasidagi nisbatan iqtidorli shaxslar o'zlari mansub bo'lgan urug' yoki qabila, elat yoki xalq ongini, qalbini chulg'ab olgan ezgu istaklarini, dard va quvonchlarini ifodalovchi obrazlar, asarlar yaratdilar. Bunda ular, bir tomondan, o'zlarigacha yaratilgan va og'izdan-og'izga o'tib yurgan miflardan, mifik obrazlardan ijodiy foydalandilar, ularni o'z davrlarining talab va ehtiyojlariga moslab qayta ishladilar. Mana shu tariqa umuminsoniy badiiy qadriyatlar vujudga keldiki, ularni biror xalq, biror millat faqat mening mulkim deb da'vo qila olmaydi, ular butun bashariyat ravnaqi uchun bir xilda samimiyat bilan xizmat qiladilar.

Qadimgi bobolarimiz og'zaki ijodidagi obrazlarda inson ruhining qorong'u go'shalari, dilidagi murakkab kechinmalari va tuyg'ularning barchasi, "qalb dialektika"si realistik adabiyotdagidek chuqur ochilmagan. Chunki xalq og'zaki badiiy ijodida tasvir va ifoda vositalari yozma adabiyotdagidek behisob emas. Bundan tashqari,

¹ Қаҳҳор А. Асарлар: V жилдлик, I жилд. Сароб. Роман. Хикоялар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 301.

² Қаранг; Қуроноф С. Эгиз санъатлар (Шеърят ва рангасвир синтезига доир). – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 7-8.

xalq og'zaki badiiy ijodida tasvir hamda ifoda usullari, tamoyillari muayyan darajada qolip (klishe)lik xususiyatiga ega. Tasvir va ifoda vositalaridagi bunday xususiyat qadimgi ajdodlarimiz ongidagi inson ruhiyati va qalb kechinmalari, kiyinishi va xatti-harakati bir xilda kechadi, degan tasavvur tufayli vujudga kelib, asrlar mobaynida ijodiy aktlardan qayta-qayta o'tib, qotib qolgan.

Xalq ijodi voqelikni, inson ruhini baholashda o'rtamiyona darajalarni bilmaydi, u bu masalada qat'iy bir-biriga zid ikki xil bahoni biladi: ezgulik, ya'ni yaxshi va yovuzlik, ya'ni yomon. Butun voqelikni, inson va uning hayotini, ruhini mana shu ikki binar oppozitsiyadagi estetik qiymatning doimiy kurashidan iborat, deb biladi. Biroq bu holat badiiy obrazni tashkil etuvchi voqelik hamda kishilar xatti-harakatidagi, dili va ongidagi mohiyatini aks ettirish yoki ifodalash kabi estetik qonuniyatdan folklor mahrum, degan xulosaga kelishga imkon bermaydi. Aksincha, asrlar qa'ridan bizga nur sochib, ongimiz va ruhimizni parvozga undab turgan ajdodlarning badiiy obraz, binobarin, badiiylik haqidagi tasavvurlarini ular yaratgan badiiy obrazlar mohiyati, vazifasi, me'yori, shakli va estetik darajasini belgilashda bebaho mezon sifatida qaraymiz.

Badiiy obraz tabiatida keyingi davrlardagi o'zgarishlar, boyish va to'lishishlar badiiy obraz – obrazlilik – badiiylik ham tarixiy harakatdagi falsafiy-estetik kategoriya ekanligidan dalolat beradi.

Badiiy obraz voqelikning, inson ruhining mohiya-

tini, yetakchi xususiyatlarini ijodkorning estetik ideali nuqtayi nazaridan butun murakkabligi bilan qamrab olgan holda aks ettirishga yo'nalgan bo'ladi. Biroq uning bu yo'nalishda qay darajaga erishganligi masalasi badiiy mahorat deb atalmish alohida muammo bo'lib, u, umuman, adabiyotshunoslikning doimiy muammosi bo'lib qoladi.

Bu o'rinda estetik ideal masalasiga qisqacha to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Ko'pgina tadqiqotchilar fikricha, estetik ideal ijodkorning mukammal go'zallik nuqtayi nazaridan yaratgan obrazlarida o'z ifodasini topadi, deb qaraydilar. Bu, asosan, to'g'ri mezon. Ammo shuni ham yoddan chiqarmaslik lozimki, mutlaqo go'zallik qamrab olinmagan, balki faqat estetikaning xunuklik kategoriyasi o'lchovlari doirasida yaratilgan obrazlar tashakkulida ham estetik ideal ishtirok etadi.

Bunda ijodkorning estetik ideali – go'zallik kategoriyasi yashirin holda xunuklik kategoriyasini baholash vositasi sifatida ishtirok etadi. Chunki hajviy asarlardagi yoki o'zga pafosdagi asarlarda fosh etilajak obrazlarning xunuklik, razillik darajasi ijodkor ongida yashiringan, hayotiy estetik ideal o'lchovi orqali baholanib boriladi. Xunuklik va go'zallikdan iborat bo'lgan bu ikki mezon esa kitobxon ongida ularga mos pafosning qay darajada mavjudligi orqali qabul qilinadi va baholanadi.

Demak, badiiy sintezning janrlararo tafovuti va uning o'ziga xosligi ijodkorlarning estetik ideali va mahoratlari bilan bog'liq hodisa.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пришвин М. Записи о творчестве// Контекст. 1974. Литературно – теоретические исследования. – М.: Наука, 1975. – С. 347.
2. Климович Л. «День страшного суда» Абдурауфа Фитрата// Климович Л. Наследство и современность. – М.: Советский писатель, 1971. – С. 124-136.
3. Қаҳҳор А. Асарлар: V жилдлик, I жилд. Сароб. Роман. Ҳикоялар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 301.
4. Қуронов С. Эгиз санъатлар (Шеърят ва рангасвир синтезига доир). – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 7-8.

Husniddin NORQULOV,

*“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
bo'lim boshlig'i, ped.fan.nomzodi, dotsent*

O'SMIR-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MODDIY QADRIYATLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: maqolada sharq xalqlari tarixi va turmush tarzida eng avvalo qadriyatlar doimo boyitilib, ma'naviyat orqali singdirilganligi va bu o'smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda juda muhim ekanligi qayd etilganligi, moddiy qadriyatlar o'smir-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlanishida ham iqtisodiy jihatdan ehtiyojlarini qondirishga, ta'minlashga xizmat qiladigan, ota-bobolar tomonidan shakllantirib kelinadigan moddiy resurslardan iboratligi keltirilgan. Shuningdek, o'smir-yoshlarga barcha qadriyatlarni to'g'ri singdirmay turib oilaviy hayotga tayyorlashda ko'zlagan maqsadga erishib bo'lmasiligi va bu jarayonda ota-onalarning o'rni yuqori ekanligi kabi masalalar bildirilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: qadriyatlar, moddiy qadriyatlar, urf-odatlar, o'smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, mahalla, oila, ota-onalar, oilaning moddiy ta'minlanganligi, moddiylik va ma'naviyat.

Annotation: in the article, it is noted that in the history and lifestyle of the peoples of the East, first of all, values are always enriched and instilled through spirituality, and this is very important in preparing teenagers for family life. It is stated that it consists of material resources formed by ancestors. It is also important that the goal of preparing for family life cannot be achieved without properly instilling all the values in the teenagers and that the role of parents in this process is high.

Key words: values, material values, traditions, preparation of teenagers for family life, neighborhood, family, parents, material security of the family, materiality and spirituality.

Аннотация: в статье отмечается, что в истории и образе жизни народов Востока, прежде всего, ценности всегда обогащаются и прививаются через духовность, а это очень важно в подготовке подростков к семейной жизни. Утверждается, что оно состоит из материальных ресурсов, сформированных предками. Важно и то, что цель подготовки к семейной жизни не может быть достигнута без должного привития подросткам всех ценностей и что роль родителей в этом процессе высока.

Ключевые слова: ценности, материальные ценности, традиции, подготовка подростков к семейной жизни, соседство, семья, родители, материальная обеспеченность семьи, материалность и духовность.

Insoniyat yaratilibdiki, uning tili, urf-odatlarini, an'analari, dini, madaniyati, ezgulikni ifodalovchi ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ham asta-sekin paydo bo'la boshlagan. Ularning umr mazmunida xalqning turmush tarzi, o'y-xayollari, ruhiyati, ma'naviyati, madaniyati va qadriyatlarini ham aks etgan. O'zbek xalqi barcha davrlardan ham sabr-bardosh, chidamlilik, kelajakka ishonch ruhi bilan yashab, qadriyatlarining barcha qiralarini saqlab qolganligi va uni bugungi kun avlodlariga yetkazganligi bilan ahamiyatlidir. Aynan shu qadriyatlarimiz orqali jamiyat hayotining uyg'unligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Yangi O'zbekistonda ma'naviyat va ma'rifat masalalari yanada dolzarb bo'lib, davlat siyosati darajasida olib borilmoqda. Bu borada ham Prezident Shavkat Mirziyoyevning **"...jamiyat hayotining tanasi iqtisod bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir"** [1] – degan g'oyasi yangi O'zbekistonda kuchli iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda xalqlarning milliy, ma'naviy va moddiy qadriyatlarini e'zozlash hamda yanada boyitish bilan komil insonni tarbiyalash orqali o'smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Agar sharq xalqlari tarixi va turmush tarziga e'tibor beriladigan bo'lsa, eng avvalo qadriyatlar doimo qadrlanib, boyitilgan va bu o'z navbatida ma'naviyat orqali singdirilgan. Chunki, o'smir-yoshlarda kuchli e'tiqodni to'g'ri shakllantirmay turib, qadriyatlarni to'g'ri singdirmay turib ko'zlagan maqsadga erishib bo'lmaydi. Bashariyat uchun eng muhim bo'lgan, ya'ni vatanparvarlik, elparvarlik, tinchlik, erkinlik, adolat, ijtimoiy tenglik, madaniyat va ma'rifat, haqiqat, ezgulik, or-nomus, yaxshilik, go'zallik, moddiy, ma'naviy boyliklar, an'ana va urf-odatlar ham qadriyatlar hisoblanadi. **Qadriyat** atamasi arabcha "qadr" so'zidan olingan bo'lib, qimmatli, foydali degan ma'noda ifodalanadi.

"Qadriyat" deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini hamda maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim" [2].

Oilada bolaga salomlashishdan tortib to'g'ri oqatla-

nish, kiyinish, kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro mu-loqot, jamoatchilik ichida o'zini tutish, suvga tupurma, non ustiga narsa qo'yima, nonning uvog'i ham non, yoshi ulug'larning yo'lini kesib o'tma, ota-onangning gapini ikki qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo'lma kabi ma'naviy-ma'rifiy nasihatlarini eshitib turli rivoyat, maqol, hikmat va nasihatlarini tinglab, xotiralari-da saqlab voyaga yetadilar va bu orqali oilaviy hayotga ham tayyor bo'lib boraveradilar.

Ilmiy manbalarda ham qadriyat masalasi bo'yicha: **"Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir"** [3] – deb keltirilgan.

Qadriyatlar o'zbek xalqining bebaho boyligi sifatida madaniy-ma'rifiy hodisalalar, urf-odatlar, an'analari zahirida inson qadr-qimmatini oshishiga xizmat qiladi. Qadriyatlar xalqlarning tarixiy rivojlanish jarayonida odamlarning turmush tarzi, moddiy sharoitlari ta'sirida shakllanadi, o'tmishdan kelajakka [meros](#) qoladigan, avloddan avlodga o'tadigan, [jamiyat](#) hayotining turli sohalarida [namoyon](#) bo'ladigan moddiy [qadriyat](#) sifatida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda mahalla, oila va xotin-qizlar masalalari, ehtiyojmand oilalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan barcha sa'y-harakatlarning asl maqsadi ham oilalarning moddiy farovonligi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Moddiy qadriyatlar – oila tomonidan avlodlar osha qadrlanib kelayotgan xonadonlar, inshootlar, bog'-u xiyobonlar, tarixiy noyob uy-ro'zg'or buyumlari, tarixiy qimmatga ega bo'lgan ashyoviy asbob-anjomlar, shaxsiy buyumlar va boshqalar. Moddiy qadriyatlar oila a'zolari, ya'ni o'smir-yoshlarning ham iqtisodiy jihatdan ehtiyojlarini qondirishga, ta'minlashga xizmat qiladigan, ota-bobolar tomonidan shakllantirib kelinadigan moddiy resurslardan iboratdir, ya'ni ko'rpacha, yostiq, qozon-tovoq va o'roq, ketmon, bolta, qaychi va boshqalar tinch va farovon yashash uchun xizmat qiladigan mol-mulklar hisoblanadi.

Moddiy qadriyatlar deganda, turli tarixiy davrlarda

ijtimoiy ishlab chiqarish usuliga mos, ishlab chiqarish vositalari shaklida rivojlanib, bir oila turmush darajasidan chiqib, butun bir millatning qadriyatlarini darajasigacha ko'tarilib, moddiy va nomoddiy buyum hamda xalq hunarmandchilik namunalari ham tushuniladi. Ular bugungi kungacha xalqimiz tomonidan qadrlanib kelinadi.

Moddiy qadriyatlarni o'zbek millati shu makonda yashab ijod qilgan xalqning ijtimoiy madaniy turmush tarzida tutgan o'rnini ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etish yaxshi natija beradi. Qadriyatlar inson bisotida turli-tuman ehtiyojlar va his-tuyg'ularning mavjudligidan dalolat beradi, atrofda sodir bo'layotgan voqealarni, hodisalarni turlicha baholashlari uchun zamin yaratadi [4].

Demak, moddiy qadriyatlar tushunchasining mazmun-mohiyatini, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini teran anglash, uni milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari sifatida tushuntirish ham o'smir-yoshlarda moddiy qadriyatlar orqali ishbilarmonlik ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Buning uchun ular moddiy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini, uning tadqiq etilishini, tarixiy, tadrijiy rivojlanishini bilishi lozim. Bu o'z navbatida ota-bobolarimiz hayotida naqadar beqiyos o'rin tutganligini hamda qadriyat sifatida e'zozlanganligini o'rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hayotda moddiy qadriyatlarining ahamiyati yuqori bo'lib, bu **birinchidan**, o'zbek xalqining moddiy qadriyatlarini chuqur o'rganishga (boy moddiy merosini) yordam bersa, **ikkinchidan**, jamiyatda oilaviy tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yanada taraqqiy ettirib, milliy taraqqiyotga katta hissa qo'shsa, **uchinchidan**, jamiyat a'zolarini, ayniqsa, o'smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda aniq ijtimoiy mo'ljalilar va mezonlar bilan qurollantiradigan tushunchadir.

Moddiy qadriyatlar har bir kishining moddiy ehtiyojlari bilan uzviy bog'langan. Ma'lumki, insonning moddiy ehtiyojlari yashash uchun zarur bo'lgan ne'matlar, oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari va boshqalardan iborat. Moddiy qadriyatlar jamiyatning moddiy hayoti bilan uzviy bog'liqlikda shakllanadi. Jamiyatning moddiy hayoti kishilarning moddiy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq tarzda vujudga keladi va u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- kishilarning yashashi, umr kechirishi uchun zarur bo'lgan tabiiy shart-sharoitlar va moddiy boyliklar;

- insonning shaxs sifatida mavjud bo'lishi va kamol topishi uchun omil bo'lgan tabiiy zaxiralar, iqtisodiy sharoitlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari;

- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish, ushbu jarayonda amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui.

Demak, oilaviy hayotga tayyorlanayotgan o'smir-yoshlar har qanday jamiyatning moddiy qadriyatlarini tizimini, uning iqtisodiy asosini, inson hayoti va faoliyati manbaini tushunish uchun ishlab chiqarish jarayonining mazmun-mohiyatini to'liq anglab olishlari kerak bo'ladi. Buning uchun har bir oilada ota-onalar

o'z farzandlarini, ya'ni o'smir-yoshlarini oilaviy hayotga tayyorlab borishlarida, eng avvalo, moddiy qadriyat tushunchalariga nisbatan munosabatlarini shakllantirishlari uchun ota-onalarning o'zlarida ham mazkur bilim, ko'nikma va malakalar bo'lishlari kerak.

Shuningdek, xalq og'zaki ijodiyotining barcha janrlarida bolani atrofida kishilarga yordamlashish, hamdardlik qilish ruhida tarbiyalash g'oyalari o'rtaga tashlanganini ko'ramiz. O'zbek xalqi o'rtasida kundalik ehtiyojga aylangan amaliy san'at turlaridan yog'och, ganch va mis o'ymakorligi, zargarlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, kulolchilik, milliy liboslarni tikish kabilar o'zbek oilalarida, **birinchidan**, moddiy ehtiyojni qondirish bo'lsa, **ikkinchidan**, farzandlarni mehnatga o'rgatishda, bo'sh vaqtdan unumli foydalanish orqali tarbiyalashda muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanib kelingan. Bu o'z navbatida o'smir-yoshlarni oilaga tayyorlab borishga xizmat qilganligini ko'rish mumkin.

Darhaqiqat, oilaning moddiy ta'minlanganlik saviyasi shu oilada yetayotgan o'smir-yoshlarning har tomonlama shakllanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, moddiy ta'minlanganlik asosiy hayot maqsadi emas, balki maqsadga yetishishdagi yaxshi omil vazifasi ekanligini ota-onalar bolalariga ilk davridan tushuntirishlari lozim. Har bir oila baxtli va farovon yashashga haqli va shunga harakat qiladi, bu esa, albatta, hayotning aniq mexanizmi hisoblanib, u ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Oilaning moddiy ta'minlanganligi er-xotinning aqliy va jismoniy harakati hamda mehnati asosida ta'minlanadi. Bu holatlarni o'smir-yoshlar oilada bevosita ko'rib, oilaning moddiy farovonligi hamda oilaviy hayotga tayyorlanishida moddiy qadriyatlarining ahamiyat haqida tushunchalari yanada boyib boraveradi.

Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, ko'pgina oilalar moddiy texnikaviy jihatdan yaxshi ta'minlangan bo'lib, ularning xonadonlarida zamonaviy maishiy texnika vositalarining barcha turlarini kuzatish mumkin. Lekin oilada ulg'ayib katta bo'layotgan o'smir-yoshlarning ko'pchiligi oilaviy hayotga tayyor emasligi, ya'ni ularning ongi moddiy qadriyatlar bilan emas, balki moddiylik haqidagi tushunchalar bilan chegaralanib qolayotganligi sababli, ko'pgina yosh oilalarda ajrimlar bo'layotganligi achinarli holatdir. Basharti, oilalarning farovonligini ta'minlashda kundalik ehtiyojdagi birgina texnikaviy ta'minlanganlikka e'tibor berish ushbu muammoga faqat bir tomonlama qarash deb tushunish kerak.

Oilada o'smir-yoshlarni tarbiyalashdagi yondashuvlar oiladagi munosabatlarning qanday tashkil etilganligiga va o'rtadagi munosabatlarning qanday taqsimlanishiga qarab shakllanadi. O'smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida ko'pincha biz ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning uy-joy va turmush shart-sharoitlarini yaxshilash kabi masalalarni tushunamiz. Aslida esa bo'lajak oila quruvchi o'smir-yoshlarni moddiy qadriyatlar asosida oilaviy hayotga tayyorlashda ularni oilaviy va xususiy tadbirkorlik faoliyatlariga jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda innovatsion maktablar faoliyatini yanada

kuchaytirish lozim. Ushbu maktablarda xo'jalik-iqtisodi, oila byudjeti, turmush tarzi madaniyati, uy xo'jaligini boshqarish qobiliyatlari va bilimlarini mustahkamlashga doir tushunchalarni singdirib borish zarur. Chunki, bu bilimlar orqali o'smir-yoshlarda katta oilaviy hayotga kirish yanada osonroq kechadi.

O'smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha oilalar mustahkamligida moddiy qadriyatlarining o'rnini aniqlash maqsadida respondentlardan o'tkazilgan so'rovnomalarning tadqiqot natijalari yuzasidan ma'lumotlarni keltirish mumkin.

Moddiy jihatdan barqaror bo'lish uchun ta'lim, qobiliyat va ko'nikmalarning o'rnini juda muhim bo'lib, bu borada aholining fikr mulohazalari o'rganildi. Shu yo'nalishda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko'ra [5], so'rovnoma ishtirokchilarining bu boradagi fikrlari "Moddiy barqaror (oila) bo'lish uchun insonda qanday asos va xislatlar (qobiliyat, ko'nikma) bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?" degan savoliga bergan javoblari orqali o'rganildi. Javob berganlarning eng ko'p 25 foizi bilim va tajriba ekanligini ta'kidlashgan bo'lsa, o'rtacha 16 foiz ishtirokchilar bugungi kunda moddiy barqarorlikka erishish uchun insonga ishbilarmonlik va mashaqqatli mehnat zarur, degan javobni bildirishgan. Respondentlar javoblari ichida "uddaburonlik, oliy ma'lumot va tavakkalchilik" degan javoblari tegishlilik bo'yicha 13,8, 8,6 va 7,7 foizni tashkil etadi. Shuningdek, moddiy barqaror bo'lishda 5,6 foizni taqdirga ishonuvchilar tashkil etsa, 3,5 foizi ilohiy iqtidor lozim deb hisoblaydi. Katta meros va boshqa sabablar eng kam ulush bilan o'rtacha 1 foizni tashkil etadi.

So'rovnoma ishtirokchilari inson hayotida muhim o'rin tutuvchi qadriyat, tushuncha yoki maqsadlarni aniqlashga qaratilgan "Quyidagilarning qaysi biri Siz uchun muhim sanaladi?" degan savolga eng ko'p "salomatlik" degan javobni belgilashgan va bu ulush 31 foizga teng. Ikkinchi o'rinda "farzandlar" degan javob bo'lib, 25,8 foizni tashkil etgan. Ana shunday muhim qadriyatlarining o'rtacha ulushi moddiy ta'minlanganlik (8,1 foiz), ertangga kunga ishonch (5,3 foiz), xavfsizlik hamda qonun (4 foiz) hamda oila va an'analar 3,4 foizda aks etgan.

So'rov-tadqiqotlarda qatnashgan respondentlar fikriga ko'ra, moddiy barqarorlikda nafaqat ta'lim darajasi yoki faoliyat turi, balki bo'sh vaqtni qanday o'tkazish ham muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shu bois, mazkur yo'nalishdagi savolga respondentlarning 21,2 foizi bo'sh vaqtlarini farzandlari bilan o'tkazishini bildirsa, 19,9 foizi televizor ko'rishini, 12,9 foizi esa mutolaa bilan shug'ullanishini aytgan. Bo'sh vaqtlarida mehmonga borishni yoki telefon ko'rishni ma'qullaydiganlar hissasi esa o'rtacha 9 foizni, uxlab dam oladigan va deyarli bo'sh vaqti bo'lmaydiganlar ulushi esa 7 foizni tashkil etgan.

Er va xotin oilaviy masalalarda o'zaro suhbatlashishi va birgalikda qaror qabul qilishi kerakmi?" degan savolga respondentlarning yarmidan ko'prog'i (67 foiz) "Albatta, bu oilaviy hayotning asosi" degan javobni belgilashgan.

Oilalarda tushunmovchiliklar kelib chiqishi turli omillarga bog'liq bo'ladi. Shu bois, so'rovnoma ishtirokchilarining bu borada fikrini aniqlashga qaratilgan savolga ularning javoblari quyidagicha bo'ldi: eng yuqori ko'rsatkich "mablag' yetishmovchiligi" (27,9 foiz), o'rtacha ko'rsatkichlar "er va xotinning dunyoqarashidagi farqlar" (17,3) va boshqa omillar (11,6 foiz)ga tegishli bo'ldi. "Farzandlar tarbiyasi bilan bog'liq muammolar", "rashk" va "uchinchi tomonning aralashuvi" o'rtacha 7 foizni tashkil etdi. "Telefon va ijtimoiy tarmoqlar", shuningdek, "kiyinish" borasidagi masalalar oilaviy tushunmovchiliklar sababi sifatida ko'rsatilgan.

So'rovnoma ishtirokchilarining oilada er-xotinning birgalikda pul topishiga munosabati ham turlicha. Masalan, respondentlarning eng ko'p 36,6 foizining munosabati yaxshi va oilada birgalikda ishlashadi. 35,3 foizi esa bu oila byudjeti uchun juda foydali, deb hisoblashadi. Va 10 foizi ayol kishining pul topishi uning rivojlanishi va jamiyatda o'rnini topishi uchun vosita deb biladi. Aksincha, ayol kishining pul topishi oilaviy qadriyatlarimizga xos emas deb ko'rsatsa (6,6 foiz), 3,6 foizining fikri salbiy bo'lib, oila boquvchisi erkak kishi deb hisoblashadi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, oilalar mustahkamligida moddiy qadriyatlarining o'rnini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotdan kelib chiqib, quyidagi **xulosalarga** kelindi:

- so'rovnomada ishtirok etgan oilalarning aksariyatida oilaviy byudjet mavjud bo'lib, mazkur oilalarda oilaviy qadriyatlar ma'lum bir an'ana va tizim asosiga qurilganini, moddiy barqarorlik va farovonlik uchun poydevor borligini ko'rish mumkin;

- respondentlarning aksariyati moliyaviy jihatdan mustaqil ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, aholining moliyaviy jihatdan mustaqillik darajasi, an'anaviy oilalardagi ayrim stereotiplardan farqli ravishda, qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida zamonaviy oilalardagi moddiy qadriyatlarining asosiy ko'rinishi sifatida maydonga chiqadi;

- tadqiqot natijalariga ko'ra, insonning moddiy barqarorligi uchun, asosan, "bilim va tajriba"ning ahamiyati katta ekanini ko'rish mumkin. Shuningdek, "ishbilarmonlik qobiliyati yoki ko'nikmasi" va "oliy ma'lumotli bo'lish" ham insonga moddiy barqarorlik olib keluvchi muhim omillardan biri sifatida barcha respondentlar tomonidan e'tirof etilgan;

- respondentlarning o'z maqsadlariga erishishida to'siq bo'layotgan omillarning asosiy qismini "mablag' yetishmovchiligi" tashkil etadi. Shuningdek, salomatlik bilan bog'liq muammolar, "oliy ma'lumotning yo'qligi" va "rashk" keyingi o'rinlarda turuvchi omillar sirasiga kiradi. Bunday natijalar deyarli barcha hududlarda qayd etilgan. Demak, so'rovnoma o'tkazilgan barcha hududlarda aholining ijtimoiy muammolari iqtisodiy imkoniyatlarga yoki moddiy qadriyatlarga borib taqaladi.

Demak, o'smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida oilaning har tomonlama rivojlanishi jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi va ma'naviy hayoti bilan bog'liqdir. Oila shakllarining o'zgarishi, ibtidoiy

jamiyat davridan boshlab barcha tarixiy bosqichlarda moddiy ishlab chiqarish ma'naviyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi keng tahlil etilgan. Lekin jamiyatning, oilaning moddiy hayot sharoitlari o'zgarishi o'z-o'zidan ma'naviy kamolotga olib kelmaydi. Ma'naviy va madaniy qashshoq bo'lgan odam boy bo'lib qolsa, biridaniga ma'naviy kamolot darajasiga ko'tarilib qolmaydi. Demak, har bir oilaning ma'naviy kamolotini shakllantirish orqali o'smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kerak bo'ladi.

Moddiy qadriyatlarni bo'lg'usi oila quruvchi o'smir-yoshlarga to'g'ri tushuntirish va singdirish ularning kelajakda o'z oilaviy hayot yo'llarini to'g'ri tashkil qilishlariga asos bo'ladi.

Qiyin iqtisodiy va moddiy shart-sharoitlar oila a'zolari, ayniqsa, oila ta'minoti bilan shug'ullanuvchi shaxslar zimmasiga juda katta mas'uliyatlar yuklaydi. Chunki, oila boshliqlari, eng avvalo, oilaning moddiy ehtiyojlarini ta'minlab berishi zarur. Biroq globallashtirish davrida oila ta'minoti tushunchasi ham o'zgarib, ya'ni ellik yil avval oila ta'minotida oddiygina qorin to'qligi tushunilgan bo'lsa, bugungi zamonaviy oila ta'minotiga, masalan, oziq-ovqatning kuniga turli-tuman hamda ratsional bo'lishi, kiyim-kechakning eng oxirgi modada bo'lishi, yengil mashina, dam olish, uy anjomlari, xususan, televizordan tortib, mobil telefongacha bo'lgan buyum va narsalarning hammasi mavjud bo'lishi talab etilmoqda. Biroq mana shularni topib, oila uchun yetkazib berish ota-onalarni ba'zida oilaviy funksional vazifalaridan chetlashishlariga ham majbur qilmoqda.

Aslida ota-onalarning bosh vazifasi bolani komil inson qilib tarbiya qilish bo'lib, aksincha, hozirda esa asosan, oilaning moddiy yetishmovchiliklarini ta'minlash (qiziga tillo buyumlar va sarpo yig'ish) ishi bilangina shug'ullanmoqda. Demak, bu ota-onalarning qimmatli vaqtini o'g'irlab, tarbiyaviy masalalar bilan shug'ullanishdan chetlashtirmoqda. Shuningdek, ko'pchilik ota-onalarda zamonaviy yangi avlodlarning pedagogik-psixologik va fiziologik kechinmalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarning yetishmasligi muammoning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Demak, o'smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda moddiy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlari borasidagi masalalardan kelib chiqib, xulosa o'rnida **quyidagi taklif va tavsiyalarni** keltirish mumkin:

– oilalar mustahkamligida moddiy qadriyatlarning roli ma'naviy qadriyatlar bilan teng ulushda ekanligini inobatga olib, oilalarda moddiy qadriyatlar shakllanishi

va uning rivojini ilmiy tadqiq qilish lozim. Bunda: moddiy qadriyatlarning oilalar mustahkamligi va farovonligidagi ahamiyatini o'rganish, moddiy qadriyatlarga asoslangan barqaror munosabatlar va mavjud muammolarni kompetensiyaviy hal etish masalalari, oilalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkiliy, ta'limiy, huquqiy, ijtimoiy, moliyaviy tomonlarini tahlil etish nazarda tutiladi;

– iqtisodiy bilim asoslarini yoki moddiy qadriyatlarga oid tushunchalarni (*puldan qo'rqish yoki pulga ruju qo'yish emas, uni boshqarish*) oila, ta'lim muassasasi va mahalla hamkorligida ilk yoshdan tortib yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bosqichlarigacha olib chiqish lozim;

– tadqiqot natijalari tahlilidan ko'rinadiki, oiladagi farovonlik bevosita shaxsning bilim va tajribasi, ta'lim darajasi va qobiliyat va ko'nikmalariga bog'liq ekanligi oilada kuzatilishi mumkin bo'lgan ko'plab muammoli vaziyatlarni oqilona bartaraf etishda zarurligi tasdiqlandi. Shu bois, yoshlarda, avvalo, munosib ta'lim olish, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishish, talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasblarni o'rganish, axborot texnologiyalarini mukammal o'zlashtirishga undash kabi motivatsion dasturlarni ta'limning barcha bosqichlariga joriy etish;

– an'anaviy oilalarga xos bo'lgan ayrim moddiy qadriyatlar bilan bog'liq stereotiplardan chekinish zamon talabi ekanligi, bu borada aholining iqtisodiy bilimlarini va xabardorlik darajasini oshirishga qaratilgan targ'ibotlarga zarurat ortadi. Bunda OAV, Internet va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi;

– jamiyatning bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy hayotida aholining ishbilarmonlik ko'nikmasini rivojlantirish, tadbirkorlikka ko'maklashish orqali iqtisodiy daromadini oshirish, munosib turmush sharoitini yaratish va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-amaliy loyihalarni amalga oshirish;

– qadriyatlar transformatsiyasi fonida aholining moddiy qadriyatlari va uning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan ijtimoiy so'rovlar o'rkazish va natijalari bo'yicha tegishli vazirlik va tashkilotlarga ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar taqdim etib borish;

– oila institutini mustahkamlashda rivojlangan davlatlar xalqlariga xos bo'lgan moddiy qadriyatlar tizimini o'rganish va muhim ahamiyatga molik tajribalaridan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4307-сонли қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.05.2019 й., 07/19/4307/3079-сон; 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон, 26.03.2021 й., 07/21/5040/0243-сон).
2. Қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт (илмий ишлар тўплами). –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 198.
3. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Т.: 2010. Б.707.
4. Nazarov Q. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. – T.: Ma'naviyat, 1998.
5. “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti sotsiologik tadqiqot tahlili natijalari. 2023-yil sentyabr.

Saodat ADILOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU Umumiy tilshunoslik kafedrasida
professori v.b, pedagogika fanlari nomzodi

O'ZBEK TILINI MASOFADAN O'QITISHNING YANGI IMKONIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilini masofadan o'qitishda foydalanilishi mumkin bo'lgan zamonaviy platformalar, resurslar haqida ma'lumot beriladi hamda ularning afzalliklari, o'ziga xos jihatlari qisqacha yoritiladi.

Tayanch so'z va iboralar: til ta'limi, masofaviy ta'lim, o'qitish metodikasi, ta'limiy platforma, resurslar, integrativ yondashuv.

Аннотация: в данной статье представлена информация о современных платформах и ресурсах, которые можно использовать для дистанционного обучения узбекскому языку, а также об их преимуществах и уникальных аспектах.

Ключевые слова: языковое образование, дистанционное образование, методика обучения, образовательная платформа, ресурсы, интегративный подход.

Annotation: this article provides information about modern platforms and resources that can be used for distance learning of the Uzbek language, as well as their advantages and unique aspects.

Keywords: language education, distance education, teaching methods, educational platform, resources, integrative approach.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat tili ta'limini yanada takomillashtirish borasida muammolar ko'p va ularning yechimini topish, o'zbek tilini ona tili, davlat tili, xorijiy til sifatida o'qitish metodikasini zamonaviylashtirish, uning samarasini oshirish ishlari mutaxassislar oldiga yangidan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Zamonaviy pedagogikada fanlarni masofadan o'qitish ayrim hollarda zaruriy, ba'zan esa yagona ta'lim berish shakliga aylanib bormoqda. Ayniqsa, xorijliklar yoki mehnat faoliyatini to'xtatmagan holda tahsil oluvchi vatandoshlar uchun bunday imkoniyat o'zbek tili bo'yicha zaruriy bilim, ko'nikmalarga ega bo'lishning eng maqbul yo'lidir. Shu bois, bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ta'lim berishning nafaqat an'anaviy yo'llarini, balki jahon standartlariga javob bera oladigan zamonaviy yo'nalish, yondashuvlarni ham o'rgatish zarur. Mazkur maqolada o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilini masofadan o'qitishning ba'zi imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda tahsil oluvchilarning o'zbek tilini bilish darajasi ularning millati, oiladagi til muhiti, til o'rganish tajribasi kabilarga bevosita bog'liq ekanini unutmaslik lozim. OTMlarda o'zbek tili fani kasbga yo'naltirilishi, kasbiy nutq odobini o'rgatishi, hujjatchilik tilini, xususan, sohaviy hujjatchilik tilini yanada charxlashi, talabalar nutqini mutaxassislikka oid o'zbekcha terminlar bilan boyitishi lozim. Shu bilan birga, mazkur fan yoshlarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga undashi, muayyan hayotiy vaziyatlarda til bilimidan o'rinni foydalanib yechimlar topishni o'rgatishi kerak. Zero, "Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar va guruhlarda o'zbek tilini o'qitishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning nutqini shakllantirish, ya'ni o'zbek tilida aytilayotgan so'zlar va gaplarni tinglab tushunish hamda so'zlay olishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun bilimlarni taqdim etishning ixcham,

kompakt modellarini yaratish, o'quv-biluv materiallarini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilar ongiga oson va puxta singdirish mexanizmini ishlab chiqish kerak bo'ladi"[2;87].

Dunyo miqyosida tillarni onlayn formatda, ya'ni masofadan o'qitish kundan kunga ommalashib bormoqda. Ma'lumki, "Masofaviy o'qitish saralangan innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va shakllariga ega axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim shakli bo'lib, muayyan ta'lim standartlari asosida o'quv sharoitlari va o'zaro muloqotni ta'minlab beruvchi tizimdir"[4; 905]. Shunday ekan, o'zbek tilini ham masofadan o'qitish uchun aynan yangi, saralangan metod va vositalarni o'rganish, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish muhimdir. Ushbu vazifani bajarish uchun qo'llanilayotgan turli ta'limiy platformalar masofaviy ta'lim rivojiga katta hissa qo'shmoqda. Shular jumlasiga kiradigan Zoom, Moodle, Canvas, Google Class, Black Board, Skype Meeting, Click Meeting, Dream Study kabilarning cheksiz imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, ikkinchi tilni o'rganishga mo'ljallangan Byki, Anki, Quizlet, Kahoot kabi dasturlar ham borki, ular o'zining universalligi, qulayligi, yoshlarga xush kelishi bilan ham mutaxassislarni jalb etadi. Shu bilan birga ular o'qitish jarayonini integrativ yondashuv asosida tashkil etishni ta'minlovchi ko'p qirrali vosita hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, istalgan fanni masofadan o'qitayotganda birgina platforma bilan ishlash yaxshi natija bermasligi mumkin. Noqulayliklar, ko'p hollarda joylarda internet tezligining pastligi bilan, ba'zan masofaviy ta'lim madaniyatining hali to'la-to'kis shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'ladi. Biroq pandemiya davri onlayn ta'limning asosiy konsepsiyasini tushunishga, yuzma-yuz darslardan nimasi bilan farqlanishini anglashga to'la xizmat qildi. An'anaviy mashg'ulotlarda juda yaxshi samara beradigan metodlarning masofadan tu-

rib dars o'tishda "ishlamay" qolishi mumkinligi, avval u qadar katta ahamiyat berilmaydigan usullarning aynan onlayn darslarda asqatishi, slaydlar yordamida aniq rejalashtirib dars o'tish talabalar diqqatini jamlashda katta kuch ekani yanada aniqroq anglashildi. "PowerPoint" va boshqa dasturlar yordamida yaratilgan slaydlar majmuyi bilan bir qatorda "Word", "Pdf", "Google.doc" formatidagi fayllar, audio-vizual materiallarni uyg'unlikda qo'llash mashg'ulotlar samaradorligini oshirdi.

Ikkinchi tilni masofadan o'qitish metodikasini quyidagi platformalarning imkoniyatlari bilan ham boyitish mumkin:

Free Conference call. Mazkur ta'limiy platformada ovoz va tasvirning sifati baland, vaqt bo'yicha cheklov mavjud emas, seanslar bepul, ekranda materialni namoyish etish vaqtida ham talabalarning o'zini ko'rish mumkin; ekranga rasm chizish va unga turli o'zgartirishlar kiritish opsiyasi mavjud; o'qituvchi va talabalarga muloqot uchun alohida maydon bor; darsni yozib olish imkonini mavjud. Ushbu platformaning kamchiligi sifatida o'qituvchi tomonidan video yoki audioni namoyish etishda cheklovlar borligini ko'rsatish mumkin.

EzTalks. Bu platformada ham aloqaning sifati ancha yaxshi. Ekranni namoyish etish davomida barcha qatnashuvchilar ham ko'rinib turadi. "Oq taxta" funksiyasi, yangi so'z va iboralarni yozish uchun chat kabilarning mavjudligi, so'rovnoma o'tkazish imkoniyati, yozib olish mumkinligi bu platformaning avvalgilaridan biroz yuqoriroq saviyaga ega ekanini bildiradi. Biroq ko'p hollarda bo'lgani kabi, mazkur platformaning ham bepul ishlash vaqti 40 minutni tashkil etadi.

Hangouts. Bu platformaning afzalliklari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: to'g'ridan-to'g'ri efrigachiqish; ulanish va ishlashdagi yengillik va qulayliklar; maxsus parolning talab etilmasligi; yangi so'z va iboralarni chatda yozib ular bilan mashqlar ishlash, platformaning bepulligi. Qulayliklar bilan bir qatorda, ushbu

platformani ishlatishda ayrim nuqsonlarni ham ko'rish mumkin: ekranda videoni namoyish etishda faqat video ko'rinadi, talabalar ko'rinmaydi; umuman, biron materialni namoyish etish uchun talabalar tasvirini o'chirishga to'g'ri keladi; chizish, tahrirlash imkonini yo'q; o'qituvchi talabalarga audiofaylni tinglash uchun qo'yib bera olmaydi va mashg'ulotni yozib olish imkonini yo'q [Q.: 1].

Quyidagi resurslarning sinov versiyasi bepul, asosiy shakli esa muayyan to'lov evaziga ishlatilishi mumkin:

– Edpuzzle (videomateriallar yaratish va ulardan darslarda unumli foydalanish uchun);

– Quizizz (nazorat blokining vazifalarini ishlab chiqish, testlarni yaratish, o'tkazish uchun);

– Kami (o'quvchi-talabalarga o'z-o'zini baholash imkonini berish uchun);

– Nearpod (virtual sayohat uyushtirish va shu orqali talabalar bilimni baholash uchun);

– Pear Deck (qiziqarli jadval, diagramma, interaktiv vazifalar tayyorlash uchun);

– Adobe Express (shablonlar yordamida ta'limiy videolar yaratish uchun);

– Parlay Genie (sun'iy intellekt yordamida bahs-munozara o'tkazish uchun savolnoma tayyorlash, debatlar o'tkazish, diskussiya metodini o'quv materialiga integratsiyalash maqsadida foydalanilishi mumkin) [Q.:3].

Yuqorida keltirilganlar jahon miqyosida tillarni o'qitish jarayonida qo'llanadigan ayrim internet-resurs va metodlardir. Ayni paytda yurtimizda turli mutaxassislar tomonidan bu va boshqa vositalardan foydalangan holda o'zbek tilini o'qitish bo'yicha yangi manbalar yaratilmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yurituvchi til o'qituvchilarining o'zlari ham bu kabi resurslarni o'rganib, ular asosida til ta'limini yanada takomillashtirishlari mumkin. Buning uchun esa mavjud vosita hamda metodlarni bizning sharoitimizga moslashtirish yo'llari ishlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белоног Ю. 5 популярных платформ для онлайн-преподавания <https://skyteach.ru/lifestyle/5-populyarnyx-platform-dlya-onlajn-prepodavaniya/>

2. Muxiddinova X. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda o'quv-biluv materiallarini konsentrlar asosida tarkiblash va ular bilan bosqichli ketma-ketlikda ishlashning didaktik jihatlari // "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020, No 3(32), 87-100 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online) 87-bet. <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2020/07/ozbek-tilini-ikkinchi-til-sifatida-okitishda-okuv-biluv-materiallarini-konzentrlar-asosida-tarkiblash-va-ular-bilan-bosqichli-ketma-ketlikda-ishlashning-didaktik-zhihatlari.pdf>

3. Секретаренко Е. Инструменты для преподавания: 10 must-have ресурсов для учителей в 2024 году. <https://grade.ua/blog/10-must-have-resursov-dlya-uchitelej-v-2024-godu/>

4. Xodjamqulov U., Toshtemirova S. Masofaviy o'qitish modellari, turlari va ularning ahamiyati// Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar. Xalqaro konferensiya. – Chirchiq, 2020. 905-bet.

Madina MIRKASIMOVA

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti,
dotsent v.b, PhD

NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING UMUMMADANIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH TIZIMI

Annotatsiya: maqolada talaba-yoshlarning umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirish, hamda nazariy va uslubiy yondashuvlarga tayanish muammoning terminologik makonini tartibga solish, o'rganilayotgan obyektning xususiyatlarini, tamoyillarini, ishlash qonuniyatlarini ochib berishga asosiy urg'u berilganini inobatga olinadi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, yondashuv, aksiologik, ekologik, texnologik, evolyutsion, takomillashtirish.

Annotation: в статье учтено, что основной акцент делается на повышении общекультурной компетентности учащихся, опираясь на теоретико-методические подходы, регламентируя терминологическое пространство проблемы, раскрывая особенности, принципы и законы работы изучаемый объект.

Ключевые слова: компетентность, подход, аксиологический, экологический, технологический, эволюция, совершенствование.

Kirish qism. Insonning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olishi, jamiyatda o'z o'rnini egallay olishi, duch keladigan muammolarni yecha olishi, har tomonlama keng dunyoqarash va bilimga ega bo'lishi uchun avvalo, integratsiyalashgan ta'lim asosida mujassam bilim berish, jamiyatda o'zaro kommunikatsiyaga kirishishi uchun esa chet tilini mukammal o'zlashtirish va muloqotda samarali foydalana olish kompetensiyasini takomillashtirish zarurdir.

Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarini tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, bo'lajak mutaxassislarining o'zga tilli kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish modelini loyihalash, kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga doir konseptual yondashuvlarni joriy etish, ularning didaktik parametrlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning eng muhim bosqichlaridan biri bu mazmun tarkibiy qismlarini tushunish, yondashuvlarni belgilash, asosiy tamoyillarni ishlab chiqish va o'rganilayotgan jarayonning qonuniyatlarini aniqlash bosqichidir. Nazariy va uslubiy yondashuvlarga tayanish muammoning terminologik makonini tartibga solish, o'rganilayotgan obyektning xususiyatlarini, tamoyillarini, ishlash qonuniyatlarini ochib berishga imkon beradi. Biroq, pedagogik tadqiqot asoslanishi mumkin bo'lgan uslubiy yondashuvlarning ko'pligi ba'zan to'g'ri yo'nalishni tanlashni qiyinlashtiradi, pedagogik modelning hayotiyliigi bevosita aniq metodologik asosga bog'liq. Zamonaviy universitet ta'limining asosi kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'lib, uning doirasida zamonaviy standartlar amalga oshiriladi, mos ravishda o'quv jarayonini tashkil etishning maqsadi e'lon qilingan kompetensiyalar ro'yxatini takomillashtirish va talablarga e'tiborni qaratishdir.

Shu bilan birga, malaka tushunchasi, YUNESKO materiallariga ko'ra, evolyutsion kompetensiya va inson faoliyatining turlariga moslashish qobiliyati tushunchasiga o'z o'rnini bermoqda. Mutaxassisni malakali yondashuv nuqtayi nazaridan tayyorlash, eng avvalo, tijorat manfaatlari va zamonaviy mehnat bozori talablari natijasidir. Kompetensiya tushunchasining o'zi ilmiy apparatga N.Xomskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, talabani tilni o'rganish jarayonida tafakkuri, malakasi va tajribasi bilan bog'liq edi. Bu pedagogika fanida butun bir yo'nalishning rivojlanishining boshlanishini belgilab berdi va ta'lim jarayonini, umuman olganda, ma'lum bir mutaxassisni tayyorlash masalasini yangicha ko'rib chiqish imkonini berdi. Ilmiy adabiyotlarda kompetensiyalarning har xil turlari mavjud: kommunikativ, kognitiv, madaniy, ijtimoiy-psixologik, umumiy madaniy, kasbiy, umummadaniy va boshqalar. Ushbu turdagi barcha kompetensiyalar asosan turli xil profillar, shu jumladan nofilologik mutaxassislar uchun qo'llaniladi va zarurdir. Talabalarni takomillashtirishning muhim omillari quyidagilardir: universitetda olingan bilimlarni hayotga tatbiq etish; faoliyatni amaliyotda rivojlantirish; moslashish va keyingi integratsiya va individualizatsiya bilan professional muhitga kirish.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv universitet bitiruvchilarini tayyorlash vazifasini dolzarblashtiradi, shu bilan birga, ma'lum bir o'quv profilining kompetensiyalarini aniq ko'rsatish ham, kasbiy tayyorgarlikning amaliy yo'nalishi va kasbiy standartga muvofiq yo'nalishini kuchaytirish ham muhimdir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: mustaqil fikrlash tamoyili (turli faoliyatdagi muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirish); kompetensiyani takomillashtirish darajalarini ajratib ko'rsatish printsipi (ta'lim natijalarini baholash muayyan bosqichda erishilgan ta'lim darajasini tahlil

qilishga asoslanadi). Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirishga kelsak, kompetensiyaga asoslangan yondashuvning yuqoridagi tamoyillari tadqiqotda qo'yilgan vazifalarga aniq mos keladi. Ta'kidlash joizki, nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirish qadriyatlarga yo'naltirilgan, o'z bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatda qo'llashga tayyor shaxsni takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirish muammolari ham aksiologik, shaxsiy-faollik, ekologik va texnologik yondashuvlari doirasida amalga oshirilib kerak; *kompetensiyaviy yondashuv*- kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilim va ko'nikmalarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, balki samarali amaliy faoliyat qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim natijalarining yangi turini belgilaydi; *aksiologik yondashuv*- o'z va boshqa madaniyatlarining qadr-qimmatini bilish, umuman olganda, ta'lim talabani yanada takomillashtirishning asosiy motivatsion dastagidir; *shaxsiy faoliyatli yondashuv*- insonning tashqi dunyo, shu jumladan boshqa odamlar bilan faol maqsadli o'zaro ta'siri va maqsadli faoliyatni amalga oshirish uchun uning qanday shakllari yuzaga kelgan ehtiyojni qondirishga olib kelishini bilish kerak; *ekologik yondashuvi*- pedagogik amaliyotda ekologik yondashuv uslubiy funktsiyani bajaradi, shuningdek, talabalarni axloqiy, hissiy va intellektual tarbiyalash muammolarini hal qilishga yordam beradi; *texnologik yondashuv* - ta'lim sohasidagi texnologik yondashuv yoki loyihalashning eng muhim tamoyillari o'z-o'zini rivojlantirish va izchillik tamoyilini o'z ichiga oladi. Ushbu tamoyillar nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining «jamiyatning zamonaviy talablariga mos keladigan shaxsni takomillashtirishga» yo'naltirilgan qadriyatlarga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishda umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirish uchun ishonchli asos bo'lishi mumkin. *Aksiologik yondashuvga* ko'ra, o'z va boshqa madaniyatlarining qadr-qimmatini bilish, umuman olganda, ta'lim talabani yanada takomillashtirishning asosiy motivatsion dastagidir. Buni anglash, o'z navbatida, malakali mutaxassis tayyorlash uchun o'qitishning maqsad va vazifalarini belgilashda o'qituvchi uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi". Falsafiy lug'atga ko'ra, aksiologiya «qadriyatlarining tabiati, ularning voqelikdagi o'rni va qadriyatlar dunyosining tuzilishi, ya'ni turli qadriyatlarining bir-biri bilan, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liqligi haqidagi falsafiy ta'limotdir. Aksiologik yondashuvning ma'nosini aksiologik tamoyillar tizimi orqali ochish mumkin, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: madaniy va etnik xususiyatlarning xilma-xilligini saqlab qolgan holda, qadriyatlarining yagona gumanistik tizimi doirasida falsafiy qarashlarning tengligi; an'analar va ijodkorlikning tengligi, o'tmish ta'limotlarini o'rganish va ulardan foydalanish zaruriyatini e'tirof etish hamda hozirgi va

kelajakda ma'naviy kashfiyotlar qilish imkoniyatini beradi. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining sifatli tayyorlash bilan "madaniy-axloqiy qadriyatlar - yo'nalishlarni takomillashtirish komil shaxsni takomillashtirishning eng muhim va zarur omilidir. Bunday vaziyatni hisobga olgan holda, o'quv jarayonini *shaxsiy-faoliyat yondashuvi* nuqtai nazaridan ham rejalashtirish kerak, unga asoslanib, talaba va o'qituvchi nofilologik ta'lim yo'nalishida o'quv-pedagogik faoliyatning markaziy subyekti bo'lib harakat qiladilar». Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirishda keyingi tadqiqotlar asos bo'ladigan shaxsiy-faoliyat yondashuvining o'ziga xos tamoyillari quyidagilardan iborat: har qanday faoliyat turiga yuqori motivatsiya tamoyili; faoliyat vositasi sifatida foydalaniladigan axloqiy boyitish tamoyili; turli faoliyatni tashkil etish va boshqarishda hamkorlik tamoyili; shakllantiruvchi faoliyat holatini loyihalash, qurish va yaratish tamoyili; har bir faoliyat turining majburiy samaradorligi printsiplar muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlarning fikriga ko'ra, atrof-muhit bizni o'rab turgan narsalarning yig'indisi bo'lib, shaxsning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Pedagogikadagi *ekologik yondashuv* asosiy e'tiborni shaxsni rivojlantirish jarayonining tashqi determinizmiga qaratadi, bu esa, o'z navbatida, uning nafaqat pedagogik voqelikni o'rganish, balki tasvirlash uchun ham qo'llanilishini belgilaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik amaliyotda ekologik yondashuv uslubiy funktsiyani bajaradi, shuningdek, talabalarni axloqiy, hissiy va intellektual tarbiyalash muammolarini hal qilishga yordam beradi. Ekologik yondashuvning uslubiy asosi shaxsni takomillashtirish jarayonini atrof-muhit vositasida boshqarishda yotadi. Ta'limni texnologiyalashtirish zamonaviy voqelikning ajralmas qismidir.

Texnologik yondashuvga bo'lgan talab ijtimoiy-iqtisodiy omillar va zamonaviy kognitiv jamiyatning haqiqatlari bilan bog'liq. Kompetensiyaga asoslangan aksiologik, shaxsiy-faoliyat, ekologik va texnologik uslubiy yondashuvlar va ularga muvofiq aniqlangan tamoyillarning integratsiyasi talabalar umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik vazifalarini amalga oshirishdagi qiyinchilik va muammolarni aniqlash va ularni samarali hal qilish omillari hisoblanadi. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalar tomonidan umummadaniy kompetensiyani o'zlashtirish jarayonida kognitiv komponent ham muhim rol o'ynaydi, chunki uning shakllanishi bilimlarni amaliyotda qo'llash uchun zarur bo'lgan nazariy bazani egallashni nazarda tutadi. Umummadaniy o'zaro ta'sir jarayonida tanqidiy qayta o'ylash va tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish va har qanday muammoga yechim topish qobiliyati bevosita bo'lajak talabani kognitiv qobiliyatiga va bilim chuqurligiga bog'liq.

Xulosa. Tabiiyki, kommunikativ komponent yakuniy teqinish bo'lib, u bilimning qadr-qimmatini amalga oshira

va muvaffaqiyatli o'zlashtirilsagina qo'llanilishi mumkin. Madaniyatlararo muloqot jarayoni turli madaniyatlar tashuvchilarning tillari, urf-odatlarini, qadriyatlarini, xulq-atvor turlari bilan kommunikativ o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi. Muloqot jarayonida har bir ishtirokchi ham alohida shaxs, ham muayyan ijtimoiy guruh, jamoa vakili

sifatida harakat qiladi. Shunga ko'ra, uning ongida ijtimoiy-guruh, milliy, umuminsoniy va individual bilimlar birgalikda mavjud bo'lib, bir vaqtning o'zida kommunikativ jarayonda ishtirok etadilar, ular birgalikda umummadaniy kompetensiya mazmunini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakhadirova, Mirkasimova Madina. "Choosing authentic materials for the english classroom." *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11, no. 2 (2021): 1036–38. <http://dx.doi.org/10.5958/2249-7137.2021.00500.0>.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2004. 8-jild. 55-b.
3. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida): Ped. fanl. d-ri ... dis. Avtoref. – T.: 2004.62-b
4. Agostino Portera Intercultural education in Europe: epistemological and semantic aspects // Intercultural education. December 2008.-Vol.19.No6 P.82-86.
5. Арасланова, А.А. Психология и педагогика в схемах / А.А. Арасланова. - М.: Русайнс.- 2018. – 86-89 с.
6. Khodjayev B.H. Technology of historical thinking development of comprehensive school pupils. The Way of Science.- 2014.
7. Хуторской А.В. Компетентный подход в обучении / Научно-методическое пособие. – Москва: «Эйдос»; Институт образования человека.- 2013. – 169с.

Muxtasarxon ASQARALIYEVA

Qo'qon davlat pedagogika instituti doktoranti

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TARBIIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH ZARURATI

Annotatsiya: ushbu maqolada globalashuv jarayonining ta'lim tizimiga ta'siri, o'quvchilar faoliyatida tarbiya darslarining ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, zamonaviy o'qitish uslublari, "assessment", "bumerang", uzluksiz tarbiya jarayoni, tarbiya klasteri

Annotation: this article discusses the impact of the globalization process on the education system, the importance of education classes in the activities of students.

Key words: education, modern teaching methods, "assessment", "boomerang", continuous education process, education cluster

Аннотация: в данной статье рассматривается влияние процесса глобализации на систему образования, значение учебных занятий в деятельности учащихся.

Ключевые слова: образование, современный подход, образовательная экосистема, основанная на ценностях, духовный уровень, духовный иммунитет.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi zamonaviy muommolarni hal qilish uchun yangi axborotni o'zlashtiradigan va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, ya'ni, interfaol metodlar innovatsion texnologiyalarning o'rnini nihoyatda beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Biz g'aroyib davrda yashayapmiz: atrofimizdagi olam juda tez suratlarida, tanib bo'lmas darajada o'zgaryapti, ho-

zirgi kundagi yosh avlod bilan o'tgan davrdagi avlodning farqi ko'ryapmizki, sezilarli darajada ajralib turadi. Agar o'qituvchi bu jarayonda rivojlanmay qotib qolsa, yosh avlodning tarbiyasi, fikrlashi ham izdan chiqadi. Shuning uchun o'sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o'qituvchi bolalarni rivojlantirish bilan birga o'zini ham kamol toptirib borishi lozim.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi rivojlanayotgan zamonaviy hayotimizda o'quvchilarni kamol toptirish ham zamon bilan hamnafas bo'lishga undaydi. Shu bilan birgalikda tarbiya va ta'lim birgaligi haqida ham chuqur fikrlashni talab etadi. Bu tushunchalar haqida gap ketganda ko'plab adabiyotlarni misol keltirib o'tish mumkin. Jumladan Hasan

boyev J. va boshqalar (Pedagogika. Toshkent: Fan, 2006) va shu bilan birgalikda To'raqulov X.A. "Kamolot sari" (Jizzax, 2007-yil) adabiyotini ham misol keltirish mumkin. Quyida keltirgan adabiyotda oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik turkumdagi o'quvchilarni fanlarni o'qishi, tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etishi va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari vositasida o'zlashtirilishi kabi masalalarga alohida to'xtalib o'tilgan. Shu jihatdan hozirgi zamon talabalarining faol bo'lishi taqozo etiladi. Bugungi kun talabari zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni yaxshi bilishi va uni afzal ko'rish, ayni paytda, ular bilim olish masalasida faollashishi kerakligi va unga pedagog alohida e'tibor berishi haqida aytib o'tilgan. Ushbu adabiyotlar bo'lajak pedagog kadrlar uchun juda foydali manba hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola tarbiya fanini o'qitishda pedagogning imidji, o'quvchi yoki talabalarga ta'lim berishdagi bilimi va metodikasi, hozirgi zamon bilan hamnafas hamda hamohang tarzda bilim berishi uchun qanday muhim sifatlarga ega bo'lishi yoritilgan. Shu jumladan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qanday ko'nikmalarga ega bo'lishi haqida ham firlar yuritilgan.

Tahlillar va natijalar

Hozirgi kundagi pedagog kadrlar yosh avlod bilan ishlashi bilan birgalikda, ular o'z ustida doimiy izlanishda bo'lishi juda zarur. Bugungi kundagi zamonaviy o'qituvchi imidjini shakllantirishda kerak bo'ladigan asosiy pedagogik odatlar:

- o'zgarish;
- o'z xatolarini tan olish;
- rivojlanish;
- bolalarga hurmat;
- tolerantlik;
- o'qituvchi o'zining xizmat ko'rsatayotganini tushunishi;
- mehnati va bilimi bilan hurmat qozonish;
- chegarani his qilish;
- o'z vazifasini tushunish;
- o'zini-o'zi tanqid qilish va baholash;
- o'zini-o'zi o'qitish.

Mamalakatimizda ta'sis etilgan "Tarbiya" fanining eng asosiy ilmiy tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

- tarbiyaga oid pedagogik merosni o'rganish;
- tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o'zlashtirish;
- tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarni bilish;
- tarbiyachining o'z individual tarbiyaviy tajribasining bo'lishi.

Mazkur ilmiy-tadqiqot metodlari o'rganish, manbalarni o'zlashtirish va tajriba o'tkazish asoslarida o'rganiladi. Bu metodlar pedagogik turkumdagi barcha fanlarda qo'llaniladi. Biroq ushbu metodlardan "Tarbiya" fani ilmiy-tadqiqot metodlarini belgilashda quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

- a) tarbiyaga oid pedagogik meros o'rganilganda qadimdan kelayotgan tarbiya g'oyalari, usullari, tizimi va uni amalga oshirish yo'llariga alohida e'tibor beriladi;
- b) tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o'zlashtirishda tarbiyaviy yondashuvlar, ularning

amaliy tajribadan o'tganligi va bugungi kun talablariga javob berishi masalalariga diqqat qilinadi;

v) tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirishda aynan tarbiya masalasiga yo'naltirilgan davlat standartlari, malaka talablari va murabbiy-o'qituvchilarga qo'yiladigan pedagogik talablarni o'rganish va ularga amal qilish masalalariga e'tibor beriladi;

g) tarbiyachining o'z individual tarbiyaviy tajribasiga ega bo'lish uchun talabalik davridayoq tarbiya asoslari, metodologiyasi, didaktikasi va amaliyotini o'zlashtirish bilan pedagogik hamda malakaviy amaliyotlar davrida amaliy ko'nikmalar bilan qurollanishga diqqat qilinadi.

Bularning barchasi "Tarbiya" fanining ilmiy-tadqiqot metodlari bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lish asoslari hisoblanadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi taqozo etiladi:

- tarbiya asoslarini o'zlashtirishga qiziqish;
- bolaparvarlik sifatiga ega bo'lish;
- muntazam o'zi ustida ishlab borish;
- o'z tajribalarini ommalashtirish. Bular oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik turkumdagi fanlarni o'qish, tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari vositasida o'zlashtiriladi. Shu jihatdan hozirgi zamon talabalarining faol bo'lishi taqozo etiladi. Bugungi kun talabari zamonaviy texnik texnologiyalardan foydalanishni yaxshi bilishadi, ayni paytda, ular bilim olish masalasida faollashishi kerak[3].

Mazkur ko'nikmalarni o'zlashtirishda hozirgi oliy pedagogik ta'lim jarayonida quyidagi mashg'ulotlarning turlari muhim ahamiyatga ega:

- amaliy mashg'ulotlar;
- mustaqil ta'lim mashg'ulotlari;
- o'quv jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar;
- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar.

Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur mashg'ulotlarni tashkil etish va amalga oshirish tizimini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Ayni paytda, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarining topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish bilan ta'kidlangan ko'nikmalarni kutilgan darajada o'zlashtirish imkoniyati mavjud. "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini idrok etishda milliy va xalqparvarlik tamoyillariga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bugungi kunda maktablarda amalga oshirilayotgan "tarbiya jarayoni umumxalq xususiyatiga ega bo'lmoqda". Buning ma'nosi shuki, umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan "Tarbiya" fani umumxalq xususiyatiga, ya'ni xalqimizga xos bo'lgan fazilatlar, odatlar va turmush-tarz madaniyati asoslariga tayanishi lozim.

"Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini shakllantirish va uni o'zlashtirish tizimlarini belgilashda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida belgilangan vazifalarni birlamchi bilish;
- pedagogik tadqiqotlarda tajriba-sinovdan o'tgan metodlarni qabul qilish;
- innovatsion va integratsion xususiyatlarga ega

yondashuvlarni ilmiy ishlanmadan o'tkazgan tarzda ilmiy muomalaga kiritish;

- o'zining ilmiy maktabiga ega bo'lgan pedagoglarning individual tajribalarini amaliyot sifatida qabul qilish;
- milliy va umuminsoniy pedagogik qadriyatlarni tavsiflovchi g'oyalarga asoslanish.

Aynan bunday yondashuv ushbu fanning ilmiy-tadqiqot metodlarini belgilab olishda zamonaviylikni keltirib chiqaradi. Chunki bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qitilayotgan pedagogik turkumdagi fanlarning umumiy va individual ilmiy-tadqiqot metodlari mavjud. Umuman bizning yondashuvimiz "Tarbiya" fanining ilmiy-tadqiqot metodlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi shart.

O'quvchilarning ruhiyatiga mos ravishda muloqotda bo'lish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egalash va uni o'z o'rnida qo'llay olishi kerakligini bilamiz. Bugungi kunda an'anaviy ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida, o'qitishning noodatiy, rivojlantiruvchi texnologiyalarini ham bilishi zarur. O'qituvchini ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'zni ulardan foydalanish hamda usul, metod, texnologiya tushunchalarini farqlay olishlari quyidagi, – "aqliy hujum" – "tarmoqlar (klaster)" – "assessment" – "bumerang" – "skrabej" – "charxpalak" – "rezyume" – "keys-stadi" usul va metodlari, texnologiyalari haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari va ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalana olishlari lozim [4].

Albatta, xislatlarning bariga ega bo'lish oson emas. Ko'p hollarda maktabda, kollej-litseylarda o'qituvchilarni tanlab olish imkoniyati mavjud emas. Biroq shunga qaramay idealga qarab intilish zarur. O'quvchilariga namuna, ibrat bo'la olishi zarur. O'qituvchi o'zida komil inson sifatlarini ko'rsata olsa, o'quvchilar ham ijobiy tomonga qarab rivojlanadilar. O'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan muommolarni qanday hal qilish albatta, o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Shu qatorda taniqli rus pedagogi, A.S. Makarenkoning o'qituvchining kasbiy fazilati to'g'risidagi fikrlarni keltirib o'tishni joiz deb bildim. "Pedagog darsda ma'lum bir o'ziga xos rol ni o'ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o'ynashni bilmaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma'lum ma'noda aktyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe'limiz, harakterimiz biz uchun pedagogik qurol bo'lishi ham aslo mumkin emas. Bolalarni qalb va ko'ngil azoblari bilan, hijronli his - tuyg'ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axir biz insonmiz. Har qanday boshqa kasb egalarida ko'ngil zahmatisiz ish bitirish mumkin bo'lsa, pedagog

ham ko'ngil azobisiz faoliyat olib borishi lozim bo'lardi. O'quvchiga ba'zan muloqotda ko'ngil azobini namoyish etishga to'g'ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobiy rol o'ynashni ham bilishi kerak. Tasodifiy pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganda, tushkun bir ahvolda tushganida ichki hissiyotlarini bir holatdan boshqa holatga, bir shakldan boshqa shaklga aktyorlarga xos iqtidor bilan o'tkazishni ham bilishi kerak [5].

Ta'lim tizimida yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari masalasini o'rganishga kirishishdan oldin "Pedagogik tizim" va "Pedagogik tizimda yangiliklar kiritish" tushunchasini aniqlab olaylik. Pedagogik jarayon bilamizki, pedagogik tizim asosida yo'lga qo'yiladi. Pedagogik tizim - bu tashkil etuvchilarning birlashtirilgan majmui bo'lib, ular o'zgarishlarda ham barqarorligicha qolaveradi. Agarda o'zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir mumkin bo'lgan chegaradan oshib ketsa, tizim buziladi, uning o'rniga yangi boshqa xususiyatli tizim yuzaga keladi. Pedagogik tizim - elementlarning juda mustahkam birlashuvidir. Har qanday pedagogik tizimning tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar yig'indisidan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda quyidagi ko'rinishga ega:

- o'quvchi;
- tarbiyaning maqsadi;
- tarbiya mazmuni; tarbiya jarayoni;
- o'qituvchilar (yoki TTV - ta'limning texnik vositalari);
- tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllaridan iborat bo'ladi. Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har birini har qanday darajada elementlarga bo'lib, yoyib ko'rsatilishi mumkin. Ko'rilgan tizimni mukammal tarkibiy tuzilish emas deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko'rsatib o'tilganlarga qo'shila olmaydiganlar pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismlari, shuningdek, "natijalar", "o'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish", "texnologiya"lardan iborat, deb ham hisoblashlari mumkin. Ular berilgan chizmadagi pedagogik tizim modelida ko'zga tashlandi.

Xulosalar

Maqsadlar natijalar bilan mos kelib, uzluksiz jarayonni tashkil etadi. Maqsadlarning natija bilan to'la mos kelishi pedagogik jarayonning ishonchi, o'lchov ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan har bir shaxs jumladan bo'lajak pedagog ham o'z maqsadi orqali natijalarga erishishi uchun to'xtovsiz izlanishda bo'lishi zarur. Bu esa kelajak poydevorlari bo'lgan yoshlarimiz uchun juda zarur hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. 592-b.
2. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. «Ma'rifat gulshani» gazetasi, 6 (11) 2007-yil.
3. To'raqulov X.A. Kamolot sari. Jizzax, 2007, 181-182-betlar.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8-jild, 270 bet.
5. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2006. 284-bet.
6. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. 480-b.

Nigora NE'MATOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti

CHET TILDA MUSTAQIL TA'LIM OLIISHNING LINGVOPSIXOLOGIK VA METODIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada chet tilda ta'lim olish va unda mustaqil ta'limning o'rni xususida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari chet tilda mustaqil ta'lim olishning lingvopsixologik va metodik xususiyatlari xususida ham batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, lingvopsixologik, metodik, prinsip.

Аннотация: в данной статье представлена информация об изучении иностранного языка и роли самостоятельного образования в нем. Кроме того, дается подробная информация о лингвопсихологических и методических особенностях самостоятельного обучения иностранному языку.

Ключевые слова: самостоятельное образование, лингвистическое, психологическое, методическое, принцип.

Annotation: this article provides information about learning a foreign language and the role of independent education in it. In addition, detailed information is given on the linguistic-psychological and methodical features of independent learning in a foreign language.

Key words: independent study, linguistic, psychological, methodological, principle.

Til o'rganish aqliy faoliyat bo'lganligi tufayli, uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy tekshiriladi. Shu munosabat bilan chet til o'qitishning psixologik prinsiplarini tadqiq etish ehtiyoji tug'iladi. Ilmiy manbalarda chet til o'qitishning ikkita psixologik prinsipi ishlab chiqilgan. Psixologik prinsiplar „verbalizatsiya“ va „korrelatsiya“ nomlarini olgan. Chet til o'qitishning psixologik prinsiplaridan **verbalizatsiya** ma'no doirasiga quyidagilar kiradi: o'zga til amalda faqat og'zaki nutq orqali o'rganiladi, ya'ni og'zaki nutq ta'lim maqsadi bo'lsagina begona tilni o'zlashtirishga yo'l ochiladi. Shunday qilib, tilda verbalizatsiya prinsipi og'zaki nutq o'rgatishni taqozo etadi. Psixologik prinsipning ikkinchisi korrelatsiyadir. **Korrelatsiya** prinsipi terminini mana bunday tushunish mumkin: chet til material (leksika, grammatika va talaffuz)ning muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo'ljallangan til birliklari majmuyi shakllanadi. Nutq mavzulari leksikani tanlashda belgilovchi metodik mezon vazifasini o'taydi. Til hodisalari-ga oid mavhumotlar nutq malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi, ular yod olinmaydi va h.k. Chet til qoidasini yod olmaslik masalasi ruhshunoslikda isbotlangan. Chet til o'qitishda boy psixologik ma'lumotlardan foydalanish odat tusiga kirgan. Biroq psixologik prinsiplar shu ikkalasi bilan chegaralanadi. Til o'qitishning tilshunoslik asoslari birmuncha tadqiq etilganligiga qaramay, metodika fanida hozirgacha chet til o'qitishning lingvistik prinsiplari masalasiga qo'l urilgan emas. Ular o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Metodika prinsiplari mohiyatini yoritishda psixologik va lingvistik qonun-qoidalarga suyanib ish ko'riladi. Chet tillar o'qitish metodikasida prinsiplarni tadqiq etish, ularni ilmiy-nazariy asoslab berish masalalari ko'plab metodistlar e'tiborini tortib keladi. Chet el va mamlakatimiz metodikasi manbalarida

bu sohada munozarali fikrlar yoritilgan. Avvalan, chet til o'qitish metodikasi prinsiplarini olg'a surish mezonlari haqida fikr yuritiladi. Birinchisi bu mezon chet tildan boshqa o'quv predmeti metodikasiga tatbiq etish o'rinsizligi, ya'ni ushbu predmetning o'zigagina xosligi mezoni. Ikkinchisi, chet til metodikasida shakllangan prinsipga oid ilmiy tushunchalarning hatto yaqin fanlarga ham daxli yo'qligi, mazkur sohanigina aks ettira olish mezoni. Masalan, qiyinchiliklarni cheklash prinsipi boshqa fanlarni o'qitishda ham ishtirok etishi mumkin. Shu bois ta'limshunoslik yoki ruhshunoslik prinsiplari chet til metodikasida ushbu fanning xususiyati inobatga olingan holda tatbiq etiladi, xolos. Birgina misol: qiyinchiliklarni cheklash prinsipining chet tilda boshqa tomoni ham namoyon bo'ladi, ya'ni osondan qiyinga prinsipi bevosita qabul qilinmasdan (tish oraliq'i undoshi o'rgatilishini eslang), qiyinchiliklarni taqsimlab berish orqali ro'yobga chiqadi. Soniyani, mazkur mezonlar asosida metodik prinsiplar tadqiq etiladi. Chet til o'qitish metodikasi prinsiplari mazmunan va shaklan bir xil emas. Ayrimlari umumlashgan (mas., nutqiy yo'nalganlik prinsipi), boshqalari tor ma'noda (mas., og'zaki nutqning ilgarilashi prinsipi) qo'llanadi, qolganlari esa ushbu predmet mohiyatiga o'ta xosligi bilan (mas., grammatikani o'rgatish prinsiplari) ajralib turadi. Binobarin, chet til o'qitish metodikasining umumiy, xususiy va maxsus prinsiplari ishlab chiqilgan. Ushbu prinsiplarni farqlash va izchil asoslash fanda oxirigacha to'liq yetkazilmaganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Metodikaning *umumiy prinsiplari* quyidagilardan iborat: a) chet til o'qitishning nutqiy yo'nalganlik prinsipi; b) chet tilni chegaralab (farqlab) va yaxlit o'rgatish prinsipi; c) mashqlarga asosiy o'rin berish prinsipi; d) til tajribasini hisobga olish prinsipi.

Ilmiy manbalarda birinchi nomdagi prinsip

barcha mutaxassislar tomonidan yakdil tan olingan. Ikkinchi prinsipi prof. G. V. Rogova va boshqalar tavsiya etgan. Uchinchi prinsip prof. M. V. Lyaxovitskiy tadqiqotlarida uchraydi. To'rtinchi prinsip aksariyat metodistlar tarafidan ma'qullanishi bilan birga, uning nomlanishida jiddiy farq seziladi. Rus tilida chop etilgan yoki rus maktablari tajribasini aks ettiradigan ilmiy adabiyotlarda "ona tilini hisobga olish prinsipi" termini qabul qilingan. O'zbek maktablarida chet til o'qitish tadqiqotchilari asarlarida u „til tajribasini hisobga olish prinsipi“ deb ishlatiladi. O'quvchilar chet tildan avval ona tili va ikkinchi til o'rganishlari sababli bu prinsipga shunday nom berilgan. Umumiy prinsiplar quyidagicha sharhlanishi mumkin. Nutqiy yo'nalganlik prinsipiga ko'ra chet tilni aloqa vositasi sifatida egallash, ya'ni o'quv dasturidagi mavzular doirasida nutqiy ko'nikma va malakalar hosil qilish maqsadida ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Chet tilni amaliy egallashga nutqiy mashqlar tufayli erishiladi. Til materialini o'rgatuvchi mashqlar miqdori juda ko'payib ketsa, nutqiy yo'nalganlikka putur yetadi. Leksik, grammatik, talaffuz mashqlarining davomi chet tildagi nutqda ularni qo'llash bilan yakunlanadi. Til birliklarini o'zlashtirish nutq faoliyatini egallashga bo'ysundiriladi. Pirovard natija chet tilda axborot olish/berish bilan tugallanishi amaliy yo'nalganlik prinsipining asosiy shartidir. Nutqiy yo'nalganlik prinsipi talabiga binoan chet til o'rganuvchilar gapiruvchi, o'quvchi, tinglovchi, yozuvchi sifatida nutq faoliyatida ishtirok etadilar. Ikkinchi prinsipga ko'ra chet tildagi nutq farqlanib, til materialini esa yaxlit tarzda o'rganiladi. Chunki gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv o'ziga xos xususiyatga molik. Og'zaki nutq (gapirish va tinglab tushunish), yozma nutq (o'qish va yozuv), gapirish (yakkanutq va juftnutq), o'qish (ovozli va ovozsiz), ovozsiz o'qish (mazmunni umumiy tarzda yoki to'liq tushunish), yozuv (yozish, imlo, yozma fikr bayon etish)ni farqlab o'rgatish ushbu prinsip mazmunini tashkil etadi. Qayd etilgan nutq faoliyati turlari yoki ularning tarkibiy qismlari ta'limning turli bosqichlarida o'z chegarasi (sifat va miqdor o'lchovi) mavjud. Ularni farqlab o'rgatish deganda, bir-biridan butunlay ajratib tanlash emas, balki har birining muayyan ko'rsatkichi borligi tushuniladi, ya'ni ular o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. O'quv dasturi va darsliklar bularni hisobga olib tuziladi. Muhokama qilinayotgan prinsipning ikkinchi qismi yaxlit o'rgatishga bag'ishlanadi. Yaxlitlik (integratsiya) til materialini o'zlashtirishga taalluqli metodik hodisa. Leksika, grammatika va talaffuz birliklari tarqoq holda emas, balki yaxlit tarzda, ya'ni leksikada grammatika, leksika va grammatika asosida esa talaffuz o'rgatiladi. Ajratib o'rgatish hollari ularning qiyinchiligini bartaraf etish uchun kerak. Yaxlitlik tinglab tushunish va

gapirishni mashq qilishda, o'qish va tinglab tushunish, o'qish va yozuvni o'rganishda ham kuzatilishi tabiiy. Tajriba ko'rsatishicha, har bir darsda (birinchi yilning dastlabki mashg'ulotlari bundan mustasno) o'quvchi gapiradi, tinglaydi, o'qiydi va yozadi. To'rtala nutq faoliyati turi bo'yicha bajariladigan mashqlar miqdoran bir xil emasligi muallimlarga ma'lum. Ta'lim jarayonida uzviy aloqa o'rnatilishi til materialini o'rganishga, chegaralash esa nutq faoliyati turlarini egallashga ko'proq daxldor prinsipdir. Uchinchi metodik prinsip talqini, o'z nomidan ravshanki, chet til o'qitishda mashqlar bajarish asosiy ish usuli ekanini tasdiqlaydi. Til materialini, til texnikasi, nutq faoliyati turlari, o'zlashtirish bosqichlari kabilarni nazarga olib mashqlar bajariladi: leksika, grammatika, talaffuz mashqlari, gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv mashqlari, yozish va o'qish texnikasi mashqlari, ko'nikma va malaka hosil qilishga mo'ljallangan mashqlar. Umumiy prinsiplar ichida til tajribasini hisobga olish alohida ahamiyatga molikdir. O'quvchi hozirgacha o'zlashtirgan ona tili va ikkinchi til hamda chet tilning o'zidan o'rganilgan hodisalar yangi material taqdimoti chog'ida ko'maklashuvchi yoki qarshilik ko'rsatuvchi omil bo'lishi mumkin. O'quvchi ongida aloqaga kiradigan uchala til operatsiya, harakat va faoliyat darajalarida to'qnashadi. Boshqacha qilib aytganda, oldin o'zlashtirilgan til mavhumoti, ko'nikmasi va nutq malakasi o'rganilayotgan tilga salbiy/ijobiy ta'sir qiladi. Qisqasi, to'plangan til tajribasi istiqbolda ko'zlanadigan nutq ko'nikma va malakalarini egallashda hisobga olinmogi lozim. Nutq malakalarining ijobiy (transpozitsiya) yoki salbiy (interferensiya) ko'chishi haqidagi ma'lumotlar mashqlar sistemasini tuzishda hisobga olinishi shart bo'lib, o'quv jarayonida ular haqida o'quvchilarga bayonot berilmaydi. Oz yoki ko'p kuch va vaqt sarflanishi til birligining oson yoki qiyinligi bilan belgilanadi. Yuqoridagi fikrlardan qisqacha xulosa shuki, chet til o'rgatish metodikasi umumiy prinsiplari ushbu chet tilning mohiyatini ifodalash, boshqa predmetlardan uning keskin farqini ko'rsatish va o'qitish yo'l-yo'riqlarini aniqlashga jiddiy yordam beradi. Chet til o'qitishning xususiy prinsiplariga kelganda, ular bayon etilgan umumiy prinsiplar bilan mazmunan tutashgan bo'lib, torroq ma'nodagi metodik hodisalarni aks ettirishini ta'kidlash darkor. *Xususiy prinsiplar* tizmasi quyidagilardan iborat: 1) nutq namunasi asosida chet til o'rgatish; 2) til mashqlarini nutq amaliyoti bilan bog'lash; 3) nutq faoliyati turlarining o'zaro munosabati; 4) og'zaki nutqning ilgariilashi; 5) chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish; 6) ibtidoiy bosqichni jadallashtirish. Chet tillar o'qitish metodikasi fanida xususiy prinsiplar haqida g'oyat tarqoq va bir-biriga zid ma'lumotlar keltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Верещагина И. Н., Рогова Г. В., Языкова Н. В. Методика обучения английскому языку: 1—4 классы: Пособие для учителей и студентов педагогических вузов. — 4-е изд. — М.: Просвещение, 2008. — 223 с.
2. Тальскова Н. Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. — 2-е изд. — М.: АРКТИ, 2003. - 162 с.

3. Демьяненко М. Я., Лазаренко К. А., Кислая С. В. Основы общей методики обучения иностранным языкам: Теоретический курс/Под ред. М. Я. Демьяненко — Киев: Вища школа, 1976. - 282 с.
4. Джалалов Д. Д. Проблемы содержания обучения иностранному языку. — Т.: Фан, 1987. — 110 с.
5. Zaripova R. A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma, — T.: O'qituvchi, 1986. 184-b.
6. Eshankulovna, Rustamova Adash. "THE DEVELOPMENT OF LISTENING AND SPEAKING SKILLS IN THE TEACHING OF FOREIGN LANGUAGES IN PRIMARY SCHOOLS IN UZBEKISTAN." *Archive of Conferences*. 2021.
7. Eshankulovna, Rustamova Adash. "THE IMPORTANCE OF STUDENTS' PSYCHOLOGY IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS." *Archive of Conferences*. 2021.
8. Eshankulovna, Rustamova Adash, and Barakayeva Furuza Axtamovna. "THE IMPORTANCE OF ORAL SPEECH FORMATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS." *Archive of Conferences*. 2021.
9. Eshankulovna, Rustamova Adash. "THE TRADITIONAL AND INNOVATIVE METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS." *Archive of Conferences*. 2021.
10. Jalolov Jamol Jalolovich. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O'qituvchi, 2012. 432-b.

Bahora TOYIROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

INGLIZ TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: maqolada ingliz tili fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati xususida so'z yuritilar ekan, fanni o'zlashtirish biroz murakkabligini hisobga olgan holda o'quvchining barcha imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tilni rivojlantirishda yangi metodlardan misollar keltirilib, uning ahamiyati ochib beriladi.

Tayanch so'zlar: *Ingliz tili, metodika, fan, uslub, dars, o'quvchi, pedagog, vosita.*

Аннотация: в статье говорится о важности использования новых педагогических технологий в обучении английскому языку, анализируются все возможности студента с учетом сложности освоения предмета. Также приводятся примеры новых методов в развитии речи и раскрывается их важность.

Ключевые слова: *английский язык, методика, наука, метод, урок, ученик, педагог, инструмент.*

Annotation: the article talks about the importance of using new pedagogical technologies in the teaching of English, and analyzes all the possibilities of the student, taking into account the complexity of mastering the subject. Also, examples of new methods in language development are given and its importance is revealed.

Key words: *English language, methodology, science, method, lesson, student, pedagogue, tool.*

O'zbekistondagi har bir universitetda, maktabda, maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ingliz tili darslari o'tiladi. Qayerga qarasaq, bannerlarda, e'lon taxtalarida ham ingliz tili kurslari haqidagi yozuvlarga ko'zimiz tushadi. Ko'pchilikda "Nima uchun ingliz tili dunyodagi eng mashhur til?" degan savol tug'iladi.

XVII asrdan boshlab Angliya dunyoning ko'plab davlatlari ustidan hukmronlik o'rnatdi va ingliz tili dengizlar osha savdo tiliga aylana boshladi. Barchaga mashhur Ost va Ust-Indiya kompaniyalari kirib borgan hududda aholi inglizcha yashash tarziga ko'nika boshladi.

Buning ortidan davlatlar o'rtasida hamdo'stlik tuzilishi Buyuk Britaniyaga katta harbiy salohiyatni yaratishga imkon berardi.

XX asrning ikkinchi yarmida AQSh davri boshlandi. AQSh eng kuchli mamlakatga aylanib, o'z mahsulotlari bilan jahon bozorlarini to'ldirdi. Amerikada kompyuter va internet yaratilishi ingliz tilining butun yer shariga tarqalishiga olib keldi. O'rta asrlarga qadar esa ingliz tili hozirgi zamon polyak yoki turk tillari bilan bir xil darajada edi.

Dunyo bo'ylab bitimlarning 90 foizi ingliz tilida tuz-

iladi. Jahon moliyaviy fondlari va birjalari ingliz tilida faoliyat yuritadi. Yirik korporatsiyalar dunyoning har bir chekkasida ingliz tilidan foydalanadi. Garchi ingliz tilida so'zlashmasa ham, xorijiy sarmoyadorlar uchun shu tilda takliflarni ifoda etish ancha qulay va soddaroq. Hindistonda ham milliy til hind tili, lekin hamma universitetlarda, maktablarda ingliz tili o'qitiladi.

Chet tilini rivojlantirish orqali dunyo tan olgan davlatlar standartiga javob bera oladigan maktab dars, darslik yaratish biz pedagoglarning vazifamizdir. Quvonarlisi, ingliz tilida biyron so'zlasha oladiganlar maktabning birinchi sinfidayoq topilayotgani, tizimda ingliz tili mutaxassislarning ko'p mehnati singayotganidan dalolatdir. Ayniqsa, chet tilida xalqaro darajalarga erishayotgan o'quvchilar safi kundan kunga ko'payib bormoqda. Shuningdek, milliy oliygoharimizdan tashqari dunyoning top 1000 talikka kirgan universitetlarga bir o'quvchining yettitanidan ortig'iga talaba bo'layotgani ham bizni quvontiradi. Darvoqe, fanni o'zlashtirish biroz murakkab jarayon. O'zga tilni o'z tilidek mukammal o'zlashtirishda esa pedagogning mahoratiga bog'liq. Bunda yangi pedagogik uslublardan foydalanish ham

muhim ham samaralidir. An'anaviy darsdan ko'ra o'quvchi yangi texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori bo'ladi. Quyida shu kabi yangi pedagogik usublarning mohiyati va amalda qo'llay olishdagi samaralari haqida so'z yuritimiz.[1]

Ko'pgina adabiyotlarda hozirgi kunda eng omma-viy interfaol ta'lim metodlar "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" ekanligi qayd etiladi. Ma'lumotlarga ko'ra interfaol ta'lim strategiyalari qatoriga "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" uslublar kiradi. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategiyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli.[2]

Quyida yangi interaktiv metodlardan bir nechtasini tahlil qilsak.

"FIKRIY HUJUM" metodi

Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

"Fikriy hujum" metodining asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. "Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 10-15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

"YALPIY FIKRIY HUJUM" metodi

Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan top-

shiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruhlar a'zolarining faoliyatlarini ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

"6x6x6" metodi

"6x6x6" metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.[3]

"6x6x6" metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

- guruhlarining har bir a'zosining faol bo'lishiga undaydi;

- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;

- guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;

- ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har bir qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlarida qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida "6x6x6" metodi qo'llanilganda vaqtni ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotganda mashg'ulotlarda quruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzuni qilish imkoniyati mavjud.[4]

"6x6x6" metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarining to'g'ri shakllantirilmagani topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Bu metod yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stol qo'yib chiqadi.

2. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadi. O'quvchilarni guruhlariga bo'lishda har o'rindiqni nomlab, nomlangan varaqchalarni olganlar o'z o'rinlariga joylashadilar.

3. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi va guruhlariga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O'qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamaodoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.[5].

Xorijiy tilni o'rganibgina, o'z ona tilimizni ko'proq qadrlay boshlaymiz. Unda bolalikdan gapirishni boshlaganimiz uchun, u qanday qurilgani haqida o'ylamaymiz, ko'pincha uning go'zalligini anglamaymiz. Amerikalik olimlar tadqiqot o'tkazib, bir nechta tillarni biladigan kishilarga so'zlarni tushunish bo'yicha topshiriqlar berdi va ularning tomograflarini kuzatdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bunday odamlar faqat bitta tilda gapiradiganlarga nisbatan, o'xshash so'zlarni yaxshi aniqlay oladi. Ushbu qobiliyat turli chalg'ituvchi omillarni bloklay, bitta vazifaga diqqatni qaratishga yordam beradi. 2007-yilda Chet tillarni o'qitish bo'yicha Amerika kengashi to-

monidan o'tkazilgan tadqiqot doirasida xorijiy tillarni o'rganayotgan bolalar maktab dasturida matematikaga ko'proq soat ajratilgan, ammo chet tillarni umuman o'qimaydigan o'quvchilarga nisbatan, matematika bo'yicha yaxshiroq natijalarni ko'rsatgani aniqlandi. Hayratlanarli tomoni yo'q - boshqa til asoslarini o'rganish mantiqiy fikrlashni ishga tushiradi. Chet tilini o'rganishda yangi axborotni eslab qolish qobiliyati yaxshilanadi, bu o'qish vaqtini kamaytiradi. Buning ustiga, ko'p til biladiganlar bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni bajarishga moyil bo'ladi. Xorijiy tilni o'rganish mohiyati - boshqa odamlar bilan muloqotdan iborat. Suhbatlashish malakalarini takomillashtirish uchun esa, yaxshisi, shu tilda so'zlashuvchi yoki bu tilni allaqachon o'rganib bo'lgan kishilar bilan shug'ullangan ma'qul. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilib, pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi hamda o'qituvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptiradi. Bundan tashqari, o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlaydi. O'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.[6]. Hamda o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov Jamol. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi – Toshkent,-2012.
2. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent -2012.
3. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. - Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. - 2017. -№ 4.2 (138.2). - С. 36–37. -URL:
4. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma) – Navoiy, 2006, 40-bet.
5. Xoldorova M., Fayziyeva N., Rixsittilayeva F. "Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish". – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
6. Hoshimov O'., Yoqubov I. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma) – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003

Клара ИБАТОВА,
преподаватель кафедры русского языка
Ташкентского университета прикладных наук

ТЕХНОЛОГИЯ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: в данной статье рассматривается **технология проблемного обучения**, методические приемы в создании проблемных ситуаций в процессе обучения, основные достоинства и недостатки проблемного метода обучения.

Ключевые слова: проблемное обучение, мышление, проблемные ситуации, технология, методология.

Аннотация: ushbu maqolada muammoli ta'lim texnologiyasi, o'quv jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratishdagi metodik usullar, muammoli o'qitish usulining asosiy afzalliklari va kamchiliklari ko'rib chiqiladi.

Калит so'zlar: muammoli ta'lim, fikrlash, muammoli vaziyatlar, texnologiya, metodika.

Annotation: this article discusses the technology of problem-based learning, methodological techniques in creating problem situations in the learning process, the main advantages and disadvantages of the problem-based teaching method.

Key words: problem-based learning, thinking, problem situations, technology, methodology

Целью образовательных организаций является формирование гармонически развитой личности. Главным показателем всесторонне развитой личности является высокий уровень умственного развития [1]. Если обучение ведет к развитию творческих способностей, его считают развивающим. Обучение ведется на основании знаний закономерностей развития мышления, и с использованием специальных педагогических средств, ведущих целенаправленную работу по формированию мыслительных способностей и познавательных потребностей учащихся в процессе изучения цели основ наук. Такое обучение называется проблемным.

Суть технологии проблемного обучения заключается в том, что оно переводит студентов с выслушивания предметного материала на их учебную работу и становление их мышления. При проблемном обучении итогом усвоения является не воспроизведение образцов, данных воспитателем, а их самостоятельный поиск. Обучающиеся становятся участниками процесса поиска решения, начинают понимать причины его появления, а не просто заучивают этапы достижения результата [2].

Проблемное обучение является личностно-ориентированной педагогикой, в которой учащиеся узнают о предмете через опыт решения открытой проблемы. Это способствует развитию гибких знаний, эффективных навыков решения проблем, самостоятельного обучения, эффективного взаимодействия навыков и внутренней мотивации. Таким образом, проблемное обучение – это активное обучение.

Работая в группах на уроках русского языка в неязыковых ВУЗах, учащиеся определяют: что они уже знают, что им нужно знать, и, как и где можно получить новую информацию, которая может привести к разрешению проблемы. Роль преподавателя – это облегчение процесса обучения, поддержание, направление и контроль учебного процесса. Он должен укрепить доверие учащихся, чтобы заняться этой проблемой, и поощрять их, расширять границы их понимания. Проблемное обучение представляет собой уход от традиционного преподавания и изучения теоретических знаний.

Цель активизации деятельности при использовании проблемного обучения состоит в том, чтобы понять уровень усвоения понятий и обучить системе умственных действий для решения нестандартных задач. Активность учащихся заключается в том, чтобы ученик, используя имеющиеся у него знания, умения и навыки, сам получал новое знание. Другими словами, это умение найти решение проблемы в конкретной ситуации, с помощью имеющихся знаний. В этом и заключается поисковый метод учения.

Умственный поиск – сложный процесс, который начинается с проблемной ситуации, проблемы.

Однако не каждый поиск связан с возникновением проблемы. Если учащиеся выполняют задание учителя с использованием указаний по его решению, то даже самостоятельный поиск не будет решением проблемы [3].

Истинная активизация учащихся характеризуется самостоятельностью в поиске пути решения проблемы. Если целью поиска является решение теоретической, практической учебной проблемы, то он превращается в проблемное учение.

Проблемное и традиционное обучение различаются по цели и принципам организации педагогического процесса.

Цель проблемного обучения не только усвоение результатов научного познания, системы знаний, но и самого процесса получения этих результатов, формирование познавательной самостоятельности обучающегося и развитие его творческих способностей.

Цель традиционного обучения – освоение результатов научного познания, формирование у обучающихся знаний основ наук, развитие должных умений и навыков [2].

При проблемном обучении работа учителя русского языка состоит в том, чтобы объяснять содержание сложных понятий, регулярно создавать проблемные ситуации, сообщать учащимся факты и создавать их учебно-познавательную деятельность так, чтобы они самостоятельно делали выводы и обобщения, формировали с помощью учителя определенные понятия, правила законы.

Проблемная ситуация – это интеллектуальное затруднение человека, возникающее в случае, когда он не знает, как объяснить возникшую ситуацию, и не может решить ее известным ему способом действия. Это заставляет человека искать другой способ действия [3].

Существует два основных дидактических способа организации проблемного обучения:

Монологический метод заключается в том, что учитель дает учащимся готовые знания в форме лекции или рассказа в условиях проблемной ситуации.

Рассуждающий метод заключается в создании учителем проблемной ситуации, ее анализе фактического материала, выводе и обобщении.

Диалогический метод заключается в том, что учитель организует диалог с коллективом учащихся. Он сам ставит проблему и решает ее совместно с учащимися.

Эвристический метод заключается в том, что открытие нового знания совершается самими учащимися под руководством учителя.

Исследовательский метод заключается в постановке перед учащимися теоретических и практических исследовательских заданий, которые имеют

высокий уровень проблемности. Учащийся самостоятельно совершает логические операции, раскрывает сущность нового понятия и нового способа действия.

Метод программированных заданий заключается в том, что учащиеся приобретают новые знания с помощью специально подготовленных дидактических средств.

Несмотря ни на что, проблемный метод обучения развивает творческую активность учащихся. К ней мы можем отнести: умение вести дискуссию, слушать и слышать собеседника, высказывать свою

точку зрения и аргументировать ее, умение договариваться с собеседником и находить несколько способов решения проблемы.

Применение проблемного метода способствует развитию самостоятельности учащихся, включению их в поисковую и исследовательскую деятельность, формированию познавательного интереса, поисковых навыков и умений. Он раскрывает вероятность творческого сотрудничества учителя и учащегося, способствует лучшему усвоению учебного материала.

ЛИТЕРАТУРА

Мирзиёев Ш.М. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису // Официальный сайт Президента Республики Узбекистан. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/2228>

Тимиркаева А.В. (2020). Сущность технологии проблемного обучения. StudNet, 3 (12), 1656–1662.

Шухратов Т.А. Технология проблемного обучения и методические приемы создания проблемных ситуаций в процессе обучения // Вестник науки и образования. №. 1. 2022. С. 409–413.

Шаира КУРБАНОВА,
ТГПУ

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В ГРУППАХ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: в статье речь идет об изучении художественного текста в процессе преподавания русского языка и литературы в общеобразовательной школе с нерусским языком обучения, который позволяет раскрыть функциональные и художественные возможности русского языка.

Ключевые слова: художественный текст, художественное слово, мышление, учебная ситуация, восприятие текста, познавательный интерес.

Annotatsiya: maqolada umumta'lim maktabida ta'lim tili rus tili bo'lmagan guruhda rus tili va adabiyotini o'qitish jarayonida badiiy matni o'rganish haqida fikr yuritiladi. Badiiy matn rus tilining funksional va badiiy imkoniyatlarini ochib berishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, badiiy so'z, fikrlash, o'quv vaziyati, matni idrok qilish, bilishga qiziqish.

Annotation: the article is about the study of literary text in the process of teaching Russian language and literature in a secondary school with a non-Russian language of instruction, which allows one to reveal the functional and artistic capabilities of the Russian language.

Key words: literary text, literary word, thinking, educational situation, text perception, cognitive interest.

В процессе преподавания русского языка и литературы в общеобразовательной школе с нерусским языком обучения очень важно воспитать у учащихся интерес к художественному слову, чтению художественного текста. Большая роль в этом принадлежит художественным текстам, которые позволяют глубоко раскрыть функциональные и художественные возможности русского языка. Целенаправленная работа над художественным текстом, выполнение заданий, связанных с анализом идейно-художественной сущности литературного произведения,

способствует соединению у учащихся логического и образного мышления, постижению ими смысловой полноты и точности отдельных слов и выражений, пониманию основных теоретико-литературных сведений о языке художественного произведения, уяснению словесных образов и средств их создания и самое главное – развивает интерес нерусских учащихся к русскому художественному слову.

Художественный текст – это речевое произведение, которое состоит из сложных языковых знаков, делающих его объектом филологического

анализа. Информация в художественном тексте связана между собой логически и отражает действительность, представляя тем самым результат творческой индивидуальности автора, преломленную через его мировосприятие. Художественный текст от других видов текста отличается тем, что не описывает реальных конкретных фактов, а имеет эстетическую функцию, образность и т.д. Основная характеристика художественного текста – это наличие эстетической и воспитательной функции, способность устанавливать аналогии с действительностью. Слова и фразы в художественном тексте полифункциональны, и потому позволяют читателю домысливать, истолковывать поведение литературных персонажей, основываясь на собственном жизненном опыте. Кроме этого, еще в художественном тексте герои, эпизоды, детали наделяются символическим, идеологическим, психологическим или другими значениями. А также в художественном тексте используются различные формы монологов и диалогов, составляющие наиболее специфическое звено литературного произведения.

Немаловажным фактором в формировании интереса к русскому языку является учет особенностей восприятия художественного произведения в иноязычной среде. Одна из особенностей восприятия русского художественного текста учащимися общеобразовательных школ заключается, по нашему мнению, в том, что их внимание часто нацелено лишь на событийную сторону. Поэтому задача учителя – перенести центр тяжести с сюжетно-занимательного на поисковый подход в воспроизведении и усвоении конкретных художественно-выразительных особенностей произведения.

Художественный текст помогает учащимся с нерусским языком обучения осознать русский язык как систему взаимосвязанных единиц различных уровней. Изучение языковых фактов на материале художественных текстов развивает у учащихся познавательный интерес к русскому языку.

Рассматривая вопрос о формировании интереса к конкретной учебной ситуации, а именно – развитие интереса к русскому языку на материале художественного текста, мы опираемся на мысль С.Л. Рубинштейна, согласно которой интерес есть сосредоточенность «на определенном предмете мыслей, помыслов личности», что вызывает «стремление ближе познакомиться с предметом, глубже в него проникнуть, не упускать его из поля зрения» (15).

Интерес – важное средство обучения и сильнейший мотив, стимулирующий учебную деятельность школьников. Интерес к предмету – это основное, что обеспечивает успешность обучения, помогает лучше овладеть знаниями. Попытка заставить заниматься ребенка тем, к чему у него нет внутреннего интереса ведет к раздвоению внимания, утомлению, к понижению активности, к ослаблению воли.

Практическая направленность в изучении художественного текста при соотнесении с задачами

обучения русскому языку реализуется в вопросах и заданиях коммуникативного характера. Опора на художественных текст особенно необходима при изучении раздела «Синтаксис, в частности – «Сложное синтаксическое целое». Для формирования у учащихся умений связывать отдельные фразы в единое повествование уместно обратиться к программным литературным произведениям, имея в виду, что идейно-художественное содержание их раскрыто и понято учащимися. Использование художественных текстов в качестве материала только тогда эффективно, когда оно показывает своеобразие национального художественного опыта, традиции родной культуры.

Весьма интересными и оригинальными нам представляются принципы освоения художественного текста нерусскими школьниками, выдвинутые известным ученым-методистом Л.А. Шейманом. Так, принцип комплексного словесно-образного воздействия предполагает оптимальную организацию учебного словесно-эстетического общения школьников параллельно и взаимосвязано не только на родном, но и на русском языке.

Совершенно очевидным является огромная роль художественного текста в развитии и совершенствовании русской речи учащихся, ибо он в национальной школе является не только объектом изучения, но и важным средством обучения русскому языку. Именно поэтому следует сочетать изучение русской литературы с обучением русскому языку, чтобы при этом не была упрощена ее большая образовательно-воспитательная роль, не был принижён и огромный духовный потенциал.

Художественный текст может сопровождать изучение различных аспектов языка (фонетики, лексики, морфологии, синтаксиса). Так при изучении звуковой системы русского языка могут быть использованы поэтические строки из стихотворений русских поэтов А. Пушкина, Ф. Тютчева, Н. Некрасова и др.

Богатство русских словообразовательных средств также может быть раскрыто на материале художественного текста: когда корни, суффиксы, приставки перестанут быть для учащихся только «строительным материалом», они начнут рассказывать об истории, культуре, настроении человека, станут понятней и ближе школьникам, а, стало быть, и вызовут определенный интерес.

Разделы учебника русского языка, посвященные лексике, должны показать учащимся богатство и разнообразие синонимии, полисемии, выразительных и изобразительных средств русского языка. Широкое подключение к этим разделам фольклорного материала (сказок, загадок, пословиц), литературных басен и сказок значительно обогащает систему работы, тем более если осуществляется соотнесенность с аналогичными явлениями родного языка и литературы.

Огромны возможности художественного текста при освоении лексического богатства русского язы-

ка. Как показывает практика, наилучший результат достигается при опережающем освоении лексических и фразеологических единиц художественных текстов посредством уяснения значения единиц, их категориальной характеристики и употребления в речи, что помогает осознать необычность их использования в художественном тексте.

Организуя процесс чтения художественного текста, следует исходить из того, что интенсивность продуктивной речи учащихся, базирующейся на литературном материале, прямо зависит от стимулирования внутренних побуждений, от степени понимания текста, от его сложного многоуровневого характера. Первый уровень понимания (уровень значения) преимущественно связывается со степенью полноты, а второй (уровень смысла) – со степенью глубины понимания. На первом уровне

чрезвычайно важным представляется восприятие и усвоение образной структуры слова, разнообразия всевозможных его сочетаний лексики. На втором – формируется умение выделить и определить главную мысль текста, основные аспекты содержания, отдельные факты, коммуникативные связи, познаются новейшие достижения науки, техники и культуры.

Итак, важным фактором в формировании интереса к русскому языку является работа с художественным текстом, которая способствует стимулировать стремление узбекских школьников к чтению художественных произведений на русском языке, активизирует их творческие способности, содействует всестороннему развитию личности ученика, овладению прочными навыками правильной русской речи.

ЛИТЕРАТУРА

1. Шейман Л.А. О структурной педагогической организации литературно-художественного текста как учебного материала // Рус. яз. в киргизской школе. – 1972. № 56.
2. Андрианова В.И. Совершенствование обучения русской устной речи узбекских школьников, Ташкент, Фан, 1998.
3. Горнфельд А. Г. О толковании художественного произведения // Введение в литературоведение: хрестоматия. - 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Высшая школа, 2006.
4. Шаклеин В.М., Рыжова Н.В. Современные методики преподавания русского языка нерусским. Учебное пособие, Москва, 2008.

Zarina KURBANOVA,
Teacher of Samarkand state
institute of foreign languages

METHODS OF TEACHING ENGLISH FOR BEGINNERS

Annotation: the world has changed markedly in recent decades, and possession foreign languages becomes him an urgent need, and English is known to refer Among the most commonly studied. More people who want to study it, the newer methods, so everyone can find the best solution himself.

Keywords: school, reproductive, techniques, method, education, upbringing, knowledge, skill, creative, education, innovation, visibility.

Аннотация: мир заметно изменился за последние десятилетия, и владение иностранными языками становится для него насущной необходимостью, а английский, как известно, относится к числу наиболее часто изучаемых. Чем больше желающих его изучить, тем новее методы, поэтому каждый сможет найти лучшее решение сам.

Ключевые слова: школа, репродуктивный, приемы, метод, образование, воспитание, знание, умение, творческий, образование, новаторство, наглядность.

Annotatsiya: so'nggi o'n yillarda dunyo sezilarli darajada o'zgardir va chet tillariga ega bo'lish uning favqulodda ehtiyojiga aylandi va ingliz tili eng ko'p o'rganiladiganlar qatoriga kiradi. Uni o'rganmoqchi bo'lganlar ko'proq yangi metodlar, yo'nalishlar orqali eng yaxshi yechimni topishi mumkin.

Kalit so'zlar: maktab, reproduktiv, texnika, usul, ta'lim, tarbiya, bilim, mahorat, ijodiy, ta'lim, yangilik, ko'rinish.

Before exploring how to teach English to beginners, we must consider what you should teach. Choosing the right content for your learners is one of the first and most important steps you can take. Many tutors begin by teaching **lexical sets**, which include things like numbers, animals, or food items because they seem like a

simple and easy place to start. However, this language is often irrelevant for learners and doesn't give beginners the content needed to form sentences and use the language. The key to choosing content for beginners lies in understanding their language goals and introducing functional language that they can put to use from the

first lesson. For example, a student who wants to learn English for work would benefit much more from learning basic greetings and introductions.

In the elementary grades of school, the child is small different from a pre-schooler, so it's not worth it be limited to textbooks and work in notebooks. There are many methods that They will help children to teach language and play. Moreover, modern foreign Studies show what to study English can be done with the help of others objects - this is how the child gets more current knowledge and learns at once language in real life. But do not forget that the most effective methods of learning English Language is interactive.

Therefore, the method dive into among languages now is very popular. The technique teaches <<think"> in English language and teaching of a foreign language completely happens in English. This is really not only in the bilingual family, but also in regular class. The teacher is enough fully conducting a lesson in English language, use visibility. Build occupation so that, despite the foreign language, students understood the teacher. High level of teacher training will allow you to do such a lesson even for small. if before parents' pre-schoolers and younger schoolchildren frightened such a method, now, seeing enthusiastic Children's eyes and their progress, they recognised the effectiveness of this technique. After all the best technique for learning English the one that arouses interest in learning.

For pre-schoolers and younger students more suitable for the type of lesson as the game Travel, video, competition and others. Traditional tasks are also suitable: compose story, do the exercise, read text, perform listening and so on. Compiling a story allows you to learn use active and passive vocabulary, expand vocabulary stock improve colloquial speech. Exercising Helps to learn grammatical material. Reading the text forms not only reading skills, but also immerses in Adult student prefers Classic lesson. for this age culture and traditions of the language being studied. Listening - improves understanding oral.

Project study

Children or teacher choose topics for each lesson, make projects, and then consolidate knowledge with tests interesting and promising option thanks to which you can teach not only language, but also geography, biology, history art, etc.

Suitable for both children and for teenagers. In the course of project study, schoolchildren can watch movies in English, read literature in the original, and independently collect the necessary project information. This approach, apart from other things, trains the skills of self-education, which remains relevant for all further life.

The methodology for teaching foreign languages is a system knowledge about the patterns of the process of teaching a non-native language and about ways im-

pact on this process in order to optimise it. Teaching methodology foreign language opens and substantiates the patterns teaching a foreign language. Historically, two functionally different techniques have developed: General and private methods. The general technique is usually devoted to study of the patterns and features of the learning process foreign language no matter what foreign language is going on Speech. This, the principles of selection of educational material, the ratio of oral and written speech at various stages of the lesson, etc. will be in equivalent learning conditions are the same for any of the Western European languages studied in secondary schools of our country. However, knowledge of the general patterns of learning to learn is insufficient, when a teacher encounters specific properties| specific foreign language.

Several methods, about who should be known considering some demanded modern English language technique then they are different and why everyone you need to choose the right option, depending on individual features, set goals, time and financials resources.

Audio lingual basis - auditory perception foreign speech in combination with used in memorisation new words by analogy the student remembers the base vocabulary and common language construction that Facilitates in the future independent alignment proposals.

Communicative basis - colloquial practice, Diverse communication on the language being studied, which allows to overcome with amazing ease the notorious language barrier. The main thing is not to learn, but to interest. so, it will be right to hire tutor who is perfect owns individual forms training of children and has everything necessary didactic materials. Consistency is the key to success. It is advisable to work with one tutor who will determine characteristics of the child and will be gradually develop each of the important skills: writing, oral speech, knowledge of grammar. The tutor must not only know about English, but also be able to play games, cartoons, songs, dancing - that's it what the methods are based on teaching for preschool children Teachers for a kid must be chosen by personal qualities.

Learning through reading basis - reading specially adapted literature, Lightweight training, which fits well beginners. given passive the method is remarkable in that the process based on fascinating reading and not involves execution Exercise: Associative thinking and so allows our brain to learn new material, the process is only provided additional efficiency.

An approach relatively new method, based on which lies free communication teacher with students from the first classes. The idea is that the student chooses personal history, role, name, which suitable for a native speaker and talk about himself as a resident of England. The success of such lessons will depend on

skill teacher who must teach a person not only tell fictional stories, but also to navigate in grammar. Hearing Comprehension-language is one of the most important parts of learning. The reader is one at the same time, the speaker's pronunciation, adherence to grammatical rules, the word is required to pay attention to wealth and its meanings. In the process of education in the use of modern technology, students are also informed It is important to have a good knowledge of communication technologies and to be able to use them is.

Teaching a foreign language using modern technology and Learning is one of the most effective methods. In this process, including: When using computers, the reader can make videos in a foreign language, also hear shows, dialogues, movies or cartoons possible; - Hearing radio broadcasts and programs on television and can be watched; - CD players are available. It's Technical The use of tools is the process of students learning a foreign language makes it more fun and effective.

REFERENCES

- 1.Thompson, Julia G. First Year Teacher's Survival Guide: Ready-To-Use Strategies, Tools & Activities For Meeting The Challenges Of Each School Day .(2000), p.123-135.
- 2.Wolfe, Shoshana. Your Best Year Yet! A Guide to Purposeful Planning and Effective Classroom Organization (Teaching Strategies). New York: Teaching Strategies, (2002), p.34-56.
- 3.hop://skyeng.ru/articles/standartizatsiya-obucheniya/
- 4.https://prepodavanie-angliyskogo-yazyka-v-sredney-shkole-s-ispolzovaniem-novyh-sovremennyh-tehnologiy.

Elmira Moydinova,

teacher Uzbek State World Languages University

METHODOLOGICAL BASIS OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCY OF FUTURE ENGLISH TEACHERS

Annotatsiya: maqolada kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan va universitet talabalari, xususan ingliz tili o'qituvchisi bo'lishga tayyorlanayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun uslubiy yondashuv kiritilgan. Tadqiqot ushbu uslubiy asoslarning talabalarni tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini oshirishda samaradorligini aniqladi. Empirik testlar orqali ushbu tizimning talabalarni universitetda o'qitish jarayonida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi pedagogik samaradorligi namoyish etildi.

Kalit so'zlar: uslubiy asoslar, ingliz tili, kasbiy kompetensiya, bo'lajak o'qituvchilar, yondashuv, ijodiy, innovatsiyalar.

Annotation: the article analyzes the issues related to developing professional competence and introduces a methodological approach for fostering the professional competence of university students, particularly those preparing to become English language teachers. The study revealed the effectiveness of these methodological foundations in training students and fostering their professional competence. Through empirical testing, the pedagogical effectiveness of this system in developing students' professional competence during their university training has been demonstrated.

Key words: methodological foundations, English language, professional competence, future teachers, approach, creative, innovations.

Аннотация: в статье анализируются вопросы, связанные с развитием профессиональной компетентности, и предлагается методический подход к формированию профессиональной компетентности студентов вузов, в частности тех, кто готовится стать преподавателями английского языка. Исследование выявило эффективность этих методических основ в обучении студентов и повышении их профессиональной компетентности. В ходе эмпирического тестирования была продемонстрирована педагогическая эффективность этой системы в развитии профессиональной компетентности студентов во время их обучения в университете.

Ключевые слова: методологические основы, английский язык, профессиональная компетентность, будущие учителя, подход, креатив, инновации.

INTRODUCTION. The development of future English language teachers' professional competence includes nurturing their creative individuality, openness to educational innovations, and ability to adapt to evolving educational environments. This is a dynamic process leading to the students' acquisition of individual com-

petence, accumulation of professional experience, and continual personal development and self-improvement. Prospective professional English language teachers should possess theoretical and practical knowledge in information and communication technologies, new educational technologies, and methods of their acquisition,

as well as have a thorough understanding of the history and culture of England. Additionally, they should master didactic skills and methodological techniques. All these are components of the professional competence of an English language teacher. Professional competence encompasses both general and specific skills, and it manifests at various levels of proficiency.

Researchers F.H. Ibragimova, O.E. Lomakina, K.J. Riskulova, and M. Zhanguzhinov [1; 2; 4; 5] identify the main challenge in developing the professional competence of future teachers as the multi-level nature of this process. The theoretical foundations for such education have not been developed, and the methodological bases for the effectiveness of developing the professional competence of future teachers have not been fully explored.

The analysis of the scientific works by S. Uzakbayeva, B. Baymukhanbetov, K. Berkimbayev, B. Mukhamedzhanov, and R. Praliev [5] demonstrates that the level of scientific organization of the educational process and the use of modern methodology in shaping the professional competence of teacher students is not sufficiently high.

Research in this direction has been conducted, but the results were not generalized and systematized. The aim of our study is to theoretically substantiate and practically implement the methodological foundations for developing the professional competence of future English language teachers. The necessity of fostering their professional competence within the framework of their professional readiness is currently quite evident, yet lacks methodological justification.

METHODS. In order to achieve the goal of providing theoretical justification and practical implementation of the methodological framework aimed at fostering the professional competence of future English language teachers, the following research methods were utilized [3]:

- Theoretical methods – involving the study and analysis of pedagogical and psychological literature on the aforementioned issue, terminology, and theoretical approaches to the problem.
- Empirical methods – encompassing the study and synthesis of experience in cultivating professional competence among students in higher education, conducting interviews with students, administering questionnaires, observations, and the mathematical and statistical analysis of data.

The methodological basis of the research is comprised of leading concepts of personality development, the theory of educational content, modern theories and concepts of higher professional education, the essence of the pedagogical process, the content of the concept of “teacher competence”, studies of the processes involved in shaping the professionalism of future teachers, their professional and pedagogical competence, as well as the technological approaches and alternative educational technologies used in the educational process of higher education.

Upon conducting the research, it has been established that the methodological foundations for the formation of students’ professional competence include (Figure 1):




Figure 1: Methodological Framework for Developing Professional Competences of Future Teachers

RESULTS AND DISCUSSION. The pedagogical experiment aimed to implement the developed methodological framework for fostering students' professional competence, which was embedded in the methodology for their professional training, and to evaluate its effectiveness. Throughout the experiment, the system of didactic tools was refined and tested, while monitoring the dynamics of professional competence development

in both the control and experimental groups during the entire period of education. A total of 230 students participated in the experimental study.

The diagnostic assessment using a scoring system revealed a significant trend of increasing levels of professional competency among the students in the experimental group as compared to those in the control group (see Fig 2.).




Figure 2: Diagnostic assessment of students' levels of professional competency.

According to the illustration, the number of students with a high level of professional competence (5) in the experimental groups increased by 23%, the number of students reaching a good level (4) increased by 16%, the number of students achieving an average level (3) decreased by 35%, and the number of students previously at a low level (2) decreased by 8%. These findings indicate the high effectiveness of the proposed methodological framework for developing the professional competencies of future foreign language teachers.

CONCLUSION. Upon examining the process of developing students' professional competence within higher education institutions, we have concluded that traditional forms and methods of its cultivation are not sufficiently effective. The study evaluated the effectiveness of the developed structure for fostering students' professional competencies and its methodological foundations. The proposed structure for developing students' professional competence is recommended for practical use in higher educational institutions specializing in preschool education.

REFERENCES

- Ibragimova F.K. Improving the professional competence of future English language teachers through fostering an interest in English culture: doctoral dissertation in pedagogy. Tashkent, 2018. 133 p.
- Kattabaeva KD, Effective techniques applied in language teaching intensively. Open Access Repository, 2023. 1454-1457 p
- Lomakina O.E. Formation of the professional competence of future foreign language teachers: dissertation for the degree of Candidate of Pedagogical Sciences in specialty 13.00.08. Volgograd, 1998. 255 p.
- Mojdinova E. K. Metodologicheskaja osnova formirovaniya professional'noj kompetencii u budushhih uchitelej anglijskogo jazyka / Je. K. Mojdinova // Srednee professional'noe obrazovanie: SPO: ezhemesjachnyj teoreticheskij i nauchno-metodicheskij zhurnal / Ros. akad. obrazovaniya, Sojuz direktorov ssuzov Rossii. Moskva. 2023. N 6 (334). S. 38-40. ISSN 1990-679H.
- Ryskulova, K.D. Formation of sociolinguistic competence of English language instructors: a system for pedagogical doctoral dissertation. Tashkent, 2017. 260 p.
- Uzakbaeva S., Baimukhanbetov B., Berkimbaev K., Mukhamedzhanov B., Praliev R. To the Problem of Forming Creative Competence of Future Teachers // Creative Education. Vol. 4. N 3. March 2013. URL: <https://scirp.org/journal/> DOI:10.4236/ce.2013.43034.
- Zhanguzhinova M.Y. Formation of the Professional competence of students – future teachers of Vocational training in the system of higher education in Kazakhstan: monograph. 2017. 169 p.

Utkir SATTAROV,
Samarqand davlat chet tillar instituti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.

XX ASR TILSHUNOSIGIDA FERDINAND DE SOSSYURNING LINGVISTIK QARASHLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada F.de Sossyurning lingvistik qarashlari haqida ma'lumot berilgan. Tilshunos olimning "Umumiy lingvistika kursi" kitobi va uning mohiyati tahlil qilingan. Shuning bilan birga izdosh shogirdlarining F.de Sossyurning ilmiy an'alarini davom ettirganligi nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: til, sistema, qurilish, qiyosiy-tarixiy grammatika, konspekt, struktura, metod, talqin masalasi.

Аннотация : в данной статье представлены сведения о лингвистических взглядах Ф. де Соссюра. Анализируется книга лингвиста «Курс общего языкознания» и ее суть. В то же время теоретически обосновано продолжение научных традиций Ф. де Соссюра его последователями.

Ключевые слова: язык, система, конструкция, сравнительно-историческая грамматика, синопсис, структура, метод, проблема интерпретации.

Annotation: this article provides information about the linguistic views of F. de Saussure. The linguist's book "General Linguistics Course" and its essence are analyzed. At the same time, the continuation of the scientific traditions of F. de Saussure by his followers is theoretically based.

Key words: language, system, construction, comparative-historical grammar, synopsis, structure, method, problem of interpretation.

Ferdinand de Sossyur buyuk tilshunos, til haqidagi fan taraqqiyotiga juda katta va chuqur ta'sir ko'rsatgan donishmand olim. Shuning uchun ham F.de Sossyurni tilshunoslik olamida mashhur Frans Bopp, Vilgelm fon Gumboldt, Avgust Shleyxer, Ivan Boduen de Kurtenelar bilan bir qatarga qo'yishadi.

Dunyoda ajoyib voqealar ko'p. "Umumiy lingvistika kursi" kitobi ham ana shunday ajoyibotlardan biridir. Uning ajoyibligi shundaki, kitob F.de Sossyur nomi bilan nashr qilingan bo'lsa ham, lekin bunday kitobni yozish va nashr qilishni u xayoliga ham keltirgan emas. Bu kitobni F.de Sossyur nomi bilan chiqargan va unga dunyo miqyosida mislsiz shuhrat olib bergan kishilar shogirdlari Sh.Balli va A. Seshelardir. Bu ikki zot o'z ustozining nomini dunyo tilshunosligi tarixida yuqori cho'qqiga olib chiqishga musharraf bo'lishlari bilan birga, ustozlariga sadoqat namunasini ko'rsatdilar va shu sadoqatlari bilan jahon ilmiy jamoatchiligini lol qoldirdilar [2,27]. Aslida F.de Sossyur 1907-1911-yillarda Jeneva universitetida "Umumiy lingvistika kursi" bo'yicha uchta kursga ma'ruzalar o'qiydi. F.de Sossyurning ma'ruzalari shu qadar mazmunan boy va mundariyasi yangi ediki, tinglovchilar unga lol qolardilar. F.de Sossyur va fotidan bir yil o'tgandan so'ng, shogirdlari Sh.Balli va A.Seshelar 1907-1911-yillar davomida F.de Sossyur ma'ruzalarini tinglagan talabalarimg konspektlari asosida uning ma'ruzalari kitob holida nashr qilishni xayollariga keltirdilar. Natijada, to'qqiz kishining konspektini topdilar va ana shu konspektlar asosida F.de Sossyur ma'ruzalarini tiklashga harakat qildilar. Ana shunday harakat tufayli 1916-yilda F.de Sossyur nomi bilan bu asar dunyoga keldi. Mashhur tilshunos E.Benvenist tilshunoslik taraqqiyotini falsafiy, qiyosiy-tarixiy davr-

larga bo'lar ekan, F.de Sossyurning ushbu kitobining nashr etilishi natijasida lingvistika tarixida yangi davr boshlanganini ta'kidlaydi. Bu davr lingvistikasining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning o'rganish obyekti til falsafasi ham, grammatik shakllarning tarixiy taraqqiyoti ham emas, balki tilning immanent realligi hisoblandi. Natijada, lingvistika formal, qat'iy, sistematik fanga aylanishga intildi [1,23].

Ferdinand de Sossyur tilshunoslik tarixining uch taraqqiyot bosqichini ko'rsatadi. Tilshunoslik tarixining ilk davrini "grammatika" davri deb nomlaydi. Bu davr tilshunosligi yunonlarda shakllanib, Fransiyada gul-lab-yashnaganligini ta'kidlaydi. Bu tilshunoslik asosan mantiqqa tayangan bo'lib, tilning o'ziga xos xussiyatlarini ilmiy asosda obyektiv ravishda yoritib berishdan uzoqda edi. Uning maqsadi noto'g'ri shakllardan to'g'ri shakllarni farqlash bilan cheklangan edi. Ikkinchi davri "filologiya" davri sanaladi. Garchi "filologiya" maktabi Aleksandriyada ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, lekin bu atama ko'proq 1777- yilda Fridrix Avgust Volf tomonidan asos solingan va shu kungacha davom etayotgan ilmiy yo'nalishga nisbatan qo'llaniladi. Bu yo'nalishda til yagona o'rganish obyekti hisoblanmaydi. U o'z oldiga matnlarni izohini asosiy maqsad qilib qo'yadi. Bu asosiy vazifani hal etish adabiyot tarixi, xalqning maishiy hayoti va sotsial masalalar bilan ham shug'ullanishga olib keladi. Filologiya yo'nalishi hamma joyda o'zining tekshirish metodini – manbaini tanqidiy o'rganish metodini qo'llaydi. Faqat turli davrlarga oid matnlarni o'zaro qiyosiy o'rganganda, eski yozma manbalarda mavjud bo'lgan tushunilishi qiyin so'zlar izohida yoki ma'lum muallifning individual uslubini yoritish lozim bo'lgandagina lingvistika masalalariga murojaat qilin-

Nilufar YULDOSHEVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, (DSc).

TIL BIRLIKLARI ASIMMETRIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada til birliklarining asimmetriyasi va uni yuzaga keltiruvchi omillar xususida fikr yuritiladi. Jumladan, supersegment fonetik vositalardan nutqiy faoliyat jarayonida to'g'ri foydalanmaslik gap semantikasiga ta'sir etib, sintaktik noaniqliklarni keltirib chiqarishi hamda tilshunoslikda sintaktik omonimiya, amfiboliya, ambivalentlik, zeugma kabi hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi misollar asosida tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: intonatsiya, to'xtam, urg'u, simmetriya, asimmetriya, sintaktik omonimiya, amfiboliya, sintaktik birlik, sintaktik qolip.

Аннотация: в данной статье рассматривается асимметрия языковых единиц и факторы, вызывающие ее. В частности, на примерах анализируется, что неправильное употребление надсегментных фонетических средств в процессе речи влияет на семантику предложения, вызывает синтаксическую многозначность, а также вызывает такие явления, как синтаксическая омонимия, амфибола, амбивалентность и зевгма в речи.

Ключевые слова: интонация, пауза, ударение, симметрия, асимметрия, синтаксическая омонимия, амфиболия, синтаксическое единство, синтаксический модель.

Annotation: this article examines the asymmetry of linguistic units and the factors that cause it. In particular, using examples, it is analyzed that the incorrect use of suprasegmental phonetic means in the speech process affects the semantics of the sentence, causes syntactic ambiguity, and also causes such phenomena as syntactic homonymy, amphibole, ambivalence and zeugma in speech.

Key words: intonation, pause, stress, symmetry, asymmetry, syntactic homonymy, amphiboly, syntactic unity, syntactic model.

Intonatsiya, to'xtam hamda urg'u supersegment fonetik vositalar bo'lib, nutqiy aktini yuzaga keltiradi. Bu uch supersegment elementning birlashishi nutq jarayonida kuchli konnotativ ma'no kasb etadi. Shuningdek, nutqiy faoliyat jarayonida ulardan to'g'ri foydalanmaslik, sintaktik noaniqliklarni keltirib chiqaradi va tilshunoslikda sintaktik omonimiya, amfiboliya, ambivalentlik, zeugma kabi hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Sintaktik noaniqliklar nutqiy faoliyat jarayonida ba'zi til birliklarining birdan ortiq ma'no anglatishi, adresat yoki adresantning qo'llanilayotgan leksemalarning semmalarini idrok eta olmasligi, noto'g'ri qo'llashi natijasida kelib chiqadi.

N.Sayidiraximova sintaktik noaniqlik til belgilari asimmetriyasining yuzaga kelishida inson nutqiga xos eng muhim xususiyat ekanligini aytib o'tadi va sintaktik noaniqliklar yuzaga kelishining asosiy sababi sifatida quyidagi omillarni misollar asosida ko'rsatadi: leksemalardagi noaniqliklar (tosh! (toshmoq; tosh — predmet); ot! (ot — hayvon, ot! — harakat fe'li; bor! — mavjud / bor! — harakat fe'li; tush! (harakat fe'li; tush! — ot)), grammatik konversiya qisman leksik va qisman grammatik omonimiya (tuzsiz! (gapning tuzi yo'q) / tuzsiz! (namagi kam...), grammatik shakllarning turlicha interpretatsiyalanishi (beshbolali (k) yigitcha... — (Farg'onaning Beshbola dahasidan... / beshbolali yigitcha / beshta farzandning otasi...), sintaktik birliklar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashdagi noanikliklar, ya'ni sironstantlarning fakultativligini ta'minlovchi variativli valentlik (bozordagi to'sto'polon: bozordagi gavjumlik / bozordagi janjallar), aktantlarning variativligi (u tamom bo'ldi / u (dars yakuniga yetdi / u vafot etdi / u baloga qoldi), aktantlarning fakultativligi (Musiqqa o'qituvchisi chalishni bilmaydi; Musiqqa / o'qituvchisi chalish-

ni bilmaydi; Musiqqa o'qituvchisi / chalishni bilmaydi (sun'iy to'siq qo'yishni / oyoqdan chalishni)[2,86] .

Mazkur misollarda gap nutqiy vaziyatning omonimiyasi haqida ketmoqda.

Ma'lumki, matn so'zning leksik-semantik muvofiqligi va sintaktik bog'lanish chegaralarini belgilaydi hamda so'zlarning semantikasini aniqlaydi. Lekin nutqda bir fikrni turli xil shaklda bayon qilish mumkin. Bu esa gapning noaniqligini keltirib chiqaradi. Gapning ikki tomonlama talqini tilshunoslikda amfiboliya atamasi bilan yuritiladi. A.Hojjiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da "amfiboliya (yun. amphibolia— ikki ma'nolilik) ikki xil talqin etish, ikki ma'noda tushunish mumkin bo'ladigan jumla (gap)" tarzida talqin etiladi hamda "Yangi joyning bu dilni siyoh qiluvchi manzarasi qanchalik noxush tuyulmasin, Mohidil ko'nikishga majbur (J.Abdullaxonov)"[3,13] misoli keltiriladi. Mazkur jumladagi bu olmoshi gapni ikki xil talqin qilishga sabab bo'ladi va amfiboliya hodisasini keltirib chiqaradi. Agar bu olmoshi dil so'ziga biriksa, boshqa ma'no, manzara so'zi bilan bog'lanib kelsa, boshqa ma'no kasb etadi.

Nutq jarayonida so'zlovchi o'z maqsadi yo'lida "hujum quroli" sifatida pauza va talaffuzdan ham unumli foydalanadi. Natijada, nutqiy omonimiya, matn omonimiyasi — "ikki turli xil talqin va sharhga ega bo'lgan holda ifodaning noaniqligi", ya'ni amfiboliya hodisasi yuzaga keladi va pragmatik omilga aylanadi.

Aslida, mohiyatan olib qaralganda, amfiboliya turli xil uslubdagi va janrdagi matnlar uchun xos muntazam kuzatiladigan hodisa sanaladi. Jumladan, amfiboliya badiiyatda iyyom san'ati bilan tengdir. Iyyom badiiy tasvir vositasi bo'lib, arabiy so'z "shubhaga solish" degan ma'noni bildiradi.

Masalan,

Dedi bedilki: “Ot ahli emasmen,
Otim tutmoqqa dog‘i arzimasmen...”

baytida Xusrav tarafidan kelgan vakil Farhodning otini so‘raydi. Qo‘shmisra – Farhodning shunga javobi. Ot ahli esa – nomi ulug‘ kishilar degani. Otim tutmoqqa deganda, albatta, otimni tilga olishga degan ma‘no ifodalangan. Lekin bu – birinchi ma‘no. Otimni birov tutib yurishiga arzimayman degan ma‘no ham yashiringan bu misrada. Bunga ot ahlining otini birov tutib yurishi odati borligi asos beradi. Undan tashqari, shoir birinchi ma‘noni otim aytmoqqa deb ishlatishi ham mumkin edi, lekin ikkinchi ma‘noni ham yashirish uchun u ataylab otim tutmoqqa deydi. Shu tariqa otim so‘zi ham, tutmoqqa kalimasi ham ikkitadan ma‘no anglatib keladi[5]. Yoki,

Labing bag‘rimni qon qildi, ko‘zimdin qon ravon qildi,
Nechun holim yomon qildi, men andin bir so‘rorim bor.
(Bobur).

Mazkur baytning ikkinchi misrasidagi men andin bir so‘rorim bor jumlasasi ikki xil ma‘no anglatib, amfiboliya (ambivalentlik)ni yuzaga keltirmoqda.

So‘rorim bor – men undan (ma‘shuqadan) albatta, so‘rayman;

So‘rorim bor — ma‘shuqa labini so‘rishim bor.

Shu o‘rinda aytish joizki, badiiy adabiyotda “so‘rorim” so‘zi ayni paytda iyhom san‘atini (so‘zning ko‘p ma‘nolilik xususiyatidan kelib chiqib, uni “o‘ynatish”, ma‘no jilolarini ochish) hosil qilgan.

Bunday ifodalar tilimizda ko‘p uchraydi. Amfiboliyaning til uchun ahamiyatsiz hodisa emasligini lisoniy belgi uchun xos asimmetrik dualizm (mazmunning cheksizligi va uni ifodalovchi lisoniy vositalarning cheklanganligi o‘rtasidagi qarama-qarshilik) bilan asoslash mumkin[1,76].

Og‘zaki nutqda bunday holatlar to‘xtam bilan ajratiladi va to‘xtam gaplarning, qolaversa, ayrim gap bo‘laklarining chegarasini ko‘rsatibgina qolmay, ular orasidagi sintaktik munosabatlarni ham ifodalaydi. Nutqda to‘xtamning o‘zgarishi nafaqat grammatik holatga, balki gaplarning ma‘nosiga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

Masalan, yuqoridagi “Yangi joyning bu dilni siyoh qiluvchi manzarasi qanchalik noxush tuyulmasin, Mohidil ko‘nikishga majbur (J.Abdullaxonov)” misolidagi bu olmoshi manzara so‘zidan oldin qo‘llansa, amfiboliya yo‘qoladi:

Yangi joyning dilni siyoh qiluvchi bu manzarasi qanchalik noxush tuyulmasin, Mohidil ko‘nikishga majbur.
Shuningdek,
Stol chiroyli gullar bilan bezalgan. (Sodda yoyiq gap)
Stol chiroyli, gullar bilan bezalgan. (Bog‘lovchisiz qo‘shma gap)

Mazkur gaplarning tuzilishiga ko‘ra turlarini farqlashda og‘zaki nutqda pauza muhim rol o‘ynasa, yozma nutqda tinish belgisi (vergul) muhim ahamiyat kasb etadi va amfiboliyaning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Lekin sintaktik sathda sodda va qo‘shma gaplar orasida omonimiya hodisasi saqlanib qolaveradi.

Ko‘rinadiki, muloqot jarayonidagi prosodik vositalar gapning strukturasi ta‘sir etib, uning turlarini o‘zgartirishi mumkin. Ammo lisoniy sathdagi sintaktik qoliplar mohiyat sifatida o‘z shaklini o‘zgartirmaydi.

Siz ahmoq odam emassiz. (Sodda yoyiq gap) – lisoniy sintaktik qolipi – [WP_m].

Siz – ahmoq, odam emassiz. (Bog‘lovchisiz qo‘shma gap) [lisoniy sintaktik qolipi – [WP_m, WP_m]]

Ba‘zan so‘z ma‘nolari ma‘lumotlarning qanday vaziyatda, qayerdan kelib chiqishi va qanday taqdim etilishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ya‘ni gapning ma‘nosi nutqiy sharoit, o‘rni, payti va nutqiy vaziyatdan bilinib turadi. Jumladan, “Besh bolali yigitcha” kelmadimi? jumlasida adresat va adresantning nutqiy vaziyati va o‘rniga bog‘liq bo‘lib, mazkur gap kitob do‘koni yoki kutubxonada aytilsa, asar nomi nazarda tutilayotganligi anglashiladi[4,437].

Ko‘rinadiki, amfiboliya hodisasi og‘zaki nutqda ohang va to‘xtam yordamida bartaraf etilsa, yozma nutqda bu hodisani punktuatsion belgilar yoki so‘z tartibini o‘zgartirish yordamida bartaraf etish mumkin.

Demak, amfiboliya (matn omonimiyasi, matn mazmunining har xilligi), bir tomondan, nutqning kamchiligi, kommunikatsiyaga to‘siq bo‘luvchi nuqson sifatida baholansa, boshqa tomondan, u notiqning mahoratini ko‘rsatuvchi ritorik usul hamda so‘zlovchining kommunikativ niyatini yuzaga chiqarishning pragmatik omili hisoblanadi[1,78].

Ko‘rinadiki, aksentuativ omillar hisoblangan intonatsiya, to‘xtam hamda urg‘u supersegment birliklar bo‘lib, ular nafaqat sodda gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini hosil qiladi, balki sodda gaplarning shu kungacha tadqiq manbayidan chetda qolgan shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlarini hosil qilishda ham qatnashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Нурмонов А., Раҳимов А. Лингво-синергетикага кириш. – Т., Академнашр, 2013. – 87 б.
Сайидирахимова Н. Ўзбек тилида синтактик омонимлар (когнитив аспект) // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020. – № 5 (34). – Б.86-94.
Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1985. – Б.13.
Юлдошева Н. Содда гап курилишини субстанциал-прагматик ўрганиш методологияси//NamDU ilmiy axborotnomasi. 2022. –№ 3. – Б. 436-440.
<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/sultonmurod-olim-iyhomangiz-sanatlar-farhod-va-shirin-da-manodoshlik-va-shakl-idoshlik/>

Dildor BAZAROVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti

SINTAKTIK VARIANTDOSH BIRLIKLAR HAQIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada variantdosh birliklarning tarkibi, sathlarga munosabati, shakllanish jarayonlari hamda sintaktik variantdosh birliklar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *variant, mezon, semantik-grammatik aloqalar, nutq, meyor, semantika, grammatik shakl.*

Аннотация: в данной статье рассматривается состав вариантных единиц, их отношение к уровням, процессы формирования, а также синтаксические вариантные единицы.

Ключевые слова: *вариант, критерий, семантико-грамматические отношения, речь, норма, семантика.*

Annotation: this article examines the composition of variant units, their relationship to levels, formation processes, as well as syntactic variant units.

Key words: *variant, criterion, semantic-grammatikal relations, speech, norm, semantics.*

Dunyo tilshunosligida variantlilik hodisasi, uning birliklari bo'lmish variantdosh so'zlar masalasi bo'yicha ko'plab fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tilshunoslikdagi faol va umumsathiy atamalardan bo'lgan variant, variantdosh, dublet atamaları ham til sathlariga, ham ularning amaliy voqelanishiga daxldorligi bilan xarakterlanadi. Tilshunoslik sohasining har bir yo'nalishini o'ziga xos shakllanish va taraqqiy etish yo'li bor. Bundan variantdosh birliklar masalasi ham mustasno emas. Tadqiqotlarda variantdosh birliklarning tarkibi, sathlarga munosabati, shakllanish jarayonlari, ularning semantik, struktur imkoniyatlari talqin etilgan hamda bunday birliklarni tasniflashda ham tilning barcha birliklarining tasnifida bo'lgani kabi umumiylikdan xususiylikka tomon borish tamoyiliga amal qilingan holda tadqiq qilingan.

O'zbek tilshunosligida XX asrning o'rtalariga kelib ba'zi tadqiqotlarda yozuvchi tili va uslubi, badiiy asar tili haqida fikrlar yuritilib, badiiy matnlarda uchraydigan variantlilik hodisasi e'tibor qaratila boshlandi. Chunki variant, variantdosh, dublet atamaları o'zida tilning tarixi va buguni, lison va nutq, talaffuz va imlo, meyor va uslub, adabiy til va sheva, lison va sotsium kesishuvida amal qiluvchi, sodda, lekin murakkab fenomen ekanligi bilan ajralib turadi.

Rus tilshunosligida til variantlarini tasniflash masalasida ham ma'lum bir ishlar amalga oshirilgan. V.V.Vinogradov va A.I.Smirtskiy tomonidan amalga oshirilgan variantlarning nazariy tahlili bo'yicha tadqiqotlar ularni tasniflash mezonlarini belgilash borasida amalga oshirilgan dastlabki nazariy ishlardan sanaladi. Hozirgi o'zbek adabiy tili ham, boshqa tillar kabi variantlarga boyligi bilan xarakterlanadi.

Jumladan, sintaktik variantdosh birliklar bo'yicha uslubiy yo'nalishda ma'lum bir ishlar amalga oshirilgan. Ularda sintaktik variantdoshlik har doim so'zlarning semantik-grammatik aloqalari bilan bog'liq ekanligi, ko'pincha bunday munosabatlarni aniqlash amaliy qi-

yinchiliklarga olib kelishi aytiladi. Agar grammatik munosabatlarning taqsimlanishi va tuzilishlarning umumiy ma'nosi bir xil bo'lsa, unda sintaktik variantdoshlik haqida fikr yuritish mumkin. Ular boshqa variantlar singari tarixan paydo bo'ladi. Masalan, o'xshashlik yoki boshqa qonunlar ta'siri ostida dastlabki, ya'ni bosh shakllarning o'zgarishi yoki boshqa shakllar bilan almashtirilishi mumkin.

Ko'pincha dastlabki, bosh shakllar o'zgartirganda semantik-grammatik aloqalar orasida ma'no nozikliklari paydo bo'ladi. Bu ma'no nozikliklari uslubiy xoslanganlik yoki xoslanmaganligiga ko'ra yoki matn xususiyatlariga ko'ra farqlanishi mumkin.

Masalan, bir necha sintaktik variantdoshlikdan qaysi biri adabiy meyor talabiga ko'ra to'g'ri: *Nima haqida taqriz – nimaga taqriz? kimdan ariza – kimning arizasi;*

Rus tilshunosligidan farqli o'laroq, o'zbek tilida adabiy meyor talablariga ko'ra quyidagi shakllardan ko'proq foydalaniladi:

Dissertatsiyaga taqriz.

Aliqulovning arizasi (kimning).

Lekin keyingi vaqtlarda ish yuritishda *nima haqida taqriz, kim tomonidan ariza* kabi sintaktik birliklar faol qo'llana boshladi. Masalan: *Dissertatsiya haqida taqriz, Aliqulovdan ariza yoki xodimning tavsifnomasi, xodimga tavsifnoma.*

Sintaktik variantlarning turlarini aniqlashda ularning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) grammatik ma'no va grammatik shaklning o'ziga xosligi;

2) birikma tarkibiy qismlarining moddiy muvofiqligi. Variantlar orasidagi asosiy farq bu bog'liq komponentning rasmiy nomuvofiqligi. Ana shu belgilarni hisobga olgan holda so'zlarning semantik-grammatik aloqalari natijasida yuzaga kelgan sintaktik variantdoshlikni dastlab ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq.

Sintaktik variantdosh birliklar

Variantdosh atov birliklar	sintaktik	Variantdosh kommunikativ birliklar	sintaktik
----------------------------	-----------	------------------------------------	-----------

Variantdosh sintaktik atov birliklari o'z o'rnida turlarga bo'linadi. Variantdosh birliklar sirasida so'z qo'shilmalarining o'ziga xos o'rni bor. Biz kuzatishlar natijasida ularning quyidagi ko'rinishini farqlashga muvaffaq bo'ldik:

a) tarkibidagi so'zlarning o'rin almashinuvi natijasida yuzaga keladigan variantdosh birliklar:

olma va anor – anor va olma
kitob va daftar – daftar va kitob
ona bilan bola – bola bilan ona

b) tarkibidagi bog'lovchi vositalarning farqlanishi asosida yuzaga keladigan variantdosh birliklar:

olma va anor – olma-yu anor – olma ham anor
kitob va daftar – kitob bilan daftar

v) tarkibidagi bog'lovchi vositalar variantdoshligi asosida yuzaga kelgan variantdosh birliklar:

Salim bilan Halim – Salim-la Halim

Demak, variantdosh sintaktik atov birligi bo'lgan so'z qo'shilmalari tasnifi ilk bosqichda quyidagi manzarani berishi asoslandi:

Variantdosh sintaktik atov birliklari

Tarkibidagi so'zlarning o'rin almashinuvi natijasida yuzaga keladigan variantdosh sintaktik atov birliklari	Tarkibidagi bog'lovchi vositalarning almashinuvi asosida yuzaga keladigan variantdosh sintaktik atov birliklari	Tarkibidagi bog'lovchi vositalar variantdoshligi asosida yuzaga kelgan variantdosh sintaktik atov birliklari

Variantlashuv nafaqat fonetik, leksik o'zgarish asosida, balki sintaktik o'zgarish, ya'ni sintaktik transformatsiya asosida ham sodir bo'lishi mumkin. Xuddi shu holat variantdosh iboralarda ham kuzatiladi va bunda tartib o'zgarishi gapning nutqiy strukturasi bilan belgi-

lanadi, ammo bu o'zgarish iboraning mazmuniga ta'sir etmaydi.

Grammatik shakl yoki grammatik tartib o'zgarishi gapning nutqiy strukturasi bilan belgilanadi va gap bo'laklarining o'rin almashinuviga, ya'ni sintaktik transformatsiyaga sabab bo'ladi. Natijada variantdosh gap bo'laklari yuzaga keladi.

Masalan: *Namanganning qizlari – Namanganlik qizlar* (qaratqich aniqlovchi va sifatlovchi aniqlovchi)

Tarkibidagi so'zlarning o'rin almashinuvi natijasida ham gap bo'laklarining variantlashuvi, ya'ni sintaktik variantdosh birliklar yuzaga keladi:

Xat Nigora tomonidan yozildi. – Nigora xatni yozdi. (Vositasiz to'ldiruvchi va vositali to'ldiruvchi).

Xudda shu holat variantdosh iboralarda ham kuzatiladi va bunda tartib o'zgarishi gapning nutqiy strukturasi bilan belgilanadi, ammo bu o'zgarish iboraning mazmuniga ta'sir etmaydi.

Ko'ngl(i) yumshoq (ega-kesim) — yumshoq ko'ngil (aniqlovchi-ega);

ko'z yummoq — yumilgan ko'z (ko'ra bila turib e'tiborsiz qoldirmoq);

avra-astar(i)ni ag'darmoq — astar-avra(si)ni ag'darmoq;

ipidan ignasigacha — ignasidan ipigacha.

Tarkibidagi bog'lovchi vositalarning farqlanishi hamda variantdoshligi asosida sodda va qo'shma gaplarning variantdoshligi yuzaga kelishi kuzatiladi. Masalan:

a) *G'afur motorni o't oldirdi, mashina yo'lga tushdi.* (Bog'lovchisiz qo'shma gap)

b) *G'afur motorni o't oldirdi va mashina yo'lga tushdi.* (Bog'langan qo'shma gap)

s) *G'afur motorni o't oldirishi bilan mashina yo'lga tushdi.* (Sodda gap)

Xullas, grammatik shakllar o'zgarganda sintaktik-semantik o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Biroq sintaktik birlikning mohiyati variantlararo mutlaq farqlanmaydi. Agar sintaktik birliklar variantlari orasidagi farqlar mohiyat darajasiga yetsa, variantdosh emas, balki mazmuniy-shakliy mustaqil birlik haqida so'z yuritish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bazarova D. O'zbek tilida variantdosh birliklarning nutqiy qo'llanishi va uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. fal. d-ri ... diss. – Qarshi, 2020. – 3-bet.
2. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси, 1-қисм. –Т.:Фан, 1997.
3. Набиева Д.А. Ўзбек тилида лисоний бирликларнинг инвариант-вариант муносабати: Филол. фанлари номзоди дисс. ...автореф. – Т., 1998. – 29 б. –Б. 24-25.
4. R. Shukurov. So'z variantlarining imlo lug'ati. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014.

Tursunmurod OYDINOV,
Samarqand davlat
chet tillar instituti o'qituvchisi

JAHON TILSHUNOSLIGIDA FONOLOGIYANING VUJUDGA KELISHI

Annotatsiya: maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida fonologiyani jahon tilshunosligida vujudga kelishi va rivojlanishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Fonetika va fonologiyani o'rganish obyekti, ularning farqli tomonlari yuzasidan jahon tilshunos olimlarining yondashuvlari o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: fonetika, fonologiya, cho'ziq va qisqa unlilar, jarangsiz va jarangli undoshlar, akustik, artikulyatsion, abstrakt bosqich, oppozitsiya.

Аннотация: в статье даны сведения о возникновении и развитии фонологии в мировом языкознании во второй половине XIX века. Отражены подходы мировых ученых-лингвистов к объекту изучения фонетики и фонологии, их различиям.

Ключевые слова: фонетика, фонология, долгие и короткие гласные, глухие и звонкие согласные, акустический, артикуляционный, абстрактный этап, оппозиция.

Annotation: the article provides information on the emergence and development of phonology in World linguistics in the second half of the XIX century. The object of study of phonetics and Phonology is reflected in the approaches of world linguistic scientists on their differences.

Keywords: phonetics, phonology, stretch and short vowels, consonant and consonant consonant, acoustic, articulatory, abstract stage, opposition.

Tarixiy taraqqiyot natijasida madaniyatda, adabiyotda, tilshunoslikda o'zgarish, yangilanishlar doimo takrorlanib turadi. Jumladan, fonetikani o'rganishga rus va yevropa tilshunos olimlari ham katta qiziqish bilan qarashgan. Bu qarashlar natijasida XIX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikka yangi fonologiya termini kirib kela boshladi. Bu termin nutq tovushlarining artikulyatsion, fiziologik-akustik tomondan funksional tomonini farqlash ehtiyoji bilan vujudga keldi.

Garchi fonologiya termini ko'pchilik tilshunoslar tomonidan e'tirof etilsa-da, ammo bu termin ostida o'rganilishi lozim bo'lgan obyekt masalasida bir xillik kuzatilmadi. Tilshunoslikning juda ko'p qismi fonologiya termini ostida nutq tovushlarining funksional tomonini, ayrimlari, aksincha, artikulyatsion-akustik tomonini tushunadilar. Har ikki holatda ham fonologiya fonetikaga qarama-qarshi qo'yildi. Biz masala mohiyatini terminning izohiga, mohiyatiga qaratadigan bo'lsak, "fonema" atamasi va tushunchasiga chuqur asos solgan olim I.A.Boduen de Kurtenedir. Hozirgi zamon tilshunosligida mavjud bo'lgan fonologiya nazariyalarining zabardast olim Boduen yaratgan poydevoriga suyanmasdan iloji yo'q. Chunki olim aynan bu terminning mohiyatini bir qancha nazariy faktlar bilan asoslagan va ma'lum bir yangilik sifatida fanga olib kira olgan.

I.A.Boduen de Kurtene 1870-yildagi «XIX asrgacha bo'lgan qadimgi polyak tili haqida» nomli magistrlik dissertatsiyasida fonema haqida fikr yuritadi va uni etimologik-morfologik birlik sifatida talqin etadi. Boduen

de Kurtenening fonema haqidagi mazkur konsepsiyasi ayni shu holda uning shogirdi N.V.Krushevskiy tomonidan rivojlantirildi.

Leningrad fonologiya maktabida fonema nazariyasi Leningrad fonologik maktabi asoschisi Boduen de Kurtenening shogirdi L.V.Shcherbadir. U Boduen de Kurtenening fonema so'z va morfemalarni farqlovchi belgi ekani haqidagi ta'limotini rivojlantirdi. L.V.Shcherba «Sifat va miqdor nuqtayi nazaridan rus unlilari» (1912) asarida fonemaga bergan ta'rifdayoq, psixologizmdan xoli bo'lmasa ham, fonemaning funksional tomoniga e'tibor sezilib turadi. Olimning fikricha, fonema so'zning fonetik sostavini buzmaganda ajratish mumkin bo'lgan, farqlash va ma'no tasavvuri bilan assotsiatsiyalanish imkoniyatiga ega ma'lum bir tilning umumiy tovush tasavvuridir [5,14].

L.V.Shcherba keyinchalik fonemaning funksional tomoniga, ya'ni ma'no farqlash xususiyatiga asosiy e'tiborini qaratdi va psixologik talqindan xalos bo'ldi. Jumladan, «Fransuz tili fonetikasi» asarida fonemaga sof funksional tomondan – so'z va uning shakllaridan farqlash uchun xizmat qiladigan tovushlar tipi sifatida yondashadi. U fonemani ajratish uchun tovushning artikulyatsion-akustik xususiyati emas, balki ma'no farqlash xususiyati muhim belgi ekanini ta'kidlaydi. Masalan, so'roq yuklamasi a turlicha akustik-artikulyatsion xususiyatga ega bo'lishi (baland, past, cho'ziq yoki tez va h.k.) mumkin. Ammo lingvistik nuqtayi nazardan ular bir yuklama, bir tovush tipidir. Shunday qilib, akus-

tik-artikulyatsion jihatdan turlicha tovushlar bir umumiy belgisi bilan tiplarga birlashadi va shu umumiy belgisi bilan boshqa shunday tovush tiplaridan ajralib turadi. L.Shcherba fikricha, ana shunday umumiy belgi ma'no farqlash xususiyatidir. Demak, har bir fonema boshqa fonemadan ma'no farqlash xususiyati orqali ajratiladi. Natijada, har bir tilning barcha fonemalari qarama-qarshiliklar sistemasini hosil qiladi. Ko'rinib turibdiki, L.V.Shcherbaning fonologiya konsensiyasida fonemaning so'z yoki morfemalarning ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan farqlovchi belgisi asosiy o'rin egallaydi. L.V.Shcherba fonologik nazariyasining ikkinchi eng muhim tomoni fonema ottenkalari haqidagi ta'limotdir. Uning fikricha, umumiy (fonema)ning talaffuz qilingan real ko'rinishlari ottenkalardir. Boshqacha aytganda, nutqdagi barcha real talaffuz qilinuvchi tovushlar ottenka hisoblanadi. Demak, fonema va uning ottenkalari o'rtasidagi munosabat ikki bosqich munosabatidir: abstrakt bosqich (fonema), konkret bosqich (ottenka).

L.V.Shcherba ottenkalarni ham tasniflaydi. Fonemaning ottenkalari ichida bittasi turli sabablarga ko'ra shu fonema uchun tipik bo'ladi. Alohida talaffuz qilingan ottenka ana shunday tipik ottenka hisoblanadi va faqat shu ottenka real nutqiy element sifatida tilga olinadi. Boshqa ottenkalar esa tipik ottenkaga nisbatan turlicha talaffuz qilinadi. Ularni o'rganish uchun maxsus «eshitish ko'nikmasi» kerak. Masalan, o'zbek tilidagi **i** fonemasi til orqa tovushlardan keyin kelib (qil, g'ir-g'ir) til orqa **ы** holdida, lab unlilaridan keyin kelib (tug'il) **u** holdida, birinchi bo'g'inda kelib (bir, ich, sira) bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi. Ammo mazkur ottenkalar bir **i** fonemasining ma'lum sharoitga muvofiqlashgan turli vakillaridir. Boshqa ottenkalar akustik va artikulyatsion tomondan tubdan farq qilishi mumkin". [4,178]

Xullas, yuqoridagi olimlarning nazariy qarashlari asosida fonema – barcha ottenkalarning umumlashmasi yoki aniq hollarda mazkur fonemaning vakili ham bo'lib hisoblanadi. Fonema ottenkalari doimo bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Qarama-qarshi munosabatda bo'luvchi ikki minimal birlik qarama-qarshi a'zolar hisoblanadi. Aynan, o'zbek tilida undoshlarning jarangli jarangsizligiga ko'ra bo'linishi yoki portlovchi, sirg'aluvchi, lablangan lablanmaganlik xususiyatlari fikrimizning tasdig'idir.

N.S.Trubetskoyning dunyo tilshunosliga qo'shgan

katta xizmati shundan iboratki, fonologiyani ilmiy predmet sifatida shakllantirdi. Olimning bu haqidagi fikrlari "Fonologiya asoslari" kitobida yoritib bergan.

N.S.Trubetskoy konsepsiyasi bo'yicha fonologik sistema leksik va grammatik ma'nolarni farqlash uchun xizmat qiladigan fonologik oppozitsiyalar (LFM bo'yicha fonologik qarama-qarshiliklar) majmuasi sifatida talqin qilinadi. U filologiyada asosiy rolni fonemalar emas, balki ularning ma'no farqlash funksiyasi rol o'ynashini ta'kidlaydi. [6,74] Olimning aytgan ma'lumotlaridan shuni bilish mumkinki, tilshunoslikda asosiy vazifani fonemalar emas, balki ularni ma'no farqlash vazifasini ta'kidlaydi. Tilshunos olim fonologik oppozitsiyalarni uch asosga ko'ra tasnif qiladi: 1) oppozitsiya sistemasiga munosabatiga ko'ra; 2) oppozitsiya a'zolari o'rtasidagi munosabatga ko'ra; 3) turli pozitsiyalarda ularning amal qilishiga ko'ra. Birinchi belgiga ko'ra, bir o'lchovli, ko'p o'lchovli, proporsional va ajralgan oppozitsiyaga bo'linadi. Ikkinchi belgiga ko'ra, privativ (oppozitsiya a'zolaridan biri belgining bor-yo'qligi bilan ikkinchisidan farqlanadigan oppozitsiya), gradual (nutq apparatining ochilish darajasiga asoslangan oppozitsiya, masalan: **kir-kar**), teng qimmatli oppozitsiyalarga ajratiladi. Uchinchi belgisiga ko'ra, doimiy va neytrallashgan oppozitsiyalarga bo'linadi. Neytrallashish jarayonida oppozitsiyaga kirishayotgan fonemalar o'rtasida fonologik qimmatga ega belgi yo'qoladi. Lekin umumiy belgilari saqlanib qoladi. Masalan, o'zbek tilida yot-yod oppozitsiyasida so'z oxirida **t-d** o'rtasidagi jarangli-jarangsizlik belgisi yo'qoladi, boshqa umumiy belgilar (til oldi, portlovchi) saqlanib qoladi. N.S.Trubetskoy o'zining fonologik nazariyalari orqali jahon tilshunosligida munosib o'rin egallagan va katta hissa qo'shgan.

Bugungi kunda fonetik va fonologik aspektda material va funksional jihatdan o'zgarish munozarali masala bo'lmay qoldi. Ammo fonetika fonologiyaning bir-biri bilan bog'liqligi ularning birinchisi aniq, ikkinchisi mavhum tushuncha ekanligini alohida ta'kidlam-oq lozim. An'anaviy tilshunosligimizda fonetikaga doir tadqiqotlarda fonologik aspekt yoritilmayotganligi muammoli masala bo'lib qolmoqda. Aslida fonetik aspekt-da fonologiyaning o'rganilishi natijasida fonologiyaning tildagi xizmati va funksional aspekt bilan bog'lanishini asoslab bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. — Тошкент: Уневерситет, 2010.
2. Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси, — Тошкент: Ижод нашриёт уйи, 2006.
3. Неъматов Х. Ўзбек тили тарихий фонетикаси, — Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
4. Нурмонов А. Танланган асарлар 1-жилд. — Тошкент. 2012.
5. Щерба Л.В. Русские гласные в качественном и количественном отношении. — СПб, 1912.
6. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. — М., 1960.

Marjona XAYRULLAYEVA,
BuxDU tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi

JOY NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR (Buxoro viloyat Vobkent tuman misolida)

Annotatsiya: toponimiyada bir obyektning atoqli oti bilan boshqa bir obyektning ham atashi, ya'ni obyektlar nomining biridan ikkinchisida ko'chishi, aniqrog'i, toponimdan toponim hosil qilish ma'lum darajada keng tarqalgan xarakterli hodisadir. Bunday nomlar negizida toponim yotsa, ya'ni toponimdan toponim hosil qilinsa, toponimlar deb yuritiladi. Boshqacha aytganda toponim toponimik negizdan hosil bo'lgan toponimdir.

Tayanch tushunchalar: toponim, konversiya, kat, topoaffiks, derevat

Аннотация: в топонимике название другого предмета собственным именем одного предмета, то есть перенос названия предметов с одного на другой, точнее, создание топонима из топонима, является довольно распространенным явлением. Если такие названия основаны на топониме, то есть если топоним создан из топонима, они называются топонимами. Другими словами, топоним – это топоним, образованный на топонимической основе.

Основные понятия: топоним, конверсия, кат, топоафикс, дереват

Annotation: in toponymy, calling another object with the proper name of one object, that is, the transfer of the name of objects from one to another, or more precisely, the creation of a toponym from a toponym, is a somewhat common phenomenon. If such names are based on a toponym, that is, if a toponym is created from a toponym, they are called toponyms. In other words, a toponym is a toponym formed from a toponymic basis.

Key words: toponym, conversion, kat, topoaffix, derevat

Toponimning yangi, qo'shimcha vazifaga o'tishi, asosan, onomastik konversiya – nomni funksional ko'chirish orqali yuz beradi.

Topotoponimlarning hosil bo'lishida ikki xil jarayon yorqin ko'zga tashlanadi: 1. Yonma-yon yaqin joylashgan obyektlarning nomi biridan ikkinchisiga o'tadi.

2. Uzoq joylashgan obyektlarning nomi bir-biriga o'tadi. Toponimlarning hosil bo'lish qonuniyatlari hali toponimiyada yaxshi o'rganilgan emas. Bunga sabab nom ko'chishi murakkab jarayon bo'lsa, ikkinchidan, biridan ikkinchisiga o'tgan nomlarning qaysi biri dastlabki nom ekanini aniq belgilashni talab qiladi. Shunday qilib, Vobkent tuman toponimiyasining bir qismini turli toponimlar tashkil qiladi. Bu toponimlar uchun turdosh otlar bilan birga atoqli otlar ham toponegizlik vazifasini bajargan. Gap bir nom bir necha obyektlarning atoqli oti bo'lib kelishi ustida ketar ekan, jahonda shariflik unvoniga sazovor bo'lgan Buxoro toponegizining faqatgina bizning viloyatimizda quyidagi obyektlar nomi bo'lib kelishini va bu nom haqida alohida to'xtab o'tishni lozim deb bilamiz. E'tibor bering:

Buxoro – viloyat nomi;

Buxoro – tuman nomi;

Buxoro – Qorako'l, Kogon tumanlaridagi jamoa xo'jaligi nomi;

Buxoro – shahardagi katta kinoteatr nomi;

Buxoro – viloyat futbol kamandasini nomi va hokazolar.

Darhaqiqat, Buxoro – O'rta Osiyoda eng qadimiy shaharlardan birining nomi bo'lib, uni qadrlash davr talabidir. Buxoro atamasi haqida bildirilgan fikrlarni tahlil etar ekanmiz, avvalo, uning *Numijkat*, *Bumiskat*,

Navmichkat, *Buxoro* tarzida atalganini, jumladan, *Navmichkat* – uch so'zdan iborat bo'lib, ma'nosi "Nav" forscha – yangi, "mich" sug'diy – "qal'a", "istehkom", "kat" – qishloq, ya'ni *Navmichkat*– "yangi qal'a", "yangi shahar", "yangi mustahkamlangan qishloq" ma'nosini berishiga e'tibor qaratamiz. Manbalarda hozirgi ark turgan erda bir qal'a, shahriston va Miri Arab madrasalari o'rnida bir-biriga ro'para yana ikkita qal'a bo'lganligi, keyinchalik ana shu uchta qal'a, ya'ni **Farobdiz**, **Buxor**, **Navmichkat** qo'shilib ketganligi qayd etilgan.

Uning toponimiyasini har tomonlama o'rganish na faqat lingvistik tadqiqotlar uchun, balki Vobkent tuman tarixi va madaniyatini chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilidagi so'z yasash usullari toponimlarda ham ishtirok etadi. Ammo joy nomlarini so'z yasash jihatdan tekshirar ekansiz, avvalo, atoqli otlarning o'ziga xos bir qator semantik va grammatik xususiyatlarini e'tiborga olmoq zarur bo'ladi.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida toponimlarning yasalishi va ularning morfologik strukturasi o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda, shuningdek, turli tumanlarning toponimlari tekshirilgan dissertastiyalarda toponim yasashining ikki yo'li affiksatsiya va kompozitsiya usullari qayta – qayta qayd etildi. Ko'pgina toponimik medallar hamda toponim yasovchi affikslar tavsiflandi. Deyarli barcha dissertastiyalarda -lik, -chi, -li, -lar kabi ko'plab qo'shimchalar toponim yasovchi sifatida izohlanadi. Ayrim tadqiqotlarda -kor, -kash kabi qo'shimchalar ham toponim yasovchi affikslar qatoriga kiritiladi. Ammo so'z yasalishi nuqtayi nazaridan qayd etilgan affikslar qatnashgan barcha toponimlarni ham affiksatsiya usuli bilan yasalgan deyish mumkin emas.

Misollarga murojaat etaylik: -lik affiksi orqali; Bazzozlik, Ko'pchilik, So'kfurushlik (Sh.Qodirova), Zargarlik, Ishgarlik (T.Nafasov), Beshyillik, Azatlik, Tenglik, Hurlik, Birlik, Shodlik (L.Karimova, N.Oxunov).

Aslida hur yoki bazzoz so'zidan boshqa yasama so'z hosil bo'ldi, ya'ni bazzozlik va hurlik leksimalari vujudga keldi. Buni so'z yasalishi strukturasi zamini-da izohlasak, hur-yasovchi, hurlik yasamadir. Ammo hali bu so'zlar toponimlarga aylangani yo'q. Bazzozlik va hurlik so'zlarining bu holati ularning toponimgacha bo'lgan ko'rinishidir. Bu so'zlar toponimga aylangach, ularning strukturasi qator o'zgarishlar sodir bo'ladi. Avvalo, bu leksemalar ma'lum obyekt bilan bog'lanadi va ushbu obyektiv ifodalash uchun maxsuslanadi. Yasalganlikni belgilashning umumiy qoidasi onomastik konversiyada ham saqlanadi. Bunda ham so'z yasalishidagi singari yasashga asos bo'lgan element (yasovchi) va yasali chiqqan element (yasalma) munosabati mavjuddir. Qiyos qiling: Temirchi toponimida temirchi-yasovchi; Temirchi-yasalma yoki bazzozlik, hurlik-yasovchi; Bazzozlik, Hurlik-yasalmadir. Ko'rinadiki, har qanday toponim yasalma ikkilamchidir. Shunday ekan, onomastik konversiyada birinchi va ikkinchi elementlarni ajratish mumkin. Birlamchi element-yasovchi, ikkilamchi (yoki ikkinchi) element-yasalma.

Demak, yuqorida keltirilgan nomlardagi -li // -li, -lik, -chi tipidagi qo'shimchalar toponimik derevat xarakterida emas. Qayd etilgan toponimlarning yasali strukturasi ular nolga tengdir. Toponimlar tarkibida uchraydigan bu tipdagi qo'shimchalar leksik-grammatik yasali natijasidagina emas, balki boshqa qator sabablar orqali ham sodir bo'ladi. Ko'pincha toponimlarning sodalashuvi jarayonida ayrim komponentlarning tushishi – sintaktik ellipsiz orqali ham toponimlar tarkibida nol ko'rsatgichli paydo bo'ladi. Qiyos qiling: Aravachining ovuli – Aravachi ovul – Aravachi; Ko'pchilik mahalla – Ko'pchilik va hokazo. Davr o'tishi bilan toponim tarkibidagi -lik elementi ham tushishi mumkin.

Ba'zan affikslarning poleseantik xarakterda bo'lishi, ularning funksional doirasining nihoyatda kengligi(-chi affiksining ma'nolarini solishtiring), shuningdek, affiksial polesemiyaning affiksial polesemiyaga aylanishi kabi qator faktorlar ham toponimlar tarkibida nol ko'rsatgichli qo'shimchalarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Ko'pgina qo'shimchalar garchi toponimlarning yasali shida bevosita ishtirok etmasa ham mazkur so'zning joy nomi (umuman, atoqli ot) ekanligini ko'rsatib turadi, unga ishora etadi. Ayniqsa, o'rin bilan bog'liq ma'noni ifodalovchi, jamlik, ko'plik, faoliyat bildiruvchi qo'shimchalar shunday xarakterga egadir. Ko'pchilik hollarda -chi, -lar, -lik, -kash kabi qo'shimchalarning toponim yasovchi sifatida qaralishining boisi ham shundadir. Ko'rinadiki, toponimlar yasali strukturasi bevosita joy nomi yasovchi – toponimik derevat xarakterdagi va ma'lum darajada toponimning mazmun bilan aloqador, unga ishora etuvchi, toponimlarni farqlovchi va ularni ko'rsatish funksiyasini bildiruvchi elementlarni bir-biridan farqlash lozim. O'zbek tilshunosligida hozirgacha toponim tarkibida ishtirok etadigan va umuman, toponim yasovchi qo'shimchalarni nomlashda affiks, formant, topoferiant va ba'zan siffiks terminlari qo'llanilmogda.

Ta'kidlaganimizdek, toponimlar tarkibidagi qo'shimchalar ma'nosi va funksiyasi jihatdan bir-biridan farqlanar ekan, ularni terminologik jihatdan ham farqlash maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, o'zbek tilida -iston, -obod, -kent (kat) tipidagi qo'shimchalar borki, ular doimo joy nomi yasaydi. Shuning uchun bunday qo'shimchalarni toponim yasovchi affikslar (topoaffikslar) deish o'rinlidir. -chi, -lar, -zor, -loq tipidagi qo'shimchalar ayrim hollarda toponim yasovchilarga yaqin tursa ham ular ko'pgina xususiyatlari va qo'llanish diapazoniga ko'ra toponim yasovchilardan (topoaffikslardan) farq qiladi. Ular yuqorida qayd qilinganimizdek, o'zlarining ayrim ma'nolari bilan toponimlarga yaqin so'zlar yasaydi. Shuning uchun ham ular, ko'pincha, toponim yasali strukturasi obyektini ko'rsatuvchi formal elementga o'xshab qoladi. Bu xildagi qo'shimchalar yasalgan so'zlar jamlik ifodalanishi, inson faoliyati, hunari, mashg'ulotini ko'rsatish kabi bir qator ma'nolari bilan toponimlarga yaqin turadi. Toponimlar tarkibida uchraydigan ayrim prefikslar derevat xarakteridadir. Jumladan, sar (Sariosiyo – tegirmonboshi), poy – (Poykan – quyi qishloq), pesh (Peshob suv oldi) va hokazo. Bu tipdagi prefekslarning ko'pchiligi boshqa tildan o'tgan bo'lib ularning qo'llanish doirasi cheklangan. Ularga diaxronik planda qaralsa, prefikslar mustaqil so'zga teng.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Бегалиев Н. Топонимларнинг ўзбек халқ этногенезидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2004. – 4-сон. – Б. 67-71.
- 2.Дарбакова В.Г. К этимологии этнонима – қалмык // Этнонимы. – М.: 1970. – С.265-268.
- 3.Мухаммаджонов А. Работ атамаси этимологияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1995. – 2-сон. – Б.43-45.
- 4.XAYRULLAYEVA M. BUXORO VILOYAT VOBKENT TUMANIDAGI JOY NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLARNING PAYDO BO'LISHI //LTEACHIN ANGUAGE. – С. 77.

Shaxnoza ALIYEVA,
*Andijon davlat universiteti O'zbek tili va
 adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari
 bo'yicha falsafa doktori*

SO'Z MA'NOSI KO'CHISHI VA DERIVATSION JARAYON

Annotatsiya: mazkur maqolada lekisk ma'no va uning turlari, semantik derivatsiya va uning tamoyillari, ko'chma ma'noli so'zlarning gapning, murakkab sintaktik qurilmalarning semantik derivatsiyasida qanday maqomni egallashi kabi masallar xususida ayrim mulohazalar bildirilgan. Shu bilan birga, tahlillar asosida derivatsion jihatdan ma'nosi ko'chgan so'z ifodalagan ma'no derivatsiya operatori sanalishi, bunday hollarda so'zning o'zi operand vazifasida kelishi dalillangan. Shuningdek, bitta jumlaning sintaktik derivatsiya tamoyillari asosida tahlil qilinishi, semantik derivatsiya tamoyillariga ko'ra tahlil jarayonidan farq qilishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: sintaktik derivatsiya, operand, operator, hosila, leksik ma'no, semantik derivatsiya, lug'aviy ma'no.

Аннотация: в этой статье были изучены некоторые соображения о лексическом значении и его типах, о семантической деривации и ее принципах, о том, какой статус занимают переносные значимые слова в процессе семантической деривации предложения, сложных синтаксических конструкций. В то же время на основе анализа доказано, что с точки зрения деривации переносное значение слова считается оператором деривации, тогда как само слово выступает в функции операнда. Также проанализировано, что анализ отдельного предложения на основе принципов синтаксической деривации отличается от процесса анализа в соответствии с принципами семантической деривации.

Ключевые слова: синтаксическая деривация, операнд, оператор, дериват, лексическое значение, семантическая деривация, словарное значение.

Annotation: in this article, some considerations were studied about lexical meaning and its types, semantic derivation and its principles, about how figurative meaningful words occupy a status in the semantic derivation of a sentence, about complex syntactic techniques. At the same time, based on the analysis, it is proved that the derivative operator is considered to be a derivative whose value is expressed by a word shifted from the derivational point of view, in such cases the word itself acts as an operand function. It is also shown that the analysis of a single sentence based on the principles of syntactic derivation differs from the analysis process in accordance with the principles of semantic derivation.

Keywords: syntactic derivation, operand, operator, derivative, lexical meaning, semantic derivation, dictionary meaning.

Tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida derivatologiya muammolari tilshunos olimlarning diqqat markazida turibdi. Ayniqsa, derivatsiyaning turlari orasida semantik derivatsiya muammolari kam o'rganilgan yo'nalish bo'lib, bu borada hali ochilmagan qirralar talaygina. Ishimizda bevosita semantik derivatsiya masalalariga to'xtalishdan oldin leksik ma'no va uning turlari haqida qisqacha to'xtalib o'tishni joiz topdik.

Hozirgi zamon tilshunosligida leksik ma'noning turlari xususida tilshunoslar o'rtasida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, ularning ba'zilari bir-biri bilan mushtarak emas.

Shavkat Raxmatullayev leksik ma'no mavhum hodiya bo'lib, uning mohiyatini, mundarijasini aniq tasvirlash uzoq yillar davomida muammo bo'lib kelishini ta'kidlagan edi. XX asr tilshunosligining eng muhim yutuqlaridan biri leksik ma'noni uzvlarga parchalab o'rganish usulining kashf etilishi bo'ldi. Bu usul avval komponent analiz

metodi deb, keyinchalik semik analiz metodi deb nomlandi (component – lot. somponentis – “tarkib topuvchi”, “qatnashuvchi”, sema – yunoncha sema “belgi”).

Biroq M.Irisqulov leksik ma'no boshqa ma'nolarga qaraganda konkret va individualdir, deydi. Har bir leksik ma'no muayyan bir so'zga tegishli bo'ladi. O'zi anglatgan narsaga nisbatan olingan leksik ma'no umumlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan eshik so'zi bir vaqtning o'zida ham bino, xona, transport vositalari, sovitkich, javon kabilarga o'rnatilgan moslamani anglatadi.

Uning bu fikriga N.Turniyozov ham qo'shiladi. Uning fikricha, so'zlarning leksik ma'nosi to'g'risida gap bo'lganda, dastlab ularning tildagi ma'nolari bilan nutqdagi ma'nolarini farqlash zarur. Yuqorida aytilgandek so'zlarning ma'nosi umumlashtirish xususiyatiga ega bo'lib, bu xususiyat tilga oid ma'no yoki lug'aviy ma'no deyiladi. So'zlarning aniq lug'aviy ma'nolari faqat nutqda ma'lum bo'ladi. Masalan:

Yo'lingizdan qolmang.

Men mashinaga minib jo'nadim.

Keltirilgan misollarda **yo'l** va **mashina** so'zlariga e'tibor bersak, bu so'zlar ayni paytda o'z lug'aviy ma'nolaridan ancha yiroqlashgan. Chunki bu o'rinda yo'l ish so'zi bilan, **minib** so'zi esa **o'tirmoq** so'zi bilan ma'nodosh bo'lib kelmoqda.

Ba'zan nutq jarayonida so'zlarning ma'nosi shu qadar o'zgaradiki, bu ma'noni lug'atdan topishning imkoni bo'lmaydi. Uni faqat mazmunidan kelib chiqib aniqlash mumkin.

Barcha yo'llarning bexatarligiga ishonch hosil qilingan bo'lsa ham, qo'shinlarimiz egallab turgan oldingi pozitsiyadan o'tilgach, butun vujud ko'z va quloqqa aylandi.

Bu misolda **ko'z** va **quloq** so'zlari o'zining lug'aviy ma'nosini emas, balki sezgirlik, ehtiyotkorlik, ziyraklik kabi ma'nolarni anglatadi. Bunday ma'nolar ko'z va quloq so'zlari uchun vaqtincha ma'nolar bo'lib, ular bu ma'noda boshqa kontekstda uchramasligi mumkin. Bundan tashqari bu so'zlar gap ichida alohida kelganda ham butunlay boshqa ma'nolarda keladi. Qiyoslang:

uzukning ko'zi
derazaning ko'zi

KO'Z

daraxtning ko'zi
ishning ko'zi
qozonning qulog'i

QULOQ

radioning qulog'i
sozning qulog'i

KO'Z-QULOQ BO'LMOQ

sezgirlik, ehtiyotkorlik, ziyraklik.

Shunday qilib, so'zlarning tildagi ma'nosi ularning nutqdagi ma'nosidan farq qilishi mumkin. So'zlarning tildagi ma'nosi doimiy, barqaror bo'lsa, nutqdagi ma'nosi o'zgaruvchan, barqaror ma'nosi bilan uzviy bog'langan bo'ladi.

Aytish lozimki, derivatsion jihatdan ma'nosi ko'chgan so'z ifodalagan ma'no derivatsiya operatori sanaladi. Bunday hollarda so'zning o'zi operand vazifasida keladi:

g'orning og'zi

Mazkur birikma sintaktik derivatsiya nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, dubloperatorga tayanishi izoh talab qilmaydi. Zero, bu vaziyatda **g'or** va **og'iz** so'zlari derivatsiya operandlari, **-ning** va **-i** qo'shimchalari esa operator maqomida kelmoqda. Hosila struktura moslashuvli birikma hosil qilmoqda.

Ammo masalaning yana bir jihati borki, bu birikmani sintaktik derivatsiya tamoyillariga asoslanib tahlil qilishning iloji yo'q. Bu mumkin ham emas. Chunki uni sintaktik derivatsiya jihatidan tahlil qilsak, birikmaning ma'nosi mantiqan noto'g'ri bo'ladi. Zero, bunday vaziyatda

og'iz so'zi tom ma'noda tushunilishi lozim bo'lib qoladi. Tarkibida ko'chma ma'noli so'z bo'lganligi esa mazkur birikmani semantik nuqtayi nazardan tahlil qilishga chorlaydi. Ana shularni hisobga olgan holda, yuqorida berilgan birikmada **g'orning** va **og'izi** so'zlari yaxlitligicha derivatsiya operandlari, birikma ifodalagan ma'no esa (g'orga kirish joyi), semantik derivatsiya operatori sanaladi desak, fikrimizcha, to'g'ri bo'ladi.

Shuni ham aytish lozimki, aksariyat hollarda ko'chma ma'noli so'zlar o'zi bog'langan so'z bilan birga gap, MSQ va makromatnlar tarkibida kelsa, yaxlitligicha o'sha matn derivatsiyasining operatori maqomini oladi:

1. Ot tuyoqlaridan ko'tarilgan chang yuzga alanga tillaridek tegadi (P. Qodirov. Yulduzli tunlar).

2. Chunki bosh aylanadigan balandlikdan pastga tushib bo'lmas, nurab turgan jarning labiga odam borsa yana o'pirilishi mumkin edi (P. Qodirov. Yulduzli tunlar).

3. Faqat Umarshayx Mirzoning qo'lidagi chiniy kabutar katakdagi xatardan qizulganday osoyishta bo'lib qolgan edi. Hozir butun olam Umarshayx Mirzoga mana shu kabutarday ma'sum va osuda tuyuldi. U tom o'rtasiga borib, kabutarning mayin qanotini yuziga bosdi. Uni uchririshdan oldin: — Marg'ilonga uch, qanotli choparim! — deb shivirladi (P. Qodirov. Yulduzli tunlar).

Keltirilgan misollarning birinchisi sodda gap bo'lib, unda alanganing tili birikmasi ishtirok etmoqda. Mazkur birikmada til so'zi ko'chma ma'noda kelib, birikma doirasida u ifodalagan ma'no operator maqomini olmoqda. Ammo gap doirasida esa mazkur birikmaning o'zi semantik jihatdan yaxlitligicha derivatsiya operatori vazifasida kelayapti.

Keyingi misolda jarning labi birikmasi semantik jihatdan MSQning markazida turibdi. Mazkur vaziyatda muallif e'tibori aynan ana shu jarning labiga qaratilgani izoh talab qilmaydi. Shuning o'zi ham mazkur birikmani MSQning semantik derivatsion tamoyillariga ko'ra operator maqomiga olib chiqmoqda.

Uchinchi misolimiz abzas shaklidagi matn bo'lib, uning komponentlari o'zaro kontakt bog'lanishda ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Mazkur abzas to'rtta komponentdan tashkil topgan. Bu komponentlarning birinchi uchtasida kabutar, oxirgisida esa qanotli chopar so'zlari qo'llanilgan. Ko'rinadiki, matn derivatsiyasi tamoyillariga ko'ra, mazkur abzasda kabutar so'zi freym vasifasida kelmoqda, zero, bu so'z matnning mazmun markazida turibdi. Ammo matnning oxirgi komponentida ishtirok etgan qanotli chopar tasviriy ifodasi kabutar so'zining darajasini yana bir pog'ona ko'tarib, uni operator maqomiga olib chiqmoqda.

Biroq keltirilganlar bilan bir qatorda shuni ham ta'kidlash lozimki, berilgan misollar semantik derivatsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Agar bir bu misollarni sintaktik derivatsiya tamoyillariga ko'ra tahlil qilsak, ko'z oldimizda boshqacha tahlil yuzaga keladi:

Ot tuyoqlaridan ko'tarilgan chang yuzga alanga tillaridek tegadi.

1. Tub struktura – tegadi (V)
2. Tayanch struktura – chang tegadi (N+V)
3. Hosila struktura1 – chang alangaga tillaridek tegadi (N+X1+V) operator – -dek.
4. Hosila struktura2 – chang yuzga alanga tillaridek tegadi (N+X2+V) operator – -ga
5. Hosila struktura3 – ko‘tarilgan chang yuzga alanga tillaridek tegadi (N+X3+V) operator – -gan
6. Hosila struktura4 – ot tuyoqlaridan ko‘tarilgan chang yuzga alanga tillaridek tegadi (N+X4+V) operator – -dan

Keltirilgan tahlil berilgan sodda gapning applikativ model asosida bajarilgan sintaktik derivatsiyasi tahlilidir. Bu vaziyatda sodda gap komponentlari derivatsiya operandlari, derivatsion jarayondan maydonga chiqqan morfologik vositalar esa derivatsiya operatorlari sanaladi.

Ko‘rinadiki, bitta jumla sintaktik va semantik nuqtayi nazardan derivatsion tahlilga tortilsa, operatorlar aniqlashda farqlar kuzatilishi mumkin.

Shunisi xarakterliki, jumla tarkibida ko‘p ma‘noli so‘z ishtirok etsa, u kontekstda qanday ma‘noda ifodalinishiga qarab, gapning semantik derivatsiyasi operatori shaklan bir xil bo‘lsa ham mazmunan har xil bo‘lishi mumkin:

1. Laqmaligi tufayli dumini suvga tiqib o‘tirgan, tongga yaqin suv muzlab qolganligi hamda ovchilardan qochmoqchi bo‘lib uni suvdan tortib ololmay dumidan ayrilgan bo‘ri tulkidan o‘ch olmoqchi bo‘libdi (Tulki va bo‘ri. Rus xalq ertagi).
2. Oradan biroz o‘tib yana ortiga o‘girildi va “dum”ning ham astalashganligini ko‘rdi (N.Ismoilov. Iblis saltanati. <https://ok.ru/xikoya/topic/68316667726704>).
3. Abdurasul Tojiboyning majlisida o‘z tarafini oladigan dumlar to‘play boshlaganini gapirdi (P.Tursun. O‘qituvchi).
4. Bir pasdan keyin lager ustida dumiga kattakon pufak bog‘lab olgan samolyot paydo bo‘ldi (A.Qahhor. Oltin Yulduz).

Keltirilgan misollarning barchasida dum so‘zi ishtirok etgan bo‘lib, ularning barchasi semantik derivatsiya

nuqtayi nazaridan o‘z derivatida operator vazifasida kelmoqda. Ammo mazkur operatorlar shaklan bitta so‘z bilan ifodalangani bilan, ularning hammasi ham bitta ma‘no ifodalangani yo‘q. Birinchi misolda dum so‘zi o‘z ma‘nosida kelgan bo‘lsa (hayvon tanasining ingichkalashib boruvchi eng ortki, oxirgi qismi), ikkinchisida kuzatib yuruvchi shaxs, keyingisida tarafdor, xushomadgo‘y, oxirgisida uchish apparatining ingichkalashgan orqa tomoni kabi ma‘nolarda kelyapti. Qizig‘i shundaki, semantik derivatsiya qonuniyatlariga ko‘ra hosila strukturaning operatori maqomida aynan o‘sha so‘z emas, balki u anglatgan ma‘no operator maqomida keladi. Semantik derivatsiyaning asosiy qonuniyati ham ana shunda ko‘rinadi.

Shuni ham qayd etish lozimki, jumla tarkibida ko‘chma ma‘noli so‘z qo‘llanilishi, o‘z-o‘zidan uni jumla ma‘nosining markaziga chiqarib qo‘yadi. Zero, muallif ko‘chma ma‘noli so‘zni qo‘llar ekan, beixtiyor o‘sha so‘zga asosiy e‘tiborini qaratadi. Bu esa ma‘nosi ko‘chgan so‘zni avtomatik tarzda operator maqomiga chiqaradi. Bunday vaziyatda gapning semantik derivatsiyasi quyidagicha tahlilga tortiladi:

Jo‘ra polvon brigadasiga andijonlik polvonlarni tanlab olgan edi, ammo birontasi Azizxonga yetolmas, uning soyasida qolib ketardi (S. Ahmad. Ufq.)

Keltirilgan misolning semantik derivatsiyasini quyidagicha ifodalash mumkin.

$R1 (\text{operand}) + R2 (\text{operand}) = D (\text{operator} - \text{soyasida qolmoq (panada qolmoq, ko'zga ko'rinmay chetda qolib ketmoq)})$

Bunda R belgisi bilan MSQ qismlari (operandlar), D belgisi bilan derivat (hosila struktura) ifodalanoqda.

Keltirilganlardan ko‘rinadiki, sodda gap, MSQ yoki abzas kabilarni derivatsion tahlili, derivatsiyaning ko‘rinishlariga qarab (semantik, sintaktik, leksik va h.k.) farqlanadi. Boshqacha aytganda, ma‘lum bir gap sintaktik derivatsiya tamoyillariga ko‘ra boshqacha tahlil qilinsa, semantik derivatsiya tamoyillariga ko‘ra boshqacha tahlil qilinadi. Bunda maydonga chiqqan operatorlar bir-biridan boshqacha bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raxmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, 2006. 400-b.
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1992. 256-b.
3. Turniyozov N. Tilshunoslikka kirish. – Samarqand, 2002. 72-b
4. O‘zbek tilining izohli luhati. A. Madvaliyev tahriri ostida. 5-jild. – Toshkent. <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>

Feruza RAHMATOVA
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

O'ZBEK TILIDA AYRIM SOMATIZMLARNING MA'NO XILMA-XILLIGI: KO'PMA'NOLILIK

Annotatsiya: til nutq hosil qiluvchi tizim sifatida ma'no tashish uchun xizmat qiladi. Ushbu ma'nolarning tuzilishi, turlari, mohiyati, ma'noning taraqqiy etishi, va kishilarning ongida saqlanishi qiziq hodisa sanaladi. Tilning asosiy vazifalaridan biri nomlashdir. Tilning nomlash vazifasi asosan leksemalar vositasida amalga oshadi. Ma'lum bir leksema nomlash vazifasini bajarar ekan, leksik ma'nosida olam, uning ko'rinishi, bir bo'lagi yoki belgisi, harakati aks etadi. Bu maqolada inson tanasini nomlovchi bir necha so'zlarning kishilar tomonidan qo'llanishi va faollik darajasi haqida fikr yuritimiz.

Kalit so'zlar: ma'no ko'chish, ko'pma'nolilik, bebilchak, dimog', mardum

Аннотация: язык как речевая система служит для передачи смысла. Структура, виды, природа, развитие этих значений и их удержание в сознании людей представляют собой интересное явление. Одной из основных функций языка является именование. Номинационная функция языка в основном осуществляется посредством лексем. Когда определенная лексема выполняет задачу наименования, она в лексическом смысле отражает вселенную, ее внешний вид, предмет или знак, его движение. В этой статье мы подумаем об использовании и уровне активности нескольких слов, обозначающих человеческое тело.

Ключевые слова: передача смысла, двусмысленность, бибилчак, димог, мardum.

Annotation: language as a speech-generating system serves to convey meaning. The structure, types, nature, development of these meanings, and their retention in people's minds are an interesting phenomenon. One of the main functions of language is naming. The naming function of the language is mainly carried out by means of lexemes. When a certain lexeme performs the task of naming, in the lexical sense it reflects the universe, its appearance, a piece or sign, and its movement. In this article, we will think about the usage and level of activity of several words naming the human body.

Keywords: transfer of meaning, ambiguity, bebilcak, dimog, mardum

Tilimiz nihoyatda boy va jozibador. O'zbek tilining ta'sir kuchi, boyligi haqida qancha gapirilsa ham oz. Bu maqolani yozishimga bir o'quvchinning bergan savoli sabab bo'ldi. 6-sinf adabiyot darsligida Rahmat Fayziyning "Hazrati inson" romanidan parcha berilgan. Shu parchani o'qib tahlil qildik. Dars tugab, qo'ng'iroq chalinishiga ozgina vaqt qoldi. Men o'quvchilardan "Savollaringiz bormi?" – deb so'radim. Shunda bir o'quvchim(6-sinf o'quvchilari juda sersavol bo'ladi): "Mahkam aka 14 bolani o'z bag'riga olgan deyilgan, ustoz, bag'ir qayer?,"- dedi. O'quvchilardan biri mening javob berishimni kutib turmay: "Shuni ham bilmaysanmi? Quchoq'iga-da!" – deb javob berdi. "Uni bilaman, lekin bag'ri butun deyiladi, quchoq'i butun deyoymaymiz-ku!.." Boshqa bolalar ham gapga aralashishdi. "Yurak-bag'ri qon bo'ldi..." "Yurak-bag'ri emas, jigar-bag'ri qon yoki, xun bo'ldi..." "Uyga menmon kelib, bag'rimiz to'ldi..." Biri qo'shiq aytib qoldi: "Kel bag'rimga, kel, bag'rim yonsin taftingdan..." Qizg'in bahsni qo'ng'iroq ovozi buzdi. Keyingi soat darsim borligi uchun shoshilib, xonadan chiqdim. "Bolalar keyin davom ettiramiz..." Shunday qilib bu savol fikrimni egallab oldi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" da (I tom 190-191-betlar) bag'ir so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:

Bag'ir – (3-sh. birlik. bag'ri) aynan **jigar** Ot -sag'ridan, qo'y-bag'ridan(maqol)

Bag'ring og'risa, bol ham totimas (maqol)

Shu lug'atda bag'ir so'zining 6 ma'nosi izohlangan.

Aynan jigar – o'z ma'nosida qolgan ma'nolari esa ko'chma ma'noda.

Ko'chma – ko'krak, to'sh, ko'ks; tananing bo'yindan qoringacha bo'lgan old qismi. Bag'riga bosdi, bag'riga oldi, bag'rini yerga berib yotdi, ko'rpani bag'riga tortdi...

Ko'chma Quchoq, himoya, panoh, yonbola o'zini ona bag'ridagidek xotirjam sezdi. Ona bag'riga yashirdi.

Ko'chma – poetik. Yurak, qalb, dil; bag'ri qon, bag'rimni tildi, bag'ri pora, bag'ri ezildi

Ko'chma – jug'rofiy hududning yon, nishab tomoni. Tog' bag'ri, qir bag'ri, tepalik bag'ri

Ko'chma – ulkan cho'zilgan hududli makon, fazo; cho'l bag'ri, o'rmon bag'ri, o'lka bag'ri, ko'k bag'ri, tun bag'ri, sukunat bag'ri, qorong'ulik bag'ri...

Bag'ir bu jigar ekanligini bilarmidingiz, yoki ko'pchilik singari quchoq so'zining ma'nodoshi deb bilarmidingiz? Xalqimizda bag'ri butun, bag'ri dog'li, bag'ri kabob, bag'ri qon, bag'ri xun, bag'ri keng, bag'ri kuymoq, bag'ri qora, singari iboralar ham tez-tez uchrab turadi. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Demak, jonli so'zlashuv tilida bag'ir so'zining o'z ma'nosi (jigar-ichki a'zo) emas, balki ko'chma ma'nosi ommalashib ketgan.

Faqqatgina bag'ir so'zi emas, tanamizda **bebilchak, solinchak, taqim, pocha, qanshar, o'taka, kemirchak** deb nomlanuvchi tana a'zolari ham mavjud. Siz bularning qaysi birini bilasiz? Bu masalaga qiziqdim va 92 nafar 6-sinf o'quvchilari, 52 nafar 10-sinf o'quvchilari, 61 nafar 11-sinf o'quvchilari, 20 nafar ustozlar orasida so'rovnoma o'tkazib ko'rdim. So'rovnoma natijalariga ko'ra 226 nafar ishtirokchidan hech biri tanamizdagi

a'zoldan biri bo'lmish bebilchak so'zining ma'nosini bilmas ekan. Solinchak so'zining ma'nosini 41 nafar, taqim so'zining ma'nosini 28 nafar, pochka so'zining ma'nosini 37 nafar, qanshar so'zining ma'nosini 39 nafar, o'taka so'zining ma'nosini 16 nafar, dimog' so'zining ma'nosini 83 nafar, bag'ir so'zining ma'nosini 15 nafar, kemirchak so'zining ma'nosini 24 nafar, mardum so'zining ma'nosini 74 nafar ishtirokchi bilishi aniqlandi.

t/r	So'z	ishtirokchi	Bilish foizi
1	Bebilchak	226	0%
2	Solinchak	226	18%
3	Taqim	226	12%
4	Pochka	226	16%
5	Qanshar	226	18%
6	O'taka	226	7%
7	Dimog'	226	37%
8	Bag'ir	226	6%
9	Kemirchak	226	11%
10	Mardum	226	32%

Shu ma'lum bo'ldiki bu so'zlarni ko'pchilik yaxshi bilmas ekan. Balki bu so'rovnomada tor doirada o'tkazilganligi uchundir, balki bu so'zlar omma tomonidan faol qo'llanmaganligi tufaylidir. Bu so'zlardan nutq jayronida unumli foydalanilsa, sho'ir va yozuvchilarimiz bu so'zlardan o'z asarlarida qo'llasalar, bu so'zlar ham quloqqa tez-tez chalinib tursa, qolgan tana a'zolarimiz kabi faollashgan bo'larmidi?

Bebilchak – oyoq yuzining do'ng joyi. Tufli bebilchagimni siqyapti. Askar oyog'ini ko'tarib, bebilchagini peshonasiga tekkazdi. T. Murod "Qoshiq" qissasi

Solinchak – quloqning sirg'a taqiladigan pastki yumshoq qismi; sirg'aliq. Solinchaklarda bodomnusxa kumush gajaklar, oynador boltoqlar halqa-halqa bo'ldi. T. Murod. "Ot kishnagan oqshom"

Taqim – oyoqning tizza osti bukiladigan joyi. Shu zahoti taqimim, umuman, butun badanim qichishayotganini payqadim. Hojiaqbar Shayxov "Tutash olamlar". Unsining oyog'i taqimigacha qabrga botib ketdi, oyog'i yumshoq bir narsaga tegdi. Abdulla Qahhor. "Dahshat" hikoyasi

Pochka – forscha kichik oyoq; oyoqning pastki qismi; qo'y va boshqa hayvonlar oyog'ining ovqat sifatida yeyiladigan pastki qismi degan ma'noni anglatadi. Bu so'z "O'zbek tilining izonli lug'atiga" quyidagi olti ma'noda qo'llangan.

1. Hayvonlar oyog'ining tizzadan pastki qismi. Bori qo'yning pochkasidan olibdi. Uloqchi qamchining dastasini tishlab, uloqning pochkasidan tortadi. Gazetadan.

2. Oyoqning tizza bilan to'piq ortasidagi qismi; boldir. It pochkadan oldi. Nusratbekning tanidagi titroq biroz pasaydi. Sekin, salmoqli odimlab borayotib, o'z xatti-harakatini oqlashga urinib, o'ziga tasalli bera

boshladi: "Yo'ldan chiqqan har qanday daydi laycha vovullab, pochkaga yopishsa, indamay ketaveramanmi?" S. Nurov "Narvon" G'aybulla qizarib, o'rniga borib o'tirmoqchi edi, Hasan uning pochkasiga yopishdi. S. Siyoyev "Yorug'lik"

3. Shimning, shalvarning tizzadan pastki qismi.

Nizomjon, sholikorlikka kiramam, deb shimining pochkasini shimarayotgan edi, To'lanboyning o'g'li kelib qoldi. Said Ahmad "Ufq".

Og'zidagi nosini tupurib, bismillo, deganicha shimining pochkasini shimarib, ketmon bilan o'raga tushdi. Said Ahmad "Saylanma"

4. Ustki uzun kiyimning etagiga tikilgan jiyak, hoshiya. Shohi to'n ustidan qunduz pochasi bor po'stin kiydi. Oybek "Navoiy" romani

5. Poya, oyoq. Stul pochasi. Ota pismiqli kelib, karavotning pochkasiga suyandi. E. Rahimov "Ajab qishloq"

6. Pillapoya, pog'ona. Mirziyod oyog'ini narvon pochkasidan asta oldi. A. Mirahmedov. "Kulgan chechaklar"

Qanshar – 1. Burunning ikki qosh o'rtasidagi yuqori qismi. Qanshari past. Qansharida ko'zoynak ham paydo bo'lib qolib qolibdi. S. Anorboyev "Guldasta"

Oyna opa ichki bir titroq tovush bilan ingrandi. Qansharida ikki qavat ajin bo'rtidi. Shukur Xolmirzayev "To'lqinlar"

2. Ko'chma mano, kam qo'llanadi. Narsalarning peshonasi, oldinga turtib chiqqan joyi.

Yuzaki qaraganda, bu kashfiyot dizel traktorining qanshariga ulab qo'yilgan qandaydir ortiqcha daxmazadan hech farqi yo'q. J. Abdullaxonov "Yo'l"

Ko'zga tashlanadigan bir tepalikning qansharini tushirib yubordi. Shuhrat "Shinelli yillar"

O'taka – o't pufagi. Jigarning pastki yuzasidagi maxsus chuqurchada joylashgan hajmi 50-60 santimetr/kub bo'lgan shakli nokka o'xshash pufakcha, unda ortiqcha o't saqlanadi. O't esa jigardan ajralib chiquvchi sarg'ish-yashil rangli achchiq suyuqlik. O't pufagi. O'taksi yorilmoq – nihoyatda qo'rqmoq

Onasining ma'nodor qarashlaridan bir nima uqqanday, Rahimning o'takasi yorildi. Hakim Nazir "" So'nmas chaqmoqlar

Kemirchak – anatomiyada odam organizmidagi egiluvchan va qattiq birkiruvchi to'qima; tog'ay. Burun kemirchagi. Bemorga yangi kemirchak qo'yish, oddiy operatsiya bo'lib qoldi. Gazetadan

Dimog' – kelib chiqishi arabcha so'z bo'lib, bosh, miya demakdir. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zning quyidagi ma'nolari izohlangan.

1. Anatomiyada burun bo'shlig'i bilan og'iz bo'shlig'ining tutashadigan yeri; halqumning yuqori bo'limi. Gulro'yning dimog'iga gup etgan nam tuproqning xush bo'yi urdi. "Yoshlik"

Dimog'iga gapirmoq. – bog'iq ovoz bilan yoki po'ng'illab gapirmoq; kulmoq. U dimog'ida gapirar edi.

2. Ko'chma. Ruhiiy holat, kayfiyat. Jaranglashib,

dimog'larini chog' bo'lib, Urganch elga hammasi to'yga ketdi. "Yusuf va Ahmad"

3. Ko'chma. O'zini baland turish, kibr- havo, kekkayish, takabburlik. Takabbur, olifta xonimlar dimog' bilan kekkayib indamay o'tirardi. Oybek "Nur qidirib"

Bundan tashqari tilimizda dimog'i baland yoki kalon-dimog' (birovni mensimaydigan, kekkaygan, manman), dimog'i kuymoq (firib yemoq, pand yemoq), dimog'i ko'tarilmoq (o'zini boshqalardan baland oladigan bo'lib qolmoq, kekkaymoq, manmanlik qilmoq), dimog'i shishmoq, dimog'iga qurt tushmoq yoki dimog'idan qurt yog'ilmoq (juda ham kekkayib hech kimni mensimay qo'yimoq), dimog'idan qor yog'moq (qovog'i ochilmaydigan, serzarda bo'lib qolmoq, jahli chiqmoq), dimog'

qilmoq (arzimagan narsaga arazlamoq, zarda qilmoq) kabi iboralar ham tez-tez uchraydi.

Mardum – ko'z qorachig'i, gavhari. Yomon ko'zlar, mabodo fitna qo'zg'ab boqmasinlar deb, ko'zni mardumlari sho'xona tig' o'ynar dema, qoshi. Habibiy

Shu ma'lum bo'ldiki bu so'zlarni ko'pchilik yaxshi bilmas ekan. Balki bu so'rovnomada tor doirada o'tkazilganligi uchundir, balki bu so'zlar omma tomonidan faol qo'llanmaganligi tufaylidir. Bu so'zlardan nutq jaryonida unumli foydalanilsa, shoir va yozuvchilarimiz bu so'zlardan o'z asarlarida qo'llasalar, bu so'zlar ham quloqqa tez-tez chalinib tursa, qolgan tana a'zolarimiz kabi faollashgan bo'larmidi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. I jild. –Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti". 2020. Tuzatilgan 2-nashri.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. II jild. –Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti". 2020. Tuzatilgan 2-nashri.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. III jild. –Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti". 2020. Tuzatilgan 2-nashri.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. IV jild. –Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti". 2020. Tuzatilgan 2-nashri.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. V jild. –Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti". 2020. Tuzatilgan 2-nashri.
6. "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati" II tomlik 1-tom 144-bet (Nizomiddin Mahmudov tahriri ostida) G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi – Toshkent, 2022-yil
7. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. 2017, – Б. 104. 4.
8. Мугу Р.Ю. Полисемантизм соматической лексики (на материале русского немецкого языков): Дисс... канд. филол. наук. – Майкоп, 2003. –С. 81-82 с.
9. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971. –Б.471.
10. Эшқобил Шукур. Бобо сўз изидан. –Тошкент: "MASHHUR-PRESS", 2018. –Б. 336.

Madina ASQAROVA,

*UzSWLU, Assistant doctorate student
The department of General Linguistics*

KORPUS LINGVISTIKASINING PAYDO BO'LISHI VA SHAKLLANISHI

Annotatsiya: tilshunoslikda tabiiy tilning xususiyatlarini o'z holicha saqlash va lingvistik muamolarni hal qilish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Lekin tadqiqotchilarning nazariyasiga binoan, lug'at tuzish, so'zlar chastotasini aniqlash, matnlarni tahlil qilishda qo'l mehnati, ko'p vaqt va kuch talab qilgani uchun bu ishlarni mashina yordamida bajarish qulay va ishonchli manba deb baholandi. Natijada tilshunoslikda yangi yo'nalish sifatida korpus lingvistikasi paydo bo'ldi. Korpus tilshunoslarga katta hajmdagi matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish va ularning autentik manbasini topishga yordam beradigan eng ishonchli elektron baza deb baholanadi.

Kalit so'zlar: korpus, korpus lingvistikasi, annotatsiya, adresat, fragment, simfoniya, konkordans, kartoteka, kompyuter lingvistikasi

Annotation: in linguistics, a number of works have been carried out to improve the properties of natural language and solve linguistic problems. But according to the theory of the researchers, since manual work in creating a dictionary, determining the frequency of words, and analyzing texts requires a lot of time and effort, it was considered a convenient and reliable source to perform these tasks with the help of a machine. As a result, corpus linguistics emerged as a new direction in linguistics. The corpus is considered the most reliable electronic database that helps linguists analyze large volumes of texts linguistically and find their authentic source.

Key words: corpus, corpus linguistics, annotation, addressee, fragment, symphony, concordance, card file, computer linguistics.

Аннотация: в лингвистике выполнен ряд работ по улучшению свойств естественного языка и решению лингвистических задач. Но по теории исследователей, поскольку ручная работа по созданию словаря, определению частотности слов и анализу текстов требует много времени и сил, удобным и надежным источником считалось выполнение этих задач с помощью машина. В результате возникла корпусная лингвистика как новое направление в языкознании. Корпус считается самой надежной электронной базой данных, которая помогает лингвистам лингвистически анализировать большие объемы текстов и находить их подлинный источник.

Ключевые слова: корпус, корпусная лингвистика, аннотация, адресат, фрагмент, симфония, конкорданс, картотека, компьютерная лингвистика.

Kirish. Jadal rivojlanayotgan axborot asrida milliy tilning sofligini, uning tabiiylik xususiyatini saqlab qolish har bir tilning asosiy vazifasi hisoblanadi. Matnlarni asl holicha saqlash, ularni lingvistik tahlil qilish, soʻzlarni qoʻllash usullari va chastotasini aniqlashda mashina (kompyuter) da oson, qulay va tezkor usul hisoblanadi. Zamonaviy texnikalarning paydo boʻlishi tilshunoslikda yangi yoʻnalishning paydo boʻlishiga sabab boʻldi. Ana shu sohalaridan biri korpus lingvistikasi hisoblanadi. Korpus atamasi birinchi marta britaniyalik olim J.RFirth tomonidan fanga kiritilgan. Olim katta hajimdagi matnlarni lingvistik tahlil qilish bilan shugʻullangan. Ilk korpusning yaratilishi 1812-yilga borib taqaladi, bunda nemis olimi Kadling oʻzining nemis soʻzlaridagi undosh harflar distibutsiyasini tahlil qilgan. Vaholanki, u davrda hali kompyuter termining oʻzi ham boʻlmagan.

Keyinchalik, zamonaviy ingliz tili korpusi namunalaridan biri sifatida Brovn korpusi 1960–1961 yillarda yaratildi va u ilk bor bosma holda chop etildi.

Oradan bir yil oʻtibgina, ushbu korpus elektronlashtirildi. Koʻrinib turibdiki, ilk korpuslar kompyuter texnologiyalarisiz ham mavjud boʻlgan va izlanishlar olib borilgan. Keyinchalik fan rivoji qidiruv metodi(konkor-dans)ni elektron formatdagi matnlarda oʻtkazishni taqozo etdi va kompyuter lingvistikasi bilan sohalararo munosabatga ehtiyoj tugʻildi.[1] Korpus atamasiga turli xil olimlar oʻzlarining qarashlarini bildirishgan.

Jumladan E.Finegan darsligida *korpus* – matn yaratilgan vaziyat va unga tegishli maʼlumotlar, soʻzlovchi, muallif, adresat yoki auditoriya haqidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan, mashina oʻqiydigan formatga ega reprezentativlangan matnlar majmuasi deya taʼrif beriladi.

Vikipediya lingvistik, til yoki matnlar korpusi – annotatsiyalangan va strukturalangan, mashina oʻqiydigan formatda taqdim etilgan, muayyan lingvistik masalalarni hal etishga moʻljallangan til maʼlumotlarining filologik kompetentli massivi, deb taʼriflanadi. [2] T.MakEneri va E.Vilson shunday taʼrif beradi: korpus – til modeli sifatida foydalanish uchun aniq til mezonlari boʻyicha tanlangan til fragment (qism / parcha)lari toʻplami. J.Sinkler – korpus lingvistikasining asoschilaridan biri, korpusni “tilni yoki tilning oʻzgarishini toʻliq aks ettirish uchun tashqi mezonlarga muvofiq tanlangan elektron shakldagi matnlarning parchalari toʻplami” deb taʼriflaydi. Rus tili milliy korpusida korpus “maʼlum bir tilda elektron shaklda matnlar toʻplamiga asoslangan axborot-maʼlumot tizimi” deya taʼriflanadi. E.Finegan korpus lingvistikasini tilning tabiiy ishlatilishini oʻrganishga qaratilgan korpusni tuzish va undan foydalanish uchun zarur faoliyat, deb taʼriflaydi. [3]

Corpus linguistics termini dastlab 1963-yilda ingliz tilidagi korpuslarning yaratilishi bilan foydalanila boshlangan. Rossiyada mazkur termin 1996- yilda ingliz tili

Kirish. Aruz vaznida asar yozish shoirdan yuksak iste'dod, mahorat bilan birga bilim, ko'nikma va malakalarni ham talab qiladi. Shundagina ijodkor saktalardan holi, ravon va shaklan beqiyos nazm namunalarini yarata olishi mumkin. Bundan tashqari, g'azaliyotning shakliy xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillar taqozosiga ko'ra yuzaga keluvchi qonuniyatlar ma'lum davrga kelib vaznda ham ko'rinishi mumkin va bu hodisani o'z vaqtida ilg'ash va o'rganish ham zarur. Chunki davrlar o'tgani sayin til rivojlanib o'zgarib boradi, biror millat yoki davr she'riyati miqyosidagi she'riy tizimlar bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi va shular natijasida vaznda ham ayrim o'zgarishlar bo'lishi tabiiydir.

Asosiy qism. Shu o'rinda adabiyotshunos V.Qodirovning XX asrning 50-60- yillar davri g'azaliyoti haqidagi fikrlarini eslash o'rinli: "60-yillardan keyingi g'azallarni ko'zdan kechirsak, ularning vaznida ma'lum o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Bu o'zgarishlarni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq ko'rinadi:

1. Klassik aruzshunoslik nuqtayi nazaridan xato bo'lsa-da, hozirgi zamon tilshunosligi qoidalariga, o'zbek tilining holatiga va boshqa ta'sirlarga ko'ra oqlash mumkin bo'lgan o'zgarishlar.

2. Klassik aruzshunoslik nuqtai nazaridan xato, shuningdek, hozirgi kunda ham oqlash mumkin bo'lmagan nuqsonlar". [9:36]

Xuddi shu nuqtayi nazardan qaraganda, Charxiy

g'azallari orasida ham bunday xatolar yo'q, deb bo'lmaydi. Yuqoridagi g'azalning maqta'dan oldingi baytida mumtoz aruzshunoslik va hozirgi kunda ham oqlash mumkin bo'lmagan nuqson mavjud:

Yangi yil / da xonamga, / yangi yil / ni kutmoqqa,
 Qo'l tutib / ko'p qadrdon, / yor-u meh / ribon keldi.
 [5:33]
 — V — / V — — — / — V — / V — — —

Ikkinchi misra boshidagi tutib so'zining ikkinchi bo'g'inidagi cho'ziq u va yor-u so'zidagi cho'ziq u harflari vazn talabi bilan qisqa u tarzida keltirilmoqda. Bu qo'pol xato hisoblanmasa-da, ikkinchi misradagi ko'p so'zi yopiq bo'g'in bo'lgani uchun cho'ziq hijo hisoblanadi, lekin bu o'rinda qisqa hijoning o'rnida qo'llanmoqda. Ko'p so'zi bog'langan qadrdon so'zi qator undoshli so'z ekanligi tufayli d va r undoshlari orasiga faqat talaffuzda bitta qisqa i unlisi orttirib o'qilayotgani sababli, vazn ohangiga moslashib talaffuz qilinaveradi.

Aruz vaznining tahlil imkoniyati keng bo'lgan hazaji musammani ashtar bahrinda Habibiyning 1944-yil yaratilgan "Oyjamol" sarlavhali g'azali yozilgan:

*Kunda bir chiqib xurshid orazingni shavqida,
 To'xtamay kezar doyim, ko'kda sargardon bo'ldi...
 Sabzalar oyog'ingga yuzni surtib o'pkaylar,
 Bu sharafdin onlarga bog' aro makon bo'ldi.*
 [4: 281]

— V — / V — — — / — V — / V — — —

G'azalda faqat ajratib ko'rsatilgan so'zlarda ayrim saktaliklar uchrasa-da (ko'kda sar / gardon bo'ldi, bu o'rinda —gar yopiq bo'g'inli so'z va oyog'ingga so'zidagi o cho'ziq unlisi qisqa hijo o'rnida kelgan; (oyog'ingga so'zi XV asrga oid matnlarda ayoqingga shaklida ifodalaniib, qisqa hijoni anglatgan. Bu o'rinda asl qo'lyozmada ayoqingga ko'rinishida ifodalangan bo'lsa, nashriyot tomonidan xatoga yo'l qo'yilgan bo'lishi ehtimoli mavjud)) hazaji musammani ashtar bahrining eng yaxshi namunalaridan biri sifatida va moddiy va ma'naviy jihatdan sinovli yillar hisoblanmish ikkinchi jahon urushi davrlarida dunyo yuzini ko'rgan eng yaxshi g'azal sifati ahamiyatlidir.

O'zbek adabiyotida mujtass bahrining sakkiz ruknli shaklidan ham foydalanib kelingan. Fitrating ta'kidlashicha, bu bahr arab va fors nazariyachilari tomonidan ilgari surilgan ekan. [2:236] Ushbu bahrning sara namunalari Alisher Navoiy "Chor devon" kulliyotida mavjud:

*Labing hayot suyidin zulul emish — bildim,
 Zulul nuqtasi ustida xol emish — bildim.*
 [1:296]

Mujtass musammani maxbuni mahzuf bahri Sobir Abdulla va Charxiy g'azallarida ham uchraydi:

*Ketur qadah/ni menga so/qiyo xumo/rim bor,
 Ko'zimda jil/vagarim naq/du gul uzo/rim bor.
 Yetushsa ish/q eli yorin /visoliga /bir dam,
 Demas jahon / elini kuy/durar sharo/rim bor.* [3:68]

V — V — / V V — — / V — V — / — —
 Mafoilun / failotun / mafoilun / falun

Ma'lumki, g'azaliyotda vazn talabi bilan ayrim so'zlarni o'zgartirib qo'llash mumkin. Masalan, ko'plab g'azallarda ikki so'zini iki, bilanni birla, gulistonni gul-siton deb ifodalangan o'rinlar mavjud. Bu haqida A.Hojiahmedov va U.To'ychiyev o'z asarlarida to'xtal-ganlar. [7:48; 8:236] Matla'da ketur fe'li ketur shaklida keltirilgan bo'lsa-da, bu holat xato hisoblanmaydi.

Bizningcha, Charxiyning 1941-yil yozilgan yuqoridagi g'azalida vazn talabiga mos bo'lmagan bunday saktaliklar shoirning qo'pol xatosi hisoblanmaydi. Bil'aks, aruz vaznidan asta uzoqlashayotgan, yangilanib borayotgan hamda barmoq va erkin vaznlarda ijod qilayotgan bir pallada o'zbek milliy she'riyati ixlosmandlariga aruz ilmining muhim qismi bo'lgan g'azal janri vo-sitasida aruzning beqiyos imkonlarini namoyon etishga intildi.

Shu o'rinda aruz tizimi to'g'risidagi quyidagi fikrga e'tiborni qaratsak: "Aruz yuzlab vaznlarni o'z ichiga ol-gan mukammal tizimga aylanadiki, u qaysidir jihat-lari bilan Mendelejev jadvalini yodga soladi. Ya'ni, nazariy jihatdan barcha vaznlar taqte'sini chizib ko'rsatish, shunga tushadigan she'r yozish mumkin; tizim tarkibida-gi ayrim vaznlar faol bo'lsa, boshqalari juda kam qo'lla-nadi; ayrim vaznlar ko'proq arab, boshqalari fors, tag'in birlari esa turkiy she'riyatda qo'llanadi". [10:36] Mujtassi musammani maxbuni mahzuf bahri Sobir Abdullaning:

*G'ururu fax/rim erursan, / muqaddas ey /tuproq',
 G'azal to'qish / ila kuylab / haqingda ko'ng / lim chog'*
 [5:156].

V — V — / V V — — / V — V — / — ~

matla'li g'azalining ham vazni bo'lib, ushbu g'azal vatanni madh etish, uning go'zalligini ta'rif-u tavsif etish mavzusida yozilgan. Turkiy she'riyatda yor go'zalligini madh etish, uning sitamlaridan shikoyat qilish, ag'yor-lar zulmidan jabr ko'rish kabi muhabbatning mumtoz ko'rinishlarini madh etuvchi ushbu vazn Sobir Abdulla ijodida mavzu jihatidan birmuncha yangilandi. Betimsol go'zallik, jafokor yor, rahmsiz "dunyo dun", "charxi kajraftor"ning hiylalari o'rni Vatanga muhabbat, uning muqaddas tuprog'ini ham ko'zga to'tiyo aylash, uning doimiy kuylash kerakligini avlodlarga uqtirish kabi mavzular bilan almashtirildi. G'azal davomida Habibi

va Charxiy g'azallarida uchragani kabi ayrim o'rinlarda vazn bilan bog'liq xatoliklar kuzatilmadi, faqat bir o'rinda vaznning ichki imkoniyatlaridan foydalanib, oxirgi rukn boshqasi bilan almashtirildi.

Uzoqqa bor/sam agar, ey /Vatan, sog'in/gayman,

V — V — / V V — — / V — V — / — —
Mafoilun / failotun / mafoilun / falun

O'zing-o'zing/ men uchun say/rgoh, su/yangan tog'.
[5:156]

V — V — / V V — — / V — V — / — —
Mafoilun / failotun / mafoilun / falon

Fikrimizcha, baytning oxirgi ruknidagi yangan tog' hijosi failon /V — ~/ ning o'rniga qo'llangan bo'lishi kerak, chunki uch hijodan tashkil topgan ushbu rukn mujtass musammani maxbuni maqsur tarmog'iga to'g'ri keladi.

Xulosa. Mumtoz adabiyotda vazn, undan to'g'ri foydalana olish, vazn sabab leksik va grammatik nuqson-

larga yo'l qo'ymaslik shoirdan katta mahorat va mislsiz so'z boyligiga ega bo'lishni talab etadi. Shuning uchun shoirning asari vaznini tekshirish qay darajada mahorat egasi ekanligini yana bir bor ko'rsatadi. Shu o'rinda, shoirlar Habibiy, Charxiy va Sobir Abdulla kabi ijodkorlarning g'azallari Erkin Vohidov va Jamol Kamol kabi keyingi davr g'azalnavislari uchun "o'tish bosqichi" bo'lib xizmat qilganini alohida ta'kidlash o'rinni. O'zbekiston xalq shoiri A.Oripov ta'kidlaganidek: "O'lmas aruz vazniga bepisand qarash hali hukmron bir sharoitda Sobir Abdulla, Habibiy, Charxiy singari mo'tabar siymolardan keyin mumtoz g'azaliyotimizning oltin eshiklari abadiy bekiladi, deya karomat qilishayotganda, yosh avlod orasidan birinchilardan bo'lib Erkin Vohidov aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig' paydo bo'ldi"[6:159]. Darhaqiqat, Sobir Abdulla, Charxiy va Habibiy o'z davrida tarannum etgan turfa mavzular ko'hna aruz vaznini saqlab qolishga va kelgusi avlodga yetkazish borasida o'z hissasini qo'shishga muhim omil bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. Oltinchi tom. Favoyid ul-kibar. — Toshkent: Fan, 1989. 296-bet.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Ilmiy risolalar.— Toshkent: Ma'naviyat, 2003. 236-bet.
3. Charxiy. Devon. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. 68-bet.
4. Habibiy. Devon. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. 281-bet.
5. Sobir Abdulla. Devon. — Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. — B.33.
6. Oripov A. So'z sehri. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995. 159-bet.
7. To'ychiyev U. O'zbek she'r sistemalari. — Toshkent: Fan, 1981. 48-b.;
8. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. — Toshkent: Sharq, 1998. 236-b.
9. Qodirov V. Hozirgi zamon o'zbek g'azallari poetikasining ayrim xususiyatlari: Fil.fan.nomz...diss. — Toshkent, 1993. 36-bet.
10. Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. — Toshkent: "Akademnashr", 2010. 36-bet.

Sofiya JUMAYEVA,

*Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

MAXTUMQULI YOSHNOMALARI POETIKASI VA RAQAMLAR HAQIQATI

Annotatsiya: maqolada turkman shoiri Maxtumquli yoshnomalarining qiyosiy tadqiqi amalga oshirilgan bo'lib, ijodkorning asarlariga xos qator umumlashmalar, asosli xulosalar chiqarilgan. Ayni vaqtda raqamlar bilan bog'liq poetik tasvirlarning asar mazmun-mohiyatiga ta'siri masalasi, jumladan, adib g'oyaviy niyatini nechog'li chuqurlashtirishga xizmat qilgani qator misollar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: raqam, ikki dunyo, besh kunlik olam, yoshnoma, tasavvuf.

Annotatsiya: в статье проведено сравнительное исследование стихов туркменского поэта Махтумкули, сделан ряд обобщений и обоснованных выводов, характерных для творчества автора. При этом на ряде примеров доказывался вопрос о влиянии поэтических образов, связанных с числами, на содержание произведения, в том числе о том, в какой степени они служили углублению идейного замысла поэта.

Ключевые слова: число, два мира, пятидневная вселенная, биографическое стихотворение, суфизм.

Annotation: in the article, the numbers and numerical combinations used in the poetry of the turkmen poet Makhtumquli, as well as the concepts expressed by means of the numbers "two", "three", "four", "five", "seven, twelve" are related to folk beliefs and religious views. A comparative study of the author's age poetry has also been carried out, and a number of generalizations

yosh bilan bog'liq voqea yoki inson tabiati va jismida kechadigan yangilanishlarni aks ettirarkan, o'ttiz yoshdan yuz yoshgacha bo'lgan oraliqni o'n yilliklarga ajratgan: ya'ni o'ttiz yosh, qirq yosh, ellik yosh va nihoyat yuz yosh.

Har ikkala yoshnomada o'ttiz raqami shu yoshdagi insonning turli taraflarini bo'rttirishga qaratilgan. "Kunlarim" yoshnomasida "O'ttizimda otlar minib chopardim" desa, "Jo'shga yetding" she'rida "O'ttizingda qoshingdan, Tuman ketmas boshingdan", – deydi. Guvohi bo'linganidek, ikkala asarda ham o'ttiz yoshli qahramonni mard va jasur, kurashda doim qo'li baland kelgan chavandoz sifatida tanijmiz.

Qirq yoshning poetik ifodalari ham nihoyatda qiziqarli. Bir yoshnomada "qoni quyilgani" xabari berilsa, ikkinchisida komillikka yetishgan inson gavdalanitiriladi. Darhaqiqat, qirq raqami qadimdan inson hayotidagi burilish nuqtalari bilan bog'liq holda talqin qilingan. Eski Ahdda aytilishicha, insonning eng uzoq umr ko'rish uch karra qirq, ya'ni 120 yildir. Ko'pchilik saltanat sohiblari, hatto Sulaymon va Dovud payg'ambarlar ham qirq yil hukmronlik qilganlar. Qirq yoshni hayot bosqichining yakuni sifatida qabul qilgan Talmud va keyingi katolik cherkovi insonning "kanonlik davri" deb ham e'lon qildi, chunki bu davrda miyaning to'liq rivojlanganligiga ishora bor. Darhaqiqat, zamonaviy psixologlar inson kamolotidagi eng yuqori bosqichni qirq yosh bilan belgilashmoqda. Shuning uchun ham bu yoshgacha bo'lgan davr bilim olish, hunar egallash, kelajak uchun zamin hozirlash pallasi sanaladi. Qirq yoshli inson – bu aqlan yetuk, hayotda o'z o'rmini topgan, moddiy jihatdan ta'minlangan, ma'lum bir hayotiy tajribaga ega bo'lgan shaxsdir. Bu mulohazalarning betakror badiiy talqinini esa Maxtumquli yoshnomasida o'qiyimiz:

*Qirq yoshga qadam urding,
Komilsan – hushga yetding.*

Yoshnomalarga xos eng xarakterli belgilardan biri – lirik qahramon yoshiga muvofiq uning ruhiyatida yuz berayotgan o'zgarishlar tasvirini mumtoz shoirlar ijodida ham uchramiz. Garchi yoshnomalar tuzilishiga ko'ra doston, bayt, g'azal va masnaviy, band shakllarida yaratilishi qayd etilgan bo'lsa-da, ayrim shu mazmundagi asarlarni yoshnoma sifatida e'tirof etishdan uzoqmiz, ammo ularda ham inson yoshi bilan bog'liq mulohazalar talqin etilgan. Masalan, Alisher Navoiyning g'azallaridan birida yoshni ko'rsatuvchi raqam ishtirok etgan bayt bor:

*Yoshing ellik bo'ldi, yuz qo'yg'il fano tufrog'ig'a,
Kim, shabob ayyomi ayshu beadablig' chog'i bas [2.201].*

Buyuk mutafakkir nega qirq yoki qirq besh yosh emas, aynan ellik yoshni alohida urg'ulamoqda. Chuqur

mulohaza yuritilsa, ellik yosh inson umrining yarmi. Yoshnomalarda umri shu yerga yetgan kishi oldinga emas, balki orqaga qarab ketishi qayd etiladi. Chunki bu yoshdan keyin fiziologik jihatdan ham tananing qarish jarayoni boshlanadi. Shuning uchun ham Navoiyning yuqoridagi misralarida yoshlikdagi o'yin-kulgu, aysh-u ishratlarni tark etib, ezgu va savobli ishlarni qilishga e'tibor qaratish lozimligi uqtirilmoqda. "Yuzni fano tuprg'iga qo'ymoq" esa tasavvufiy ma'noda solikning sayri suluk yo'lida qat'iyat ko'rsatib, maqsad sari yuz burish chog'i yetib kelganiga ishoradir.

Maxtumqul ham salafi singari ellik yoshdan oshgan musulmonning qalbidagi iztiroblarni ta'sirchan ifoda etgan:

*Maxtumquli, aqlu hushing,
Oqdi ko'zdan qonli yoshing,
Ellik bo'ldi g'amli boshing,
Bundan ziyod faryod bo'lmas [1.283].*

Modomiki, qirq yoshdan so'ng umr yo'li narigi tarafa enishga boshlar ekan, ellik yoshda endi ortga qaytish umuman imkoni yo'qligi, shuning uchun zarur tadoriklar ko'rishga chaqirilmogda.

Ayni kayfiyatdagi misralarga Ogahiyning lirik merosida ham duch kelinadi. Shoir yigitlikdagi zavq-shavqni havas qilmaslikning sababini yoshi ancha joyga borib qolganligi, ya'ni ellik yettiga to'lganligi bilan izohlaydi:

*Qilma havas, ey Ogahiy, emdi yigitlik ayshini,
Kim yetti umring muddati ellik yetti yosh ustina [3.266].*

Maxtumquli yoshnomalarida ellik va oltmish yoshlarida qo'lga tasbeh olib, payg'ambar yoshiga yetganligidan faxr tuygan lirik qahramon yetmish yoshida og'riqlar ortgani, sakson yoshlarida jismonan zaiflik, to'qsonda esa aql-u hushdan begona bo'lganidan shikoyat qiladi:

*Etmishimda og'riq keldi tizamga,
Saksonimda g'ubor indi ko'zimga.
To'qsonimda hush qolmadi o'zimda,
Aqlu hushdan judo bo'lgan kunlarim.*

Ko'rinadiki, lirik qahramonning zohiriy va botiniy olamini batafasil yoritishda raqamlarning mazmuniy ketma-ketligi qo'l kelgan. Shoir boshqa bir she'rida ham yetmish yoshga kirgan qariyaning ayanchli holi, tanasidagi quvvatsizlikdan kelib chiqadigan noqulayliklarni bir-bir qalamga oladi. Kitobxonni sergak torttiradigan bu ifodalar yetmish yosh iborasida yanada ishonchliroq mutoala qilinadi:

*Etmishni qoralab olganda yoshing,
Qaltirab bir yerda turmaydi boshing,*

Non chaynay olmaysan, atala oshing,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar [1.213].

Ikkinchi yoshnomadagi badiiy manzara oldingi tuyg'ularning quyuvlashgan ko'rinishidek taassurot uyg'otadi:

To'qsonda yanglishar so'z,
Qora ko'rinar oq – bo'z,
Qaqshar suyak, tinar ko'z,
Yuz ming andishga yetding.

Anglashilganidek, shoir bunga to'qson, yuz, qora-oq ranglarni mahorat bilan istifoda etish bilan erishgan.

Hayotiy haqiqatlardan ogoh etgan misralardan reallik qidirish uncha to'g'ri bo'lmaydi. Shuning uchun bu janr bo'yicha tadqiqot olib borgan turk olimi Dog'an Qoyaning fikrlari o'rinlidir. Chunonchi, yoshnomalarda raqamlar orqali ifoda etilgan barcha yoshlar ham yashalishi shart emas, ular, xususan, 90-100 yoki yuzdan yuqori bo'lgan yosh ko'rsatkichlari ijodkorning tushuncha idrokiga ko'ra olinadi [4.574]. Shoir 40-50

yosh oralig'ida bo'lsa ham 80-90 yoshlar haqida o'zi ko'rgan, eshitgan va his qilganlariga asoslanib fikr yuritgan ekan, kitobxon yoki tadqiqotchi 80 va undan yuqori yosh ko'rsatkichlari munosabati bilan aytilgan holatlarga qahramonning real yoshi sifatida yondashmog'i lozim emas. Aks holda, Ahmad Yassaviyning:

“Yoronlardan fayz va futuh ololmadim,
Yuz yigirma beshga kirdim, bilolmadim”, –

degan misralariga tayanilib, Yassaviy 125 yil yashagan, degan asosli dalili bo'lmagan ma'lumot taqdim etilishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, yoshnomalarda raqamlarning o'ziga xos silsilasi keltirilgan. Ayniqsa, *bir, ikki, uch, to'rt, yetti, o'n to'rt, qirq, ellik, oltmish, yetmish* raqamlarining mohiyati lirik qahramon hayotidagi muhim voqealar bilan uzviylik kasb etadiki, yoshnomalarni ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Demak, bunda raqamlar janrning shakllanishida poydevor vazifasini o'tasa, uning ramziy ma'nosi asarning g'oyaviy qatlamdorligini ta'min etib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxtumquli. Asarlar. – Toshkent, 2013. 534-bet.
2. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 3-tom. – Toshkent, 1988. 616-bet.
3. Muhammad Rizo Ogahiy. Ta'viz ul-oshiqin. – Toshkent. 284-bet.
4. Doğan Kaya. Âşik edebiyatında yaşnameler. Yetişkinlik ve Yaşlılık Gelişimi ve Psikolojisi. İstanbul, 2012, s. 574.

Botir OQBUTAYEV,
Termiz davlat universiteti
o'qituvchisi

MAXTUMQULI IJODI NAJMIDDIN KOMILOV TALQINIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilovning Sharq va G'arb adabiyoti va madaniyatining dunyo tamadduni taraqqiyotidagi o'rni, buyuk Sharq donishmand shoirlari qatorida ulug' turkman shoiri Maxtumquli hayoti va ijodi hamda o'zbek va turkman xalqlari adabiyoti va madaniyatining mushtarak jihatlarining yorqin ifodasi Maxtumquli - oltin silsila vakili ekanligi, Xiva adabiy muhiti va tarjimachilik haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Sharq va G'arb adabiyoti va madaniyatining dunyo tamaddunidagi o'rni, O'rxun-Enasoy bitiktoshlari, Yusuf Xos Hojib, A. Yugnakiy, A. Yassaviy, S. Boqirg'oniy, Lutfiy, A. Navoiy, Z. M. Bobur, Maxtumquli.

Аннотация: в данной статье рассматривается роль доктора филологических наук, профессора Нажмиддина Камилова в мировом развитии литературы и культуры Востока и Запада, жизнь и творчество великого туркменского поэта Махтумкули в ряду великих восточных поэтов-мудрецов и яркое выражение общих аспектов литературы и культуры узбекского и туркменского народов. упоминания о литературной среде и переводах Хивы.

Ключевые слова: роль восточной и западной литературы и культуры в мировом цивилизации, битигташи Орхун-Энасой, Юсуф Хос Хаджиб, А.Югнаки, А. Яссавий, С. Бакырганы, Лютфи, А. Навои, З. М. Бабур, Махтумкули

Annotation: this article talks about the role of the doctor of philological sciences, professor Najmiddin Komilov in the development of World Culture and literature of the East and West, the life and work of the great Turkmen poet Maxtumquli among the wise poets of the Great East, and the bright expression of the common aspects of the literature and culture of the Uzbek and Turkmen peoples.

Keywords: the place of eastern and Western literature and culture in the world society, O'hun-Enasoy bitigtosh, Yusuf Khos Hajib, A. Yugnaki, A. Yassavi, S. Boqirgani, Lutfi, A. Navoi, Z. M. Babur, Maxtumquli.

Olim o'z tadqiqotlarida bashariyat istiqboli, xalqlar do'stligi, millatlararo totuvlik, adolat, hurfiylik, samimiyat, rostgo'ylik, vatanparvarlik, halollik va hayo, odob, ilmsevarlik kabi umuminsoniy g'oyalarni madh etgan Sharq va Garb xalqlari adabiyoti va madaniyatining zabardast vakillari Gomer, Aristotel, Suqrot, J.Bokachcho, V.Shekspir, Dante, N.G. Chernishevskiy hamda A. Beruniy, Ibn Sino, Al-Farg'oni, J.Rumi, Umar Xayyom, Hofiz Sheroziy, Fariduddin Attor, Alisher Navoiy, Z.M.Bobur, Maxtumquli va M.Ogahiy kabi mutafakkir ijodkorlarning asarlarini qiyosiy o'rgandi. [1,B-280]

Jumladan, serqirra olim Najmiddin Komilov jahon adabiyotining ulug' ijodkorlari qatorida taniqli turkman mutafakkir shoiri Maxtumquli hayoti va ijodini ham chuqur o'rgangan. Najmiddin Komilovning 2008-yil mamlakatimizda Maxtumquli Firog'iy tavalludining 275 yilligi munosabati bilan chop etilgan "Saylanma"ga yozgan "Xalq yodindan ayrilma" nomli so'zboshi mazmun mohiyati fikrimiz isbotidir. [2,B-408] Olim fikricha, turkiy tildagi she'riyat boy va rang barang bo'lib, qadimgi bitiklardan to keying davr shoirlari ijodida ham olam-olam o'lmas g'oyalar, hayot hikmati, qalb nidolari va navolari, avlodlarning dunyoqarashi, his-tuyg'usi, kurash va orzulari donishmand shoirlarimizning bebaho asarlarida hayratlanarli tafakkur teranligi va badiiy yuksakligi bilan, bugungi kunda ham, ongu shuurimizni yoritib turadi. Ustoz turkiy xalqlar adabiyotining uzoq tarixiga nazar tashlab, O'rxun-Enasoy bitigtoshlari va Yusuf Xos Hojib, A.Yugnakiy, A.Yassaviy, S.Boqirg'oni, Lutfiy, A. Navoiy, Z. M. Bobur, B. Mashrab, Amiriy va boshqa o'nlab zabardast shoirlarimiz qatorini "oltin silsila" deb ataydi va unda Maxtumquli Firog'iyning muhim o'rnini "Ana shu oltin silsilada atoqli turkman shoiri Maxtumqulining alohida o'rne bor. Maxtumquli(1733-1791) otashin lirik shoir, o'z xalqining ardoqli kuychisi, ayni vaqtda u o'zbek shoiri ham. Chunki, uning she'rlari o'zi tirikligidayoq butun turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi orasida tarqalib, kuylanib kelinadi." – deya ta'kidlaydi. [3,B-3]

Olim ardoqli o'zbek va turkman shoiri Maxtumquli-Firog'iy dunyoqarashi, axloqi, ijodiy kamolotida haqgo'y va jasoratli ota - shoir Davlatmamad Ozodiyning ulkan ta'sirini dunyoga ko'plab daholarni yetishtirib bergan Sharq donishmandligi va yuksak ma'naviyatining bir namunasi sifatida faxr ila bayon etadi: "Maxtumquli devonida otasiga bag'ishlangan bir nechta sher'lar bor. Ularda o'g'ilning padari buzrukvoriga muhabbati, otag'il orasidagi ichki ruhiy bog'lanish o'z ifodasini topgan. Maxtumquli otasining an'alarini davom ettirdi, uning haqgo'yligi, g'oyaviy jasoratidan o'rnak oldi." [4,B-3-4]

N. Komilov Maxtumquli ijodining takomilida mumtoz adabiyot va Xorazmda azal-azaldan o'zbek-turkman xalq og'zaki ijodi adabiy an'analari asosida yaratilgan "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Go'ro'g'li", "Sayyodxon-Hamro" kabi turkiy-o'g'uziy dostonlar mavzu, ohangi

hamda turkiy adabiyotning ulug' so'fiy shoiri Ahmad Yassaviy dunyoqarashi, ijodi va uslubining ta'sirini ta'kidlaydi va bu fikrni shoirning "Kunlarim" nomli she'ri mazmuni va uslubi ham tasdiqlaydi:

Birimda bilmadim yaxshi-yomonni,
Ikkimda tanidim ota-onamni.
Uch yoshimda tangri berdi zabonni.
To'rt yoshimda tosh otishgan kunlarim.[5,B-153]

Olim Maxtumqulining Xivadagi Sherg'oziyxon madrasasidagi tahsilini alohida urg'ulaydi. Uning nazari- da, Maxtumquli Sherg'oziyxon madrasasida tahsil olgan yillari ko'plab ijodkorlar, ilm ahli bilan do'stlashadi, turkiy va forsiy adabiyot namoyandalarning asarlarini o'qiydi, arab va fors tilini puxta o'rganadi, Qur'onni yod oladi. Shu asnoda, shoir ijodi Qur'on ma'nolaridan ko'p ta'sirlanadi va islomiy qissalar mazmuni, dinu-diyonat, imon-e'tiqodning butunligi, riyosiz taqvo g'oyalari bilan sug'oriladi. Yoshligini, madrasada tahsil ko'rgan yillarini Maxtumquli zavq bilan eslar ekan, bu to'g'rida "Xush qol, go'zal "Sherg'oz" nomli she'r ham bitgan:

*Tanib - bildim endi oqni –qorani,
Do'st, raqib, qardoshim, haqni, yoronni.
O'qidim, xatm etdim kitob -"Qur'on"ni,
Ketar bo'ldim, xush qol, go'zal "Sherg'oz!"*

[6,B-80]

Ayon bo'ladiki, Maxtumquli dunyoqarashi, ijodi takomilida Buxorodagi Ko'kaldosh hamda Xiva adabiy muhitining yirik ta'lim markazlaridan biri bo'lgan Sherg'oziyxon madrasasi muhim o'rin tutgan. Sherg'oziyxon Xiva xoni bo'lib, madrasa uning nomi bilan atalgan, XVIII asrda, 1715-1727-yillarda Xivada hukmronlik qilgan, o'sha paytda Mari, Tajen, Axal, Bolqon, Etrek va Gurgonda yashovchi turkmanlar ham Xiva xonligi tarkibida bo'lgan. [7,B-17-18].Shuni ham alohida aytish mumkinki, Burhoniddin Sivosiy, Davlatmamad Ozodiy, Nurmuhammad Andalib kabi ko'plab turkman shoirlari ham Markaziy Osiyoning eng yirik madaniy markazlaridan bo'lgan Buxoro va Xiva madrasalarida tahsil olishgan. [8,B-405-406]. Ustozning "Muhammadrizo Ogahiyning tarjimonlik mahorati"(nomzodlik), "Xorazm tarjima maktabi(XIX asr tarjima tarixini tipologik va qiyosiy tadqiq etish muammolari)"(doktorlik) mavzularidagi g'oyat mazmunder ilmiy tadqiqotlarida ko'hna Xorazmda ilm-fan, adabiyot va tarjimachilikning vujudga kelishi ilmiy o'rganilgan. Xullas, ustoz Najmiddin Komilovning Maxtumquli hayoti va ijodi haqidagi qarashlari - o'zining yuksak axloqiy-falsafiy fikrlarga, go'zal badiiy - estetik mushohadalarga boyligi, ravon uslubi bilan o'qirmanning e'tiborini tortarkan, shoir she'riyatining Qur'on va Hadislar, xalq donishmandligi va hikmatlariga to'la mazmuniga bo'lgan muhabbatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komilov N. "Tafakkur karvonlari". -T.: "Ma'naviyat", 1999-yil, 280 b
2. Komilov N. "Maxtumquli- Firogiy "Saylanma" sig'a so'zboshi". -T.: "O'zbekiston", 2008-yil, 408 b.
3. Komilov N. "Maxtumquli-Firogiy "Saylanma" sig'a so'zboshi". -T.: "O'zbekiston", 2008-yil, 3 b.
4. Komilov N. "Maxtumquli-Firogiy "Saylanma" sig'a so'zboshi". -T.: "O'zbekiston", 2008-yil, 3-4 b.
5. Maxtumquli "Tanlangan asarlar". -T.: "O'zbekiston", 1976-yil, 153 b.
6. Maxtumquli F. "Saylanma". -T.: "O'zbekiston", 2008-yil, 80 b.
7. Туркмен эдебиятын тарыхы. II том, XVIII асыр эдебияты, "Ылым". Ашгабат-1976. В-17-18.
8. Ulug'ov A. "Jahon adabiyoti". darslik. -T.: "Muharrir nashriyoti", 2021-yil, 405-406 b.

Abduvali AXATOV,
SHDPI tadqiqotchisi

ILOHIY ISHQ KUYCHISI

Annotatsiya: maqolada buyuk mutafakkir, olim, musiqachi, rassom va davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy hayoti va ijodi xususida so'z yuritilib, shoirning Bobur ta'biri bilan aytganda "tili Andijon shevasi bilan rost" bo'lgan shoir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, "Nizomiddin" – "din nizomi", mansab egalari ga nisbatan aytilgan "mir", "amir" so'zlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: shoir, nizom, so'z, lutf, g'azal, asar, metod, ruhiyat.

Annotation: the article talks about the life and work of Alisher Navoi, a great thinker, scientist, musician, artist and statesman, the founder of the Uzbek literary language. Nizamiddin Mir Alisher Navoi, "Nizamiddin" - "religion of religion", the words "mir" and "amir" used in relation to office holders are analyzed.

Key words: poet, rule, word, grace, ghazal, work, method, spirit.

Аннотация: в статье рассказывается о жизни и деятельности Алишера Навои, великого мыслителя, учёного, музыканта, художника и государственного деятеля, основоположника узбекского литературного языка. Низамиддин Мир Алишер Навои, «Низамиддин» - «религия религии», анализируются слова «мир» и «амир», употребляемые по отношению к должностным лицам.

Ключевые слова: поэт, правило, слово, благодать, газель, произведение, метод, дух.

Ruhiyatni anglash uchun, qalbg'a quloq solmoq darkor,

Magarkim, anglar bo'lsang, Hazrat Navoiyga go'sh solmoq darkor!

Butun turk dunyosi Navoiyini "Shams ul-millat" – millat quyoshi deb ulug'laydi.

Otasi G'iyosiddin Muhammad (G'iyosiddin Kichkina) temuriylar saroyidagi amaldorlardan bo'lib, u 1453-yilda ozgina muddat Sabzavor shahri hokimi ham bo'lgan. Onasi Shayx Abu Said Changning qizi, tog'alari Mir Said Kobuliy shoir, Muhammad Ali G'aribiy esa shoir, sozanda, xattot sifatida nom chiqargan edilar. Alisherning Bahlulbek ismli akasi (u Xorazmda hokim bo'lgan) va Darveshali ismli ukasi (Balx hokimi) bo'lgan. Alisher dastlabki ta'limni bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qigan.

Alisher Navoiy 4-5 yoshlaridanoq tojik shoiri Qosim Anvarning g'azallarini yod oladi, Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini (bu ikki asarlarni sevib o'qiganligini shoir o'zining "Lison ut-tayr" asarida alohida ta'kidlab o'tgan), Farididdun Attorning "Mantiq ut-tayr" ("Qush tili") asarini belgilab o'qiydi.

Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida yoshlik chog'ida mashhur o'zbek va fors shoirlari ijodida 50 ming bayt (100 ming misra) she'rni yod bilganini qayd etgan. Xondamirning "Makorim ul-axloq" asari-

da yosh Alisherning Lutfiy huzurida "Orazin yopqoch ko'zimdin, sochilur har lahza yosh..." misrasi bilan boshlanuvchi g'azalni o'qib, buyuk shoirning olqishiga sazovor bo'lganligi haqida ma'lumot keltirilgan.

Navoiy 7-8 yoshlaridan boshlab she'rlar yoza boshlagan va 15 yoshida shoir sifatida tanilgan. "Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til birla to she'r aytibdir-lar, hech kim oncha ko'p va xo'p aytgan emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi "Xamsa" javobida, yana bir "Mantiq ut-tayr" vaznida "Lison ut-tayr" otlig. To'rt g'azaliyot devoni tortiq qilibtur: "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoye' ul-vasat", "Favoyid ul-kibor" otlig, Yaxshi ruboiyoti ham bor... Yana musiqada yaxshi nimalar bog'lobtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshvarlari bordir"¹.

Navoiy o'zbekcha she'rlarida "Navoiy" ("navo" – kuy, ohang; bahra; dard, g'am) forscha she'rlarida "Foniy" ("o'tkinchi") taxalluslarini qo'llagan. Hattoki, Navoiy o'z she'rlaridan biriga "isfahon" degan kuyni ham bastalagan.

Alisher Navoiy 12 yoshida otasidan ajraladi (1453-yil). Navoiy Sabzavorlik olim va shoir Darvesh Mansurdan aruz bo'yicha ta'lim oladi. Navoiy Mashhad madrasalarida ta'lim oladi. Mantiq, falsafa, riyozat kabi

¹ Yo'ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot., 7-sinf darslik-majmua. – T.: 2009. 166-bet.

fanlardan saboq oladi. Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatida qadrlaydi. Navoiy 24 yoshida Jomiy vafot etadi.

Navoiy 1466-yilda Samarqandga keladi va ta'lim olib boshlaydi. Samarqand olim-u fozillardan Ulug'bek madrasasi mudarrisi Xoja Xurd, shoirlar – Ulayi Shoshiy, Yusuf Shoh Badiiy, Safoyi Andijoniy, Riyoziy, Javhariy, Xavofiy kabilar Alisherning hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Navoiy Samarqandda mashhur olim Xoja Fazlulloh Abulays Samarqandiydan saboq oladi.

1469-yilda Hirot taxtini Husayn Boyqaro egallaydi va maxsus noma bilan Alisherni Hirotga chaqirib oladi. Shoir Husayn Bayqaroning taxtga chiqish munosabati bilan unga bag'ishlab "Hiloliy" qasidasini yozadi.

Navoiy davlat arbobi sifatida dastlab muhrdor, so'ngra vazir, keyin esa Astrobodga hokimlik qiladi.

Alisher "Amiri kabir" ("Ulug' amir"), "Amir ul-muqarrab" ("Podshoga eng yaqin amir"), "Muqarrabi shohiy" ("Shohning yaqin kishisi") unvonlariga musharraf bo'lgan.

Navoiy ko'pgina xalqparvarlik siyosatini amalga oshirgan: shaharlarni obodonlashtirgan, ariqlar qazdirgan, shifoxonalar, kutubxonalar qurdirgan. Davlatshoh Samarqandiy o'zining "Tazkirat ush-shuaro"sida Navoiy boshchiligida Xurosonning mashhur buloqlaridan biri – Tus viloyatining yuqori qismida bo'lgan Chashmayi Gil suvidan 80 km ariq qazdirib, muqaddas Mashhad shahriga olib kelangani sababli xalqning suvsizlik azobidan xalos bo'lgani haqida yozilgan.

Xondamirning yozishicha, shoirning sa'y-harakati bilan zilzila bo'lib, butkul vayron bo'lgan Hirotidagi Jome' masjidi qayta tiklangan, 1500-yil 16-martda barcha ishlar tugagan, Alisher elni to'plab osh bergan va imoratni bitirishga ishtirok etgan 100 ga yaqin ustaga in'omlar ulashgan. Shoirning bu boradagi ishlarining batafsil ro'yxatini Xondamir o'zining "Makorim ul-axloq" asarida keltirilgan. Shuningdek "Vaqfiya" asarida ham bu haqida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Buyuk mutafakkir 1501-yil 3-yanvarda sakta (miya insulti) kasalligidan vafot etadi.

Navoiy umri davomida 3 marta haj ziyoratiga o'tlangan. Lekin turli sabablar bilan unga hajga borish nasib qilmagan².

Navoiy o'z ijodida Sharq she'riyatining 16 xil janridan foydalangan. Navoiy bu janrlarni sinflar deb ajratgan. Xususan, g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarji'band, tarkiband, masnaviy, qasida, soqiynoma, qit'a, ruboiy, muammo, chiston, tuyuq, fard kabilar...

Navoiy "Mahub ul-qulub" asarida ishqni avom ishq, xos ishq, siddiq ishq (ishqi ilohiy) tarzida uch turga

² Bobur Z.M. Boburnoma. – T.: "Yulduzcha", 1990. 153-154-betlar.

ajratadi va "pok niyat, pok ko'ngil, pok ko'z" xos ishq kishilarida bo'lishini ta'kidlagan.

Alisher Navoiyning yuqoridagi lirik, ilmiy-memuar, didaktik, diniy asarlaridan tashqari yo'nalishda ham bitilgan. "Xamsa" dostonlari ham mavjud.

Navoiy "Xamsa"si XV asrdagi xalqimiz ma'naviy taraqqiyotining ko'zguvidir. Asarda o'sha davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o'z aksini topgan.

Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye"³ asarida yozilishicha, Navoiy o'z "Xamsa"sini tugatib, Husayn Boyqaroga taqdim etganda, shoh undan qattiq hayajonga tushgan. Husayn Boyqaro shoirni oq otiga mindirgan va unga jilovdorlik qilgan. Bu voqeadan ta'sirlangan Navoiy xushidan ketgan ekan.

Navoiyning sevib o'qigan shoirlari Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy edi. Navoiy bu ustozlari haqida o'zining "Xamsa"sida shunday yozadi:

Kichik erkanimdin bo'lib qoshima,
Ulug' muddao soldingiz boshima.

Navoiyning quyidagi misralar bilan boshlanuvchi o'giti Badiuzzamonga qaratilgan:

Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuv mulkni obod etar.
Oz ish uchun tund itob aylama,
Qatl-u siyosatda shitob aylama.

Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari quyidagilar:

"Chihil hadis" – "Arba'in" ("Qirq hadis") – bu asar hadislarining she'riy tarjimai bo'lib, 886 (milodiy 1486)-yili yaratilgan. Shoir Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hadislarini avval arab tilida beradi va uning tarjimasini she'riy usulda taqdim etadi. Asar jami 40 hadis sharhini o'z ichiga oladi, uning umumiy hajmi 108 baytdan iborat.

Masalan:

Mo'min etmastur, ulki iymondin
Ro'zgorida yuz safo ko'rgay,
Toki qardoshig'a ravo ko'rmas
Har nekim o'ziga ravo ko'rgay.

Demak, ushbu she'riy sharh, Payg'ambarimizning o'zingga ravo ko'rgan (ya'ni yaxshi narsani) birovga ham ravo ko'r, hadislarini asosida sharhlangan. Arabiy shakli: La yu'minu ahadikum hatta yahibbu la ahlihi ma yuhibu li nafsihi.

Yana bir o'rinda Alisher Navoiy hazratlarining "Arba'in" asarlarida dunyo shunday ta'riflanadi:

³ Bu ma'lumotlar Umid Bekmuhammadning "Navoiyning armonlari" nomli tarixiy-ilmiy essesidan olingan.

Dunyovu har ne ondadur mavjud,
Bo'ldi haq la'nati giriftori.
G'ayri haq zikrikim, erur zokir,
Tengrining rahmati sazovori.

Hazrat Alisher Navoiy ijod bo'stoni rang-barang turfa inkishoflar bilan bezatilgan. Bo'stondagi ajoyibotlari-

ni kashf etish bizdayin yoki sizdayin, balki barchamiz uchun bir lazzatlanish ilhomlaridir. Bilmadim, biz qanchalik ajoyibotlarni, turfa xilliklarni, inkishoflarni qandayin anglashimiz kerak. Eng avvalo, Navoiy hazratlari she'riyat ummonlarining g'avvoslari bo'lishimiz darkor. Teran anglash, kashf etish, izlanishda, harakatda, ya'ni o'qish va izlanishda bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar. – T.: "Sharq", 2014. 272-bet.
 2. A.Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 1-devon. G'aroyib us-sig'ar. – T.: "Tamaddun", 2011. 725-bet.
- Qosimov B. Adabiyot. 10-sinf darslik. – T.: "O'qituvchi", 2004. 398-bet.
A.Navoiy. Hayrat ul-abror., – T.: "G'.G'ulom", 2006.

Zebuniso RASULOVA

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi

O'ZBEK XALQ SEHRLI ERTAKLARIDA TABU BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR

Annotatsiya: maqolada o'zbek xalq ertaklarida syujetida uchraydigan qahramonga nisbatan qo'llaniladigan tabu-taqiq bilan bog'liq tushunchalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ertak, sehr, tabu, marosim, qahramon, motiv, syujet.

Annotatsiya. V state govorit'sya o ponyat'yax, svyazannyx s tabu-zapretom, primenyaemyx k geroyu v syujete uzbekskix narodnyx skazok.

Ключевые слова: skazka, volshebstvo, tabu, ritual, geroy, motiv, syujet.

Annotation. The article talks about the concepts associated with the taboo prohibition applied to the hero in the plot of Uzbek folk tales.

Key words: fairy tale, magic, taboo, ritual, hero, motive, plot.

Tabular o'ziga xos ijtimoiy-axloqiy mohiyatga ega hisoblanadi. Chunki ular hayot tajribalari asosida kelib chiqqanligi, kishilarning turmush tajribasi orqali sinovdan o'tganligi bilan e'tiborni tortadi. Ular kishilar tomonidan o'z-o'zini tashqi yomon ta'sirlardan himoyalash, ehtiyot qilish uchun bajariladi. Belgilangan taqiqlarni bajarishda maxsus ramziy xatti-harakatlarga amal qilinadi yoki magik sanaluvchi narsalardan foydalaniladi.

Sehrlilarga xos syujetlar tizimida tabu (taqiq) lar bilan bog'liq tushunchalar asosida yaratilgan uydirmalar alohida o'rin tutadi. Tabular ibtidoiy insonning sirli olam haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalari, animistik qarashlari, sehr-jodu (magiya)ga ishonchi natijasida kelib chiqqan. Tabularda ajdodlar (bobo-momalar, ota-onalar, aka-opalar) tomonidan turmushda sinab aytilgan, aniq belgilangan taqiqlar ilgari suriladi. Tabu o'ziga xos sirli shart bo'lib, uni unutish yoki unga amal qilmaslik, bu shartni nazar-pisand etmaslik, sabsizlik qilib buzish oqibatida kishi falokatga uchrashi, sehr-joduga yo'liqishi mumkin, deb tasavvur qilinadi.

"Tabu" leksemasi Polineziyada istiqomat qiluvchi tonga qabilasi tilidan olingan bo'lib, "tabu", "tabo", "taboo" – "man etmoq", "taqiqlamoq" ma'nolarini anglatadi. Tabu hodisasi jahon xalqlarining barchasiga xos

bo'lib, "man qilingan, taqiqlangan" degan ma'nolarni anglatadi.

Qadimgi odamlar juda ko'p sohalarida ehtiyotkor bo'lishga harakat qilishgan. Tabularga nisbatan ibtidoiy insonlar orasida shakllangan ishonch hozirgacha saqlanib kelayotir. Tabu yovuz ruhlarni yo'qotuvchi vosita vazifasini o'tagan.

Tabular butun bir silsilaviy tizimni tashkil etadi. Ular mavzu mundarijasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lib o'rganiladi:

- a) to'y marosimiga oid taqiqlar;
- b) onalar va bolalar o'rtasida munosabat hamda ularga atab o'tkaziladigan marosimlarga oid taqiqlar;
- v) kunlar va vaqtga doir tabular;
- g) ro'zg'or ashyolari va turli xil buyumlarga oid taqiqlar;
- d) kishilar turmush faoliyatining turli sohalariga oid taqiqlar va hokazo kabi.

J.Frezer, D.K.Zelenin va Z.Freyd kabi olimlarning fikricha, tabularning shakllanish jarayoni ma'lum bir davr bilan belgilanmaydi, binobarin, ularning yashash tarzi ham chegaralanmagan. Tabular insoniyatning qadim ajdodlar-ibtidoiy odamlar yashagan davrlardayoq ularning tabiat stixiyasi tufayli paydo bo'lgan turli-tuman e'tiqodlari ta'sirida vujudga kelgan.

Ibtidoiy ajdodlarimiz tabuni qandaydir harakat, narsa va so'zga nisbatan qo'yilgan e'tiqodiy taqiq tarzida anglaganlar va uni buzgan kishi og'ir jazoga yo'liqishiga ishonganlar.

D.K.Zelenin fikricha, qadimgi odamlar hayvonlar, qushlar va hasharotlarni inson tilini tushunadi, deb o'ylaganlar. Ularning tasavvuricha, o'rmon va tog', suv va olov, yerda yashovchi va suvda suzuvchi hayvonlarning ruhlari bir-birlariga qarama-qarshidirlar. Bu xildagi dualistik qarashlarning uzoq zamonlar davomida saqlanib, odamlar ma'naviy-ijtimoiy turmushiga singib ketishi tabularning yashash chegarasini tobora kengaytira borgan.

Ingliz elshunosi J.Frezerning "Oltin butoq" asarida "Taqiqlangan harakatlar" nomli alohida bob bor. Unda odamlar va ularning tana a'zolari, ayrim narsalargan nisbatan qo'llanadigan taqiqlarning mohiyati, kelib chiqish tarixi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, olim taqiq so'zlar to'g'risida ham alohida to'xtalib o'tgan. Ushbu asarda ibtidoiy jamiyatda amal qilingan tabularning to'rt tipi ko'rsatib o'tilgan.

1. Ibtidoiy jamiyat a'zosining harakatini boshqarib turgan taqiqlar. Bunga ko'ra, qadimgi insonlar o'zga qabila vakillari bilan munosabatda, aloqada bo'lishda, oziq-ovqat va ichimlik turlarini iste'mol qilishda, yashab turgan manzilidan uzoqlashishda, yurish-turishda ma'lum tabularga rioya qilganlar.

E'tiborli tomoni shundaki, bunday tabular mazmunini o'zida ifoda etuvchi badiiy motivlar sehrli-fantastik tipda yaratilgan ertaklarning syujetida saqlanib kelmoqda. Ba'zi ertaklarda qahramon kirishi taqiqlangan qirq birinchi xonaga kirgani uchun boshiga turli musibatlar, og'ir kunlar tushadi. Shu lahzadan e'tiboran qahramon sehr-joduga yo'liqib, hayotida turli o'zgarishlar yuz beradi. Demak, ertaklarda belgilangan tabuga amal qilmaslik, uni buzish motivi qahramonning sehr-joduga yo'liqishi motivi talqini uchun keng yo'l ochadi. Natijada motivlar sintezlashuvi yuzaga kelib, ertak syujetida murakkab ko'pqatlamlilik hosil bo'ladi.

2. Bevosita odamlarga daxldor bo'lgan tabular. Unga ko'ra, qabila boshlig'i va hukmdor, yaqinidan judo bo'lgan azador kishi, homilador ayol, jangchilar, qotillar, ovchilar, baliqchilar bilan muomala-munosabatda bo'lishda ma'lum tabularga amal qilingan.

3. Buyumlarga aloqador tabular. Ular, asosan, temirdan yasalgan o'tkir tig'li jang qurollariga, uzukka, oynaga nisbatan qo'llangan. Buyumlarga nisbatan paydo bo'lgan tabular orasida tig'li buyumlarga nisbatan kelib chiqqan tabular alohida o'rin tutadi. Temirga tabu hali temirdan yasalgan buyumlarni keng qo'llash u qadar urf bo'lmagan davrlarda, odamlar unga shubha va ishonchsizlik bilan qaragan vaqtlarda paydo bo'lgan. Asosan, yog'och buyumlar ishlatilib, temir buyumlar deyarli ishlatilmagan. Odamlar ularni ishlatishdan cho'chishgan.

4. So'zga aloqador tabular. Unga ko'ra, insonning ismini, ota-onalarning, marhumlarning, hukmdorlarning nomini aytish taqiqlangan.

Sochga aloqador tabu mavjudligi tufayli kishilar o'rtasida soch olish ritual tadbiri (soch olish marosimi) shakllangan. Bu marosim hozir ham yosh bolan-

ing sochini ilk marta olish munosabati bilan o'tkaziladi. Chaqaloqning sochiga kekxa ayol yoki cholga qaychi urdirib olinadi.

Xalqimizda soch olish bilan aloqador bir talay tabularga amal qilingan. Jumladan, taniqli etnograf olim G.P.Snesarevning qayd qilishicha, "Xorazmda ham soch va tirnoq bilan aloqador anchagina irim-sirimlar mavjud bo'lgan. Masalan, soch va tirnoqni o'tda kuydirish mumkin bo'lmagan, chunki uning egasi biror falokatga yo'liqadi yoki bosh og'rig'i kasaliga duchor bo'ladi deb qo'rqanlar. Sartaroshlar olingan sochlarni duch kelgan joyga emas, balki ko'pincha biror mozorga olib borib ko'mib kelishgan. Soch bilan bog'liq bunday tabularning qadimiy ildizlari "Avesto"ga borib taqaladi".

Xullas, xalq tabu-taqiqlari muayyan tizimni hosil qiladi. Bundan ko'rinadiki, tabular o'tmishda ijtimoiy hayot qonuni sifatida keng amal qilgan. Katta-yu kichik unga bo'ysunib, rioya qilgan. Shu holat, tabiiyki, juda qadimda yaratilgan xalq og'zaki ijodi asarlarida o'z aksini topgan. Shuning uchun ertaklarda tabularga amal qilmaslik yomon, salbiy oqibatlariga olib kelishi, falokat va fojia yuz berishi alohida badiiy talqin etiladi.

Ibtidoiy odamlar tabularga amal qilmaslik natijasida kishi o'ziga zarar keltiruvchi sehra yo'liqishi mumkin, lekin zararli sehr ta'siridan kishini xalos etuvchi, asrovchi, himoya qiluvchi, qo'llab-quvvatlovchi va unga qarshi tura oladigan magik vositalar ham bor, deb tushunganlar.

Shu tasavvur-tushunchalarning izlari sehrli ertaklarda qahramonning yovuz niyatli mifologik obrazlarga qarshi turli himoyalovchi magik buyumlar vositasida kurashishi misolida badiiy talqin qilinadi. Aytaylik, ertak qahramonlari, odatda, o'z orqasidan ta'qib qilib, quvib kelayotgan yovuz kuchlarni (yalmog'iz kampirni yoki devni) ortda qoldirish uchun yoki uning yo'lini to'sib, imkoniyatlarini chegaralash maqsadida sehrli taroq, sehrli oyna kabilardan foydalanadi.

Sehrli ertaklarda har bir sirli (g'aroyib) buyumning o'z poetik o'rni va vazifasi bor. Ular orasida marosimlarda ishlatiladigan va ishlatilmaydiganlari uchraydi. Har qanday holda ham ular sirli ertaklarda g'aroyib (sehr-joduga ega) buyum sifatida talqin qilinishi kuzatiladi.

O'zbek xalq sehrli ertaklari tarkibiga tilsim bilan bog'liq "g'aroyib narsa"lar tasodifan kirib qolmagan. Ulardan aksariyatining asosida tabu yotadi. Jumladan, qadimda sochga nisbatan qo'llanilgan tabu taroqqa magik vosita sifatida qarashni keltirib chiqarigan bo'lsa, yuzni yashirib yurish, har kimga ko'rsatmaslik taqiqi sehrli oyna timsolining yaratilishiga asos bo'lgan. Shuningdek, inson va hukmdorlar nomini sir saqlash, ochiq-oshkora aytmaslik taqiqi ertaklarda personajlarni o'z nomi bilan atamaslik, ularni ko'pincha umumiy nom bilan *podsho*, *shahzoda*, *qahramon*, *botir*, *cho'pon*, *dehqon*, *savdogar* yoki biror-bir belgi, yo laqab bilan (mas.: *kal*, *ko'sa*) atashga olib kelgan.

Sehrli ertaklar ham o'tmishda ijtimoiy vazifa bajarib, kishilarga belgilangan maishiy taqiqlarga rioya qilish shartligini uqtirish, agar unga rioya qilinmasa, inson turli falokatlariga, sehr-joduga yo'liqishi mumkinligini ta'kidlash vazifasini bajargan. Hatto aksariyat sehrli ertaklar bevosita ma'lum bir tabuni asoslash, uni badiiy talqin

qilish uchun yaratilganligi seziladi.

Kattalar tomonidan aytilgan, belgilangan taqiqni unutish, buzish, unga rioya qilmaslik asosida epik qahramonning falokatga uchrashi, aniqrog'i, biror-bir sehr-joduga yo'liqishi motivi sehrli ertaklarning yetakchi motivlaridan biridir. Masalan, "Oltin beshik" ertagida singilning o'z opasi so'ziga amal qilmay, taqiqlangan ko'lmakdan suv ichib, kiyikka aylanishi voqeasi shunday hikoya qilinadi: "Qizcha yugurib borib suv ichaman deganda, – Ichma, kiyik bo'lib qolasan! – deb qichqiribdi. Keyin ular yana yo'lga tushibdilar. Singlisi: – Haligi joyda bir poy kovushim qolibdi, - debdi. Opasi: – Bor, darrov olib kel, lekin haligi suvdan ichma! – deb tayinlab yuboribdi. Singlisi opasining gapiga kirmay, hovuzdagi suvdan ichibdi-da, kiyik bo'lib qolibdi". Singlisi opasi (katta avlod vakili)ning so'ziga kirmay shu suvdan ichgan ekan, kiyik suratiga kirib qolibdi. Chunki qadimgi odam tasavvurida suv sehrli kuchga ega deb qaralgan va shu bois har qanday suvni ichish taqiqlangan. Ajdodlarimiz agar odam u yoki bu jonivor ichgan suvdan ichsa, unga o'sha suv orqali jonivorning xususiyatlari ham o'tadi, deb o'ylagan. Ana shu kabi qadimiy tasavvur-tushunchalar mazkur ertakda tabu orqali ifoda etilgan.

"Qilich botir" ertagida esa qahramonning sevgilisi maston kampirning avrashiga berilib, Qilich botirning joni qilichda saqlanishi haqidagi sirni aytib qo'yishi va bu sirni ochmaslik shartining buzilishi natijasida qahramon boshiga og'ir ko'rgiliklar tushadi.

"Zumrad va Qimmat" ertagida Qimmatning sehrgar kampir tomonidan qo'yilgan shartni buzishi, ya'ni sandiqni uyga yetib borganida emas, yo'ldayoq ochishi natijasida onasi bilan sehr-joduga yo'liqib, itga aylanib qolishi hikoya qilinadi.

Ayrim ertak va dostonlarda qahramonlarning taqiqlangan boqqa kirib borishi, taqiqlangan yo'ldan yurishi, taqiqlangan xonaga kirishi va hokazolar natijasida yomon ko'rgiliklarga duch kelishi tasviri ham uchraydi.

Og'zaki epik janrlarda tabularga aloqador motivlar juda ko'p uchraydi. Xususan, sehrli ertaklarga xos syujetlar tizimida tabu (taqiq)lar bilan bog'liq tushunchalar asosida yaratilgan uydirmalar yetakchi o'rin tutadi.

Ba'zan ertaklarda pichoq bilan bog'liq tabu ifodasini kuzatish mumkin. Bunda tilsim pichoqning sirini har qanday holatda hech kimga aytmaslik shart qilib qo'yiladi. Biroq ertak qahramoni bu shartni unutib, tabuni buzishi oqibatida boshiga juda ko'p tashvish keltiradi. So'ngra u ming mashaqqatlar bilan yana o'z pichog'ini qo'lga kiritib, qaytadan xotirjamlikka va baxtga erishadi. Bunday motiv "Ernazar va Kimonazar" ertagi syujetida

uchraydi.

Tabiyyi, bunda pichoqqa nisbatan amal qilinadigan tabuning buzilishi natijasida kelib chiqadigan ko'ngilsizlik va baxtsizliklar ertakda badiiy ko'rinishda ifoda etiladi.

Bunday ertaklarda, avvalo, pichoqning meros qoldirilishi va unga sehrli so'z aytish detali alohida e'tiborni tortadi. Darhaqiqat, hayotda qassoblik yoki kinnachilik kasbi bilan shug'ullanadigan kishilar o'z farzandlaridan biriga (odatda, yo kattasiga, yo kichigiga) kasb pichog'ini meros sifatida qoldirib ketish udumi bor. Bunda farzand ota kasbini qilib, pichoqdan foydalanar ekan, albatta, otasi ruhiga, qassoblar piriga yoki kinnachilar piriga olqish aytadi. Shunday qilinsa, aziz ruhlar ishimga rivoj bag'ishlaydi, deb ishonadi.

"Dev po'stin" ertagida ham tabuga aloqador motiv keltirilgan: "Devning bir po'stini bo'lar ekan. Ertalab kiyib dev bo'lib ketar ekan va kechasi po'stinini yechsa yana odam bo'lib o'tiraverar ekan. Uni qiz bilib olibdi. Uyiga kelib bu sirni kelinoyilariga aytibdi. Ular "kuydirib tashlagin", deyishibdi. Qiz po'stinni yoqib tashlabdi. Eri ertalab turib po'stinini qidiribdi va xotinidan so'rabdi. Xotini uni kuydirib tashlaganini aytibdi. Eri buni eshitib, xotiniga "xayr" deb bir duo o'qib kaptarga aylanib uchib ketibdi. Shundan so'ng qiz otasiga telpak, etik, hassa qildirib, erini izlab yo'lga chiqibdi".

Ko'rinib turibdiki, bu ertakdagi voqealar talqinida ham bevosita epik shart – tabuning buzilishi dramatisizmning kuchayishiga sabab bo'lgan.

Xullas, ertaklar orasida ma'lum bir tabuni asoslash, uni badiiy talqin qilish uchun yaratilgan sehrli ertaklar o'ziga xos qiziqarli syujeti bilan alohida e'tiborni tortadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Zelenin D.K. Tabu slov u narodov Vostochnoy Yevropy i Severnoy Azii. Chast 2. – M., 1930.
2. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi (chorvador nutqi misolida): Filol. fanlari doktori diss. avtoref. – Toshkent, 2009. 9-b.
3. Snesev G.P. Relektly domusulmanskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. – M.: Nauka, 1969. – S.169.
4. Frezer Dj.Dj. Zolotaya vetv. 2-ye izd-ye. – M.: Politizdat, 1983. – S.188-195.
5. Freyd Z. Totem i tabu: psixologiya pervobitnoy kultury i religii / Freyd Z. "Ya" i "Ono". Trudy raznykh let. Kn.1. – Tbilisi: Merani, 1991. – S.38-39.
6. Oltin beshik. O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent, 2011.128-129-b.

Ro'ziboy TANGIROV

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti mustaqil
tadqiqotchisi

SHUKUR XOLMIRZAEVNING XARAKTER YARATISH MAHORATI

(“Bandi burgut” hikoyasi asosida)

Annatsiya: o'zbek adabiyotining yetuk darg'alaridan biri Shukur Xolmirzayevdir. Adibning nasr taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir, shu bilan bir qatorda uning xarakter yaratish mahorati, ijodkorning poetik uslubini yuzaga chiqarish imkonini bergan. Yozuvchining “Bandi burgut” hikoyasi asosida, xarakter yaratish mahoratiga tahliliy yondoshildi. Bir hikoya asosida adibning badiiy mahorati va xarakter yaratish jarayonidagi ifoda shakllari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: tahlil, obraz, ramziylik, xarakter, ruhiyat, badiiy mahorat xalqchillik.

Annation: Shukur Xolmirzayev is one of the mature figures of Uzbek literature. The role of the writer in the development of prose is incomparable, besides, his ability to create a character made it possible to reveal the poetic style of the creator. On the basis of the writer's story “Bandi burut”, an analytical approach was made to the skill of character creation. Based on one story, the writer's artistic skills and forms of expression in the process of character creation were analyzed.

Keywords: analysis, image, symbolism, character, mentality, artistic skill

Аннотация: Шукур Холмирзаев – один из зрелых деятелей узбекской литературы. Роль писателя в развитии прозы бесподобна, кроме того, его умение создать образ позволило раскрыть поэтический стиль создателя. На основе повести писателя «Банди бургут» (“Пленный орел”) осуществлен аналитический подход к мастерству создания персонажей. На основе одного рассказа проанализированы художественные способности и формы выразительности писателя в процессе создания персонажа.

Ключевые слова: анализ, образ, символика, характер, менталитет, художественное мастерство.

Mustaqillik yillariga kelib badiiy adabiyotda ham o'ziga xos poetik o'zgarishlar, jahon adabiyotining yetakchi tamoyillarini ramz va majozga singdirish kabi yangilanishlar kuzatilmoqda. Adabiyotning tarkibidagi bu xususiyatni faqat mustaqillik yillarida vujudga keldi deyish fikridan yiroqmiz, ammo mavjud qolip va andozalarni “yorib” chiqishi jihatidan bu tushunchani ilgari surmoqdamiz. Adabiyotning turfa xil ohanglari uzoq yillik tarixga ega. Shu jarayonda, o'zbek nasrining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk iste'dod sohibi Shukur Xolmirzayevning o'rni beqiyosdir.

Adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov qayd qilganidek: “Qissa va hikoyalarda Shukur o'z qahramonlarining taqdiriga juda ehtiyotkorlik bilan qaraydi, avaylab tasvirlaydi. Ma'lum bir muhit ta'sirida jamiyat axloq normalaridan chiqib ketgan bo'lsa yozuvchi ularning qilmishidan norozi ekanligini, ular ustidan kulayotganligini sezamiz: bordi-yu, sog'lom muhit ta'siri osti o'sha yosh o'z yo'lini topa olganligini tasvirlaydigan bo'lsa, uning qalam yuritishidan yuzidagi qanoatli tabassumni ko'rib turamiz. Shukur Xolmirzayevning keyingi ijodi asosan hikoya janrida mukammalshmoqda”. [1]

Adibning turli janrdagi asarlari bilan bir qatorda, adibga shuhrat keltirgan va ijodkor sifatida mahoratini namoyon etishda hikoyachilikdagi poetik mahorati bejizga alohida e'tirof etilmyadi, chunki yozuvchining ilk asarlari ham hikoya janrida bo'lib, uning o'ziga xos uslubini yuzaga chiqarganligi qayd etadi. O'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri, iste'dodli adib Shukur Xolmirzayevdir. Yozuvchining yarim asrdan ortiqroq ijodiy jarayonida turfa xil janrdagi asarlar yaratishga intilganligini kuzatish mumkin. Yozuvchining eng xarakterli

asarlarning asosiy qismi hikoya janridagi asarlaridir. Bu hikoyalarsiz, o'zbek hikoyachiligini tasavvur etish juda mushkuldir. Janr taraqqiyotida Abdulla Qahhordan keyingi iste'dodli adiblardan biri, tabiiy ravishda Shukur Xolmirzayevdir: “Hikoyanavis sifatida qaysi mavzuni qalamga olmasin, albatta, qandaydir muhim, salmoqdor ijtimoiy fikrni ifodalashga harakat qilardi. Uning bu xususiyati, ayniqsa, keyingi yillarda yaratilgan... hikoyalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarda surxon vohasining koloriti yaqqol sezilib turadi”.

Adibning o'ziga xos talqinlari bilan bir qatorda, uning badiiy uslubini ham xuddi shu xususiyat yuksak darajaga ko'targanligini ham qayd qilish lozim. Yozuvchining hikoyalarda insonning ruhiy-ma'naviy olamidagi qarashlar, istiroblar, o'kinchlar, kurashlar juda mahorat bilan talqin etiladi. Mustaqillik hikoyachiligining taraqqiyotida ham o'ziga xos o'rni mavjud: “Badiiy ijoddagi muayyan yo'nalish o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Uning o'z asosi, tarixi bo'ladi. Uning asosi esa zamon hamda davrdagi o'zgarishdir. Istiqloq davri hikoyachiligidagi yangilanish va tamoyillarning vujudga kelishi xuddi shunday omillarga bog'liq. Ya'ni unitilgan qadimiy qadriyatlarining tiklanishi, ma'rifat, ma'naviyatning asosi bo'lgan dinga e'tiborning kuchayishi, davlat boshqaruvida demokratik yo'nalishning yuzaga kelishi, bozor iqtisodining tarkib topishi va hakozolar”. [2]

Har davrning o'ziga xos talqinlari, uning sabablari, poetik ifoda shakllarning o'zgarishiga asos bo'luvchi holatlarni kuzatish mumkin. Ammo iste'dod egalari davrning qaynoq ziddiyatlari, muhitning salbiy tomonlarining ta'siri mavjud emas. To'g'ri, qaysidir ma'noda,

mafkuraviy tayziqlarning adabiyotga ta'sirini ham unitmaslik lozim. Davrlar shiddati iste'dodli adib Shukur Xolmirzayevning ijodini yanada yuksak pog'onalarga ko'tarilishiga zamin hozirladi. Uning "Bandi burgut" hikoyasidagi badiiy talqinlarning o'ziyoq, ijodkorning poetik mahoratini namoyon qilgan.

Adib ijodini tabiatning jonli tasvirlari, bolalik va uning umidbaxsh xotiralari, hayotning achchiq haqiqatlarisiz, haqiqatlar yashiringan timsollarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buni birgina «Bandi burgut» hikoyasi misolida ham ko'rish mumkin. Hikoyada tasvirlangan voqealar tuguni bir qarashda tabiiy jarayon – do'lda qolgan, kulangir tovuqcha keladigan yosh burgutning o'rik shoxiga ojizona kelib qo'nishi, qanotlari ho'lligidan yoniga osilib qolgani, ammo ko'zlari olazarak ekani bilan namoyon bo'ladi. Bu ko'rinishning o'ziyoq tabiat oldida nafaqat inson, balki, har qanday kuchli jonzot ham ojiz, g'arib bo'lib qolishiga ishora qiladi. Asarni o'qish davomida kitobxon ham burgutni tutmoqchi bo'lgan bolalarga qo'shilib, dashtdan loy kechib, qishloq tomon keladi. Ammo burgutni topisha olmaydi, lekin yaqin o'rtadan bir baqiriq ovoz eshitaladiki, bu esa To'raqullarni hovlisidan, shundaygina yonidagi hovlidan eshitalayotganligini anglab qolishadi. To'raqullarning hovlisida (ismdagi ramzga e'tibor qiling!) endi burgutni oyog'i bog'liq holda ko'radi. O'quvchini dahshatga solgan to'ra bo'lsa, yana qul bo'lsa?! Uning oilasi juda nochor hayot kechirar, tinimsiz mehnat qilib, bazo'rgina ro'zg'or tebratayotgan oilalarning biri sifatida tasvirlanadi. Qayd qilish kerakki, bu ramzlar orqali, davrning murakkab tomonlari bilan bir qatorda, inson hayotining og'ir qirralarini ham qalamga olib o'tadi.

Ozodlik ramzi bo'lgan qush endi bandi bo'lib, ojizlanib, qanotlarini yozib, yer bag'irlab yotibdi. Tirnoqlari erga qadalgan, qutulishga harakat qilayotgani sezilib turibdi. Ammo To'raqulning onasi burgutni bolalarga berish o'rniga kolxoz raisining otda yurgan, qishloqning juldurvaqalariga qo'shilishni istamaydigan o'g'li Yo'ldoshboyning qo'liga tutadi. Inson menini asar qahramoni Yo'ldoshvoyning ruhiyati, xarakteriga singdirib yuboradiki, shu o'rinda insonni anglash naqadar murakkab jarayon ekanligini his etish mumkin.

To'g'ri, asar saksoninchi yillarning badiiy in'ikosini ekan, shu davrning xislatlarini, bolalarga xos tafakkur tarzini voqealar rivojiga singdirib yuboradi: "Yo'ldoshboy o'zimiz tengi yigitcha edi. Qo'shni sinfda o'qirdi. Lekin juda yaxshi kiyinardi. Shunday kiyinardiki, bir-ikkita bolalar hasad qilganlaridan uning ust- boshini bir-ikki mar-

ta yirtib tashlashgan edi. Menga u bola yoqardi, umuman, yaxshi o'qirdi, informatsiyaga boy edi. Biroq rais otalari xuddi To'raqul juldurning onasidek o'g'lini biz juldurvaqalarga qo'shilib yurishini xohlamasdi, qarang, boylar ham ehtiyotkor bo'lishadi, a?" [3]

Bu nimadan darak? Endi burgut ozodlikka chiqdim deya ko'kka parvoz qiladi, ammo nogoh oyog'idagi ipni payqab qolib, cheklangan ozodlik, nomigagina ozodlik ekanligini keyinchalik his etadi. Rais boboning xohish irodasiga ko'ra, belgilab berilgan masofadan uzoqqa ucholmasligiga fahmi etadimi, yana taqdirga tan beradi, uchishdan sekinlab-sekinlab, ayvondan pastga qarab g'amgin osilib qoladi. Ana shunda burgut isyon qiladi. Endi oyog'iga kapron chilvir bog'lab uchirishni odat qilgan Yo'ldoshning ixtiyoriga bo'ysinmay Rais boboning mehmonxonasiga uchib kiradi va fosfor burgut tulumini sindirib tashlaydi va o'zi ham halok bo'ladi. Ermaktalab bolalar uni endi qabristonning bog' tomoniga shahid qatori ko'mishadi. Xuddi Ozodlik, Mustaqillik yo'lida kurashib halok bo'lgan shahid insonlardek e'zozlab ko'madilar.

Shukur Xolmirzayev "Bandi burgut" hikoyasida tarix haqiqatlariga tayangan holda o'z qarashlarini, ijodiy mahoratini bandi burgut misolida namoyon etgan. Bunday ramziy ma'no, insonni o'zligini anglashga, olam va atrofga teranroq nazar solishga, bu dunyoning o'tkinchiligi-ga, xalq, millat esa yashayverishiga, u ham ozod, erkin shaxs sifatida yashashga haqli ekanligini tasvirlardagi matn tarkibiga singdirib yuboradi.

Adabiyotdagi obrazlar asosida davr va muhitning muhim qirralari ochib beradi. Inson xarakterining o'ziga xosliklari taqlin etiladi. Shuning uchun adibning "Bandi burgut" hikoyasida ham murakkab xarakterlar, bolalarga xos fazilatlariga singdirib yuborilgan. Yozuvchining xarakter yaratish jarayoni, milliy qadriyatlarga, an'analarga asoslangan bo'lsa-da, inson xususiyatlarini anglash imkonini beradi.

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayevning barcha asarlarida o'ziga xos ramziylik, majoziylik asosida inson ruhiyatini, davrning murakkab qirralarini, inson erki va g'ururini, jasoratini talqin etishga intiladi. Chunki yozuvchi asarlaridagi obrazlar olamiga nazar tashlar ekansiz, ularning ruhiy-ma'naviy olamini anglashga, xarakter xususiyatlarini his etishga kengiroq imkon beradi. Umumlashmalik asosida inson qiyofasini, uning ruhiy istiroblarini haqqoniy talqin etadi. Adibning turfa xil obrazlari insonni, muhitni, uning badiiy olamini anglashga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Qo'shjanov M. Saylanma. Ikki jildlik. Birinchi jild. Adabiy portretlar. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982. – 384 bet.
2. Sodiq Sanjar. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. – Toshkent, O'qituvchi NMU, 2019. – 720 bet.
3. Karimov H. Istiqloq davri adabiyoti. Darslik. – Toshkent, Yangi nashr, 2010. – 364 bet.
4. Xolmirzayev Sh. Saylanma. III jildlik. 3-jild. Hikoyalar. – Toshkent, Sharq, 2006. – 512 bet.

Muhabbat FAZLIDDINOVA,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti "Matnshunoslik
va adabiy manbashunoslik" kafedrasida magistranti*

YUSUF AMIRIYNING "DAHNOMA" ASARI O'RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada nomaning genezisi va janr sifatida shakllanishi, forsiy va turkiy adabiyotda yaratilgan nomalar, Yusuf Amiriy hayoti va ijodiga oid muhim ma'lumotlar, "Dahnoma" asarining matnii, lisoniy va badiiy jihatlari o'rganilgan ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar yig'ma va qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *noma, genezis, risola, obraz, ma'shuqa, oshiq, tabdil, qo'lyozma*

Аннотация: В данной статье генезис нома и история его становления как жанра, персидские и турецкие номы, важные сведения о жизни и творчестве Юсуфа Амири, научная литература, диссертации, научные статьи, изучающие текстовые, лингвистические и художественные аспекты в произведении «Дахнома» собраны и проведены сравнительный анализ.

Ключевые слова: *наме, генезис, трактат, образ, возлюбленный, возлюбленная, транслитерация, рукопись*

Annotation: in this article, the genesis of the nome and its formation as a genre, the nomes created in Persian and Turkish literature, important information about the life and work of Yusuf Amiri, the textual, linguistic and artistic aspects of the work "Dahnoma" are collected and comparatively analyzed.

Key words: *nome, genesis, treatise, image, mistress, lover, transformation, manuscript*

O'zbek adabiyoti tarixida noma janri badiiyati, o'ziga xos qonuniyatlari, go'zal namunalari va estetik-didaktik ahamiyati bilan alohida o'ringa ega. Qadimdan turkiy asarlarda maktubga ko'p bora murojaat qilingan bo'lsa-da, nomaning janr sifatida shakllanishi bevosita fors-tojik tilida yaratilgan "Dahnoma"lar (Gurgoniy, Ahvadiy, Kirmoniy) bilan bog'liq.

O'zbek nomachiligi XIV-XV asrlarda taraqqiy etgan. Bu davrda Xorazmiy "Muhabbatnoma", Xo'jandiy "Latofatnoma", Yusuf Amiriy "Dahnoma", Said Ahmad "Taashshuqnoma" kabi asarlarni yozdilar.

XX asr o'rtalaridan boshlab adabiyotshunosligimizda noma janri tadqiqiga jiddiy qaraldi va bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Turkiy nomalar va ularning mualliflari (hayoti va ijodi, asarlari) matnshunos, adabiyotshunos, tilshunos olimlarimiz tomonidan atroflicha o'rganildi. Xususan, S.Qayumov ("Xorazmiy va uning ijodi", nom.diss., 1950), N.Mallayev ("O'zbek adabiyoti tarixi", 1961), X.Bektemirov ("Yusuf Amiriy asarlarining til xususiyatlari", nom.diss., 1973), B.Valixojayev ("O'zbek epik poeziyasi tarixidan", 1974), X.Rasulov ("XIV-XV asrdagi she'riy nomalar", 1976), Y.Is'hoqov ("O'zbek adabiyoti tarixi", 1987), M.Abduvohidova ("O'zbek adabiyotida munozara", 1984), M.Jamolova ("O'zbek adabiyotida noma janri", 1992), A.Hayitmetov ("Temuriylar davri o'zbek adabiyoti", 1996) N.Rahmonov ("O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari", 2007), kabi olimlarimiz muallifligidagi ilmiy adabiyotlar va yana bir qator ilmiy maqolalarda noma janri, namunalari va nomanavis ijodkorlarga oid ma'lumotlar berilgan. Ushbu manbalarda Yusuf Amiriy va "Dahnoma" asari haqida bir qancha ilmiy xulosalarni ko'rish mumkin.

Amiriy shaxsi va ijodiga oid ma'lumotlar kam. U haqida, eng avvalo, o'z asarlari orqali bilib olishimiz mumkin. Amiriy she'rlar devonining qo'lyozmasi Turkiya universiteti kutubxonasida, "Dahnoma", "Bang va chog'ir"

asarlarning yagona qo'lyozmasi esa Britaniya muzeyida saqlanadi. Ulardan olingan fotonusxalar O'zR FA Qo'lyozmalar instituti fondida mavjud.

Yusuf Amiriy haqida ma'lumot beruvchi ikkinchi manba Alisher Navoiyning "Majolis un nafois" asaridir. Tazkiraning birinchi majlisida shunday ma'lumot keltiriladi: "Mavlono Amiriy turki erdi va turkcha she'ri yaxshi voqe bo'lubtur, ammo shuhrat tutmaydur va bu bayt aning "Dahnoma"sidindur:

Ne yemakdin, ne uyqudin solib so'z,
Yemakdin to'yib, uyqudin yumib ko'z.

Va forsiyda Shayx Kamol tatabbu'i qilibdur. Bu matla' aningdurkim:

Ro'zi qismat har kase az ayshi baxshi xud sitond,
G'ayri zohid ko' rizoyatho kashidu xushk mond.

Aning qabri Badaxshon sari Arxang saroyidadur"[1:10].

Yusuf Amiriy Badaxshonda tug'ilgan, Xuroson poytaxti Hirotda yashab, Mirzo Ulug'bekning akasi Boysung'ur Mirzo homiyligi ostida ijod qilgan. U ilk yozma turkiy tuyuqlar mualliflaridan biri. Amiriyning "Bang va chog'ir" asari nasriy yo'lda yozilib, munozara janri rivojiga xizmat qilgan bo'lsa, "Dahnoma"si noma janri-ning go'zal namunasi hisoblanadi va shoirning nazmda ham mohir ekanligini ko'rsatadi. Buni Navoiy yana bir asari "Muhokamat ul-lug'atayn"da o'zidan burun o'tgan yirik sakkizta o'zbek shoirlari qatorida Amiriy ham keltirgani ham isbotlaydi.

Amiriy to'g'risida Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarida ham ma'lumot mavjud: "Mavlono Yusuf Amiriy sulton Shohruh mirzo zamonida katta shuhratga erishgan shoirlardan biridir. U

oddiy hayot kechirgan, aytishlaricha, amirlar va mashhur amaldorlar unga g'amxo'rlik ko'rsatganlar. Buyuk xoqon Shohruh sulton va uning ulug' avlodlari, amaldorlari sharafiga Amiriy ko'p qasidalar bitgan. Sulton Boysung'ur mirzo sharafiga bitilgan quyidagi qasida ham unikidir:

Delam bedard giriftor gasht dar hame u,
Magar kunad shohi olam belutf darmonash..."[2]

Baytdan anglashiladiki, Amiriy zullisonayn ijodkor.

Yusuf Amiriyning "Dahnoma" asari hijriy 833-yil(milodiy1429-1430-yil)da Boysung'ur Mirzoga atab yozilgan. U XVI asr boshlarida, Q.Sodiqov keltirgan ma'lumotga tayanilsa[3], Zayn ul-Obidin baxshi tomonidan ko'chirilgan. Ushbu qo'lyozmaning fotonusxasi O'zR FA Qo'lyozmalar instituti fondida 18 inventar raqami bilan saqlanadi. Asarning to'la matni 1987-yilda "Muborak maktublar" to'plami tarkibida nashr etildi[4:62-121]. Asar 907 baytdan iborat. Aruzning hazaji musaddasi maqsur yoki mahzuf vaznida yozilgan.

Asari tuzilishi quyidagicha:

Muqaddima:

munojot;

na't;

Sulton Boysung'ur Mirzo madhi;

Horun ar-Rashid hikoyati;

"Sababi nazmi kitob".

Asosiy qism:

10 ta noma;

har bir nomadan keyin berilgan g'azal va fard;

oshiq yoki mashuqaning nomani o'qib, undan ta'sirlanib, unga javob yozish lavhalari.

Xotima: "Dar xatmi kitob".

N.Rahmonov "Dahnoma"da kelgan "Horun ar-Rashid" hikoyatini quyidagicha tahlil qiladi: "Bu hikoyat tasodifan emas, balki Boysung'ur ta'rifidan so'ng uni Horun ar-Rashid singari saxiy, insonparvar hukmdor sifatida ko'rsatish uchun Yusuf Amiriy ataylab bergan. Hikoya qilinishicha, bir arab sahroda bir ko'lmak suvni topib olib, uni obi zamzanga loyiq deya shosha-pisha Horunning huzuriga yo'l oladi. Horunning huzuriga kelgach, uni izzat-hurmat bilan kutib oladilar va uning o'zini Xizr kabi, olib kelgan suvini "obi hayvon" – tiriklik suvi deb o'ylaydilar. Horun o'sha arabning bu so'zlarini eshitib, mamnuniyat bilan xizmatkorlariga: "bu odamning idishiga to'ldirib pul beringlar", deb amr berdi. O'sha arab bilsaki, shu erda Dajla daryosi oqib o'tar ekan. Agar Horun shunday deb aytsa, uning obro'yi to'kilishi aniq edi. Ammo Horun nihoyatda oliyanoblik bilan o'sha arab "menga obiru qil" degan iltimosini bajo qildi"[5:212]. Bunda o'sha arab shoirning o'zi, u olib kelgan suv esa "Dahnoma" asari, Horun ar-Rashid esa Boysung'ur Mirzo timsoli hisoblanadi. Ya'ni shoir kamtarona mehnatini ham yuksak baholagani uchun o'z homiysiga minnatdorlik izhor etmoqda.

Shunday topqirlik va fasohat bilan boshlangan "Dahnoma"ning boshqa nomalardan farqi Ma'mura

Jamolovanning "O'zbek adabiyotida noma janri" risolasida quyidagicha izohlanadi: "Amiriy o'zbek adabiyotida noma janri an'anasini davom ettirgan bo'lsa ham, asar kompozitsiyasini tuzishda butunlay yangi yo'l tutgan. U Nizomiyning "Xusrav va Shirin", Avhadiyning "Dahnoma" asaridan ta'sirlanib kompozitsiyasi, mazmuni jihatidan original, noma janrining yangi yuqori pog'onasi bo'lgan nodir liro-epik asar yaratishga erishadi"[6:43].

Ya'ni asarda hissiy holatlar yagona syujet tizimiga bo'ysundiriladi. Lirik qahramon ma'shuqa bilan tasodifan uchrashib qoladi, nojo'ya gaplaridan ma'shuqa arazlab ketgach, oshiq unga noma yozishga kirishadi, voqealar oshiqning kechirilishi va visol bilan yakunlanadi. Bunda bir-biriga noma yozayotgan oshiq va ma'shuqa obrazi real hayotga yaqinlashadi: ular haqiqiy hayotdagidek uchrashishadi, suhbatlashadi, bahslashadi, yurak dardlarini aytadi va visolga yetadi.

Asar qahramonlari oshiq, ma'shuqa, enaga, sabo obrazlaridir. Ular orasida ma'shuqa obrazi asarning originalligini ta'minlovchi ahamiyatga ega. Boshqa nomalardagi ma'shuqalardan farqli, "Amiriy yaratgan ma'shuqa obrazi beqiyos go'zalligi bilan birga g'oyat aqlli, tadbirli, iffatli qiz obrazidir"[6:52].

"Dahnoma"dagi ma'shuqa timsolini A.Hayitmetov quyidagicha tahlil qiladi: "G'azallarda, odatda, ma'shuqa o'z oshiqini yig'latgani yig'latgan. Amiriy ma'shuqasi esa oshiqni kamsituvchi, xor qiluvchi, uni qon yig'latishga ahd qilgan ayollardan emas"[7:89].

M.Jamolova asar badiiyatiga ham alohida to'xtalib, shunday deydi: "Asarda irsoli masal, tashbeh, mubolag'a, tazod, tanosib, tarse', kitobat kabi san'atlar ham o'rinni qo'llanilgan... har bir g'azaldan keyin fard keltiriladi. Shunisi xarakterliki, g'azalning maqta'idagi oxirgi so'z fardning birinchi misrasidagi birinchi so'z qilib keltirilgan.

Masalan g'azal maqta'i:


Amiriy ollidin to o'tti ul zulf,
Nasimidin mushavvashdur dimog'i.

Fard:

Dimog'ining ilojin qilgil, ey oy,
Ki majnuntek bo'lubtur besar-u poy"[6:56].

Badiiy san'atlardan bunday mohirona va o'rinda foydalanish hamda asarning har bir qismi orasidagi ushbu shakliy va mazmuniy bog'lanish shoir mahoratidan darak beradi.

Asar muqaddimasida "Horun ar-Rashid" hikoyati orqali kamtarlik qilgan shoir, "Dar xatmi kitob" bobida o'z mahoratini faxriya yo'li bilan afsonaviy rassom Moniy san'atiga tenglashtiradi:



Tabdil: Bu nozik tarhlar kelmas kishidin,
Netuk men naql etay Moniy ishidin.
Kim, ul surate qildi padidor,
Bu ishda surat-u ma'ni bori yor[4:120].

Yig'ilgan manba va ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki,
Navoiygacha bo'lgan davrning atoqli turkiygo'y shoiri

Yusuf Amiriy shaxsi va ijodining lisoniy va badiiy xususiyatlariga oid bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ammo asarlarining, xususan, "Dahnoma" asari qo'lyozmasining matnii o'ziga xosliklari tahlilga tortilgan emas. Ushbu mavzuda kelgusida qilinadigan ilmiy ishlarning shu yo'nalishda bo'lishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Navoiy, Majolis un-nafois, Toshkent, 1961
- 2.Samarqandiy D., "Tazkirat ush-shuaro"
- 3.Sodiqov Q., Temuriylar davri matnshunosligida o'tmish merosga munosabat, oyina.uz, 2021
- 4.O'zbek adabiyoti bo'stoni, Muborak maktublar, 1987
- 5.Rahmonov N., O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, Toshkent, 2014
- 6.Jamolova M., O'zbek adabiyotida noma janri, Toshkent, "Fan", 1992
- 7.Hayitmetov A., Temuriylar davri o'zbek adabiyoti, Toshkent, "Fan", 1996
- 8.Bektemirov X., Yusuf Amiriy asarlarining til xususiyatlari, nom.diss., 1973
- 9.Abduvohidova M., O'zbek adabiyotida munozara, Toshkent, 1984
- 10.Rahmonov N., O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari, Toshkent, 2007

Amonkeldi AXMATOV,

Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasii
dotsenti, PhD

RUSTAM ABDURAHMONOV KIM BO'LGAN?

(arxiv materiallari asosida ilk maqola)

Annotatsiya: ushbu maqolada Buxoro adabiy muhiti tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan, biroq ijodi yetarlicha o'rganilmagan Rustam Abdurahmonov haqida so'z boradi. Arxiv materiallari asosida yozuvchi va jurnalistning faoliyatini o'rganish jarayonida ijodi ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Buxoro adabiy muhiti, jurnalistika, matbuot, feleton, jahon urushi, Rustam Abdurahmonov, kommunistik partiya.

Annotation: this article talks about Rustam Abdurahmanov, who has a place in the history of the literary environment of Bukhara, but whose work has not been studied enough. On the basis of archival materials, the work of the writer and journalist will be analyzed.

Key words: literary environment of Bukhara, journalism, press, feleton, world war, Rustam Abdurahmanov, communist party.

Аннотация: в данной статье говорится о Рустаме Абдурахманове, имеющем место в истории литературной среды Бухары, но творчество которого недостаточно изучено. На основе архивных материалов будет проанализировано творчество писателя и журналиста.

Ключевые слова: литературная среда Бухары, журналистика, пресса, фельетон, мировая война, Рустам Абдурахманов, коммунистическая партия.

Kirish. XX asrda ijodi u qadar yaxshi o'rganilmagan Rustam Abdurahmonov singari yozuvchi va publitsistlar ko'plab topiladi. Ularning hayoti va ijodini o'rganish adabiy muhit tarixining noma'lum sahifalarini yoritishda ko'maklashadi. Rustam Abdurahmonovning "Ozod Buxoro" va "Buxoro proletari" gazetalari sahifalarida e'lon qilingan "Bir tillo halqa ertagi", "Qoraxoniyan chiqqan qora yaloq", "Dumli odam" singari o'tkir feletonlari o'z vaqtida shov-shuvlarga sabab bo'lgan. Hikoya, ocherk, lavhalari, milliy tarjimonlikda yaratgan ijodiy ishlari o'zbek adabiyotining yorqin sahifalarini yanada boyitadi [2,17].

Olg'a bos xalqing uchun, baxting uchun, yoring uchun.

*Termulib yo'lingga boqqan ko'z xumoring uchun ,
Qomati chandon ketgan olma ruxsoring uchun,
Husniga zebo yarashgan gul chamanzoring uchun*

Shu singari vatanparvarlik mazmunida yozilgan ko'plab she'rlar muallifi Buxoro-Toshkent-Kursk shaharlaridan turib ijod qilgan. She'ning muallifi Rustam Abdurahmonov bugun kimgadir tanish, kimgadir noma'lum. Biroq uzoq va samarali mehnat faoliyati davomida jurnalistika va adabiyotda o'z o'rniga ega bo'lgan

adiblardan. O'zbekiston tarixini batafsil, bor holicha o'rganishga kirishilgan bir davrda shunday ijodkorning chetda qolib ketishi adolatdan bo'lmas deya u haqidagi ilk maqolani yozdi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.

Rustam Karimovich Abdurahmonov 1905-yil Buxoro viloyat G'ijduvon tumanida tug'ilgan. Otasi kambag'al dehqon bo'lib, qishloqma-qishloq yurib boylarning uyida chorikor bo'lib ishlagan. Buxoroda sovet tuzumi o'rnatilgach, shoirning hayotida ham tub o'zgarishlar sodir bo'ladi. Buxoro bosqinidan keyin ishchi yoshlar (Rabfak) maktabida o'qigan. Dastlab "Ozod Buxoro" gazetasining nashriyoti huzuridagi "Ishchi yoshlari" devoriy gazetasida xabar va she'rlari chiqib turgan. Dastlabki katta ishi 1924-yil 10-oktabrda "Ozod Buxoro" gazetasida "Eski amaldorlar yo'qolsin" sarlavhasi ostida bostirib chiqariladi. Shundan so'ng nashriyot xodimlari yosh muxbiri gazetaga chorlaydilar va matbuot ishida faol ishtirok qila boshlaydi.

1924-yil oxirida Rabfakni muvaffaqiyatli bitirib, Buxoro pedagogika bilim yurtiga o'qishga kiradi. Undagi "Kommunizm chechagi" devoriy gazetasida "Chayon" taxallusi bilan hajviy she'rlar va tanqidiy maqolalar (eski ta'lim, millatchilikka qarshi kurashga da'vat ko'rinishida) yozadi. Talabalik davrida xalq orasida savodsizlikni tugatishga qaratilgan kurslarda muallimlik qilgan. 1925-1927-yillarda Soktare, Vang'oze qishloq sovetlarida muallim, maktab mudiri bo'lib ishlagan. Yer-suv islohoti, xotin-qizlar ozodligi, xullas, qishloqlarda sovet hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan maqolalar yozib borgan.

Shu yillarda "Ozod Buxoro", "Qizil O'zbekiston", "Yosh leninchi" gazetalarda "Ko'rgan", "Chumchuq", "Xabarchi" taxalluslarida she'rlar yozgan. "Ozod Buxoro"ning "Qarmoq" satirik bo'limida "Mulla tayoq" taxallusi bilan she'rlari bosilgan. "Ozod Buxoro"ning 1926-yil 26-noyabr sonida "Sud ishlari" bo'limida ostida "Dodini kim eshitadi" sarlavhasi bilan "Ko'rgan" taxallusida bosilgan material shov-shuvlarga sabab bo'lib, aybdorlarga chora ko'riladi.

"Ozod Buxoro" gazetasi (muharrir Ahmadjon Yoqubov) Rustam Abdurahmonovni 1927-yil O'rta Osiyo kommunistik universiteti (SAKU)ning jurnalistika fakultetiga o'qishga yuboradi. 1929-yilda o'qishni tugatib VKP(b) O'rta Osiyo byurosi va O'zbekiston kommunistik partiyasi markaziy komiteti uni "Ozod Buxoro"ga bo'lim mudiri qilib yuboradi. Bu vaqtda "Ozod Buxoro" gazetasi Buxoro va Zarafshon okrugi nashri bo'lib, Kattaqo'rg'on xabarlar ham shu gazetada bosilgan.

Rustam Abdurahmonov gazetachilik texnikasini korrektura va sahifalovchi bo'lib ishlagan kezlarda o'rganib tajriba orttirgan. Ikki oy shu vazifani bajargach gazetaning mas'ul kotibi etib tayinlangan. Muttasil ijod qilishdan to'xtamagan adibning qalami tobora o'tkirlashib boradi. XX asr 20-yillarida hech kim u singari ko'p feleton yozgan emas. Birgina 1928-yildan 1930-yil ok-

tabrgacha uning qirqdan oshiq feletoni bosilgan. Yana ko'plari bosilmay navbatini kutib qolib ketgan. Odatda, feletonlari mavzusi sovet mafkurasiga juda yaqinligi bois tez bosilgan. Jumladan, u asosan sinfiy dushmanlar, mulkiy tengsizlikni tugatish, jamoalashtirish, "bosmachilik", ruhoniylarga qarshi mavzularda qalam tebratgan. Ijodkorlar va jurnalistlar uchun xatarli bo'lgan yillarda ham yozishdan to'xtamagan. Tez-tez jurnalist va yozuvchilarga zug'umlar va tazyiqlar bo'lar, ayrim hollarda ko'cha-atrofdagi ochiqchasiga tahdidlar qilingan. Shunday xatarli kunlarning birida muxbirlardan biri Siroj Sharipov o'sha davr tili bilan aytganda "mushtumzo'r boylar" tomonidan kaltaklanib halok bo'ladi. Matbuot bu voqeaga siyosiy tus berib, keng jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadi [3,10]. Ushbu holatlar biz tarixini yozayotgan ijodkorni ehtiyotkorlikka chorlab ijod bilan yashirin taxalluslar ostida shug'ullanishga majbur qiladi. Atrofdagi bo'layotgan xunrezliklar, tazyiqlar va ukasining o'ldirilishi adibni to'liq sovetlar tomoniga o'tishiga va partiya manfaatlariga xizmat qilishiga sababchi bo'ladi.

Rustam Abdurahmonov "Shalloqining amakivachchasi", "Mandatchi xuliganlar" feletonlarida matbuotchilar, yozuvchilar faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan kishilar fosh qilinadi. "Mas'ul qonxo'rlar" [3,16] feletonida ayrim rasmiy idora vakillarining kirdikorlarini fosh qilishga uringan.

VKP(b) ning 1930-yil 11-avgustdagi qarori asosida 1930-yil 2-oktabrda Buxoro shahri va Kogon tumani uchun "Buxoro proletari" gazetasi chiqish boshlaydi. Rustam Abdurahmonov 1930-yil 4-oktabrdan gazetaga muharrir etib tayinlanadi. Ushbu vazifada 1930-1933-yillarda faoliyat yuritgan.

Mohir jurnalist sifatida tanilgan Rustam Abdurahmonov 1933-yil Samarqand viloyatidagi "Lenin yo'li", 1934-yilda Surxondaryodagi "Ilg'or surxon uchun" gazetalarda muharrirlik qiladi. Keyingi faoliyati viloyatlardan respublika darajasiga ko'tarilib, "Kolxoz yo'li" gazetasida muharrirlik vazifasini bajaredi. 1935-1936-yillarda O'zbekiston davlat nashriyotida bosh muharrir, 1937-1938-yillarda "Qizil O'zbekiston" gazetalarda muharrir o'rinbosari, keyinchalik muharrir bo'lib ishlagan. So'ngra O'zbekiston Kommunistik partiyasi markaziy komiteti huzuridagi partiya tarixi institutida katta ilmiy xodim bo'lib ishlagan.

Mohir tarjimon, publitsist, shoir, yozuvchi Rustam Abdurahmonov Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan yozuvchilar, jurnalistlar Ibrohim Rahim, Adham Rahmat, Faxri Kamol va boshqalar kabi frontga kurashga yo'l oladi. Besh yil qo'lida qurol va qalam bilan jang qiladi. Jangchilarni fashizmni yo'q qilish uchun qahramonlarcha kurashga ruhlantiradi. Voronej, Kursk, Oryolda bo'lgan janglarda qatnashish bilan birga qalamini yanada o'tkirladi. Pamflet, ocherk, qissa, poeziyaning turli janrlari, targ'ibot maqolalarida vatanparvarlikni targ'ib qiladi. Jumladan, "Razvedka" ("Qizil O'zbekiston", 1943.15.8) ocherkida razvedkachi askar

jasoratini yozadi. “Olg’a bos” she’rida qasosga undasa, “Farhodchilarga” she’rida front ortini mustahkamlab madad berayotgan yurtdoshlarini olqishlaydi [2,20-22]. “Biz o’rtiq R.Abdurahmonovni o’zbek matbuotining serg’ayrat vakili sifatida bilar edik, hozir shoir sifatida ham tanildi. Uning she’rlaridagi otashin misralar shoirning jang maydonida toblangan ijodidan dalolat beradi (“Qizil O’zbekiston, 1944.5.5”)[4,5]. Adib urushdan keyingi yillarda ham front chegaralarida qolib muharrirlikda ishlab orden va medallar bilan birga mayor unvonida yurtiga qaytadi.

Natijalar va ularning tahlili. Ijodkorlar oldida vatan va uning mudofaasi bilan bevosita bog’liq bo’lgan mavzular asosiy o’rinni egalladi. Mudofaa mavzusi xalq vatanparvarligi va qahramonligini aks ettirishdan iborat bo’ldi. Yozuvchilar umumittifoqning siyosiy dushmaniga qarshi olib borilgan qahramonona kurashlarini va front orqasidagi fidokorona mehnatini tasvirlash orqali vatanparvarlikning ulug’vor kuchini namoyish qiladilar. Ikkinchi jahon urushi davrida adabiy muhit vakillari frontda va front ortida yovga qarshi kurashga kirishdilar. Ushbu sababdan adabiy harakatchilik biroz sekinlashgandek tuyulsa-da, to’xtab qolgan emas. Bu yillarda asosiy mavzu urush va g’alabaga, mehnatkashlarning front ortidagi mashaqqatlariga bag’ishlanadi.

*Vaqt soati yetdi, dushmanga solurmiz zo’r qiron
Jon Vatan ozod bo’lur, biz qaytamiz elga omon*

*Qarshi olgay qahramonlarni chiqib ming qahramon
Shu kuni Rustam borib to’ylarda aytgay doston.*

Armiya xizmati yakunlangandan keyin 1946-1959-yillarda O’zbekiston Kommunistik partiyasi markaziy komiteti huzuridagi partiya tarixi institutida katta ilmiy xodim, mudir lavozimlarida ishlagan. Marksizmleninizm institut tarjima sektori rahbari, direktor o’rinbosari, O’zbekiston jurnalistlar uyushmasi mas’ul kotibi, so’ngra O’zbekiston kompartiyasi markaziy qo’mitasi “Partiya turmushi” jurnali bosh muharriri etib tayinlandi.

Xulosa. Rustam Abdurahmonov tarjimonlar, o’quvchilar ommasi uchun qo’llanma bo’lib xizmat qilgan 5 tomlik “Ruscha-o’zbekcha” lug’atining tuzuvchisi hisoblanadi N.V.Gogolning „O’lik jonlar“, L.N.Tolstoyning „Urush va tinchlik“, V.Belinskiyning „Gogolga xat“, B.Polevoyning „Chin inson qissasi“ asarlarini o’zbek tiliga o’giradi. Uzoq yillik adabiy, tarjima va jurnalistik faoliyati davomida yaxshigina meros qoldirgan. Ushbu adib faoliyati bugungi kun uchun biroz qorong’u. Asosiy e’tiborini partiya va sovet hukumati uchun bag’ishlagan jurnalistning siyosiy emas, adabiy faoliyatini o’rganish maqsadga muvofiq bo’ladi. XX asr birinchi yarmida nasrda ijod qiladigan adiblar soni kamligini inobatga olsak, ushbu yozuvchining ijodini o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

- 1.Axmatov A. O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo’limi tarixi. Research on social and Humanitarian sciences Volume: 01. Issue:01/Jan-2023 Impact factor: 7.2 (2022) ISSN-L: 3595-3566 www.scirp.org
- 2.Ozod Buxoro. 1929-yil, 16-sentabr; 1930-yil, 10-mart.
- 3.Qizil O’zbekiston. 1944-yil 5-may.
- 4.Buxoro viloyat davlat arxivi, 1079-fond, 1-ro’yaxat, 5-9-ishlar.

Dilnoza Mamirova,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori

REKLAMA MATNIDA XRONOTOP

Annotatsiya: maqolada reklama matnining leksik tarkibidagi deytik elementlarning roli, undagi vaqt va makon belgilarni ifodalashning asosiy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolaning dolzarbligi uning turli funksional uslubdagi matnlardagi tushunchalarni o’rganish bilan bog’liq muammolar doirasiga kiritilganligi bilan ahamiyatli va reklama xabarlarini matnlarini kognitiv, kommunikativ-pragmatik nuqtayi nazardan o’rganish zarurati bilan belgilanadi.

Kalit so’zlar: deysis, xronotop, makon, vaqt, reklama, nutq, tushuncha, so’z, matnning leksik tarkibi.

Аннотация: в статье анализируется роль дейктических элементов в лексическом содержании рекламного текста, основные аспекты репрезентации в нем символов времени и пространства. Актуальность статьи определяется тем, что она входит в круг проблем, связанных с исследованием концептов в текстах разных функциональных стилей и необходимостью изучения текстов рекламных сообщений с когнитивной, коммуникативной и прагматической точки зрения. вид.

Annotation: *the article analyzes the role of deictic elements in the lexical content of advertising text, the main aspects of the representation of time and space symbols in it. The relevance of the article is determined by the fact that it is included in the scope of problems related to the study of concepts in texts of different functional styles and the need to study the texts of advertising messages from a cognitive, communicative and pragmatic point of view.*

Key words: *deixis, chronotope, space, time, advertisement, speech, concept, word, lexical structure of the text.*

Reklama – bu bugungi lingvistik voqelikning o‘ziga xos sohasi bo‘lib, uning lingvokognitiv jihatlarini zamonaviy gumanitar fanlarda faol o‘rganilmoqda. Bizning hayotimizga shiddat bilan kirib kelgan reklama nafaqat axborot, marketing kommunikatsiyalarining bir qismi, nutq janriga va alohida san‘atga aylanib, mukammallashib bormoqda. Har bir san‘at asari o‘ziga xos vaqt-makonga ega. Buni birinchi marta M.M.Baxtin ta’kidlab, adabiy tanqidni “badiiy xronotop” (chronos – vaqt, topos – makon) atamasi bilan boyitgan va uni “adabiyotda badiiy jihatdan o‘zlashtirilgan vaqt va fazoviy munosabatlarning muhim o‘zaro bog‘liqligi ...” deb ta’riflagan. [1;234]. Badiiy adabiyotda adabiy-badiiy xronotop makon va zamon alomatlarini bir butun holda va aniq idrok etilishi mumkin. Bu yerda vaqt quyuvlashadi, tig‘izlashadi, badiylikka aylanadi, makon esa vaqt, syujet va tarix harakati doirasida jadallashadi hamda kengayadi. Zamon alomatlarini makonda namoyon bo‘lsa, makon zamonda o‘lchanadi va anglanadi. Badiiy xronotop tabiati mana shunday qorishiq alomatlar oqimida namoyon bo‘ladi.

Reklama matnlari ham uzoq vaqtdan beri shunchaki matn emas, balki san‘at asariga aylandi va uning o‘ziga xos qonunlari yaratildi. Biz reklama xronotopining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda “Vaqt” va “Makon” tushunchalarini tahlil qilishga harakat qildik va deyktik elementlarning reklama matnini shakllantirishda alohida o‘rin tutganiga guvoh bo‘ldik.

Deyksis uch qismdan tashkil etilganligi ma’lum – mavzu, joy va vaqt, uning qamrovi so‘zlashuv ishtirokchilarining ko‘rsatkichi va uning makon-zamon lokalizatsiyasidan iborat. Deyktik birliklar reklamalarda joylashtirilgan fazo-vaqt koordinatalari tizimini yaratadi. O‘zbek tilida berilgan reklamalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, deyksisga asoslangan xronotopik shakllar quyidagicha ifodalanishi mumkin:

ikki tomonlama: – **vaqt ustunligi bilan:** endi / hozir – shu erda – keyin; keyin – hozir / endi – u erda. Masalan: *Hyundai Elantra endi sizga qulay narxda, shoshiling 7% gadavoy aksiya(mashina reklamasi).* Bu reklamada butun gap urg‘usi *endi* so‘ziga tushgan bo‘lib, oldin bunday imkoniyat bo‘lmaganini ifodalagan. Ushbu reklama matnida xronotopning yetakchi xususiyati zamonda ko‘rinadi. Zamon deyksisi ham (xuddi makon deyksisidek) makon va zamon tushunchalarining nodeyktik voqelanishi (konseptual va lisoniy bosqichlarda) bilan bog‘liq hodisadir [2;39-69]. Bu bog‘liqlik zamon va makon maydonlarining semantik tarkibida o‘z aksini topadi. Barcha til va madaniyatlarida zamon maydoniga oid tushunchalar kun va tun, oy,

mavsum, yil kabilarning almashinuvi bilan me‘yorlanadigan o‘lchovga egadirlar. Bu o‘lchov, o‘z navbatida, taqvimli ko‘rinishda yuzaga kelishi mumkin. Taqvimli belgilar vaqt oraliqning aniq o‘lchoviga ishora qilmaydilar. Binobarin, *“Yozda siz bilan birga (salqin ichimlik reklamasi)” gapining mazmunini to‘liq anglash, qaysi yoz nazarda tutilayotganini bilish uchun ushbu va‘da qachon (qaysi faslda) berilayotganligini bilish zarur (bu va‘da bahorda va kuzda aytilishiga nisbatan vaqt o‘lchovi bir yilgacha farq qiladi).* Shuning uchun ham taqvimli temporal birliklar aniq deyktik mazmun ifodalashida aniqlovchilarga ehtiyoj seziladi: *o‘tgan yoz, kelgusi bahor, joriy yildagi, shu fasl* kabilar. Zamon deyksisining temporal mazmun ifodasining asosiy manbalaridan bo‘lgan zamon kategoriyasi bilan bog‘liqligi masalasi muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu kategoriyani deyksis hodisasini shakllantiruvchi zamon mazmunini ifodalashi uchun barcha gaplar nutqiy faollashishi lozim.

– **makon ustunligi bilan: shu yerda / bu erga – u erda – hozir / endi.** Masalan: *Bu yerda sizning reklamangiz bo‘lishi mumkin edi. Gap urg‘usi Bu yerda* so‘ziga tushgan bo‘lib, o‘sha joyda berilgan reklamalarning natijalari salmoqli ekanligi ko‘rsatilgan. Ushbu reklama matnida xronotopning yetakchi xususiyati makonda namoyon bo‘ladi. Voqelikning idrok qilinishi va bu idrokning lisoniy ifoda topishi ikki asosiy lisoniy – tafakkur harakatini talab qiladi: birinchidan, voqelik parchasini tavsiflash lozim bo‘lsa, ikkinchidan, uni ma’lum makonda joylashtirish talab qilinadi. Ammo makonda joy olishning o‘zi ham ikki ko‘rinishda bo‘ladi. Obyektlar bir-biriga nisbatan joylashadilar: *Big_boy.uz butikida yangi look to‘plami! Tabiiy matolar noyob dizayn.*

Bizning takrorlanmas va eksklyuzif kiyimlar to‘plami bilan o‘zingizga yangi obraz yarating! Bizning manzil: archa ko‘cha big.boy.uz do‘kon mo‘ljali IBR binzin quyish shaxobchasi bilan CASTROL moy almashtirish shaxobchasi o‘rtasida joylashgan. Samarqand shahar markazidan foizsiz muddatli to‘lov asosida xonadon xarid qiling! Bu reklama matnida makon deyktik mazmunga ega emasdek tuyuladi, chunki bunday makon tasavvuri va ifodasida har qanday holatda ham mahsulotni sotish nazarda tutilgan va shu bilan birga bu matnda muloqot ishtirokchilarining o‘rni yo‘q. Makon muloqot ishtirokchilarining muloqot kechayotgan paytdagi o‘rniga nisbatan belgilanishi deyktik xarakterga ega [3;120]. Nutqda makonga ishora qiluvchi deyktik birliklar muayyan makonga ishora qilish bilan birga makonning so‘zlovchiga nisbatan joylashgan masofasi (uzoq-yaqin)ga ham ishora qiladi. Masalan, *Bizning Uylar Development: Markazdan 5 daqiqalik masofa-*

da joylashgan kottejlarning kvadrat metri 5 500 000 soʻmdan boshlanadi. Markazga ishora qilish bilan birga binoning matn subyekti (*Bizning Uylar Development*) qulay masofadiligini ham koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda jamiyatda reklama rolining ortishi bilan unga boʻlgan yon-

dashuvlar turlicha boʻlib bormoqda. Ishning maqsadi – reklama xronotopini tashkil etuvchi deydik elementlarni aniqlash, ular yordamida reklama vaziyati makon-zamon joylashuvini tashkil etishning isteʼmolchiga pragmatik taʼsiri nuqtayi nazaridan kuzatishdan iborat edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бахтин М. М. Формы времени и хронотопа в романе: очерки по исторической поэтике / М. М. Бахтин. — В кн. : Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики / М. М. Бахтин. — Москва : Худож. лит., 1975. — С. 234—407.
2. Прокофьева В. Ю. Хронотоп рекламы: лексический аспект // Научный диалог. — 2014. — № 10 (34) : Филология. — С. 39-69.
3. Кафтанжиев Х. Кадыкова А. Хронотоп — знаки времени и пространства в рекламе. Ценности и смыслы М.: 2010.

Zulayho Abdurahmonova,

OʻzR FA Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TAVBA TALQINI

Annotatsiya: mutafakkir shoir Alisher Navoiy asarlarida tasavvufiy qarashlar oʻz aksini topgan. Tariqatdagi maqom va hollarning izohlari ham muhim oʻrin egallagan. Shulardan biri – tavbadir. Maqolada tavbaning mazmun-mohiyati badiiy matnlar asosida tahlil qilingan. Sayri sulukning boshlanishida tavbaning ahamiyatidan bahs yuritilgan. Navoiyning lirik va nasriy merosida tavbaning oʻziga xos talqinlariga eʼtibor qaratilgan.

Kalit soʻzlar: tasavvuf, tariqat, tavba, ishq, nafs, ruh, qalb, lirika, tazkira, maqom, hol.

Annotation: the works of the poet and thinker Alisher Navoi reflect Sufistic views, including explanations of statuses and situations in classical literature. One such important concept is repentance. In this article, we analyze the essence of repentance based on artistic texts. The importance of repentance is discussed at the beginning of Sayri suluk (Tariqa). Navoi's lyrical and prose writings offer unique interpretations of repentance.

Key words: mysticism, Tariqa, repentance, ishk, soul, heart, lyrics, tazkira, level, and condition.

Аннотация: произведения поэта и мыслителя Алишера Навои отражают суфийские взгляды. В том числе интерпретации состояний и ситуаций в классической литературе. Одним из таких важных понятий является покаяние. В данной статье анализируется сущность покаяния на основе художественных текстов. О важности этого состояния говорится в начале «Сайри сулук» (Тарикат). Лирические и прозаические произведения Навои предлагают уникальные взгляды на покаяние.

Ключевые слова: мистика, Тарикат, покаяние, любовь, душа, сердце, лирика, tazkira, уровень и состояние.

Tasavvufiy hayot, shuningdek, mumtoz adabiyotning bosh maqsadi hamisha axloqqa erishishdir. Bu yoʻlda har bir tariqatning kamolotga yetish usul-u arkonlari har xil boʻlsa-da, biroq barchasi tavba bilan boshlangan, chunki u bashariyatning ilohiyotga qaytishi hisoblangan. Zero, "tavba" qaytmoq maʼnosini anglatuvchi arabcha soʻzdirki, bu oʻlik qalblarning gʻaf-latdan uygʻonishi hamda insoniy hayotga qaytishidir. Murshidga intisob etgan muridning ilk maʼnaviy vazifasi boʻlmish tavba nafs ammoradan forigʻ boʻlishning dastlabki sharti hisoblangan. Tasavvuf kitoblarida tavba xususida alohida boblar ajratilib izohlangan. Tariqat ostonasidan tavbasiz kirib boʻlmaydi. Oʻtmishdagi qalb zanglari, avvalo, tavba bilan yuviladi. Shundan keyingina u koʻruvchi oynaga aylanadi. Tavba insonning xato va gunohlaridan kechishi, yuragida hasad, kin, gʻaraz, gʻiybat, tuhmat, adovat, riyo – xullas, barcha yomonliklarni koʻra olishidir. Va ulardan poklanish uchun najot

istash, ulardan voz kechish, xatolardan afvu marhamat, gunohlardan magʻfirat tilash. Tavba zohir va botin illatlar bilan xayrlashib, Alloh taolaga yuzlanish erur. Navoiy hazratlari tavbani Allohning marhamati bilan ruhning ilk isyoni, degan. Tavba bandani nafsiga qullikdan ozod etadi. Shu bois "Mahbub ul-qulub"da Navoiy tasavvufning oʻn asosini sharhlar ekan, ilk shart sifatida tavbani koʻrsatadi. Tavba etmasdan tavakkul, qanoat, rizo, ishq maqomlariga yetib boʻlmaydi. Unda Navoiy shunday deydi: "Nafsdin sanga zulm yetsa, nadomat eshikin och va Tengri panohiga qoch. Va tavba etokiga ilik ur. Ul tavba ustida mardona tur.

*Nafsi kofirdin nekim yetgay sanga,
Tavba aylab, tavbada mardona boʻl.
Yoʻl ikidur, jurm birdur, tavba bir,
Ul yoʻl ar bogʻlandi, ochugʻdur bu yoʻl"[3:91].*

Insonga zulm o'z nafsidan keladi. Zolim ham, mazlum ham uning o'zi. Bir yonda sufliy vujud, bir tomondan ulviy ruh. Bu zolimdan qutulmoq uchun mazlumning yagona panohi "Men o'z ruhimdan pufladim", degan Allohdan panoh istashdir. Kofir nafsni musulmon aylash tavba va unda sobit turmoq bilan ekanligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Demak, mashoyixlar tavbani ilm qatoriga kiritishgan. Zero, u yo'l boshidagi muridlar uchun shart bo'lgan ilmlardan biridir. Xoja Ahmad Yassaviy:

*Ey osiylar, tavba qiling, Haq eshitsun,
Nolishingdin yeri ko'klar navo qilsun,
Maloyiklar Haqdin tilab ulush bersun,
Ulush olgan qulning g'ami bo'larmukin[5:152]? –*

deya, tavbaga chorlagan edi. Yuqorida aytilganidek, sayr-u sulukka qo'shilishda tavbaga juda katta e'tibor qarantishgan. Shu bois manoqib va tazkiralarda valiylarning tavbasi, ularning tariqatga kirish sabablari batafsil yoritilgan. Xullas, tariqatdagi barcha muvaffaqiyatlarning poydevori tavba hisoblangan. Zero, bashariyat otasi Odam (a.s.)ning najoti tavbasida edi. Robbini ismlari ila tanib, shaytonni lol qoldirgan hazrati Odam (a.s.)ning sirlar eshigini ochayotgan murid uchun ibrati ham, himmati ham cheksiz. Odam (a.s.) – Toyiy tavba maqomini eslatasa, Ibrohim (a.s.) – Oshiq ishq maqomi, Iso (a.s.) – Zohid zuhd maqomi, Muhammad (s.a.v.) esa Orif ma'rifat maqomini tamsil etadi. Darhaqiqat, ruh hayotiga safar Odam a.s.ning tavbasidan boshlandi. Hech qanday sabab-u bahona ruh safaridan voz kechishga, to'xtashga asos bo'lolmaydi. Tanlangan, tan berilgan komil murshid o'zligini topishga qasd etganlar Odami Safiy alayhissalom farzandlari bo'lganligi, yo'lning boshlanishi esa tavba ekanligini eslatadi:

*Bu gunahdin orimoh etting havas,
Ul dog'i oson erur, ey bulhavas.
Tavbadur oni oritmoqqa iloj,
Zulmati isyon aro budur siroj.
...Tavba qilg'il dog'i behbudungg'a yet,
Yo'lg'a aylab azm, maqsudungg'a yet[2:144].*

Haq oshig'i ulug' shayx Abu Abdulloh Jallo (q.s.) dan muhabbat haqida so'rganlarida: "Mening muhabbat bilan nima ishim bor? Men tavbani o'rganmoq istayman"[4:80], – deya javob beradi. Ko'rinib turibdiki, tariqatga tavbasiz kirish ham, ildamlash ham yo'q. Shu o'rinda Ja'far Sodiqning tavba haqidagi ushbu fikrini xotirlash maqsadga muvofiq: "Ibodot tavbasiz yaxshi bo'lmas. Chunki Alloh o'z kalomida tavbani o'zga ibodatlardan avval keltirgan:

Tavba qiluvchilar, ibodat qiluvchilar.

Tavbasiz zikr va toat bandani g'ofil etar. Tavba bilan bo'lgan zikr va toat vaqtida jamiki narsani ko'ngildan faromush etar, Haq bilan birga bo'lur"[5:25].

Allohning Murid sifatidan paydo bo'lgan sayr-u suluk-

dagi murid esa tom ma'noda murshidga irodasini taslim etgan solikdir. "Nasoyim"da o'qiymiz: "Dinovariydan so'radilar: "Murid kimdur va aning sifati nedur?" Bu oyatni o'qidikim: "To ularga keng yer torlik qilib qol-guncha va dillari siqilib, Allohning faqat o'ziga tavba qilish bilangina qutulish mumkin ekanliklarini bilgunlaricha..."[4:114]. Tavba tasavvuf manbalarida bir ilm sifatida o'rganilar ekan, jumladan, "Risolai Qushayriy"da shunday deydi: "Tavba uch qismdir: tavba, inoba hamda avbo. Jazo ko'rilishidan (jazolanishdan) qo'rqib tavba etgan tavba sohibidir. Savob tamasida tavba etgan inoba, nihoyat, savob umidi va jazo qo'rquvi bilan aloqasi bo'lmasdan tavba etgan avbo sohibidir. Abu Ali derki: "Tavba mo'minning sifati. Haq taolo: "Ey mo'minlar, hammangiz Allohga tavba etingiz (Nur: 24/31), degan. Inoba vali va muqarrablarning sifatidirki, "Shuningdek, Rahmondan g'oyibona qo'rqqan va tavba etuvchi qalb bilan kelgan kishilarga (Qof: 50/33), deyilsa, avbo nabi va rasullar sifatidir. Ulug' Alloh: "... Darhaqiqat, u Alloh yo'lga butunlay qaytuvchidir (Sa'd: 38/17)", – deya marhamat qiladi". Mumtoz adabiyotda "tavbadan tavba etmoq", "tavba sindurmoq", "tavba ushotmoq" kabi iboralar xos-u xoslar oldida aytiladigan, botiniy haqiqatlardan ogoh etuvchi hol ifodasidir. Bu muridning hol evrilishlarini ko'rsatadi. Nafs tarbiyasida ilk bosqich tavba hisoblansa-da, ahli tasavvuf har bir maqomning o'z tavbasi bor deyishgan. Shu bois solik holdan holga, maqomdan maqomga ko'tarilar ekan, go'yo endi uyg'ongandek, o'zini malomat qiladi. Kechagi holidan ham afsus, pushaymonlik chekadi. Tavbadan qaytish, tavbani buzish, tavbani sindirish aslida maqomdan yuksalish, muridning yana-da yuksak hollarga intilishidir. Qur'oni karimda bir necha o'rinda tavba tilga olinishi barobarida, alohida "Tavba" surasining kelishi ham so'fiylarning diqqat markazida bo'lgan. Tariqat tavbasi, albatta, avom tavbasidan farq qilgan. U guyo mudragan, hatto uxlab qolgan ilohiy hislarning uyg'onishi, hayotga qaytishidir. U shunchaki xatoyu gunohlarni qayta takrorlamaslik uchun qilingan nadomatgina emas. Balki o'zini, o'zligini kashf etish mushohadasi, o'zining kimligini xotirlash, o'zini tanishga jiddu jahd etish holidir tavba. O'n sakkiz ming olam va odam, uning Yaratuvchisi haqida fikrlash, nafsdan kechib, ruhga qaytish uchun yo'lga o'tlanishdir. Ma'lum bo'layotirki, malomat ham ma'naviy yo'lchilikda muhim hol sanalgan. Bunda nafs g'aflatdan ko'z ochib, o'zini malomat qila boshlaydi. Dunyo hamda dunyoparastligidan ozorlanib, undan aloqani butkul uzishni istaydi hamda nafsdan tazkiya – tubdan sayqallanish boshlanadi. Bu badiiy adabiyotda ham yetarli darajada o'z aksini topgan. Navoiy ham qator g'azallarida ushbu holdan xabar beradi:

*Zuhd ko'nglum ko'zgunin qilmish mukaddar,
ey harif,
Sindururmen tavba piri ishq irshodi bila.*

Aslida zuhd tasavvufning ilk davri va uning buyuk vakillari borki, ularning hayoti, kashfu karomati, valiylik darajasi insoniyat va insoniylik tarixida hali hanuz buyuk namunadir. Biroq zohidlikdan oshiqlik darajasiga ko'tarilgan solikka Ishq murshidi kirlangan ko'ngil ko'zgosini tavba sindurmoq ila poklashga buyuradi. Ishq piri tarbiyasidagi muridning holi, qalb kechinmalari, zohidning ahvol ruhiyasidan farq qiladi. Solikning oshiq maqomida yozilgan g'azallari, aytilgan hol so'zlarining ohang-u nag'masi ham boshqachadir. Ulardagi ramz va timsollar ham boshqa talqinga ega. Istig'for ham tavba qilmoq ma'nosida keladi:

*Istar ersang Tengrini, butlarni sindurkim, erur
Ushbu yo'lda dunyoyu uqbodin istig'for shart.*

Tengrini topmoqlik nafs butlarni sindirish, na-da dunyo, balki uqbodan kechish istig'for aytishdir.

Haqqa oshiq hazrat Navoiy bedor bir ruh, oshiq bir qalb sohibi o'laroq shunday "Munojot" etgan edi: "Ilohi, men tavba qildim degandin ne sud, sen tavba bergilki, ham Tavvobsenu ham Ma'bud". Darhaqiqat, Alloh taoloning ismlaridan biri Tavvob (tavba qabul qiluvchi) dir. Shunday ekan, Navoiy Allohning inoyat-u lutfi bilan nasib etuvchi, ahli dil tavbasini so'raydi. Biroq bu tavba insonning bir solih amali uchun berilgan mukofot yo inson anglolmagan qazoi qadarning bir siri, eng anig'i Yaratgannning inoyati. Navoiy tavba maqomi xususida ham, albatta, turli asarlarida bahs yuritib, uning muhim bir jihatini yoritib bergan. Biroq "Hayrat ul-abror"da g'aybdan keluvchi ilohiy tavba haqida so'zlaydi. Murid qanchalar tavba tazarru etmasin, Alloh uning qalbiga soladiga pushaymonchalik muhim qiymatga ega emas. Bunda guyo Alloh bandasini o'z huzuriga chorlaydi. Ushbu tavbaning fayzi barakotidan mumtoz qullarning basirat ko'zi ochiladi:

*Hotife un chektiki, ey bul-fuzul,
Tavba qil emdiki yetishti qabul.*

*Sen tilading bizga rizo bo'lmadi,
G'ayri rizo hukmi qazo bo'lmadi.
Chunki bizing soridin o'ldi talab,
Kel berikim, bo'ldi mahalli tarab...
O'zdin esa tavba bo'lur o'yla sust,
Haqdin esa tavba bo'lur bo'yla rust[1:265].*

Haq yo'lchisi tavbani g'oyibdan keluvchi bir ilohiy deb ataydi. Jaholat mayidan mast bo'lib, nainki badani, balki aql, his, dinu imonining yonmog'idan qutilish chorasi chin dildan ko'z yoshi ila qilingan afsus namomat ekanligini aytadi. Bunday tavba ko'ngildagi o'zliknigina emas, do'zax o'tini ham o'chirishga qodirdir.

Tavba emas yetmayin ilhomi g'ayb,
Kimki o'zi qilsa ushatmoq ne ayb.
Odami o'z jurmig'a muxtor emas,
Tavbasidin dog'i xabardor emas.
...O'zluk ila tavba tabohi degil,
Qilmog'idin tavba ilohiy degil[1:265].

Navoiy hazratlari "Hayrat ul-abror"da o'ziga tavbai nosuh so'rab shunday munojot qilgan edi:

Jurm Navoiyni ko'p etmish malul,
Yorab, o'zung tavba berib qil qabul.
Soqiy, ayoq kelturu tut bizga bot,
Ahd boshin, tavba ayog'in ushot.
Uzr desam, bo'g'zuma quyg'il yiqib,
Quyg'ali ko'ksun uza lekin chiqib[1:265].

Alisher Navoiy ijodiyotida tavba talqinlarining o'ziga xos o'rni mavjud. She'riyatida tavba lirik qahramonning hol va maqomini belgilaydi. "Mahbub ul-qulub", "Nasoyim ul-muhabbat" kabi irfoniy asarlarida esa tariqat usulu arkonini belgilashda, hamda axloqqa erishida asosiy vosita ekanligidan bahs yuritiladi. Shuningdek, shoirning molamatchi shaxsiyatini belgilashda ham tavba maqomi muhim mavqega ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. MAT. 12-tom. – Toshkent: Fan, 1996.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-tom. – Toshkent: Fan, 1998.
4. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001.
5. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar kulliyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
6. Farididdin Attor. Tazkirat ul-avliyo. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2012.
7. Rahmonova Z. ishq, irfon va irshod. – Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2021.

Zulfiyaxon MASODIQOVA
dotsent, katta o'qituvchi, Qo'qon DPI

OLYI TA'LIM MUASSASALARIDA NEMIS TILINI O'QITISH SAMARADORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitish samaradorligini ta'minlash mexanizmlari keng yoritilgan. Nemis tilini o'qitishning turli usullari metodlar bilan tushuntirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Interaktiv texnikalar, metod, pedagogik texnika, o'quv reja, grammatika, interfaol.*

Анотация: в данной статье широко освещены механизмы обеспечения эффективности преподавания немецкого языка в высших учебных заведениях. Различные методы преподавания немецкого языка объясняются методами.

Ключевые слова: *Интерактивные приемы, метод, педагогический прием, учебная программа, грамматика, интерактив.*

Abstract: in this article, the mechanisms of ensuring the effectiveness of German language teaching in higher education institutions are widely covered. Different methods of teaching German are explained with methods.

Key words: *Interactive techniques, method, pedagogical technique, curriculum, grammar, interactive.*

Oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini muhim sanaladi. XXI asr texnika asr deb ta'kidlanayotgan bir paytda chet tillarini o'rganish va o'qitish hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Sababi, chet tilini bilish har bir shaxs uchun dunyo eshiklarini ochadi ya'ni o'qish, kasb imkoniyatlarini yanada kengroq takliflarini beradi. Nemis tilini o'rganish talaba va yoshlarga ulkan imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, nemis tilini oliy ta'limda turli xil metod va pedagogik texnikalar orqali o'qitish, bu fanga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi.

Universitetlarda nemis tilini o'rgatish o'quv rejasini ishlab chiqish, darslar o'tkazish, talabalarni baholash va immersion, grammatika o'rgatish, madaniy tushunchalar va interfaol tadbirlar orqali tilni bilish darajasini oshirishni o'z ichiga oladi. Bu, shuningdek, pedagogik usullardan xabardor bo'lishni va o'rganishni osonlashtirish uchun darsliklar, multimedia vositalari va lingafon kabi resurslardan foydalanishni talab qiladi. Nemis tili xalqaro biznes yoki huquq, muhandislik, davlat va xalqaro munosabatlar, iqtisod va moliya va ta'lim bo'yicha professional martaba, shuningdek, tarix, din, falsafa, san'at tarixi kabi sohalarida akademik martaba uchun tayyorgarlik ko'rish uchun ajoyib tildir. Siyosatshunoslikda ham o'z mukammal o'rniga ega bo'lgan til xisoblanadi.

Nemis tilini o'qitishning turli usullar mavjud bo'lib ular quyidagilar:

Interaktiv texnikalar

- To'g'ridan-to'g'ri usul
- Ketma-ketlik usuli
- Kommunikativ trening
- Tilga boyitish
- Sukunat usuli (sokin usul)
- Suggestopedia
- Tabiiy yondashuv
- To'liq jismoniy javob usuli

Nemis tilini o'qitishning asosiy didaktik tamoyillari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: ongillik,

faollik, tizimlilik, kuchlilik, ko'rinishlilik, qulaylik tamoyili. O'quv fani sifatida nemis tilining boshqa o'quv fanlaridan farqi nimada degan savolga juda ham ko'p to'qnash kelamiz. Turli sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash jarayonida majburiy fanlar ro'yxatiga kiritilgan aksariyat o'quv fanlaridan farqli o'laroq, nemis tili o'quv predmeti sifatida ma'lum tushunchalarni, qonunlarni, hodisalarni o'zlashtirishni, ya'ni til haqidagi ilmiy bilimlarni anglatmaydi.

Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv bir necha sabablarga ko'ra juda muhimdir:

1. Haqiqiy hayotda muloqot qilish ko'nikmalari: u nemis tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish uchun muhim bo'lgan gapirish va tinglash kabi real hayotdagi muloqot uchun zarur bo'lgan amaliy til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

2. Haqiqiy kontekstlar: Talabalar nemis tilini rolli o'yinlar, munozaralar va taqlid qilingan vaziyatlar kabi haqiqiy kontekstlarda o'rganadilar, bu ularga tilni tushunish va mazmunli tarzda foydalanishga yordam beradi.

3. Madaniy tushunish: Kommunikativ yondashuv ko'pincha madaniy elementlarni o'z ichiga oladi, bu tilni o'rganish jarayonida talabalarga nemis madaniyati, urf-odatlarini va ijtimoiy normalari haqida tushunchaga ega bo'lishga yordam beradi.

4. Motivatsiyani oshirish: mazmunli muloqot vazifalarini bajarish orqali talabalar nemis tilini o'rganishga ko'proq rag'batlantiradilar, chunki ular o'rganayotgan narsalarining bevosita dolzarbligi va qo'llanilishini ko'rishadi.

5. Tilning ravonligi: Bu yondashuv aniqlikdan ko'ra muloqotni birinchi o'ringa qo'yish orqali ravonlikni rag'batlantiradi, bu esa o'quvchilarga xato qilishdan tashvishlanishdan ko'ra, o'z e'tiborini o'z xabarlarini samarali etkazishga imkon beradi.

6. Interfaol ta'lim muhiti: Bu talabalar o'rtasida faol ishtirok etish va hamkorlikni rag'batlantiradi, ular birgalikda nemis tili ko'nikmalarini mashq qilishlari va

yaxshilashlari mumkin bo'lgan interfaol ta'lim muhitini yaratadi.

Umuman olganda, kommunikativ yondashuv o'quvchilarni nemis tilida so'zlashuvchi muhitda samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalari va ishonchi bilan qurollantiradigan yanada dinamik va qiziqarli o'rganish tajribasini rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda nemis tili fanlarida ham nutq muloqotini o'stirish davomida amaliy maqsad gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv konikmalaridan foydalanilishi nemis tilini o'zbek yoshlari o'rtasida o'qib o'rganishini ommalashuviga olib keladi. Chet tilini o'qitishda yana bir muhim maqsadlarimizdan biri bu ta'limiy maqsad xotira va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; o'quvchilar bilim saviyasini va o'quvchilar umumiy madaniyat saviyasini ko'tarishdir.

Kommunikativ jarayonda nutq muhim muhimdir. Nutqni o'rgatishning maqsadi o'quvchilarda ularning real ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda, turli xil ijtimoiy aniqlangan vaziyatlarda og'zaki muloqotni amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Bu shuni anglatadiki, har qanday turdagi universitet yoki institutni tugatgandan so'ng, talaba quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- bevosita suhbatlarda muloqot qilish, sherikning og'zaki bayonotlarini tushunish va javob berish (og'zaki va og'zaki bo'lmagan)

- har bir turdagi ta'lim muassasasi uchun dasturda belgilangan yo'nalishlar, mavzular va vaziyatlar doirasida muloqot qilish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish;

- o'zingiz va atrofingizdagi dunyo haqida, o'qiganingiz, ko'rganingiz, eshitganlaringiz haqida, qabul qilingan ma'lumotlarga yoki bayonot mavzusiga munosabatingizni bildirgan holda fikr bildirish.

Nutqning mazmuni - fikrni ifodalash, ma'lumotni og'zaki tarzda yetkazish iborat. Kommunikativ jarayon faoliyatining bir turi sifatida nutq quyidagi eng muhim parametrlar bilan tavsiflanadi:

motiv – gapirishga ehtiyoj yoki ehtiyoj;
maqsad va funksiyalar – sherikga ta'sir qilish xarakteri, usuli

o'zini namoyon qilish;
mavzu – o'zining yoki birovning fikri;
tuzilma – harakatlar va operatsiyalar;
mexanizmlar – tushunish, oldindan ko'rish, birlashtirish;

vositalar – til va nutq materiallari;
nutq mahsuloti – dialog turlari, monolog gaplar;
shartlar – nutqiy vaziyatlar;
tayanchlarning mavjudligi yoki yo'qligi.

Nutq unumli talaffuz, ritmik intonatsiya va leksik-grammatik malakalarga asoslanadi. Chet tilida so'zlash murakkab integratsiyalashgan mahorat sifatida motivatsiya bilan tavsiflanadi, so'zlovchining faolligi va mustaqilligi, diqqat, fikrlash bilan bog'liqlik, vaziyatni shartlash va hk. Og'zaki nutqni dasturlashda mustaqillikning katta yoki kichik rolga asoslanib, nutqni reaktiv va reproduktiv turlarga ajratatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamol Jalolov chet tilini o'qitish metodikasi. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi. Toshkent 2012 yil.
2. Metodika obucheniya inostrannim yazikam. Kazan 2016
3. <https://www.google.com/search?q=mechanisms+to+ensure+the+effectiveness+of+german+language+teaching+in+institutions+of+higher+education&rlz=>
4. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2866>
5. English and foreign language in teaching German. E. Thaler <https://d-nb.info/1211327841/3>

Mahfuza MUXTOROVA
TerDU o'qituvchisi

KICHIK LIRIK JANRLAR BADIYYATI

(Shafobat Termiziy ijodi misolida)

Annotatsiya: Shafobat Termiziy ijodi serqirra va sermazmun, chunki biz uning ijodini she'riyatning turli sohalarida kuza-tishimiz mumkin, ayniqsa, xayyomona lirik merosi har bir o'quvchining qalbida chuqur joy olgan bo'lsa ajab emas.

Kalit so'z: "xayyomona", "Gulob" to'plami, "Xayyomo", "Piyola", ruboiy va tuyuq.

Annotation: Shafobat Termizi's work is rich and rich, because we can observe his work in various fields of poetry, it is not surprising that his lyrical legacy is deeply rooted in the heart of every reader.

Key words: "khayyomona", "Gulob" collection, "Khayyomo", "Pyola", rubai and tuyuq.

Аннотация: Творчество Шафоата Термизи богато и богато, ведь мы можем наблюдать его творчество в различных областях поэзии, неудивительно, что его лирическое наследие глубоко укоренилось в сердце каждого читателя.

Ключевые слова: «хайёмона», сборник «Гуляб», «Хайёмо», «Пёла», рубай и туюк.

Shoir Shafolat Termiziy ijodiy merosiga nazar tashlaganimizda uning ijodiy individualligini belgilaydigan yana bir o'ziga xos jihat borligi ahamiyatlidir. Ma'lumki, har bir shoirning lirik janrlar hamda poetik shakllardagi izlanishlari bir-biridan farq qiladi. Bu esa har bir ijodkorning badiiy tafakkur tarzidagi o'ziga xoslik ularning ijodiy individualligini belgilab beradi. Shoirning ijodiy izlanishlari natijasida zamonaviy o'zbek she'riyatimiz kichik lirik janrlar – to'rtlik, ruboiy va tuyuqlar bilan boyitildi.

Shafolat Termiziy ijodidagi bu o'ziga xoslik uning she'riyatida janrlar rang-barangligining ortishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa uning "xayyomona" hayotiy to'rtliklari ko'plab o'quvchilarga yod bo'lib ketgan. U yaratgan kichik lirik janrlarning aksariyat qismida mangu olam va unda asrlar osha yashab, kurashib kelayotgan inson haqida chuqur falsafiy mushohadalar mujassam. Shoirning har bir kichik lirik she'riy janrdagi asarlari to'rtlik, ruboiy va tuyuqlari falsafiy-timsolli obrazlilikka boy. Kichik janrlar imkoniyati shoirning ming yillar burun shu yorug' olamda yashab o'tgan ajdodlar ruhi bilan zamonamiz kishilari tuyg'ularini mushtarak bir-biriga bog'lab tasvirlashga, falsafiy poetik mushohadalarni ifodalashga xizmat qildi.

Shafolat Termiziyning dastlabki to'rtliklari "Gulob" to'plamidan o'rin oladi. Uning mazkur to'rtliklari o'zida dunyo, odam, hayot, jamiyat, tabiat va ruhoniya mavzularini qamrab, undagi obrazlar voqelikning yangi qirralarni badiiy idrok etishga qaratilgandi. Ushbu kichik lirik janrdagi she'rlarini shoir "Xayyom sharobi" nomi bilan birlashtirib, saylanmaga tartiblaydi. Aytish mumkinki, uning to'rtliklari jahon xalqlari ma'naviyatiga katta ta'sir ko'rsatgan Umar Xayyom, Rudakiy, Hofiz, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy kabi daho ijodkorlarning purma'no, hikmatga boy she'riyatining haqiqiy davomchisi bo'ldi. Shoir dunyo adabiyotida ruboiylari bilan nom qoldirgan fors-tojik shoiri Umar Xayyomga vorislikni da'vo qilib, to'rtliklarida "Xayyomo", "Xayyom" nomlarini keltirib, talmeh san'ati imkoniyatlaridan foydalanib, shunday yozdi:

*Lolalar Layli-yu Shirinning labi,
Yellarning shiviri Xayyomning gapi.
Bir siqim tuproqqa da'vo qiladi,
"Bu mening xokim" deb ming shoh, ming nabi.*

Shoir mazkur to'rtligida buyuk donishmand shoir Umar Xayyomning nomini qo'llab, uning odam va olam haqidagi purma'no hikmatlariga ishora qiladi. Ma'lumki, Abdulfath Umar binni Ibrohim XI–XII asrning buyuk mutafakkir shoiri va olimidir. U fors va arab tillarida ijod qilgan. Shoirning 252 ta ruboiysi sharqu g'arbda mashhurdir. Atoqli olim Ibrohim Haqqulov "Xayyom chodiri" maqolasida yozganidek, "Ruhoniy zavq, ilhom va ma'no kashfida Umar Xayyom ko'tarilgan samoviy yuksaklikka na Sharq, na G'arb odamlari yetib bora bilgan-

lar. G'arblik olim va ijodkorlar tasavvuridagi Xayyom bilan Sharq o'quvchisi xayolotidagi Xayyom goho bir-biriga aslo o'xshamaydi. Ammo fors-tojik adabiyotida ham, turkiy she'riyatda ham qaysi shoir ruboiy yozishda oliy natijalarga erishgan bo'lsa, hech shubhasizki, Xayyom maktabidan saboq olgan. Chunki uning ruboiylaridagi «ifoda ochiqligi, uslub go'zalligi, fikr o'tkirligi» (Fitrat) dan ta'sirlanmaslikning hech iloji bo'lmagan. Shu o'rinda buning yana bir sababini izohlab o'tsak. Xayyom insonga moddiy olamga nisbatan inson olamining favqulodda kengligi, xalqdan Haqqa safar qilib, yana ortga qaytish odam tafakkuri va ma'naviyatini tubdan o'zgartirishini eng muhtasar hamda jonli tarzda ko'rsata olgan mohiyat sultonidir".

Shoir Shafolat Rahmatullayevni ham shunday ijodkorlar sirasiga kiritish mumkin. U "Yo, Rab" to'rtligida Sharq mumtoz adabiyotida ulug' o'ringa ega bo'lgan donishmand shoirni "Xayyom ustozim" deb tilga oladi. Shoirning ayrim to'rtliklarida Xayyomga izdoshlik u qo'llagan obrazlarda namoyon bo'ladi. "Xayyomo", "Piyola" kabi to'rtliklari shular jumlasidandir.

*Og'rigan ko'zingga yulduz tomadi,
Idrok qalbingni bulut yamadi.
Dunyo g'ussalarin yuvaman deya,
Xayyomo, ko'zangda may ham qolmadi.*

*Choy ichib o'tirsam keldi bir nola,
"Ol, meni sharobga to'ldir, ey bola".
Choyu moy birmasmi, desam ul dedi:
"Men Xayyom xokidan bo'lgan piyola".*

Birinchi to'rtlikda keltirilgan may obrazi Xayyom ruboiylaridagi faol obrazlar sirasiga kiradi. Yuzaki qaraganda may – uzum suvidan tayyorlangan mast qiluvchi ichimlik sifatida ko'z oldimizda paydo bo'ladi. Lekin tasavvufiy istilohlarini tadqiq etgan olimlarimiz fikricha, may majoziy timsollardan sanladi. Masalan, olim A. Qurbanbekov tasavvuf adabiyotida may timsolining birgina Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy" asaridagi bir nechta talqini borligini aytib o'tadi: "Mavlaviy asarlarining farhang (lug'at)ida shunday talqin qilishadai: 1. Ilohiy ilm va ilhomlar 2. Ishq 3. Balo, sabr va toqat 4. Haq taoloning vasli va visoli 5. Yuksak ekru xayollar". Shu jihatdan Umar Xayyom ruboiylarida faol qo'llanilgan sharob, may, boda, piyola kabi tasavvufiy timsollar ilohiy ishq va ilm ma'rifatning timsolidir.

Shafolat Rahmatullo Termiziyning to'rtliklarida Xayyom obrazi bilan birga qo'llanilgan may timsoli bir necha talqinda namoyon bo'ladi.

1. Xayyom she'riyatiga bo'lgan shaydolik (vorisilik);
2. Hayotning, umrning tez fursatda o'tib ketishi, dunyo buyumlariga emas, Haqqa, pok ishqqa intilish.

Yer hayot **may**ining **ko'zasi** bugun,
 Quyosh **soqiysidir**, **qadahi** gulgun.
 Tonggi **jomni** ichib hushyor edik biz,
 Shomgi **jom mastlikda** davramiz yakun.

Ushbu to'rtikda inson umrining jadal fursatda o'tib ketishi asosiy mazmun kasb etadi. Shoir ushbu badiiy g'oyani may, ko'za, soqiy, jom, qadah, mastlik kabi tasavvufiy timsollarni qo'llash orqali ifodalaydi. Agar "tonggi jom"ni ichib "hushyorlik" bo'lishi inson tug'ilib yashagan Hayotga qiyoslangan, "shomgi jom" mastlik – umrning tugab borishining muqoyasa qilinganidir. Shu jihatdan shoir mumtoz shoirlarimiz kabi to'rtliklarida chuqur falsafiy fikrlarni singdirib yuboradi.

Shoir o'zining xotiralarida, surxondaryolik yosh vafot etgan shoir Tesha Saydaliyev uni ko'rganda ko'pincha to'rtliklari ma'qul kelganidan "Xayyomning nevarasi" degan nom bilan atashi to'g'risida yozadi. Bu esa shorni Xayyom ruboiylarining chin ixlosmandligini ko'rsatuvchi asosiy xususiyatlardan biri sifatida ko'rinadi.

Shafoat Rahmatullayevning "Ozod so'z" saylanmasida 153 ta to'rtlik-ruboiylari, 5 ta tuyuq, nashr etilmay qolgan "Sham'i Shafoat" turkumida jami yuzdan ortiq tuyuq janridagi she'rlari o'rin olgan. Shoirning taxallusi olis tariximizni eslatib turganidek, uning tuyuq janrida qalam tebratishi mumtoz adabiyotimizda bu janrdan barakali ijod qilgan Lutfiy, Navoiy, Bobur va Ogahiy kabi ijodkorlarning badiiy iqtidorini namoyish etadi. Shoirning o'zi ham mumtoz adabiyotimizning ustuni bo'lgan bu va boshqa ijodiyot sohiblari merosini sevib o'qigan, "mumtozlardan olgan ta'limi" uni zamonaviy faylasuf donishmand shoir sifatida elga tanitdi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida mazkur uch janrdan ijod qilgan shoirlar kam topiladi. Ayniqsa, XX asr she'riyatiga nazar tashlasak, mumtoz adabiyotimizdagi to'rtlik va ruboiylar Shuhrat, Shukrullo, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol kabi sanoqli shoirlarimiz tomonidan yaratilgan. Biroq tuyuq janriga ko'p shoirlar qo'l urmagan. Shu jihatdan ko'rinadiki, shoir ijodiy izlanishlarida obrazlarning betakrorligi bilan birga, she'rdagi mazmun va shakl jihatiga e'tibor qaratib, unda janrlar tizimini yangilashga, boyitishga harakat qildi. Shoirning 1968-2016 yillargacha bo'lgan davrda yozilgan to'rt-

liklari 200 ga yaqin. Tahlilimiz, dastlab shoirning shu to'rtliklari xususida bo'ladi.

Mumtoz lirikadagi *ruboiy* va *tuyuqdan* farqli o'laroq, to'rtlik janriga mansub etish uchun she'rning to'rt misradan iborat bo'lishi kifoya: unga ruboiy yoki tuyuqqa qo'yilgan kabi vazn, kompozitsiya bilan bog'liq qat'iy talablarni qo'yilmaydi. Ma'lumki, aruzda yozilgan har qanday to'rt misrali she'r ham ruboiy bo'la olmaydi, buning uchun she'r hazaj bahrining 24 tarmog'idan birida yozilishi shart. Demak, mantiqan qaralsa, to'rtlik aruzda ham, barmoqda ham yozilishi mumkin. Masalan, Cho'lponning "XX asr", "Parcha" nomli hamda "Lola gulning dog'idur..." deb boshlanuvchi to'rtliklari ramal bahrida yozilgan. Shunga qaramay, yangi o'zbek she'riyatida to'rtliklar, asosan, barmoqda yozilmoqda. Mavzu jihatidan chegaralanmagani, voqelikdan olingan taassurotlar, hayot haqidagi fikr-xulosalarni ixcham, lo'nda ifodalash imkonini bergani uchun to'rtlik janri yangi davr she'riyatida ham keng ommalashdi". "Adabiy tur va janrlar" kitobida o'tgan asrda o'zbek adabiyotida to'rtlik janrida Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Zulfiya, Asqad Muxtor kabi shoirlar nomi bilan Ramz Bobojon, Shuhrat, Tolib Yo'ldosh, Shukrullo, Erkin Vohidov, Barot Boyqobilov ijod qilgani qayd etiladi. Shuningdek, ushbu janr rivojida Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Halima Xudoyberdiyeva, Sirojiddin Sayyidlar ham samarali ijod qilgani kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Эрону Турон назмул-жавоҳири[Матн]/форсийдан О. Бўриев таржимаси. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2018. В. 24. 208 б.
2. Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari. Monografiya. Quronbekov A."Masnaviy"da "may" ramzi. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. – 2010.90 b
3. kh-davron.uz/kut. Haqqulov I. Xayyom chodiri...
4. Адабиётшунослик луғати. /Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Тошкент: Академнашр, 2010. – В. 339.
5. Квятковский А. Поэтический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 338.

ALEKSANDR KUPRINNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqola Aleksandr Kuprinning qissalaridagi so'z qo'llash mahoratini aniqlashga bag'ishlangan. Shuningdek, adib qissalaridagi shakldosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, yaqin ma'noli so'zlar, frazeologik birliklar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *lug'aviy birlik, shakldosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, yaqin ma'noli so'zlar, frazeologik birliklar.*

Аннотация. в данной статье освещается мастерство использования слов в повестях Александра Куприна. Также анализируются омонимы, антонимы и близкие по значению слова, фразеологизмы в литературных повестях.

Ключевые слова: *лексическая единица, омонимы, синонимы, близкие по значению слова, фразеологизмы.*

Annotation: this article highlights the mastery of the use of words in the stories of Alexander Kuprin. Homonyms, antonyms and words with similar meanings, phraseological units in literary stories are also analyzed.

Key words: *lexical unit, homonyms, synonyms, words close in meaning, phraseological units.*

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari rus adabiyoti ko'plab iste'dodli adiblarni yetishtirib bergani bilan alohida ajralib turadi. Ana shunday talantlardan biri Aleksandr Ivanovich Kuprindir. Uning ijodi, afsuski, uzoq vaqt qadrlanmagan bo'lsa-da, hikoya va qissalari adib buyuk iste'dodini namoyon etdi. Kuprin ijodida ko'plab mavzular qalamga olingan bo'lsa-da, ona-Vatan, inson va tabiat mavzusi yetakchilik qiladi. "Ofat" (1896), "Yakkama-yakka olishuv" (1905), "O'ra" (1909-1915) kabi dastlabki asarlaridayoq kambag'allar hayoti va ularning og'ir turmush tarzini realistik bo'yoqlarda tasvirlasa, "Olesya" (1898), "Gambrinus" (1907), "Yoqut ko'zli bilaguzuk" (1911) kabi qissalarida obraz va obrazlilik masalalari borasidagi tasvir jarayonlarida insonning ruhiy holati, jonli kartinalari so'z mahorati yordamida ijodkorning poetik qirralarini namoyon etadi. Ayniqsa, ijodkor poetik mahoratini oshirishda tilning leksik, grammatik va uslubiy shakllaridan o'rinli foydalanish orqali qahramonlar obrazi, portreti, ruhiy holati, tabiat tasviriga xos jonli kartinalar obrazli bo'yoqlarda ta'sirchanligini ko'rsatadi. Zero, badiiy adabiyot tilining muhim xususiyatlaridan biri – so'z semantikasi bo'lib, badiiy asarning ta'sirchanligini, obrazlilikini kuchaytiruvchi asosiy belgilaridan biridir. "Badiiy asar tilida so'zning ichki va tashqi mazmunga ega bo'lishi, uning lingvistik, stilistik va lingvopoetik tadqiqotlar uchun ham bevosita obyekt bo'la olishi, umuman, badiiy nutqda so'zning uslubiy jihatdan chegaralanmagan miqdorda qo'llanilishi, shubhasizdirki, badiiy asar tilini tahlil qilish uning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash jarayonida murakkablik tug'diradi. So'z badiiy fikr ifodalashi, obrazlar olamini vujudga keltirishi uchun ham xizmat qiladi, o'z navbatida fikr va obrazlar takibi muayyan til – badiiy adabiyot tilini vujudga keltiradiki, bu badiiy adabiyot tilini fikr, obrazlar tizimi va badiiy til komponentlari asosida vujudga kelishini ko'rsatadi" [1.16].

Demak, badiiy asar tilining muhim xususiyatlari sifatida uning obrazlilik va ta'sirchanligini ham ko'rsatish mumkin. Mana shu kabi xususiyatlar ijodkorning so'zga, uning ma'no qirralariga o'ta mas'uliyat bilan

yondashib obrazli tasvir yaratishini namoyon etadi. Aleksandr Kuprinning so'z qo'llash mahorati borasida fikr yuritganda shunga alohida e'tibor qaratish lozimki, ijodkor sevgi, sadoqat, mehru muhabbatga xos obrazli birikmalarni qahramonlar timsolida, ruhiy jarayon ifodasi sifatida o'rinli qo'llaydi. Adib qissalari matnida ko'zga tashlanadigan, ijodkorning so'z qo'llash uslubini ko'rsatadigan yana bir xususiyat uning shakldosh va ma'nodosh so'zlar, yaqin ma'noli so'zlar, frazeologik birliklarning nutqiy voqelanishi maqsadga mos holda qo'llaganligidan dalolat beradi. Quyida Aleksandr Kuprinning "Olesya" qissasida so'z qo'llash mahoratiga to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, shakldosh so'zlar talaffuzi, yozilishi, fonetik tuzilishi bir xil bo'lgan so'zlar bo'lib, ular badiiy asar ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa Kuprin ijodida ham serqatlam sifatida ko'zga tashlanadi. Ijodkor shakldosh so'zlarga murojaat qilar ekan, nutqiy voqealanishga nisbatan tasviriylikni yuzaga keltiradi. "*Men kecha oqshomdayoq, nima qilib bo'lsayam, ko'nglimdagi gaplarni bu kecha aytaman...*", misolida kecha so'zi ikki xil ma'no xususiyatini bildirmoqda.

Adib so'zning ma'no jilolarini aniq tasavvur qilgan holda ulardan unumli foydalanadi. Jumladan, yozuvchi o'z asarida ma'nodosh so'zlardan foydalanar ekan, fikrning nutqiy jarayon bilan uzviy bog'langanligiga e'tibor qaratib, original ifodalar yaratishga intiladi va buning uddasidan chiqadi.

Masalan: *Volche qishlog'ining popi ahyon-ahyonda, ro'za va katta bayramlarda kelib turardi.*

Baland, xushqad qarag'aylar ikkala tomondan saf tortgan, bir-biriga chirmashib ketgan xushbo'y shox-butloqlari to'p-to'p bo'lib, olislarga qadar gumbazsimon ulkan dahliz hosil qilib, bizni qurshab olgandi.

Haqiqatan, mening bir necha shisha starkalarim bor edi, garchand maqtanganimday, unchalik yoshi ulug' bo'lmasa-da, biroq hisobimga ko'ra ishontirish kuchi bilan ularning umriga yana bir necha o'n yillarni qo'shsa bo'lardi...

...bu avlodan-avlodga buyuk sir kabi o'tib boraveradi va ular shu tarzda zulmatda, mahdud xalq omma-

si ichida yashaydilar.

Zoʻr doʻl yogʻdi, kattaligi yongʻoqday-yongʻoqday keladigan donalar tepaga baland-baland irgʻigancha yerga tusha ketdi.

Ular shu maqsadda goʻyo monastirga sovgʻa tariqasida porox tiqib, toʻldirilgan **bahaybat** sham joʻnatadilar.

Kampir jim boʻlib qoldi, biroq yuzini boyagiday burishtirganicha bir orqaga, bir oldinga chayqalaverdi, shu orada **yirik-yirik** koʻz yoshlari stolga toma boshladi.

Mazkur misollarda **katta** soʻzining bir necha maʼnoviy sinonimlari mavjudligini koʻramiz. V.Vinogradov taʼkidlaganidek, badiiy asar tili badiiy-adabiy matn bilan uzviy aloqador boʻlib, adabiy asarning tilini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli badiiy matn orqali tildagi soʻzlarning maʼno qirrasini, jozibasini va semantik maydon hosil qilishida sinonimlar bilan birga yaqin maʼnoli soʻzlar ham alohida oʻrin tutadi. Jumladan, Aleksandr Kuprinning “Yoqut koʻzli bilaguzuk” asarida boshqa asarlariga qaraganda yaqin maʼnoli soʻzlar koʻp uchraydi.

Boʻgʻiq ovoz bilan soʻkinayotgan aravakashlarga qarash **ayanchli, alamli va jirkanch** edi.

U oʻzining **tabassumi, xotinlik latofati, kishini havaslantiradigan noz-karashmalari va oʻzi ham sezmay qoladigan sirli goʻzalliklari** bilan odamni oʻziga asir etardi.

Eri uchun ham **kotiba, ham qiroatchi, ham tarjimon va eslatma daftari** vazifasini bajara boshlagandi.

Adib asaridan olingan ushbu matn uch fikr, uch maʼnoga qaratilgan. Ammo adib qahramonlari nutqida qoʻllanuvchi ruhiy vaziyat, ifoda belgisini alohida taʼkidlash maqsadida ularning sinonim variantlaridan oqilona foydalanib, tasvirdagi taʼsirchanlikni oshiradi. Matndagi soʻzlar yaqin maʼnoli soʻzlar boʻlib, agar muallif **ayanchli, alamli va jirkanch; tabassumi, xotinlik latofati, kishini havaslantiradigan noz-karashmalari, oʻzi ham sezmay qoladigan sirli goʻzalliklari** (nutqiy maʼnodosh) soʻzlarini ketma-ket qoʻllamaganda matndagi jozibadorlik sezilmas edi.

Qiyoslaymiz: Boʻgʻiq ovoz bilan soʻkinayotgan aravakashlarga qarash **ayanchli** edi.

U oʻzining **tabassumi** bilan odamni oʻziga asir etardi.

Eri uchun ham **kotiba, ham qiroatchi** vazifasini ba-

jara boshlagandi.

Quyidagi gaplarda esa yaqin maʼnoli soʻzlarni kesim tarkibida berish orqali nutqiy maqsad taʼkidlangan va maqsad gapdan-gapga kuchayib borgan. *Bu, katta bir shalola tepasidagi oʻrmonzor orqasidagi joy. Ostimizda esa tagi yoʻq jahannamdek chuqurlik. Bu joy xuddi jugʻrofiya xaritasidek dengizga kelib tushadi, ellik yoki yuz chaqirimcha oldinda esa—dengiz!*

Aleksandr Kuprin har bir qissasida soʻz maʼnosini teran his qilgan holda, ulardan mahorat bilan foydalanaadi. Xalq orasida tarqalgan tanish frazeologik iboralar asar qahramonlarini ruhiy holati, kayfiyatini toʻliq ifodalay olgan. Bunday iboralar kitobxonni zavqlantiradi, badiiy asarning taʼsirchanligi, qahramon ruhiyatini teran ochib berishga xizmat qiladi. Adib asarlarini tahlil qilish jarayonida frazeologik birliklardan unumli foydalanganligi uning mohir soʻz ustasi ekanidan dalolat beradi. Masalan, “Olesya” qissasida bunday frazeologik birliklar koʻp uchraydi:

Voy, ketadigan vaqtim boʻldi, – shoshildi Olesya, – buvimning **jahli chiqadi**.

Ming qilsa ham ayolligingizga bordingiz, **burgaga achchiq qilib, koʻrpani kuydirdingiz!**

Biz bu vaqt ayni **achchiq ichakday choʻzilgan, tor va oʻq kabi tikkasiga ketgan oʻrmon** soʻqmogʻining oʻrtasiga kelib qolgandik.

...boshiga ming turli **balolar yogʻilishini** tilar edi.

Yarmola **bir ogʻiz** ham mendan qanday va qayerda adashib qolganim haqida soʻramadi.

...kampirning shu qadar qoʻpolligini hazilga yoʻysam-mikin yoki oʻzimdan achchiqlanishim kerakmi yoki nima boʻlsa boʻldi, deya **biror ogʻiz soʻz** aytmay, shartta ortimga burilib ketvorsammikin?

Koʻrinadiki, tilning lugʻaviy birliklari asarning badiiyligini, emotsional taʼsir kuchini oshiruvchi vositalardan hisoblanadi. Bu esa ijodkordan har bir soʻz qatidagi maʼno nozikliklarini aniq va toʻgʻri ajrata olishni talab etadi. Haqiqiy yozuvchi har bir soʻzdan obraz yaratishda sanʼatkorlik mahoratini namoyish qiladi. Xarakter yaratishda turli badiiy vositalarning tildagi soʻzlar asosida shakllanib borishi, uslubiy jihatdan ijodkorning poetik imkoniyatini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda soʻz. –Toshkent: Fan, 2003. 16-b.
2. Виноградов В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. –М., 1963. – С.75.
3. А.И.Куприн. (Л.Олимов) Ёкут кўзли билагузук. Т., Ёш гвардия, 1979. 108-b.
4. Kuprin A.I. Olesya.Ziyouz.uz.

Kamola ABDURASHIDOVA,
ADU 2-kurs doktoranti

“ZAMONAVIY AFSONALAR” FOLKLOR JANRI SIFATIDA

Annotatsiya: maqolada ingliz va o‘zbek xalq “zamonaviy afsonalari” janr xususiyatlari, spetsifik belgilari, obrazlar tizimi, an’anaviy afsonalardan hamda demonologik hikoyalardan farqli jihatlari yoritilgan, Amerika “shahar afsonalari”ni o‘rganish asosida o‘zbek folklorida ham ushbu janrning mavjudligi, turli modifikatsiyalarining shakllanayotgani asoslangan. Shuningdek, maqolada o‘zbek folklorshunosligida tadqiq etilmagan “zamonaviy afsonalar” ilk bor nazariy-metodologik ishlarga asoslangan holda o‘rganildi va tahlillar orqali uning o‘ziga xos xususiyatlari ochiqlandi.

Kalit so‘zlar: postfolklor, an’anaviy afsona janri, transformatsiya, evolyutsiya, zamonaviy afsona, shahar afsonalari, internet shahar afsonalari.

Аннотация: в статье освещаются жанровые особенности, специфические признаки, система образов, отличия от традиционных мифов и демонологических историй, на основе изучения американских «городских легенд» в узбекском фольклоре также формируются различные модификации этого жанра. Также в статье впервые на основе теоретико-методологической работы были изучены неисследованные в узбекском фольклоре «современные легенды», и путем анализа были выявлены его отличительные черты.

Ключевые слова: постфолк, жанр традиционной легенды, трансформация, эволюция, современная легенда, городские легенды, городские легенды интернета.

Annotation: the article highlights the genre features, specific features, system of images, differences from traditional myths and demonological stories; on the basis of studying American «urban legends» in Uzbek folklore, various modifications of this genre are also formed. Also in the article for the first time on the basis of theoretical and methodological work the unexplored in Uzbek folklore «modern legends» have been studied and its distinctive features have been revealed through analysis.

Keywords: postfolk, traditional legend genre, transformation, evolution, modern legend, urban legends, urban legends of the Internet.

Kirish. “Zamonaviy shahar afsonalar”ning yuzaga kelishi, rivojlanish omillarini o‘rganish folklorshunoslik oldidagi dolzarb masalalardandir. “Zamonaviy afsonalar” o‘zbek folklorshunosligida biror-bir tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Shu bois, biz ushbu maqolamizda “zamonaviy/shahar afsonalari”ning yuzaga kelishi, rivojlanish omillari, spetsifik belgilari, an’anaviy afsonalardan hamda demonologik hikoyalardan farqli jihatlari o‘rganishni maqsad qildik va “zamonaviy afsonalar” tahlil orqali ularning janr xususiyatlari, boshqa janrlardan farqli jihatlari, obrazlar tizimi, xronotopini aniqlash vazifasini qo‘ydik.

Asosiy qism. “Zamonaviy/shahar afsona” istilohi 1968-yilda Amerika folklorshunos olimi Yan Garold Brundvand tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, u o‘zining 1981-yilda nashr etgan “G‘oyib bo‘luvchi avtostop: Amerika shahar afsonalari va ularning ma‘nolari” [1] nomli kitobida zamonaviy afsonalar haqida ma‘lumot beradi. “Zamonaviy/shahar afsonalari”ni o‘rganish Amerika folklorshunosligida o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan, aniqrog‘i 1965-80-yillardan boshlangan edi. Bu borada J.H.Brunvand, H.J.Bryce, G.Bennet, D.Buchan, G.A.Fine, A.Fiery, L.J. Duhl, N.Genge, R.L.Fleming, R.F.Boyd, B.McConnell, U.Wolf-Knuts kabi olimlarning ishlarida Amerika “shahar afsonalari”ning shakllanishi, o‘ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Rossiyada ham “shahar/zamonaviy afsonalar” haqidagi nazariy qarashlar I.S. Veselova, Yu.S. Levskaya, A.S. Mayer, M.V. Nikitin kabi olimlar ishlarida uchraydi. O‘zbek folklorshunosligida an’anaviy afsona janri K.Imomov, U.Jumanazarov, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, S.Ro‘zimboyev, M.Rahmonova, M.

Rizoyeva, A.M. Bakimbetov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan, biroq “shahar”, “yangi” “zamonaviy” afsonalar kabi terminlar ishlatilmagan va biror-bir tadqiqot obyekti bo‘lmagan. O‘zbek folklorshunosligida o‘zbek folklori epik janrlarining postfolklor jarayonlaridagi holati va funksional xususiyatlari B.Rahmonov tomonidan o‘rganilgan. Olim o‘z tadqiqotida afsona janri postfolklor jarayonlarida so‘ngan, ya‘ni yaratilishdan to‘xtagan janrlar sirasiga kiritadi [2:179]. Biroq Amerika va Rus postfolklor jarayonlarida an’anaviy afsona janri transformatsiyasi va evolyutsiyasi natijasida yuzaga kelgan “yangi” (new), “shahar”(gorodskoy), “zamonaviy” (modern) afsonalar tadqiqi bunday afsonalar o‘zbek postfolklorida ham mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Amerika va Rus folklorshunosligidagi nazariy-metodologik ishlarga asoslanib aytish mumkinki, an’anaviy afsona janri yaratilishdan to‘xtagan bo‘lsa ham, zamonaviy voqelik, zamonaviy makon va zamon (xronop), shuningdek, zamonaviy shartlar asosidagi mifologik tafakkur va xayoliy uydirmaga asoslangan “zamonaviy” afsonalar mavjud. Amerika, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlyandiya, Shvetsiya kabi davlatlar folklori materiallarida uchrovchi “zamonaviy/shahar afsonalari (gorodskaya legenda, Urbun legend)” matni talqinlari hamda nazariy-metodologik ishlarga asoslangan holda o‘zbek folklorshunosligida ham “zamonaviy afsonalar”ning mavjudligi, postfolklor sharoitidagi holatlari haqida fikr yuritish mumkin. Mavzuni yoritishda qiyosiy-tipologik, struktural tahlil metodlaridan foydalanildi.

“Urbun legend” (shahar, gorodskoy) – folklorga xos termin bo‘lib, an’anaviy afsonalar zamirida o‘zib chiqqan, zamonaviy voqelik, zamonaviy makon

va zamon (xronop), shuningdek zamonaviy shartlar asosidagi mifologik tafakkur va xayoliy uydirmaga, og'zaki fabulatik bayonga asoslangan folklor janridir. "Zamonaviy afsonalar" garchi turli adabiyotlarda "yangi" (new), "zamonaviy" (modern) afsonalar kabi nomlar bilan qo'llansa-da, biz zamonaviy voqelik asosidagi xayoliy uydirmaga asoslangan bunday afsonalarni "zamonaviy afsonalar" deb atashni lozim topdik. Sababi Amerika, Buyuk Britaniya va Rossiyadagi "Urbun legend" (shahar, gorodskoy)da zamonaviy voqelikdagi xayoliy uydirmaga asoslangan voqealar shahar hayoti bilan bog'liq bo'lgani bois shunday nomlangan. Shuningdek, bunday afsonalar yangi voqelik bayoniga asoslangani uchun "yangi" (new), zamonaviy makon va zamon bilan bog'liqligi bois "zamonaviy" (modern) afsonalar deb ham yuritilgan. Biroq o'zbek postfolklori jarayonlarida shakllangan bunday afsonalar faqat shahar hayoti bilan bog'liq bo'lmay, ularda qishloq va turli makonlar bilan bog'liq zamonaviy voqelikdagi voqealar bayoni ham uchraydi. Shu bois yangi, shahar atributlaridan ko'ra "zamonaviy" so'zi bunday afsonalar mohiyatini to'liqroq qamrab oladi.

Levskeya Yu.S. "Postfolklor madaniyati kontekstida Amerika shahar afsonasi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida "shahar afsonalari"da ma'lum bir odam bilan ma'lum bir aniq sharoitda yuz bergan voqelik bayoni berilishini, bunday voqelik tarixi tematikasi zamonaviy shahar yoki shahar atrofida yuz bergan voqea-hodisalarga ko'ra belgilanishini aytib o'tadi. Shahar afsonalarining paydo bo'lishi va yaratilishini olima quyidagi omillar bilan bog'laydi: "Tarixdan yaqin paytlargacha an'anaviy xalq og'zaki ijodining tadqiqi uchun asosan qishloqlarda saqlanib qolgan folklor materiallari jalb qilingan. Ammo an'anaviy folklor janrlarining yaratilishidan to'xtashi va so'nishi natijasida folklor asarlari tadqiqi uchun obyekt sifatida an'anaviy qishloq folkloriga xos bo'lmagan matnlar olina boshladi. Madaniylashish jarayonlarining rivojlanishi natijasida shaharlarda og'zaki va yozma shakldagi matnlar – "shahar afsonalari (gorodskaya legenda)" zamonaviy jamiyatda o'sa boshlagan mobillik va elektron axborot orqali tarqala boshladi." [3: 4] Shuningdek, olima o'z tadqiqotida an'anaviy xalq og'zaki ijodi bilan aloqalarini to'liq uzmagani, biroq postfolklor madaniyatining bir qismi sifatida olinayotgan modifikatsiyalangan bunday janrlar ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortayotganligini, "shahar afsonalari (gorodskaya legenda)" nomi bilan kelgan janr faqat bir madaniyatga tegishli bo'lmay, turli davlatlar folklori materiallarida uchrashini aytib o'tadi.

M.V.Nikitin esa "zamonaviy/shahar" afsonalari an'anaviy afsonalar transformatsiyasi va mifologik tafakkurning zamonaviy shartlar asosida shakllanishi hamda afsona janri evolyutsiyasi natijasida yuzaga kelganligini hamda shahar afsonalarining rivojlanishi natijasida "internet shahar afsonalari" paydo bo'lganligiga ta'kidlaydi [4:3]. "Zamonaviy afsonalar" an'anaviy afsonalar transformatsiyasi natijasida paydo bo'lgan ekan, uni an'anaviy afsonalar kabi folklorning mustaqil janri sifatida qabul qila olamizmi degan savol tug'iladi.

Albatta, "zamonaviy afsonalar" an'anaviy afsonalarning postfolklor jarayonlari hosilasi sifatida yuzaga kelgan va biz unga afsonalarning postfolklor jarayonlaridagi ko'rinishi, turi sifatida yondasha olamiz. Shuningdek, "zamonaviy afsonalar"ning voqelikka munosabati, obrazlar tizimi, makon va zamon kategoriyasi, syujet strukturasi egaligiga [3: 8] asoslanib, uni folklor janri deb ayta olamiz. Ya'ni "zamonaviy afsonalar" marosim bilan bog'liq bo'lmagan folklor janri bo'lib, og'zaki bayon va ishonchga asoslangan, axborot berish va tarbiyaviy vazifaga ega.

Zamonaviy afsonalar zamon va makon kategoriyasiga ko'ra demonik hikoyalar bilan mushtaraklikka ega. Folklorshunos olim K.Imomovning "afsona va rivoyat voqealari uzoq o'tmishga yo'naltirilgan" [5:241] degan qarashiga asoslanadigan bo'lsak, zamonaviy afsonalar bilan demonik hikoyalar bir hodisa ekanda degan savol tug'iladi. Gap shundaki, K.Imomov yuqoridagi qarashini an'anaviy afsonalarga nisbatan bildirgan. Darhaqiqat, an'anaviy afsonalarning xronotopi uzoq o'tmishdagi voqelik asosida yuzaga chiqadi. "Zamonaviy afsonalar" esa zamonaviy shartlar asosidagi mifologik tafakkur va xayoliy uydirmaga, og'zaki fabulatik bayonga asoslanadi va uning xronotopi hozirgi zamon va makon bilan bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, zamonaviy makon va zamon, hozirgi zamon va makonlar qaysi davrga nisbatan qo'llanadi degan savol tug'iladi. Buning uchun an'anaviy va zamonaviy afsonalardagi makon va zamon kategoriyalarini solishtirsak. An'anaviy afsona janri xronotopi noaniq vaqt va noaniq zamon bilan bog'liq bo'lib, afsona syujetida uzoq o'tmishdagi voqelik xronotopi "bir zamonlar", "qadimda", "qadim zamonlarda", "yer yuzida hech narsa yaratilmay turib", "uzoq o'tgan zamonda" kabi so'zlar orqali yuzaga chiqadi. "Zamonaviy afsonalar"da esa tinglovchiga ma'lum bo'lgan aniq vaqt va aniq bir joyda, yaqin tarixda bo'lib o'tgan voqealar tasviri beriladi. Biz tadqiqotimiz uchun tanlab olgan zamonaviy afsonalarning aksariyati 1930 va 2016 yillarda (ya'ni XX asrning 2-choragi va XXI asr boshlariga qadar) yuz bergan voqelik bayoni asosida shakllangan.

Demak, zamonaviy afsonalar va demonik hikoyalar o'zlarining spesifik belgilariga ko'ra alohida-alohida mustaqil folklor janrlaridir. Biroq har ikki janrning mushtarak jihatlari ham bor. Har ikki janr mifologik tafakkur va xayoliy uydirmaga asoslanishi, yaqin o'tmishdagi real voqelikni bayon qilishi, biror shaxs hayotida sodir bo'lgan qo'rqinchli voqealarning dalillar asosidagi tasvirining berilishi kabi jihatlarga ko'ra mushtaraklikka ega. Biroq personajlarning voqelik bayonidagi pozitsiyasi, obrazlarning o'ziga xosligi, kompozitsiyasi, badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi bilan differensiallik kasb etadi. Demonologik hikoyalarning afsonalar bilan farqi haqida K.Imomov shunday deydi: "Hikoya g'ayritabiiy voqealar asosiga qurilgan. Unda g'ayrioddiy voqea shohidi bo'lgan shaxs ko'zi ko'rgan voqealarni bayon usulida hikoya qiladi. Demak, u g'ayri muqarrariy voqeaning shaxsan guvohiga aylangan. Uning hikoyadagi ana shu mavqeyi mazkur hikoyani boshqa janrlardan farqlaydi"

[5,241]. Olimning yuqoridagi fikrlariga asoslanib aytish mumkinki, demonik hikoyalarda hikoya g'ayrioddiy voqeaning shaxsan guvohi bo'lgan shaxs epik pozitsiyaning ichki yoki tashqi shaklida bo'lishi mumkin va eng asosiysi, bunday hikoyalarda dev, ajina, jin, alvasti, pari, shayton kabilar raqib personajlar sifatida ishtirok etadilar. Raqib personajlar demonologik hikoya qahramonining odatdagi hayotiga ta'sir qilib, ularni boshqa o'zanga solib yubora oladigan g'ayrioddiy qahramonlardir (ruhlar, shayton, pari, jin, alvasti, dev kabi).

Zamonaviy afsonalarda esa yetakchi personaj epik pozitsiyaning tashqi shaklida bo'ladi, ya'ni hayoliy uydirmaga asoslangan voqealarni kimdandir eshitgan bo'ladi. Bunday afsonalarda zamonaviy voqelikda sodir bo'lgan xayoliy uydirma asosidagi voqealar turli axborotchilar: yoshlar, qariyalar, do'stlar, tanishlar, turli kasb egalari kabi zamonaviy davrga mansub jamiyat a'zolari tomonidan bayon etiladi. "Zamonaviy afsonalar"da afsona syujetidagi tinglovchiga ma'lum bo'lgan aniq vaqt va aniq bir joyda, yaqin tarixda bo'lib o'tgan voqealarning guvohi bo'lgan insonlar (ota-onasi, do'sti, singlisi, yaqinlari, tanishlari kabi), syujet ramkasidan tashqarida berilgan axborotchilar tomonidan tasdiqlanishi kabi omillar asosida afsonada bayon etilgan voqealarga ishonch oshiriladi. Ayrim hollarda "zamonaviy afsonalar" syujetida afsona qahramoni haqidagi ma'lumotlar, biografiyasiga oid chizgilarning berilishi natijasida afsonada bayon etilgan voqelik induvidualligi va aniqligiga ishonch mustahkamlanadi. Shuningdek, bunday afsonalar syujetida fantastik elementlardan ko'ra biror shaxs hayotida sodir bo'lgan qo'rqinchli voqealarning dalillar asosidagi tasvirining berilishi, uning tinglovchi bilan zamondosh bo'lgan joylashuvga ega bo'lgan makonlarda yashaganligi kabi omillar ham undagi voqealarga ishonchning oshishiga xizmat qiladi. "Zamonaviy afsonalar" ikki yoki uch personajlardan iborat bo'lib, ular odatdagidek insonlar (turli xil oddiy shahar aholisi, yaqin o'tmishda yoki hozirgi kunimizda yashayotgan insonlar), ularni yoshiga, jinsiga, ijtimoiy mavqeyi, kasbiy o'ziga xosligiga qarab turli guruhlariga ajratish mumkin.

Fikrimizni dalillash uchun zamonaviy afsona va demonik hikoyalarni tahlil qilsak. "G'oyib bo'luvchi avtostop" kitobida berilgan "zamonaviy afsona" matnida zamonaviy dunyoda bo'layotgan g'ayrioddiy hodisalar bayoni berilgan bo'lib, uning personajlari ham hozirgi kunimizdagi, jamiyatimizdagi oddiy insonlar. "G'oyib bo'luvchi avtostop" zamonaviy afsonasi voqealari vijdonli va tadbirkor bir inson tomonidan bayon qilinadi va u voqea uning do'sti Sem Kerns bilan sodir bo'lganligini aytadi. Afsonani aytuvchi ham, uning qahramonlari ham shahar atrofidagi odamlar. Afsona syujetida zamonaviy dunyoda, shaharda sodir bo'layotgan voqealar bayoni, xususan, San Fransiskodan uyga qaytayotgan Kerns va yana bir erkak bilan yuz bergan g'ayrioddiy va qo'rqinchli voqea haqida hikoya qilinadi. Zamonaviy afsona syujetidagi voqealarni afsona personajlari tushuntirib bera olmaydilar. Ular sovuq va yomg'irli kechada, Birinchi va Missiya ko'chasi muylulishida turgan

oppoq va harir bazm ko'ylagidagi ayolni mashinasiga chiqaradilar. Soat ikkilardan oshgan shunday sovuq va yomg'irli tunda, palto va soyabonsiz, kimnidir kutib turgan bu ayol mashina orqa o'rindig'ida issiq odealga o'rangan holda ketadi va yo'lda ketayotib Tvin Piksda onasi bilan yashashini aytadi va ularga manzili beradi. Ular beshinchi ko'chaga yetishganda, Kern orqa o'rindiqdagi ayolga qarasa, u yerda hech kim yo'q edi. Tez yurib ketayotgan mashinadan tushib qolishning ham iloji yo'q edi. Qo'rquv va tashvishda qolgan Kern sherigi bilan ayol bergan manzilga yo'l oladilar. U yerda esa ularni qari ayol kutib oladi. Yo'lovchilarning hikoyalardan aniq bo'ladiki, qari ayolning qizi ikki yil oldin Birinchi va Missiya ko'chasida avtomobil avariyasida o'ldirilgan ekan [6:303-304]. Afsona personajlari Kerns, yo'lovchi, oppoq xarir ko'ylakdagi ayol va uning onasi. Afsona xronotopi ham shahar ko'chalari. Undagi g'ayrioddiy voqelik o'lgan ayol ruhining yo'lovchilar bilan muloqot qilishi bo'lib, afsona syujeti animistik qarashlar natijasida yuzaga kelgan xayoliy uydirma asosiga qurilganligini ko'rsatadi. Ushbu kitobni ayni shu afsonaning Chikago, Solt Leyk, San Fransisko va Kaliforniya kabi shaharlarida yuz bergan voqealar asosidagi o'nga yaqin variantlarini to'plagan haqida ma'lumot beriladi.

O'zbek folklorida ham zamonaviy afsonalar kam bo'lsa-da uchraydi. O'zbek folklorida ham zamonaviy voqelik bilan bog'liq turli demonologik hikoyalar ham yozib olingan. Ana shunday demonologik hikoyalarning birida Yalmog'iz kampir bilan bog'liq voqelik tasviri beriladi. Real hayotda yuz bergan g'ayritabiiy voqealar tasviri berilgan "Yalmog'iz kampir" ifoda uslubi, voqelik yuz bergan makon va zamonning yaqin o'tmishga aloqadorligi, personajlarining hozirgi zamon kishilari ekanligi, roviyning real hayotda yashayotgan insonligi kabi jihatlariga ko'ra demonik hikoya janri xususiyatlariga to'la mos keladi. Demonik hikoya "Voqea 1960-yili yuz bergan" deb boshlanadi. Demonik hikoyaning yetakchi personajlari epik pozitsiyaning ham tashqi, ham ichki shaklida, ya'ni kuzatuvchi va voqeaning bevosita ishtirokchisi mavqeyida keladilar. Dastlab voqea kuzatuvchi maqomidagi shaxs tilidan hikoya qilinadi va u voqeaning bevosita guvohi bo'lgan bobosi Abdulloh Bobojondan eshitganini aytadi. Demonik hikoyaning asosiy qismi voqeaning bevosita ishtirokchisi bo'lgan Abdulloh Bobojon tilidan hikoya qilinadi. Demonologik hikoya syujeti yaqin o'tmishda bo'lgan voqelik asosidagi ikki epizoddan iborat. Birinchi epizodda koreys erkakning dala shiyponidagi uyida yalmog'iz kampirni uchratishi, yalmog'iz kampirning unga oilasi bilan bu yerdan ketmasa, barchasini o'ldirish bilan tahdid etishi va koreysning oilasi bilan ketishi, qishloqdan ketishdan oldin uy egasi Otajon mo'ylovni ogohlantirishi kabi voqealari bayon qilinadi. Ikkinchi epizodda esa devkampirning Otajon mo'ylov va Habibullohlarga ziyon yetkazishi bayon etiladi. Ushbu demonologik hikoyadagi zamon 1960-yillar bo'lsa, makon Andijon viloyati Marhamat tumani, Yuqori rovot mahallasi dala shiyponlari. Uning personajlari yaqin o'tmishda yashagan oddiy insonlar: koreys kishi, Otajon mo'ylov,

Abdulla va g'ayrioddiy kuch bo'lgan yalmog'iz kampir. Yalmog'iz kampir elkasi do'ng va sal oldinga engashgan qiyofada tasvirlanadi. G'ayrioddiy personaj bo'lgan yalmog'iz kampirning demonologik hikoya qahramonlari koreys tikuvchiga tahdid qilishi, Otajon mo'ylov, Habibullohlarning o'limiga sabab bo'lishi hayoliy uydirma asosida tasvirlanadi. Devkampirning erkaklarga zarar berishi va uning o'lgasini himoya qilganning jazolashi motivi demonologik hikoya syujetidagi voqealarni asoslashga xizmat qilgan. Unda bayon etilishicha, bir koreys oilasi Abdulla Bobojondan yashash uchun uy berishini iltimos qiladi. Abdulla Bobojon esa Otajon mo'ylovning uyini foydalanish uchun olib beradi. Bu uy paxta dalasining ichida joylashgani bois odamlar yashaydigan uylardan uzoqda bo'lgan. Asosiy voqealar avgust oyining birida sodir bo'ladi. Tig'i eshilib parмага aylanib ketgan po'lat qaychini ko'rsatib, koreys kishi yalmog'iz kampirni unga tahdid etganini so'zlaydi: "... kiyim tikish bilan ovora bo'lib turgan koreys oilasi birdaniga dalaning o'rtasida yolg'iz joylashgan uyning qishki o'chog'ida birov qozonda go'sht va piyozni qovurayotganligini sezib qoladi, ya'ni eshigi yopiq turgan katta uyga dahlizdan birdaniga jaz-biz qilgan ovoz baralla eshitila boshlaydi. Kutilmagan bu g'ayritabiiy holatdan angrayib qolgan koreyslar bir muddat bir-birlariga qarab qoladilar-da, uyning erkagi yuz berayotgan hodisaga aniqlik kiritish uchun asta eshikni ochib dahlizga mo'ralaydi. Voajab, u yerda hech kim yo'q! O'choq esa bo'mbo'sh!? Koreys hech narsaga tushuna olmay sekin uyning eshigini yopib xotini va bolalariga qarab: – Sizlar ham anavi ovozni eshitdinglarmi? – deb so'raydi. Ular bir ovozdani uni tasdiqlaydilar. Koreys yana ishini davom ettira boshlaydi. Bir mahal yana o'sha ovoz takrorlanib, go'yoki birov dahlizda qozonda go'sht qovura boshlaydi. Bu safar erkak koreys shoshilinch dahlizga chiqadi. Afsuski, u yerda yana hech kim yo'q. Bundan qoniqmagan koreys endi dahliz orqali tashqariga chiqib yozgi o'choqdan ham xabar oladi. U yerda ham hech kim yo'q – qozon va o'choq bo'm-bo'sh!? Bo'lib o'tgan voqeadan garang bo'lib qolgan tikuvchi koreys o'z oilasi oldiga kirib yana qaytadan ulardan so'raydi: – Sizlar ham uning ovozin eshitdinglarmi? Oila esa bir ovozdani unga yana ijobiy javob beradi. Koreysda boshqa chora yo'q yana o'z tikuvchiligini davom ettira boshlaydi. Bir muncha vaqt o'tib dahlizda yana kimdir birov ovqat pishira boshlagani eshutiladi. Bu safar koreys erkak qo'lida po'lat qaychisi bilan o'qdek otilib dahlizga chiqadi. U

shu qadar tez yugurganidan eshikdan chiqib boshqacha muomala qila boshlagan: –Hey karis, menga sening bu yerda yashashing ko'p ham yoqmayapti. Shuning uchun senga kechgacha muhlat, bu yerdan tezda ko'ch-ko'roningni olib tuyog'ingni shiqqilat, ho'pmi?! Aks holda butun oilang bilan o'ldirib yuboraman senlarni!... Xuddi ana shu vaqtdagina koreysning miyasi ishlab ketgan: – Bu kampir oddiy odam emas! Yalmog'iz-ku!? Tikuvchi erkak darhol tavbasiga tayangan va: – Onaxon, men sizni bilmay qolibman, meni kechiring! Aytganlaringizni barchasini bajaraman! Shu bugunog' bu yerlardan ketamiz! – deganidan so'ng haligi devkampir unga qaychisini qaytarib beribdi va indamasdan tashqariga chiqib ketibdi." [7:21] "Yalmog'iz kampir" syujetidagi tinglovchiga ma'lum bo'lgan aniq vaqt 1960-yillar va aniq bir joy Marhamat tumani qishlog'i, yaqin tarixda bo'lib o'tgan voqealarning guvoh bo'lgan inson va uning bobosi, afsonaning so'nggida berilgan yalmog'iz kampirning hali ham boshqalarga zarar berayotganining aytilishi kabi omillar asosida unda bayon etilgan voqealarga ishonch oshirilgan. Ushbu demonologik hikoya syujetida Abdulloh Bobojon hayotida sodir bo'lgan qo'rqinchli voqealarning dalillar asosidagi tasvirining berilishi, uning tinglovchi bilan zamondosh bo'lgan insonlarning ishtirok etishi va voqealarning aniq makonlarda sodir bo'lishi kabi omillar ham undagi voqealarga ishonchning oshishiga xizmat qilgan.

Yuqoridagi zamonaviy afsona va demonologik hikoyalar tahlilidan ko'rinadiki, ushbu ikki janr mushtarak va farqli jihatlarga ega. Yuqoridagi ikki janr namunasida yetakchi obrazlar yaqin o'tmishdagi insonlar bo'lgani bilan mushtarak bo'lsa, raqib personajlarga ko'ra farqlanadilar. Ya'ni demonik hikoyalarda raqib personajlar yetakchi personajga zarar yetkazadilar. Zamonaviy afsonalarda esa raqib personaj mavjud emas va u yetakchi personajga zarar yetkazishni maqsad qilmaydi.

Xulosa. Bizning vazifamiz esa afsona janrining postfolklor sharoitida shakllangan "zamonaviy afsonalar"ning allaqachon shakllanib ulgurani, biroq uning "internet afsonalar" va turli modifikatsiyalari shakllanish jarayonida ekanligini asoslashdan iborat. "Zamonaviy afsonalar" tadqiqi uning turli janr modifikatsiyalari va parodiyalarining shakllanayotganligini o'rganishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brunvand J.H. The Vanishing Hitchhiker: American urban legends and their meanings. NY: Norton, 1981. - 208 p.
2. Раҳмонов Б.М. Ўзбек халқ оғзаки ижодиёти жанрларининг постфольклор шароитидаги ҳолати ва функционал хусусиятлари. Филол. фан. доктори (DSc)... дисс. – Тошкент, 2021. – 260 б.
3. Левская Ю.С.. Американская городская легенда в контексте постфольклорной культуре. Автореферат дисс. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2006. – 24 с.
4. Никитин М.В. Реализация концепта «страх» в сценариях городской легенды. Автореферат дисс. ... канд. историч. наук. – Москва, 2008. – 26 б.
5. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – T.: Fan, 2008. – 251 b.
6. The Vanishing Hitchhiker. Author(s): Richard K. Beardsley and Rosalie Hankey. – California Folklore Quarterly, Vol. 1, No. 4 (Oct., 1942), pp. 303-335. / <http://www.jstor.org/stable/1495600> Accessed: 01-02-2016 19:18 UTC.
7. Abdulfattoh Abu G'udda. Sahifalar. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –Toshkent, 2020. [07.01.2024 20:13].

Ziyoda Bazarova,
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

HIKOYALARDA LISONIY SHAXS SHAKLLANISHIGA NUTQ JANRLARINING TA'SIRI

Annotatsiya: maqolada nutq janrining tuzilishi ko'rib chiqiladi, qisqa hikoyalarda nutq janrlarining tipologiyasi lingvistik nuqtayi nazardan taqdim etiladi, "til shaxsi" tushunchasi ko'rib chiqiladi va uning badiiy matndagi o'rni aniqlanadi. Muallif nutq janrlari bilan badiiy asar qahramonining til shaxsi o'rtasidagi bog'liqlikni ham tadqiq qiladi va aniqlaydi.

Kalit so'z va iboralar: qisqa hikoya, til shaxsi, nutq janrlari, nutq shaxsiyati, badiiy matn, lingvistik vosita.

Аннотация: в статье рассматривается структура речевого жанра, представлена типология речевых жанров рассказов с лингвистической точки зрения, рассматривается понятие «языковая личность» и определяется ее место в художественном тексте. Также автор исследует и определяет связь речевых жанров и языковой личности героя художественного произведения.

Ключевые слова и фразы: рассказ, языковая личность, речевые жанры, речевая личность, художественный текст, языковой прием.

Annotation: the article examines the structure of the speech genre, presents the typology of speech genres in short stories from a linguistic point of view, considers the concept of «linguistic personality» and determines its place in the literary text. The author also researches and determines the connection between speech genres and the language personality of the hero of the work of art.

Key words and phrases: short story, language personality, speech genres, speech personality, artistic text, linguistic device.

Muammoni shakllantirish. Hozirgi zamon tilshunosligida nutq janrlarini o'rganish tadqiqot va muhokamaning eng ommabop yo'nalishlaridan biridir. Nutq janrlarini tadqiq qilish milliy metodologiyasining asoschisi M.M.Baxtin ta'kidlaganidek, "...tilshunoslik va filologiyaning barcha sohaları inson faoliyatining ifoda tabiati va ifodaning janr shakllarining xilma-xilligini o'rganish deyarli barcha uchun katta ahamiyatga ega"[1, 95-6].

Tarixiy jihatdan, mahalliy tilshunoslikda nutq janrlari ko'pincha adabiy matnlar asosida o'rganiladi, bu M.M.Baxtin izdoshlari uchun tabiiydir. Biroq, V.V.Dementiyev "badiiy asarlardan tilshunoslik uchun material sifatida foydalanishning qonuniyligi va bu material tilshunoslikka o'z vazifalarini hal qilishda qanday yangi imkoniyatlar beradi", degan savolni ko'taradi [2, 127-6].

Ta'kidlash kerakki, badiiy matnни o'rganishda biz M.M.Baxtin ta'kidlaganidek, birlamchi jonli nutq janrlarini o'z ichiga oluvchi ikkinchi darajali nutq janrlari bilan shug'ullanamiz, deb ta'kidlaganidek: "Hikoya birlamchi nutq janrlarining ensiklopediyasidir"[1, 48-6].

Asosiy material taqdimoti. Zamonaviy tilshunoslikda nutq janri nazariyasi bir necha yo'nalishlarda rivojlanadi, xususan: nutqshunoslik, psixolingvistika, kognitiv fan, antropotsentrik tilshunoslik, pragmatika, kommunikativ tilshunoslik va boshqalar.

M.M.Baxtin yozgan edi: "Tildan foydalanish bitta nutq ishtirokchilarining individual o'ziga xos muloqotlari (og'zaki yoki yozma) shaklida amalga oshiriladi"[1]. Bu gaplar har bir inson faoliyatining boshqa sohasining o'ziga xos shart-sharoitlari va maqsadlarini nafaqat mazmuni va til uslubi, ya'ni tilning lug'at, frazeologik va

grammatik vositalarini tanlash bilan, balki eng avvalo, kompozitsion tuzilishi bilan ham aks ettiradi. Bu uchta nuqta: tematik mazmun, uslub va kompozitsion tuzilma umumiy ifodada chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu muloqot sohasining o'ziga xos xususiyatlari bilan bir xil darajada belgilanadi.

Har bir alohida gap, albatta, individualdir, lekin tildan foydalanishning har bir sohasi biz nutq janrlari deb ataladigan bunday muloqotlarning o'ziga xos barqaror turlarini yaratadi. Qolaversa, gaplarni lingvistik muloqotning real birligi sifatida o'rganish so'zlar va gaplarning til birliklari (tizimi sifatida) mohiyatini to'g'riroq tushunish imkonini beradi.

Yozuvchining mahorati turli his-tuyg'ularga ega qahramonlarining lisoniy shaxsini shakllantira olishida, ularning o'ziga xosligini ko'rsatib bera olishida ko'rinadi. "Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o'yga cho'mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nigoh bilan boqishga o'rgatish kabi imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan bo'ladi" [3, 104-bet].

M.M.Baxtin nutq janrlarini o'rganishni taklif qilar ekan, gap va gap o'rtasidagi farqni tushunish muhimligini ta'kidlaydi[1], chunki gap til birligi sifatida grammatik xususiyatga, grammatik chegaralarga, grammatik to'liqlik va birlikka ega, bu uning grammatiklashtirishining mumkin emasligini belgilaydi, gap esa bunday emas. Boshqa tomondan, agar jumla butun bir gap bo'lsa, u butunlay boshqa xarakterdagi materialdan yasalgan ramkaga kiritilganga o'xshaydi. Har bir aniq gapning chegaralari, lingvistik aloqa birliklari sifatida, lingvistik subyektlarning o'zgarishi, ya'ni so'zlovchilarning o'zgarishi bilan belgilanadi.

O'z navbatida, so'zning kompozitsion birligiga butunni qurishning ma'lum turlari, uni tugatish turlari, so'zlovchining lingvistik muloqotning boshqa ishtirokchilariga (tinglovchilarga yoki o'quvchilarga, sheriklarga) munosabati turlari bilan bog'liq bo'lgan uslub ta'sir qiladi. Uslub janrdagi ifoda birligining elementi sifatida kiritilgan.

Nutq janrlari nazariyasining asosiy vazifalaridan biri nutq janrlari tipologiyasini qurishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, janrshunoslik til aloqasining har qanday parametrlariga ko'ra tanlangan tur doirasidagi alohida janrlarni tizimlashtirishda tipologik muammolarni hal qiladi. Demak, masalan, badiiy til janrlarining umumiy makonida, hatto antik davrda ham hikoya, qisqa hikoya, qissa va hokazolar ajralib turardi[4, 201-bet].

Tadqiqotchi D.Niyazova hissiyot ifodasi berilgan mikromatnlar badiiy asarlarda turli holatlar vositasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi hamda ularni quyidagicha tasniflaydi:

- asar personajining kechinmalari uning nutqidan anglashiladi;
- personajning ruhiy holati asar muallifi nutqi vositasida beriladi;
- bunda muallif quyidagi usullardan foydalanadi;
- personajning ruhiy holatini bevosita bayon qiladi;
- personajning jismoniy xatti-harakatlarini tasvirlash orqali uning ruhiy holatiga ishora qiladi;
- tabiat tasviri orqali personajning ruhiy holatiga ishora qiladi [5, 61-bet].

Nutq janrlarining umumiy tipologiyasi uchun ahamiyati janrlarni badiiy va badiiy bo'lmagan, yozma va og'zaki, monologik va dialogik, sodda va murakkab, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita, o'z-o'zidan va ritorik, shaxsiy va institutsional va boshqalarga bo'lishda ta'kidlangan.

“Til shaxsi” tushunchasi tilshunoslik sohasidagi tegishli fanlararo atamaning proeksiyasi natijasida shakllanadi, uning ma'nosida shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega jismoniy va ma'naviy xususiyatlari to'g'risidagi falsafiy, sotsiologik va psixologik qarashlar mavjud. Uning sifat jihatdan aniqlanishi sinadi [2, 163-bet].

Nutq janrlari lisoniy shaxs ongida tayyor namunalar (ramkalar) shaklida mavjud bo'lganligi sababli, u tomonidan qo'llaniladigan nutq janrlari til shaxsining ushbu xususiyatlari to'plamiga bog'liq. Matndagi fikrni ochish.

Lingvistik shaxsning strukturaviy modelida uchta daraja mavjud:

- og'zaki-semantik, birliklari og'zaki assotsiativ tarqoqning birliklari sifatida individual so'zlar;
- lingvistik-kognitiv, ularning birliklari har bir til shaxsida dunyoning ko'proq yoki kamroq tartibli tasvirini tashkil etuvchi tushunchalar, g'oyalar va tushunchalar bo'lib, ular qadriyatlar ierarxiyasini aks ettiradi;
- motivatsion daraja, uning birliklari pragmatikaga yo'naltirilgan va shaxsning kommunikativ va faol ehti-

yojlarida namoyon bo'ladi[3, 41-bet].

Til shaxsi til vaziyatiga ega, u vaziyatlarni boshqarishi, nutqning rivojlanishini to'g'ri yo'nalishga yo'naltirishi mumkin. Nutqqa qo'shilgan holda, u bir vaqtning o'zida uni yaratadi. Binobarin, mumtoz mualliflarning asl asarlarining yozma tilida u yoki bu temperament mujassamlanadi, faoliyatning muayyan turlarini amalga oshirish qobiliyati, xususan, kommunikativ, hukmron tuyg'u va faoliyat motivlari, individual psixologik xususiyatlar ochib beriladi.

Adabiy-badiiy matnning tuzilishi hikoya qiluvchining adresat obrazi bilan o'zaro munosabati xususiyati bilan belgilanadi. Matnning majoziy qurilishining stilistik o'ziga xosligini aniqlash uchun belgilangan parametr badiiy matnga singib ketgan va uning leksik-semantik tuvalida mujassamlangan dominant motivlarni tahlil qilish bo'lib, so'zlar va iboralarni tanlash tamoyillari va usullarini aniqlaydi, ularning konstruktiv aloqalari[6, 98-bet].

Darhaqiqat, muallifning har bir bosh qahramoni nafaqat tirik, konkret shaxs sifatida, balki g'oyaga xos bo'lgan o'z taqdiri, ichki logotiplari va rivojlanish dialektikasi bilan ham namoyon bo'ladi.

Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi epigrafdan boshlanadi: “Uylar to'la non, ochnahorim bolam, Ariqlar to'la suv, tashnai zorim bolam” (O'tmishdan). Adibning barcha mashhur hikoyalari ham epigraf bilan boshlangan: “Dahshat”, “Bemor”, “O'g'ri”, “Tomoshabog'”, “To'yda a'za” va boshqalar[6].

“Anor” hikoyasidagi birinchi jumla: “Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yangi zulfing ilinib, tirsakkacha yirtildi” [6, 458-bet]. Unda Abdulla Qahhorga yarashmagan ko'psozlilik bor, lekin fikrni bundanda qisqa ifodalashning ham yo'li yo'q. Chunki qahramonning uyga hovliqib kirishini aytish bayon, xabar, xolos.

Abdulla Qahhor yaktagining yangi yirtiladi, yozuvchi jo'nroq qilib, “yaktagi yirtildi” deb qo'ya qolardi. Biroq eshikning zulfi yaktakni yirtmaydi, uning faqat bir qismini, qo'l tegishi mumkin bo'lgan yangini yirtishi mumkin, lekin yozuvchi uning “tirsakkacha yirtilgani”ni ko'rsatadi. Bu bilan Abdulla Qahhor asar syujetidan kutilajak, favqulodda hodisaning olis shabadasiga ishora qiladi. Yangi ilinib, qisqagina yirtilishi ham mumkin edi, biroq Turobjonning qalami yaktagining yangi tirsakkacha yirtildi. Demak, syujet yanada keskinlashishi va kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa, nochor davrning ilojsiz kimsalarining oddiygina tasviri.

Hikoyada zamonning tashvishlari, o'sha davrdagi insonlarning ijtimoiy hayoti, oilaviy ahvoliga bitta anor timsolida yozuvchi o'z hikoyasida ochib bera olgan chinakam realistik hikoyanavis ekanligini dalili desak to'g'ri bo'ladi. “Xotin bu gapni shikoyat tarzida aytdi, ammo Turobjon buni ta'na deb tushundi.

– Nima, men seni olganimda kambag'alligimni yashirganmidim? Erkaboyga o'xshab chimildiqqa birovning to'ni, kavush-maxsisini kiyib kirganmidim?

Bunda yarmoning bo'lsa hali ham serpulroq odamga teg. – Ikkiti anor uchun xotiningizni serpul odamga os-hirgani uyaling! [6, 98-bet].

Bu gap Turobjonning hamiyatiga tegdi. “Jigaring ezilib ketsin” degani xotining qancha alam qilgan bo'lsa, bu gap Turobjonga shuncha alam qildi.

A.Qahhor hikoyalarida lisoniy manzara tasvirini juda keng tasvirlagan. Har bir hikoya qahramoni o'ziga xos lug'aviy birliklardan foydalangan holda tasvirlangan. “Anor” hikoyasidagi parchada Turobjon kinoya ohangida xotiniga yuzlanadi va turli leksik birliklardan foydalanadi.

A.Qahhor hikoyalarining butun harakatini real voqealar va ularning tavsifiga emas, balki qahramonlar-

ning monoglari va dialoglariga turli nutqiy harakatlar yordamida quradi: hukmlar (mahkum qilish, asoslash), mashqlar (buyruqlar, talablar), xatti-harakatlar (uzr, rahmat, tilaklar).

Xulosa. Badiiy asar tilining badiiy-estetik funksiyalarini tilshunoslik aspektida o'rganish muayyan asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchilarning so'z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullarini, demakki, “xalqning ruhi” bo'lgan tilga ijtimoiy ta'sirlarni tahlil qilish bilan chambarchas bog'liq. Shu kunga qadar o'zbek filologiyasida uslubiyat va uslubshunoslik, uslub tushunchalari o'zining aniq va lo'nda ta'rif-tavsifiga ega emas. Bu masalaga turlicha yondashuvlar va ayrim chalkashliklar davom etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бахтин М. М. Проблемы поэтики. – М.: «Художественная литература», 1972. 195 с.
2. Дементьев В. В. Теория речевых жанров. – М.: Знак, 2010. 600 с.
3. Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи Филол. фан.док.дисс. – Тошкент, 2009. 104-бет.
4. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена, 2002. 477 с.
5. Ниязова Д. Бадий матнда лисоний шахс типлари. Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс. – Қарши. 2020
6. Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'ofur G'ulom, 2011.
7. Исматов С. Абдулла Қаҳҳорнинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш. – Т: Ўқитувчи. 2008.

Bori NIGMANOV,
Nizomiy nomidagi TDPU

Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi professor v.b.

YOSH FUTBOLCHILARDA TEZKORLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola futbolchilarning tezkorlik sifatini rivojlantirishni o'rganishga bag'ishlangan. Futbolchilarda jismoniy sifatni rivojlantirishning ahamiyati jahon arenalarida yuqori darajadagi raqobat bilan bog'liq. Maqolaning maqsadi Yosh futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish bo'yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qilish va eng samarali vosita va usullarni topishdan iborat.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, mashq, futbolchi, sifat.

Аннотация: данная статья посвящена изучению развития качества быстроты футболистов. Важность развития физических качеств футболистов связана с высоким уровнем конкуренции на мировых аренах. Цель статьи - проанализировать существующую литературу по развитию качества ловкости у юных игроков и найти наиболее эффективные средства и методы.

Ключевые слова: физическая подготовка, упражнение, игрок, качество.

Annotation: this article is devoted to the study of the development of the quality of quickness of football players. The importance of developing physical quality in football players is related to the high level of competition in world arenas. The purpose of the article is to analyze the existing literature on the development of the quality of agility in young players and to find the most effective tools and methods.

Keywords: physical fitness, training, player, quality.

Yosh futbolchilar bilan ishlashdagi dastlabki tayyorgarlik bosqichida ularning har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni egallashiga, sog'lig'ini mustahkamlash va mutanosib rivojlanishiga, xilma-xil ko'nikma va malakalarni egallab olishiga, futbol o'yini texnikasi va

taktikasining boshlang'ich asoslarini o'rganishiga qaratilgan vositalar kompleksidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy tayyorgarlikning bu vaqtdagi vazifasi, avvalo, yosh futbolchilarning harakat funksiyalar-

ini (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va epchillik), shuningdek o'z harakatlarini vaqt oralig'ida (havoda va mushaklarning zo'r berishi darajasiga ko'ra boshqara bilish harakat funksiyasining asosiy komponentlaridir) shakllantirishdan iborat bo'ladi. Harakatlar tezligini tarbiyalashga katta e'tibor berish kerak. Chunki bolalik va o'smirlilik yoshida ana shu eng muhim jismoniy sifatni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjuddir.

Shuni qayd qilish kerakki, dastlabki tayyorgarlik va boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichlarida tezkorlik chaqqonlik bilan mustahkam bog'liq ravishda tarbiyalanadi, bu esa siljishning (bir joydan ikkinchi joyga o'tishning) ratsional texnikasini muvaffaqiyatli egallab olish uchun zarur asos yaratadi. 8-12 yoshlar oralig'ida yugurishdagi maksimal tezlikning anchagina ortishi harakatlar tezligining tabiiy o'sishi bilan bog'liq. 12-14 yoshda esa tezlik asosan tezlik-kuch sifatlarining va mushak kuchining o'sib borishi tufayli ortadi.

Shuning uchun tezkorlikni rivojlantirishda yugurish sur'ati va katta mushak kuchini talab etadigan harakatlarning chastotasini maksimal ravishda oshirishga harakat qilish kerak. Bunda tabiiy harakatlarga ko'proq o'rin berish lozim. O'yin, musobaqa formasida bajariladigan sport o'yinlari va harakatli o'yinlar, mashqlar ham juda katta yordam ko'rsatishi mumkin.

O'yin mashqlarini bajarish yosh futbolchilarni g'alabaga erishish uchun maksimal kuch sarflashga majbur etadi. O'yin materiali mashg'ulotdagi umumiy vaqtning 50% chasini egallashi kerak. Har bir mashq qisqa vaqt ichida (10-15 soniya) bir necha seriyali usulda bajariladi, dam olish intervali 10-15 m bo'ladi. Maksimal tezlik bilan qayta yugurish muhim ahamiyatga ega, bu 20 m gacha masofada estafeta usulida bajariladi. Mashg'ulotlarga estafetalardan tashqari 10-15 m ga yugurish bo'yicha nazorat mashqlarini kiritish ham tavsiya etiladi. Murakkab harakat reaksiyasini va harakatlarning chastotasini rivojlantirish uchun turli sport holatidan yuguriladigan tezkorlik mashqlaridan keng foydalanish kerak. Bu mashqlar turli xil ko'ruv signallariga binoan, yugurish yo'nalishini o'zgartirib bajariladi. Bu esa o'yin jarayonida vujudga keladigan murakkab vaziyatlarni modellashtirib, signallarning har biriga javob harakatlari bilan reaksiya ko'rsatish imkonini beradi.

Boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichida keng ko'lamdagi o'yinlar, o'yin mashqlarini qo'llashdan tashqari, asosiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari komplekslaridan foydalanish mumkin. Bu har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning mustahkam bazasini yaratish uchun qulay shart-sharoitni yuzaga keltiradi. Ko'proq tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan komplekslarni darsning asosiy qismi boshlarida qo'llash kerak, shundan so'ng bu sifatni takomillashtirishga yordam beruvchi o'yinlardan foydalanish lozim. Kuch talab qiluvchi tegishli o'yinlar va o'yin mashqlari majmuasiga, shuningdek, chidamlilik ko'rsatishni talab etadigan o'yinlar

majmualariga ancha kam vaqt ajratiladi. Ular tegishli cha darsning o'rtasida va oxirida o'tkaziladi.

O'yinlar va maxsus tayyorgarlik mashqlari majmualarini o'z ichiga oluvchi vositalarning rang-barangligi bolalar va o'smirlarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshiroq takomillashtirishga va uning zamini-da ularning asosiy jismoniy sifatlarini maxsus ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Jiddiy mashg'ulot qilish va takomillashtirish bosqichida tezkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi, chunki tezkorlikni oshirish ancha murakkab ish. Tezkorlikning erishilgan darajada vaqtdan ilgari barqarorlashib qolishidan qutulish uchun maksimal tezlikda takroriy yugurish bilan bir qatorda tezlik-kuch, shaxsiy kuch mashqlaridan keng foydalanish, ya'ni yugurish tezligini, asosan, dinamik kuch hisobiga oshirish kerak. Kuchni tezlik bilan namoyon qilish qobiliyatini tarbiyalashda dinamik zo'r berish uslubini qo'llash maqsadga muvofiqdir, bunda yengil yukni maksimal tezlikda boshqa joyga ko'chirish yo'li bilan haddan tashqari zo'r berishga erishiladi.

Juda ham jadallik bilan bajariladigan mashg'ulot kuchli vositadir. Shuning uchun maksimal tezlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni tez-tez, lekin kichikroq hajmda o'tkazib turish lozim. Harakatlar tezligini oshirishga qaratilgan mashqlar me'yorini to'g'ri belgilash, mashqlarning tezligini pasaytirmay, necha marta takrorlanishini, shuningdek, imkon chegarasi yoki unga yaqin tezlikni pasaytirmay bajariladigan uzluksiz mashg'ulot ishlarining qancha davom etishini hisobga olish uchun zarur. Tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar yosh futbolchining subyektiv sezgilari, charchaganlikning tashqi belgilari yoki sekundomer ko'rsatkichlari harakat tezligining pasayganligidan dalolat bergan vaqtda to'xtatiladi. Bu pasayish mazkur mashg'ulotda tezkorlikni rivojlantirish ustida olib borilayotgan ishlarini to'xtatish uchun birinchi signal ("yetarlilik mezon") bo'lib xizmat qiladi.

Maksimal tezlik bilan bajarish mumkin bo'lgan mashqlar tezkorlikni rivojlantirish vositalari sifatida qo'llaniladi. Birinchi navbatda, uch guruh mashqlari: umumiy rivojlantiruvchi (tezlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan), o'z sport turlaridagi maxsus mashqlar va boshqa sport turlaridagi mashqlar qo'llaniladi. Bunda hech bo'lmaganda uchta talabni hisobga olish lozim:

1. Mashqlar oxirgi tezlikda bajarilishi kerak.
2. Mashqlar shug'ullanuvchilar tomonidan shunchalik yaxshi o'zlashtirilgan bo'lishi kerakki, harakat vaqtda harakatni bajarish usuliga emas, balki uni bajarish tezligiga zo'r berilsin.
3. Mashqning davom etishi (yoki masofaning uzunligi) shunday bo'lishi kerakki, mashqni bajarish oxiriga kelib tezlik charchash natijasida pasaymasin.

Xulosa.

Zamonaviy futbolda futbolchilarni jismoniy tayyorgarligi eng ahamiyatli omillardan hisoblanadi.

Qanchalik futbolchi texnik-taktik tayyorgarligi yaxshi bo'lmasin, u hech qachon katta yutuqqa har taraflama jismoniy tayyorgarlikdan erisha olmaydi.

Jismoniy tayyorgarlikda ularning barcha jismoniy sifatleri rivojlanganlik darajasi yuqori darajada bo'lishi kerak. Agarda jamoadagi birgina futbolchini jismoniy tayyorgarligi past darajada bo'lsa ham, bu hol butun jamoaning natijasiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligida tezkorlik sifatlarini ahamiyati o'zgachadir.

Hozirgi kunda tezkorlik sifatini talab qiluvchi texnik-taktik harakatlarini o'yin davomidagi ulushi tobora ortib bormoqda. Tezkorlik sifati ko'pgina texnik-taktik harakatlarini samarali qo'llashga yordam beruvchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurimov R.I. Futbol darslik. – Toshkent, 2005.
2. Nigmanov B.B., Xadjaev P., Raximqulov K.D. Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma. – Tashkent: "Ilm ziyo", 2016.
3. Nurimov R.I., Iseev P. – Futbolchilarni tayyorlashda pedagogik nazorat (Pedagogik tavsiyalar) – T., 1990.
4. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: O'zDJTI, 2011.
5. Nigmanov B.B. Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma. (Ta'lim muassasalarida futbol mashg'ulotlari) – T.: «Navro'z», 2020.

Odinaxon MAHAMADJONOVA,
Andijon davlat universiteti Folklorshunoslik yo'nalishi
2-bosqich tayanch doktoranti

ANDIJON BOLALAR FOLKLORIDA HAYVONLAR TIMSOLI

Annotatsiya: ushbu maqolada hayvonlar ishtirok etgan bolalar o'yin folklori va hayvonlar haqidagi majoziy ertak namunalari tahlil qilingan. Bolalar folkloriga hayvonlar obrazining kirib kelishi bilan bog'liq qarashlar taqdim qilingan. Hayvonlar haqidagi o'yinlarda hayvonlar hayotining turli qirrasini ramziy ifoda etilganligi atroficha o'rganilgan. Tadqiqot davomida qiyosiy-tarixiy metoddan unumli foydalanildi. Natijada, ko'p holatlarda o'yindagi hayvonlar tashiydigan majoziy ma'nosi, tarbiyaviy maqsadi an'anaviy shaklga kelib qolganligi, syujet chiziqlari esa anchagina sodda va bolalarga mos ekanligi aniqlandi. Andijon bolalar folklorida mavjud bo'lgan majoziy xarakterdagi ertaklarning syujeti jahon xalqlari syujeti bilan o'xshash jihatlari mavjud bo'lsa-da, motivlarning ayri-ayri ekanligi, obrazlar rang-barangligi va voqealar talqinidagi milliy ruhning ta'sirini sezish mumkin. Ayni vaqtga kelib hayvonlar haqidagi ertaklar, asosan, bolalar tushunchasiga mos shaklga kelib qolgan. Etnosni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida ular muhim rol o'ynagan va mifologiyaning elementlarini o'z ichiga olgan hamda ularning ba'zilari hatto sehrlilik ahamiyatga ega bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan ertaklar o'zlarining mifologik va sehrlilik xususiyatlarini yo'qotganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: ertak, o'yin, qahramonlik, syujet, motiv, ekspozitsiya, tugun.

Аннотация: в данной статье анализируются примеры детского игрового фольклора и образных сказок о животных. Представлены взгляды, связанные с внедрением образа животных в детский фольклор. В играх о животных символически выражаются различные стороны жизни животных. В ходе исследования эффективно использовался сравнительно-исторический метод. В результате выяснилось, что во многих случаях образное значение и воспитательная цель животных в игре стали традиционными, а сюжетные линии довольно просты и подходят для детей, хотя есть схожие аспекты, но мотивы разные. , чувствуется колорит изображений и влияние национального духа в трактовке событий. К этому времени сказки о животных в основном стали пригодны для детского понимания. На ранних этапах развития этноса они играли важную роль и включали в себя элементы мифологии, а некоторые из них имели даже магическое значение. Со временем выяснилось, что сказки утратили свои мифологические и магические свойства.

Ключевые слова: сказка, игра, героизм, сюжет, мотив, экспозиция, узел.

Annotation: in this article, examples of children's play folklore and figurative tales about animals are analyzed. Views related to the introduction of the image of animals into children's folklore are presented. In the games about animals, various aspects of the life of animals are symbolically expressed. During the research, the comparative-historical method was effectively used. As a result, it was found that in many cases, the figurative meaning and educational purpose of the animals in the game have become traditional, and the plot lines are quite simple and suitable for children. although there are similar aspects, the motives are different, the colors of the images and the influence of the national spirit in the interpretation of events can be felt. By this time, fairy tales about animals have mostly become suitable for children's understanding. In the early stages of ethnos development, they played an important role and included elements of mythology, and some of them even had magical significance. Over time, it was found that fairy tales lost their mythological and magical properties.

Key words: fairy tale, game, heroism, plot, motive, exposition, knot

Kirish. Bolalar folklorida hayvonlar obrazi salmoqli o'rin egallaydi. Ertaklarda, o'yinlarda hattoki erkalamalarda, ovutish so'zlari tarkibida ham hayvonlar obrazi namoyon bo'ladi. Buning sabablari, kelib chiqish tarixi borasida izlanishlarning salmog'i yetarli emas. Hayvonlar obrazi barcha xalqlarda, millatlarda turlicha hisoblanadi. Hayvonlar haqida yaratilgan ertaklar kattalar tomonidan bolalarga hayvonlarni tanishtirish, yirtqichlari, uy hayvonlari, ularning xatti-harakatlaridan ogoh etish maqsadida yaratilgan. Bu esa tabiiy ham geografik tuzilish bilan chambarchas bog'liq bo'lib hayvonlar obrazlari ham turlichadir. Totem hayvonlarning obrazlari, shuningdek tabiiy hayvonlar ham har millatda o'zgachadir. Tadqiqot davomida bolalar folklori tarkibidagi hayvonlar ishtirok etgan bolalar o'yinlari va ertaklarini tahlil qilgan holda, ularga yuklangan g'oyaviy maqsad o'rganildi, syujet turlari, motivlari va kompozitsion xususiyatlari tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadimgi odamlar o'z ajdodlarini ayrim o'simlik va daraxtlardan, keyinchalik esa ayrim hayvonlardan tarqalgan deb tasavvur qilgan va ularni muqaddaslashtirgan. Buning sababi shundaki, ibtidoiy odam o'z turmush tarzida turli xil daraxt va o'simliklardan oziq-ovqat, kiyim-kechak, istish manbai sifatida unumli foydalangan. O'z kundalik turmush tarzi uchun zarur bo'lgan ro'zg'or buyumlarini yasash, uy-joy qurishda ishlatilgan. Shunday hayotiy ehtiyojlar qadimgi odamlar qalbida o'simlik va hayvonlarga nisbatan chuqur hurmat tuyg'usini uyg'otgan. Ularga muhabbat bilan adolatli munosabatda bo'lish tuyg'usi ravnaq topgan.[1]

Insonlar hayvonlarni qadrlaganliklari tufayli ushbu qadr tuyg'usini farzandlariga ham o'rgatishga urinishgan. Bu boradagi sa'y-harakatlarini ro'yobga chiqarish uchun folkloridan unumli foydalanishgan. Hattoki ularni erkalatayotgan paytlaridagi so'z tanlashida ham bu harakat yaqqol sezilib turadi. O'zbek allalarida beshik, belanchakning maqtovi yetakchi motivdir. Shunga qaramay bu xildagi allalarda hayvonlarning bolalari va qushlar nomlari bilan aloqador erkalash ohangi ham ustuvordir: bolajonlar qo'zichoqqa, toychoqqa, toyloq yoki bo'taloqqa, quralayga, bulbulga, suqsurga, lochinga, gullardan qizil gulga qiyoslanib e'zozlanadi. Bunday munosabatlar zamirida tabiiylik kasb etgan. [1]

Nabiralarni erkalatayotgan momolarga quloq solgan insonlar ularning toy bolam, quyoncham, bo'talog'im degan so'zlariga guvoh bo'ladilar. Bolalar hayvonlar haqidagi o'yinlarni o'ynaganda, ertaklarni eshitganda o'zgacha zavqlanadilar. Ular "vov-vov", "miyov" deb turli xil hayvonlarning ovozlari, shuningdek harakatlari ham taqlid qilib turli xil o'yinlar o'ylab topishgan.

Agar o'yinlar og'zaki badiiy ijod namunasi – adabiy hodisa sifatida qaralsa, ular obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va kompozitsiyasi, maqsadi va estetik vazifalari jihatidan shartli ravishda uch turga mansubdir:

a) qahramonlik ruhida o'yinlar;

b) hayvonlar haqidagi o'yinlar;
v) maishiy o'yinlar.

O'yinlarning bu turlari bir-birlaridan o'zaro g'oyaviy mazmuniga, ijtimoiy voqelikni tasvirlash tamoyiliga, o'ynalish holatiga, ijro tabiatiga obrazlar talqiniga ko'ra farq qilib turadi. Biroq ular turli fasllarda bolalar orasida baravar o'ynab kelingan. Ularning biriga xos xususiyat ikkinchisida ham zohir. Shuning uchun ular o'rtasida muayyan yaqinliklar mavjud, barchasi bolalar o'yini nomi ostida yaxlit tizim shaklida birikkan. [2]

Yuqoridagi tasnifga nazar solinsa, bolalarga xos o'yinlarni qamrab olish jihatidan birmuncha mukammal tarzda shakllantirilgan. Bolalar o'yinlariga hayvonlar mavzusi yoki obrazining kirib kelishi bevosita hayvonlar haqidagi ertaklar, afsonalar sabab bo'lgan deb aytish mumkin. Ko'p holatlarda o'yindagi hayvonlar tashiydigan majoziy ma'nosi yoxud tarbiyaviy maqsadi an'anaviy shaklga kelib qolgan. Syujet chiziqi esa anchagina sodda va bolalarga mos shaklda namoyon bo'ladi. Shuningdek, hayvonlar ishtirok etgan bolalar o'yinlarida hayotiy voqelik yaqqol sezilib turadi.

Syujet (fran.predmet, asosga qo'yilgan narsa) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi.

Adabiy asar syujeti personajlarning "harakatlaridan tarkib topadi. Ma'lumki, "harakat" so'zi keng ma'noda vaqt birligi davomida kechuvchi har qanday jarayonni anglatadi. So'zning biz ishlatayotgan maxsus ma'nosi ham mohiyatan shunga yaqin: "harakat" istilohi ostida personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari ham, ruhiyatidagi o'y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji ham tushuniladi. Demak, "harakat"ning o'zi ikki turli ekan. Shundan kelib chiqib ushbu harakat tiplaridan qaysi biri yetakchilik qilishiga qarab syujetning ikki turi ajratiladi:

a) "tashqi harakat" dinamikasiga asoslangan syujetlar:

b) "ichki harakat" dinamikasiga asoslangan syujetlar
Tashqi harakat dinamikasiga asoslangan syujetlarda personajlarning muayyan maqsad yo'lidagi xatti-harakatlari, kurash va to'qnashuvlari, hayotidagi burilishlar tasvirlanadi, shu asosda ularning taqdirida, ijtimoiy mavqeyida muayyan o'zgarishlar yuz beradi. Sodda qilib aytsak, bu xil syujetli asarlarda voqea to'laqonli tasvirlanadi, u o'z holicha ham badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Kelib chiqishi jihatidan syujetning bu turi qadimiyroq, xalq og'zaki ijodidagi sehrli ertaklar, rivoyatlar, dostonlar, shuningdek, mumtoz she'riyatimizdagi dostonlarning ham shu xil syujetga egaligi buning yorqin dalilidir. Badiiy asar syujeti ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim singari unsurlardan tarkib topadi. [3]

Bulardan tashqari o'yinlar yana mazmuniga, tarbiyaviy yo'nalishiga, tarkibida badiiy so'z va harakatning

o'zaro omuxtalikdagi ishtirokiga, obrazlar tarkibiga, suujet tipiga ko'ra ham bir-birlaridan farqlanib turadi. Ayniqsa, o'yinlarni folkloriy-adabiy hodisa sifatida tadqiq qilganda, bu farqlar ko'zga yanada yorqinroq tashlanadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning eng birinchi namunalari ibtidoiy odamlarning ov haqidagi taassurotlarini bir-biriga aytib berish jarayonida paydo bo'lgan. Ov paytida turli xil holatlar, vaziyatlarga duch kelgan ovchi ularga hayrat bilan munosabatda bo'lgan. Buryat folklorshunosi S.S.Bardaxanova bu jarayonni quyidagicha tahlil qiladi: "Ovchilar o'zlarining hayvonlar bilan olishuvlari, hayvonlarning xatti-harakatlari, qiliqlari haqida so'zlar ekanlar, hayvonot olamiga o'ziga xos tavsif berib, mazmunan ovchilik faoliyatiga bog'liq bo'lgan hodisalarni haqqoniy akslantiruvchi hikoyalar yaratardilar". [5]

Ov qilish har tomonlama foydali mashg'ulot bo'lgan. U ibtidoiy odamlarning qornini to'ydirib, ustini butlabgina qolmay, ongini ham o'stirgan. Ovlamoqchi bo'lgan jonzo'tning hayot tarzini kuzatib o'rgangan. Mana shu jarayon bilan hamohang ravishda ular ma'naviy kamolotga erishgan. Hayvonlarni ovlash, ular bilan munosabat o'rnatishga urinish, g'amxo'rlik qilish, hattoki ularni muqaddas sanash, ilohiylashtirishni, ular haqida afsona, rivoyatlar, ertaklar, o'yinlar yaratishni taqozo etgan.

"Janjalkash musichalar" [4] nomli ertak hayvonlar haqidagi majoziy ertak hisoblanadi. Syujeti tashqi harakat dinamikasiga asoslangan bo'lib, qisqa va lo'nda ifodalangan. Ertak ekspozitsiyasida voqea kechuvchi joyning tavsifi berilgan. So'ngra tugun boshlanadi. Bir uyani ikki musicha o'zaro talashadilar. Voqealar batafsil berilgan, yechim qismida esa mushuk har ikkovini ham aybini bo'yniga qo'yib, paqqos tushirib yeb qo'yadi. Shuncha janjal qilayotgan ikki urishqoq musichalar, bir zumda mushukning qo'liga tushib yuvosh bo'lib qolibdilar.

Hayvonlarning insonlar kabi gapirishi, fikrlashi, kuliishi, insonlarga xos harakatlarni qilishi ruhning abadiyligi bilan bog'liq bo'lgan ibtidoiy dunyoqarashga xos bo'lgan tipik hodisa deb aytish mumkin. "...animistik e'tiqodlar sintezi ba'zi hayvonlarni avlod-ajdodlar ruhiga aylantirdi. Chunki animistik e'tiqod u yoki bu hayvonni hayvon emas, odamzod, avlodlar ruhi deb his qilishga olib kelgan. Demak, ibtidoiy inson tasavvuricha, u yoki bu hayvon u dunyoga o'tib ketgan avlod-ajdodlarning ruhi, ularning bu dunyodagi ko'rinishi sanalgan. Shuning uchun ham ertaklarda u yoki bu hayvonni inson tilida so'zlatish va unga inson kabi munosabatda bo'lish ana shunday tushunchalar zamirida kelib chiqqan"[6].

Ertak o'zida bir nechta ezgu g'oyalarni tashiydi. O'zaro kelishuv asosida ish yuritish har ikkala tomonga ham naf berishi, aksi bo'lsa ikkovi ham ziyonda qolishi batafsil tasvirlangan. Bir musichaning yoshi katta, ikkinchisniki esa o'ta yosh ekanligi rivoyat qilinadi. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l degan xalq maqoli be-

jizga aytilmagan. Hayvonlar haqidagi ertaklarda ko'p hollarda kuchli va kuchsiz jonzo'tlar tasvirlanadi. Xuddi shu kabi hayvonlar haqidagi bolalar o'yinlarida ham ayni shu ziddiyat saqlanib qolgan.

Bolalarning eng sevimli o'yinlaridan biri "G'ozlarim" o'yinidir. O'yin uchun keng maydon kerak bo'ladi. Maydon chekkalarida daraxtlar bo'lsa, yana ham yaxshi. O'yinboshi ishtirokchilar ichidan "bo'ri"ni tanlab oladi. Bo'ri chekkaroqda daraxtlar tagiga yashirinib turadi. Ona g'oz maydonning bu chetida, g'ozchalar esa nari-gi chetida turadi. Bo'ri esa o'rtada daraxtlar soyasida "o'lja"larini poylab turadi. Ona g'oz bolalariga qaraydi, bolalari esa onasiga.

Ona g'oz: – G'ozlarim...

G'ozchalar: – G'a-g'a...

Ona g'oz: – Kelilar..

G'ozchalar: – Qo'rqamiz..

Ona g'oz: – Nimadan...

G'ozchalar: – Bo'ridan...

Ona g'oz: – Bo'ri qayerda?

G'ozchalar: – Tolning tagida...

Ona g'oz: – Baland uchib kelilar...

Kirish. Xalq – tarix va madaniyatni, moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi buyuk kuch. Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to’playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so’zlar ana shunday bebaho merosimiz hisoblanadi. Tafakkurning bunday durdonalarini xalqimiz asrlar osha ko’z qorachig’iday asrab-avaylab, sayqal berib, turli zamon havodislaridan eson-omon olib o’tgan.

Xalq donishmandligining mahsuli bo’lgan maqol, matal, ibora, hikmatli so’z kabi paremlar badiiy asar g’oya va maqsadini, personajlar ichki dunyosini ochishda, asar tilining shirali va ta’sirchan bo’lishida, emotsionalligi va musiqiyiligini oshirishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi. Turli xalqlar tillarida bo’lgani kabi o’zbek tilida ham ana shunday obrazli ifodalarning roli katta.

Mashhur sharqshunos olim A.Vamberi (XIX asrda) o’lkamizga qilgan safaridan qaytgach, quyidagicha yozgan edi: “...Sharq qadimdan she’riyat tuyg’ulari o’lkasi bo’lib kelgan, shuning uchun ham o’tovda istiqomat qiluvchi kishilarda she’riyatga bo’lgan ishtiyoq Parij yoki Londondagi ma’lumotli jamiyat a’zolaridagiga qaraganda kuchliroq ekanligiga hech kim ajablanmasligi kerak. O’rta Osiyoda bir-biriga muhabbat qo’ygan yosh oshiq-ma’shuqlar ham, munkayib qolgan qariyalar ham, shuningdek, askarlar va cho’ponlar ham, ruhoniylar va oqsuyaklar ham – xullas, hamma-hamma poetik ijodiyotga bir xilda qiziqadi. Maqollarni yozma tilda ham, jonli tilda ham uchratish, yurt kazolarining saroyida ham, ko’chmanching o’tovida ham eshitish mumkin. Sahro o’g’loni bunday “otalar so’zi”ni hamma vaqt yuziga jiddiy tus kiritgan holda tinglaydi. Maqol ma’nosiga zid bo’lgan hech qanday oqilona gap, hech qanday inontiruvchi so’z uning fikriga ta’sir qila olmaydi, uning tabiatidagi tug’ma mutaassiblik hech narsada ajdodlar va ular qoldirgan hikmatlarning donolik bilan aytilganiga, noto’g’ri aytilmaganiga astoydil, qattiq ishonchidan boshqa hech bir narsada bunchalik kuchli tarzda namoyon bo’lmaydi”.

Mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy: “Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning siymosi ko’rinadi”, degan edi. Darhaqiqat, maqollarda ota-bobolarimiz bosib o’tgan yo’lni, kechirgan turmushlarini, shodliklari va chekkan azob-uqubatlarni, bosqinchilarga nisbatan bo’lgan qahr-g’azablarini, teran mazmunli pand-nasihatlarini, qadimgi davrlarda, o’rta asr va undan keyingi asrlarda yashagan ajdodlarimizning urf-odatlarini, an’analarini ko’ramiz va his etamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqollarni “Hayot qomusi”, “Og’zaki ensiklopediya”, o’ziga xos bir

badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular kishilarning aqlini o’tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi. Hayotda to’g’ri yo’lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to’g’ri yechishga o’rgatadi. Turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlar beradi.

Maqollar – xalqning ming yillik turmush tajribalarida sinalgan hayotiy xulosalari, donoligi, ma’naviy boyligi, madaniy merosi durdonalaridir. XIX asrda yashagan V.I.Dal mashhur yozuvchi, tilshunos olim, yirik rus maqol va iboralari majmuasining muallifi “Maqol ... to’qib chiqarilmaydi, u o’z-o’zidan dunyoga keladi”, degan edi.

Har bir xalqning milliy xususiyatlari maqollarda mujassam bo’ladi. Shu bois lingvomadaniyatshunoslikda ahamiyat kasb eta oluvchi o’ziga xos birliklardan biri bu maqollardir. Ularda ma’lum bir xalqning o’ziga xos dunyosi va qiyofasi obrazli tarzda namoyon bo’ladi. Maqollar tarkibidagi so’zlar, yoxud anglatayotgan ma’nosi bilan til egasi haqida milliy-madaniy axborot beradi. Xalq tilida mavjud maqollar shu xalqning fe’l-atvorini, mentaliteti, o’ziga xos tabiati, xarakter va xususiyatlarini ham o’zida aks ettirib turadi. Xalq maqollari shu xalqning ma’naviyatini, madaniyatini, asriy tajribalari asosida kelib chiqargan xulosalarini lo’nda va ixcham holda ifoda etadi.

Darhaqiqat, oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o’zida saqlaydi, yaxshilarini o’z bag’rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo’rg’on hisoblanib kelingan. Tilshunoslikning antroposentrik paradigmasi nuqtayi nazardan “oila” universal konsept hisoblananda, ammo borliqni anglash jarayonida, madaniyatlararo munosabatda bir muncha farqli xususiyatlarni kuza-tishimiz mumkin. Bunda, albatta, xalqning ma’naviy boyligi bo’lmish maqollar ishimizning tahlil obyekti hisoblanadi. Maqollarda millatning madaniyati, mentaliteti va urf-odatlari aks etadi. Mazkur maqolada yozuvchi Tog’ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar qis-sasi”dagi “Oila” konsepti bilan bog’liq maqollar lingvomadaniyatshunoslikning obyekti sifatida tahlil qilingan.

Muhokama. Ma’lumki, jamiyatimizning eng kichik, ajralmas bo’g’ini oila hisoblanadi. Usiz jamiyatning tarixiy-madaniy hayotini tasavvur qilib bo’lmaydi. Til, bir tomondan, madaniyatning in’ikosi bo’lsa, boshqa tomondan esa, uni o’zlashtirish qurolidir. Shu sababli ma’lum bir tilning sohibi aynan shu madaniyatning vakiliga xos xususiyatlarni o’zida mujassamlashtiradi¹. “O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da “oila” tushunchasiga quyidagi-

¹ Asqorova Sh. Madaniyat va takror stilistik vositasining o’zaro bog’liqligi // Ilm sarchashmalari. №5. – T., 2015. 35-bet.

cha izohlar berilgan: “Nikohga yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a‘zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami ma‘naviy mas‘uliyati bilan bir-biriga bog‘langan”. Sharqona urf-odatlarimizga ko‘ra oila qurish dastlab biror xonadonning voyaga yetgan qizini kelinlikka so‘rab borishdan boshlanadi.

Sovchilik xalqimiz madaniy hayotida doimiy yashab kelayotgan milliy qadriyatlarimizdan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqi o‘zining boy madaniy merosiga ega bo‘lgan millatdir. Millatning shakllanishida kishilar hayotidagi ma‘lum odat va an‘analarga, ularning yashayotgan muhiti, ya‘ni turmush tarzi muayyan til va madaniyatning shakllanishida shart-sharoit bo‘lib xizmat qilgan. Shu sababli har bir millat uzoq vaqt davomida shakllanib, sayqal topgan, barqaror urf-odatlariga, marosimlarga, rasm-rusumlarga, an‘analarga ega bo‘lganlar. Xalqimiz madaniy hayotida nikoh to‘yining birinchi bosqichida “qiz tanlash”, “qiz ko‘rish” va “sovchilik” kabi udumlar muhim o‘rin tutadi. Qiz tanlashda, odatda, ayollar faollik ko‘rsatishgan. Sovchilikda esa erkaklar qatnashgan. Ushbu qadimiy urf-odatimiz mazkur qissada ham o‘z aksini topgan:

“Sovchilar qadami qizlik eshikka sharaf! Sovchilar oqshom vaqti keldi. Uy bekasi dasturxon yoydi. Xo‘jasi mezbonlik qildi.

– Xush ko‘rdik, xush ko‘rdik, – dedi.

– Xushvaqt bo‘l, qassob, xushvaqt bo‘l, – dedi sovchilar. – Qani, ilohi omin, shu uyda katta-katta to‘ylar bo‘lsin, Ollah-akbar!”.

Maqol va matallarda xalqimizning asriy kechmishlari, qadriyatlarimiz durdonalari namoyon bo‘ladi. Otabobolarimiz azal-azaldan nikoh masalasiga jiddiy qaragan. Ikki yoshning oilasi, nasl-nasabi, salomatligi, odob-axloqi qurilajak oilaning poydevorini tashkil etadi. Xalqimizda qiz uzatish, o‘g‘il uylantirish bilan bog‘liq bo‘lgan maqollar ko‘p uchraydi: “Qizni oshig‘iga ber”, “Qizni so‘raganga ber, qimizni – suvsaganga”, “Qizing kimni sevsa – kuyoving shu”, “Tengini topsang, tekin ber”, “Oltin uzukka – olmos ko‘z”. Mazkur maqollarda oila – jamiyatning bir bo‘lagi ekanligi, ushbu bo‘lak sog‘lom bo‘lsa, jamiyat ham sog‘lom bo‘lishi va gullab yashnashi aks etgan. Xuddi shu an‘ana “Aslini bilmay so‘z demaslar, Naslini bilmay qiz bermaslar” maqolida o‘z ifodasini topgan:

“Eson qassobni haminqadar eladi.

Keyin maqsadga o‘tdi.

Singlingning boshiga baxt qushi qo‘nib turibdi, qassob, uchirib yubormasang bo‘ldi, – dedi.

– Aslini bilmay, so‘z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar, – dedi qassob”.

Insonning boshiga yozuvchi aytgan baxt qushi bir marta qo‘nadi. Dono xalqimiz yaxshi oiladan, nasl-nasabi pokiza, sog‘lom kishi boshqa xonadon farzandini so‘rasa, yaxshi ishni orqaga surmaslikni, hatto tengi chiqsa, tekin berish kerakligini nazarda tutib, chiroyi borida, chinorini topish kerakligini uqtiradi:

– “*Joyi chiqib turibdi, xo‘p deya ber. Qoplon ikki yelkasiga uy tiksa bo‘ladigan yigit.*

– *Men undaychikin odamni bilmayman...*

– *Endi bilasan-da. Aytganimdan qolma. **Chiroying borida chinoringni top!”.***

Chinor – eng uzoq umr ko‘radigan daraxtlardan biri bo‘lib, abadiylik va qudratli tayanch timsolidir. Ko‘pincha qizlarga nasihat tarzida aytiladigan mazkur maqol bilan: “Husn-jamolga to‘lishgan davringda umr bo‘yi senga hamrohlik va suyanchqlik qiladigan chinakam, vafodor yoringni topib ol, vaqtni g‘animat bil”, deb uqtiradi dono xalqimiz.

Umrning eng gullagan chog‘i, yoshlik xotiralarining eng ko‘rkami – bu yangi hayot bo‘zag‘asida bo‘lgan, balog‘at yoshiga yetib, kimgadir umrini baxshida qilmoqqa tayyor bo‘lgan palladir desak, mubolag‘a qilmaymiz. Ma‘lumki, xalqimiz bu onlarni to‘y marosimi, go‘zal an‘ana-yu, milliy urf-odatlar bilan yanada ko‘rkamlashtiradi. To‘y marosimidagi chiroyli odatlarimizdan biri nikoh o‘qilayotganda kelindan vakil so‘rash odatidir. Vakil bo‘lg‘usi kelindan tanmahramlikka roziligini so‘raganda qiz bola uyatdan, ibo qilganligidan roziligini oshkor qilolmaydi. Shunday holatda uning roziligi sukut saqlaganidan bilinadi: “*Oymomo cho‘g‘ga tikilmish ko‘yi o‘tira berdi. Cho‘g‘ Oymomo yuzlaridan, Oymomo yuzlari cho‘g‘dan qolishmadi.*

Yanga bo‘lmish kenjasini Oymomoga berdi.

– **Bo‘ldi, sukut alomati – rizo, -dedi”.**

Sovchilikka borishdan tortib nikoh oqshomiga qadar qilinajak betakror urf-odatlarimiz borki, xalqimiz ularni madaniyat darajasiga ko‘targan. Atoqli adibimiz Tog‘ay Murod shu udumlarimizdan ayrimlarini qissada keltirib o‘tadi. Masalan, “non sindirish”, “qalin aytish”, “fotiha qilish”, “to‘ylik yuborish”, “to‘qqiz marosimi”, “to‘boq keldi”, “oyoq bosish”, “it irillar”, “kampir o‘ldi”, “soch siypatar”, “qo‘l ushlatar”, “oyna ko‘rsatar” kabilar shunday rasm-rusumlarimizdan hisoblanadi. Yana bir go‘zal odatimiz borki, bu – to‘y bo‘layotgan xonadonga qarindoshlar va qo‘ni-qo‘shnilarning moliyaviy va ma‘naviy yordam qilishlari. “To‘yniki to‘yda qaytsin”, – deydi xalqimiz. To‘ylarni o‘tkazish jarayonida insonparvarlik, izzat-ikrom, mehribonlik, mehmonnavozlik, inoqlik kabi oliyanob fazilatlar yorqin o‘z ifodasini topadi. Inson zotini qadrlash, hurmatlash va ulug‘lashda to‘ylar beqiyos qimmatga ega. To‘ylar bir kishining shaxsiy ishi bo‘lmay, u keng jamoatchilik tashabbusi va ishtiroki bilan o‘tadigan tantanadir.

Darhaqiqat, to‘y har bir ota-onaning farzandi iqbolli, baxti kabi orzusidir. Farzand tug‘ilibdiki, uning nikoh to‘ylariga hammamiz yetaylik, – deya duo qilinadi. Xayrli duolar ortidan bir kuni to‘y qilinar ekan, shu muborak kunda jami yaqinlar o‘zining topgan-tutganidan to‘ychilarga hadya tariqasida yordam ham qilishadi, kam-ko‘stlariga qarashadi. Bu xalqimizning betakror udumlaridan sanaladi. Hadyalar taqdim etilarkan, o‘zlari ham to‘y qilishlarini, qilgan yordamlari o‘sha kunda o‘zlariga qa-

ytishini orzu qilib, Allohdan so‘rashadi: *“To‘ylovchilar atagan sovg‘a-salomlarini ro‘molga tashladi. Birov bir kiyimlik atlas tashladi, birov shoyi tashladi. Ro‘mol deyarli to‘ldi. Duo ezgu bo‘ldi:*

– To‘yniki to‘yda qaytsin, ollohu akbar!”

Ayniqsa, to‘ylarda, ma‘rakalarda yoki boshqa marosimlarda qo‘shnilarning bir-biriga qiladigan yordami madaniy qadriyatlarimiz ulug‘ligidan dalolat beradi. Masalan, *“Qo‘shni – qo‘shning ko‘zgusi”, “Uzoqdagi qarindoshdan – yaqindagi qo‘shni yaxshi”, “Qo‘shni keldi – ko‘mak keldi, yaxshi kundan darak keldi”* kabi maqollarda ham aks etgan. Quyidagi keltirilgan parchada ham ko‘rishimiz mumkin: *“Og‘ayni-jamoa hovli yuziga chiqdi. Yoppasiga oq fotiha berdi.*

*Kelin o‘ng taraf hamsoyasi ot yetakladi. **Yon qo‘shnim – jon qo‘shnim bo‘ldi.** Ot ostonadan hatladi. Kelin uzatildi”*. Xalqimizda qo‘shnichilik ham o‘ziga xos qadriyat hisoblanadi. Qo‘shnilar yaxshi-yomon kunlarda bir-birlariga hamdam va hamdard bo‘ladilar. Shu sabab ham *“Uzoqdagi qarindoshdan – yaqindagi qo‘shni yaxshi”, –* deyishadi. Hadislarda ham qo‘shnichilik qadriyatlari e‘zozlanadi, qo‘shnilarga mehr-muruvvat ko‘rsatishga chaqiriladi. Taomilga ko‘ra, qo‘shnilar vaqti-vaqti bilan, ayniqsa, tansiq taom qilingan kuni, bir-birlarinikiga osh-non olib chiqib, bir-birlarini siylashadi. *“Qo‘shnida pishar, bizga ham tushar”* matali ana shu an‘ana ta‘sirida vujudga kelgan. Qo‘shni qo‘shnini hurmat qilishi, yaxshi amallarda bir-birlaridan ta‘lim olishlari ham hikmatlarda uqtiriladi: *“Qo‘shnining qudug‘iga tupurma, Oxir bir kun suv ichasan”, “Kiyiming kir bo‘lsa, Qo‘shning borida yuvma”, “Qo‘shning ko‘r bo‘lsa, ko‘zingni qis, Oqsoq bo‘lsa, lang bo‘l”, “Qo‘shni qo‘shnidan ta‘lim olar, Mulla mulladan ilm olar”, “Qo‘shni qo‘shnidan erta turishni o‘rganadi”*. Diniy e‘tiqodimizga ko‘ra shakllangan *“Qiyomat kun – qo‘shnidan”* matali ham diqqatga sazovor. Rivoyatlarga ko‘ra, qiyomat kuni jannati qo‘shni do‘zaxi qo‘shniga shifoatchi bo‘lib, uni Xudodan tilab olib, o‘zi bilan birga jannatga olib kirarkan. Demakki, bu hikmatlarning barchasi qo‘shnichilik, do‘stlik, hamjihatlik, ittifoqlikni ulug‘laydi, kishilarni shunga da‘vat etadi. Bobolarimiz bejizga *“Hovli olma, qo‘shni ol”,* deyishmagan.

Qiz bolani palaxmonning toshiga o‘xshatadi xalqimiz, qayerga borib tushishini bilmaydi. Uning uchun keyinchalik ota uyi emas, yor uyi haqiqiy uy, mangu makon bo‘ladi. Turmush qurgach, yorining uyidan panoh, baxt topadi. Ammo tug‘ilib voyaga yetgan bolaligining bebaho damlari o‘tgan ota uyini tashlab yot xonadonga yo‘l olish har bir qizning ko‘zlaridan shashqator yoshlarni oqizmay qo‘ymaydi. Ota uyining mehri kuchliligidan uni tark etish og‘irligi sababli: *“Islı uyim – rizqli uyim”, “O‘z uyimning xushligi – oyoq qo‘limning bo‘shligi”, “Tuqqan yerga – tug‘ing tik”* deyishadi dono xalqimiz. Har kimga o‘z uy-joyi, o‘z ona yurti naqadar qadr-qimmatli ekanligi quyidagi parchada ham yaqqol namoyon bo‘lgan: *“Kelin yig‘i boshladi: – Uvvv-uuvv-uuvv... Yig‘ini o‘z uyi*

– o‘lan to‘shagini tark etajagidan, xesh aqrabolaridan olislab ketajagidan desak-da bo‘ladi”.

Farzand – oilaning boyligi, quvonchi, ota-onaning tayanchi. Farzandning dunyoga kelishi birgina ota-ona uchun emas, balki atrofdagi kishilar – qarindosh-urug‘, yor-birodar, qo‘ni-qo‘shni, tanish-bilishlar uchun ham olam-olam quvonch baxsh etadi. O‘zbek mentalitetida nikoh bilan tuzilgan oilaning ko‘p hollarda saqlab qolinishi, farzandlar tug‘ilishi sabab bo‘ladi. Bu ko‘pgina maqollarimizda ham o‘z aksini topgan: *“Bolali uy – guliston, bolasiz uy – zimiston”, “Tog‘ning ko‘rki – lola bilan, uyning ko‘rki – bola bilan”, “Bolasi ko‘p – boy bo‘lar”; “Bolali uydan baxt arimas”*. Xalqimiz o‘rtasida shunday bir olqish so‘z ham bor: *“Qozon to‘la osh bo‘lsin, yostiqlik to‘la bosh bo‘lsin!”*

“Xo‘sh, endi nima qilamiz, momosi? Oymomo dasturxonidan ko‘z olmadi. Xiyol titramish barmoqlari dasturxon gullarini siladi. Toshidan-da og‘ir sukunat bo‘ldi, azadan-da qayg‘uli sukunat bo‘ldi!

Bolali uy xandon bo‘ldi, bolasiz uy zindon bo‘ldi!”

Xalqimiz bolajon xalq. Oila qurayotgan yoshlarga ham farzand so‘rab, oilasi, baxti to‘kin bo‘lishini so‘rab duo qiladi, *“Qozon to‘la osh bo‘lsin, Yostiqlik to‘la bosh bo‘lsin”,* deb uvali-juvali, baxtli-saodatli, serfarzand bo‘lsin deya olqishlaydi. Farzand so‘raganda ham o‘g‘il ham qiz farzand so‘rashadi:

“– Har bir gulning o‘z hidi bo‘ladi. Boshqa nevaralarimning yo‘rig‘i boshqa, sendan ko‘radigan nevaralarimning yo‘rig‘i boshqa.

– Sen qatorilar bolali bo‘ldi, – dedi otasi. – O‘g‘li borning o‘zi bor, qizi borning izi bor.

– Umr o‘tyapti. Bo‘laringda bo‘lib o‘t, bo‘z yo‘rg‘aday yelib o‘t”.

Dinimizda nikohga qodir bo‘lgan banda uylanib, farzand ko‘rishga targ‘ib qilingan. Hadislarda ham tug‘ishga salohiyatli ayolga uylanib, serfarzand bo‘linglar, sababi men qiyomatda boshqa ummatlar oldida sizlarning ko‘pligingiz bilan faxrlanaman, deyilgan. Shunga ko‘ra, xalqimizda azal-azaldan serfarzand bo‘lishga harakat qilinadi. Ayniqsa, kambag‘allikdan qo‘rqib, farzand ko‘rmaslik mumkinmas, deyiladi. Sababi har bir o‘zbek xonadoni *“Rizqni Alloh beradi”,* degan qat‘iy e‘tiqodda yashaydi. Hatto maqollarimizda ham bunga targ‘ib qilinadi: *“– Ayoling bugun u deydi, ertaga bu deydi...”*

– O‘zi-ku, pushti kuyib ketibdi ekan...

– Endi, seni-da so‘qqabosh o‘tkazadimi?..

– Nafaslaringizni issiq qilingizlar...

– Nafasimizni issiq qilmay, nima qilyapmiz?

– Qozon to‘la osh bo‘lsin, yostiqlik to‘la bosh bo‘lsin”.

Inson hayotda yashar ekan kutilgan va kutilmagan musibatlar uchun duchor bo‘lishi tabiiydir. Gohida sog‘lig‘ini yo‘qotsa, gohida yaqinlaridan judo bo‘ladi. Egallagan mansabidan ajralishi ham ehtimoldan xoli emas. Yana ba‘zida har-xil xavf-xatarlar girdobiga

tushib qoladi. Nima bo'lganda ham boshiga musibat tushgan har bir inson o'zini yo'qotib qo'ymasligi, bu kulfatlarni taqdirning sinovi o'laroq qabul etib, unga chidamli bo'lishi lozim. Darhaqiqat, xalqimiz tiynatida har bir qiyinchilikdan keyin, albatta, yorug' kunlar, xur-sandchiliklar kelishiga ishonch doim muhim sanaladi. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz mushkul ahvolga tushib qolgan kishilarga tasalli berganda, ularni yupat-ganda, sabr-toqatga undaganda: "Har subhning bir oqshomi bor", "Qorong'u tun mangu bo'lmas", "Bir xor bo'lgan – bir aziz bo'lmay qolmas", "Bir qishning yozi bo'ladi" kabi maqollarni qo'llaganlar. Qissadan olingan quyidagi parchada ham ushbu maqollarning mantiqiy davomi aks etgan: *"Men hali ko'rarman, umidim ko'p... Farzandning erta-kechi bo'ladimi... Birovga ertaroq beradi, birovga kechroq beradi..."*

– **Bir qishning bir yozi bo'ladi, qarg'aning qag'il-lagani qoladi, Oymomo do'stim!"**

"Avval otamiz ichkarilab keldi.

– Nima dedi? – so'radi onamiz.

– Sizdan farzand bo'lmasa, boshqa bir erkakdan-da farzand bo'lmaydi, dedi.

Keyin, onamiz ichkarilab keldi. Ma'yus-ma'yus bo'lib keldi.

– *Nima dedi-a, nima dedi? - so'radi otamiz.*

Onamiz boshini chapiga xiyol egdi. Yerga ko'z tikdi.

– **Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug', dedi... – deya pichirladi.**

Otamiz ma'qullab-ma'qullab bosh irg'adi."

O'zbek oilasi serfarzandlik, bolajonlik, oilaparvarlik kabi ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Serfarzandlik o'zbek oilasining alohida belgisidir. Bizda ko'p bolalik onalar soni boshqa mintaqalardagiga nisbatan ancha ziyod. O'zbek oilasidagi bolajonlik, farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, oilalarda turli avlod vakillarining birga yashashi, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik kabi ijobiy xususiyatlar oliy qadriyat hisoblanadi.

O'zbek oilasida farzand tarbiyasiga qadimdan katta ahamiyat berib kelingan. "O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qiligi" deganda dono xalqimiz har bir farzandga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini uqtiradi. Chunki ularning har biri betakror, o'ziga xos xarakterga, ruhiyatga va fe'l-atvoriga ega. Farzand va ota-ona bir-birlari uchun tirkadir. Ota-ona farzandining kelajakda komil inson bo'lishini, yaxshi kasb egallashi uchun astoydil harakat qilishi hamda ularni bilimli bo'lib ulg'ayishini ta'minlashga intiladi. Farzand – oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi. Shuning uchun ota-bobolarimiz o'z maqollarida yosh oilalarga serfarzand bo'lishni va shu bilan jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishni tavsiya etganlar: "Bolaning yo'g'idan bori yaxshi, ochidan to'qi yaxshi", "Xotinsiz o'tish – xato, bolasiz o'tish jaf", "O'g'li yo'qning o'rni yo'q, qizi yo'qning qadri yo'q" kabi maqollarda ham buni kuzatish mumkin. Quyidagi parchada ham ushbu an'anani kuzatishimiz mumkin:

– *A? Ko'p-ko'p farzand beraman dedingizmi?*

Qachon, qachon? Qulluq, hazrati Xizr bovajonim, qulluq! Qani edi, ko'p-ko'p bo'lsa! O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qiligi, hazrati Xizr bovajonim..."

Oila – avlodlar davomiyligi, qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni, qolaversa, xalqimiz ma'naviy merosining avlodlardan avlodga o'tishini ta'minlovchi omildir. Shu uchun ham elimizda oila muqaddas maskan sifatida azal-azaldan qadrlanadi. Oila qurish masalalariga alohida e'tibor berilgan. Bu an'ana "Eshik ko'rganni olma, beshik ko'rganni ol" maqolida ham o'z aksini topgan.

"Otamizga ayol qidirdilar. Ikkita ayol topdilar. Ikkovini-da eri mashina falokatida ketibdi. Biri o'ttiz beshlarda, farzandsiz bo'ldi. Biri qirqlarda, qo'sh farzandli bo'ldi. Xolasi ra'ykorchilik qildi.

– **Eshik ko'rganni olma, beshik ko'rganni ol! – dedi. – Oygul binoyi, farzandi bor... Tog'asi sovchilikka yo'l oldi.**

Ushbu maqolda qo'llanilgan *beshik* so'zi, ma'lumki, sharq xalqlari madaniyatiga xos tushuncha bo'lib, tug'ilgan chaqaloqni belash, uxlatish uchun yasatiladigan moslamani anglatadi. Beshik boshqa madaniyat vakillariga yot tushuncha hisoblanadi. Ushbu maqolda beshik so'zi orqali xalqimizning bolajonligi, farzandning har narsadan ustunligi ochib berilgan.

Ma'lumki, oila nikohdan boshlanadi. Farzandlarning dunyoga kelishi esa bu oilaning yanada mustahkam, gullab-yashnashiga va mustahkam bo'lishiga zamin hozirlaydi. Ba'zi oilalarda farzandsizlik sababli oilalar ajrashish darajasiga yetib kelishi mumkin. "Bir oila buzilsa, arshi a'lo titraydi" kabi hadisning mazmuni xalqimiz shuurida chuqur o'rin olgan. Shuning uchun ham xalqimizda: "O'nta o'g'lim bo'lguncha, bitta cholim bo'lsin" maqoli uchraydi. Bu maqol orqali oilada ayol uchun erkakning o'rni naqadar muhimligi aks etgan. Har bir ayol uchun ota-onadan keyin uning turmush o'rtog'i umri davomida tirkagi, suyanchig'i va sirdoshi bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek oilasida oila rahbari ota hisoblanadi. Otaning rahbarligi to'g'risida Qur'oni karimda "Erkaklar xotinlari ustidan rahbardurlar" deyilgan. Quyidagi misolda ham yaqqol o'z aksini topgan:

"Ko'mirchi bo'lsin, temirchi bo'lsin, to'rt devor ichida suyukli bo'lsin! Ayol zoti ana shu bosh panohiga suyanib yashaydi! Boshi ochiq... Ayol zoti azzancha xo'rlikni ko'taradi, azzancha tahqirlashni ko'taradi. Ammo "boshi ochiq" degan gapni ko'tarolmaydi! "O'nta o'g'lim bo'lmasin...cholim o'lmasin", demish gap ayollar yuragidan otilib chiqqan bo'ladi!"

Shuningdek qissada: *"Et bilan tirmoqni ayirib bo'lmaydi", "Kelin bo'ldisi yaxshi, to'y bo'ldisi yaxshi", "Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi", "O'lik bo'lib go'rda yo'q, tirik bo'lib to'rda yo'q", "Yomon xotinning uyi ko'p, poraxo'rning to'yi ko'p", "Po'lat pichoq qinsiz qolmaydi", "Teshik munchoq yerda qolmaydi", "Sabr qilsang, g'o'radan oltin bitadi", "Sabrning tagi oltin" kabi maqollar ham qo'llanganki, ularda o'zbek oilasi bilan*

bog'liq urf-odatlar va qadriyatlar o'z aksini topgan.

Xulosa. Madaniyatimiz ko'zgusi hisoblangan maqollarimizda insonlarni doim yaxshilikka va ezgulikka, rostgo'ylikka, ilm olishga, kattaga hurmat va kichikka izzatda bo'lishga, kamtarlikka, halol mehnat bilan kun kechirishga, bir-biriga sadoqatli va mehr-oqibatli bo'lishga undab kelgan. Shu ma'noda, o'zbek xalq maqollari ham o'zida lingvomadaniyatimiz bilan bog'liq xususiyatlarni benihoya o'ziga xos tarzda aks ettiradigan lisoniy birliklardir. V.N.Teliyaning ta'kidlashicha, maqollar xalqning kundalik hayoti bilan bog'liq madaniy qadriyatlarning asrlar davomida an'anaviy tarzda ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan ulkan manbayidir. Shuningdek, maqollar turli tumanliligi, serqirra va serma'noliligi, mavzu doirasining kengligi, ijtimoiy hayot voqeligiga hozirjavobliligi, boyligi, til strukturasi egallagan o'ziga xos ahamiyatli o'rni bilan ajralib turadi.

Maqollar ota-bobolarimiz yaratgan ijodiy tafakkuri, o'y-xayollarini biz avlodlarga yaxlit holda yetkazuvchi madaniy asosdir. Ushbu madaniy asos rolini "Oydinda yurgan odamlar" qissasidagi "Oila" konsepti bilan bog'liq maqollarning mahorat bilan o'ynagani ahamiyatga molik. Chunki mazkur qissadan o'rin olgan o'zbekona oilaviy munosabatlarimiz, o'ziga xos milliyligimiz, sharqona urf-odatlarimizni o'zida aks etgan maqollar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. "Oila jamiyatning dur-u gavharidir". Shunindek, "Oila tabiatning shox asarlaridan biridir", – degan edi mashhur faylasuf V.Gyugo. Bu shoh asar qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – T., 2022.
2. Г.Вамбери. Очерки Средней Азии. М., 1868, стр. 323 – 324;
Г.Вамбери. Очерки жизни и нравов Востока. СПб., 1877.(перевод с немецкого), стр.313 – 314.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz. T., 1987. – 6-b.
4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. T., 1990. – 8-b.
Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. -М., Школы «Языки русской культуры», 1996, – С. 241.
5. Даль В.И. Пословицы русского народа. – М., 2000. – С. 32.
6. Asqorova Sh. Madaniyat va takror stilistik vositasining o'zaro bog'likligi // Ilm sarchashmalari. –№5. – T., 2015. 35-bet.
7. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2000.
8. "O'zbek tilining izohli lug'ati". – T., 2007.
9. Xolmurodov X. Oila tushunchasi va oiladagi ijtimoiy munosabatlar tizimi. "Talqin va tadqiqotlar". №2. 2022.
10. WWW.Wikipedia.org

Dilbar MIRONSIROVA,
 Alisher Navoiy nomidagi
 Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
 universiteti magistranti

ONTOLINGVISTIKA DOIRASIDAGI ASSOTSIATIV TAJRIBALARNING O'ZIGA XOS JIHLARI

Annotatsiya: maqolada til birliklari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, munosabatlarni tadqiq etishda qo'llaniladigan assotsiativ tajriba metodining fandagi o'rni, nutq ontogenetik faoliyatini o'rganishdagi ahamiyati, lisoniy ong, lisoniy xotira va dunyoqarashning nutqqa ta'siri, shuningdek, bolalar nutqi ustida o'tkaziladigan assotsiativ tajriba jarayonida kuzatiluvchi o'ziga xos jihatlarning xususida so'z boradi. Maktabgacha yoshdagi o'zbek bolalari nutqida voqelanuvchi leksik assotsiatsiyalarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish maqsadida o'tkazilgan tajribaning tartibi, erishilgan natijalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: assotsiatsiya, stimuly, reaksiya, ontolingvistika, psixolingvistika, assotsiativ tajriba, erkin assotsiativ tajriba, bolalar nutqi.

Аннотация: в статье рассматриваются взаимосвязь между языковыми единицами, роль метода ассоциативного опыта, используемого при изучении взаимоотношений в науке, его значение в изучении онтогенетической деятельности речи, влияние языкового сознания, языковой памяти и мировоззрения на речь, а также как и в детской речи, речь идет о конкретных аспектах, наблюдаемых в процессе ассоциативного опыта. Описан порядок проведения эксперимента с целью изучения языковых особенностей лексических ассоциаций, встречающихся в речи узбекских детей дошкольного возраста, и полученные результаты.

Ключевые слово: ассоциация, стимул, реакция, онтолингвистика, психоллингвистика, ассоциативный эксперимент, свободный ассоциативный эксперимент, детская речь.

Annotation: in the article talked about, the interrelationship between language units, the role of the associative experience method used in the study of relationships in science, its importance in studying the ontogenetic activity of speech, the influence of linguistic consciousness, linguistic memory and worldview on speech, as well as on children's speech it is about specific aspects observed in the process of associative experience. The order of the experiment conducted in order to study the linguistic features of lexical associations occurring in the speech of Uzbek children of preschool age and the results achieved are described.

Key words: association, stimulus, reaction, ontolinguistics, psycholinguistics, associative experience, free associative experience, children's speech.

Ma'lumki, assotsiativ tajriba metodi, dastavval, insondagi psixik jarayonlar hamda ongdagi g'oya va fikrlarning mushtarakligini o'rganish maqsadida psixologiya doirasida qo'llangan. [1;400-403] Keyingi davrlarda esa tilshunoslikda til va nutq, til va tafakkur, til va jamiyat munosabati, ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga bo'lgan ehtiyojning vujudga kelishi natijasida mazkur metod lingvistik sohasiga ham kirib keldi. Ayniqsa, assotsiativ lug'atlar tuzishda ushbu metod keng targ'ib qilindi. Tilshunoslikdagi assotsiativ lug'at tuzish maqsadi bilan o'tkazilgan ilk assotsiativ tajribalar A.A.Leontyev [4], Y.N.Karaulov, G.A.Cherkasova, Y.A.Sorokin [3], N.V.Ufimseva [5] kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Ular tomonidan o'tkazilgan assotsiativ tajribalar natijasida rus tilshunosligida stimuldani reaksiyaga (to'g'ridan to'g'ri lug'at) va reaksiyadan stimulgaga (teskari lug'at) tartibida tuzilgan "Rus tilining assotsiativ tezaurusi", "Slavyan tillarining assotsiativ lug'ati", "Rus tilining qiyosiy assotsiativ lug'ati" hamda "Rus tilining assotsiativ me'yorlari lug'ati" yaratildi.

Assotsiativ tajriba davomida maktabgacha va maktab yoshidagi bolaning so'zni idrok etishi, so'zlararo semantik aloqadorlikni qay tarzda his qila olishi yanada oydinlashadi. Shu bois ham, tadqiqotlarimiz davomida bolalar nutqidagi leksik assotsiatsiyalarning o'ziga xos

tomonlarini o'rganish maqsadida Toshkent shahrining Yunusobod tumanida joylashgan 220-, 235-, 288-, 532-maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 200 nafar tarbiyalanuvchilari nutqi ustida assotsiativ tajribalar o'tkazildi. Tajribalar davomida L.A.Gorodetskaya tomonidan assotsiativ tajriba jarayonida amal qilinishi tavsiya etilgan etik tamoyillar, xususan, sinaluvchilarning o'z xohishlariga ko'ra tajribada qatnashish roziligini olish; ularni har qanday noqulaylik va ehtimolli zararlardan himoya qilish; aniq bo'lmagan, ikki xil tushuniluvchi va haqorat mazmunidagi savolnomalardan qochish va ularni imkon qadar "yumshoq" ifoda etish hamda sinaluvchida unga baho berilayotgandek tasavvur hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik [2;28-37] kabi omillarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qilindi. Bolalar nutqi ko'p qirrali bo'lganligi bois, assotsiativ tajriba davomida tajriba o'tkazuvchidan har bir bolaning xarakteri, tajriba vaqtidagi psixologik holatidan kelib chiqib, individual munosabatda bo'lish, har bir bolaga ayricha yondashishni talab etdi. Jarayonda sinaluvchilar o'zbek millatiga mansub bo'lishi va o'zbek tilida so'zlashishi inobatga olindi. Dastlab savol-javob usuli orqali bolaning yoshi, qiziqishlari, bir qator xarakter xususiyatlari aniqlandi. Shu tariqa bola va tajriba o'tkazuvchi o'rtasida o'zaro iliq, do'stona munosabat o'rnatildi. Bu ho-

lat tajriba jarayonlarining tabiiy va samarali kechishi, ko'zlangan maqsadga to'laqonli erishishni ta'minlagan asosiy omildir. Bola bilan tanishuv bosqichidan so'ng unga stimuly so'z o'qib eshittirildi va ushbu stimuly so'zni eshitganda xotirasiga kelgan birinchi tushunchani aytish topshirig'i berildi. Shu asosida sinaluvchilarga 100 ta stimuly so'z taqdim etildi. Reaksiya bildirish uchun vaqt chegarasi qo'yilmadi. Tajriba davomida sinaluvchilar tomonidan ayrim stimuly so'zlarga nisbatan bir vaqtning o'zida ketma-ket ikki yoki undan ortiq miqdorda reaksiya bildirish holatlari kuzatildi. Erkin assotsiativ tajriba metodiga ko'ra, sinaluvchilardan ixtiyoriy vaqt davomida stimuly so'z bo'yicha xotirasida tiklangan faqat bitta va birinchi javob reaksiyasini taqdim etish talab qilindi. Ammo yuqoridagi holatda birdan ortiq reaksiyalar bir vaqtning o'zida uzilishsiz, ketma-ket ifodalanganligi bois, ikkinchi va uchinchi javoblar ham reaksiya sifatida qabul qilindi. Bu holat ko'proq *alla, bog'cha, maqtanchoq, banan, maymun, qizg'anchiq, olma* kabi stimuly so'zlarga berilgan javob reaksiyalarida o'z ifodasini topdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi ustida o'tkazilgan assotsiativ tajriba jarayonida bolalar kattalardan farqli ravishda tezkorlik bilan stimuly so'zga aloqador bo'lgan javob reaksiyalarini bildirdi. Shuningdek, tajriba jarayonida nolisoniy omillar ta'sirida hosil bo'lgan verbal assotsiatsiyalarga ham duch kelindi. Masalan, F.Dilmurodova (6 yosh)ga stimuly so'z sifatida *kuchuk* so'zi taqdim etilganda sinaluvchi atrofda predmetlar vositasida, ya'ni tajriba o'tkazilayotgan xonada mavjud bo'lgan alifboga nazar tashlagan holda **K** deb javob berdi. Sinaluvchidan nega aynan shu javobni taqdim etganligi so'ralganda u **kuchuk k harfidan boshlanadi** deb javob qaytardi. Yoki M.Tohirjonova (6 yosh)ga *ninachi* so'zi taqdim etilganda **N** deb javob berdi. Buning sababi so'ralganda **ninachi so'zi N tovushidan boshlanadi** deb javob qaytardi. Mazkur holat boshqa sinaluvchilar tomonidan *banan, bozor, olma, sabzavot, shokolad* kabi so'zlarga berilgan javob reaksiyalarida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu jihat bolalar nutqi ustida o'tkazilgan assotsiativ tajribalarning o'ziga xos xususiyati sanaladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, tajribalar davomida maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalar bilan o'tkazilgan tajribalardan farqli ravishdagi o'ziga xosliklar ham ko'zga tashlandi. Jumladan, bolalar bilan suhbat davomida ularda stimuly so'zga nis-

batan lisoniy xotirada shakllangan real holatdagi birinchi reaksiya taqdim etildi. E'tiborlisi shundaki, kattalar bilan suhbat jarayonida istalmagan holatda sinaluvchi stimuly so'zga javob berishda xotirasida qayta jonlangan jumladan eng maqbulini reaksiya sifatida berishga harakat qiladi. Bunda bevosita sinaluvchi va tajriba o'tkazuvchi o'rtasidagi subyektiv munosabat, sinaluvchi tomonidan tadqiqotchida ijobiy taassurot qoldirish masalasi nazarda tutiladi. Ammo bu holat tajriba natijalarining aniqligiga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda esa bu holat kuzatilmaydi. Chunki bola doimo berilgan topshiriq asosida harakat qiladi. Shuningdek, bola uchun berayotgan javob reaksiyalarining tajriba o'tkazuvchida qanday taassurot qoldirishi, ularning to'g'ri-noto'g'riligi ahamiyatga molik emas. Shu jihatdan bolalar bilan o'tkazilgan tajriba natijalari aniq, xolis va shaffof holatda bo'ladi.

Bolalar bilan shug'ullanish biroz murakkab jarayon bo'lganligi bois, ular nutqi ustida o'tkaziladigan assotsiativ tajribalarda ham ayrim muammolarga duch kelinishi mumkin. Xususan:

1) tajriba davomida ayrim bolalarning atrofda narsa-hodisalarga chalg'ishi yoki boshqa bolalarning sinaluvchiga halaqit berishga urinishi sinaluvchining stimuly so'zga erkin reaksiya bildirganligiga sabab bo'lishi kuzatiladi. Bunday holatlarda tajriba o'tkazuvchi tomonidan jarayon to'liq nazoratga olinishi, imkon qadar sinaluvchiga boshqalar tomonidan halaqit berilmaydigan va tashqi ta'sir kuzatilmaydigan sharoitda suhbatlashishga erishishi lozim;

2) ayrim sinaluvchilarning javob berishdan chekinishi tajriba o'tkazuvchidan ularga individual tarzda yondashish, tajriba uchun ko'proq vaqt ajratishni talab etadi. Yuqoridagi vaziyatda sinaluvchini jarayonga jalb etish maqsadida tajriba o'tkazuvchi tomonidan turli so'z o'yinlari tashkil qilinib, bolaga qiziqarli ma'lumotlar va savollar berilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazkur muammolarni o'z vaqtida bartaraf etib, masalaga kerakli yechim topilishi orqali tadqiqotdan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'ladi, natijada bolalar nutqida voqelanuvchi assotsiativ birliklarning lingvistik xususiyatlari, ularning funksional-semantik, struktur jihatdan turlarga bo'linishi hamda ushbu birliklar yuzaga chiqishida lisoniy va nolisoniy omillarning ta'siri masalasini ilmiy asosda o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirnosirova D. Bolalar nutqi tadqiqiga assotsiativ yondashuv. / Tilshunoslikning dolzarb masalalari (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – T.: ToshDO'TAU, 2022. 400-403-betlar.
2. Городецкая Л.А. Ассоциативный эксперимент в коммуникативных исследованиях // Вестник Российской коммуникативной ассоциации. Вып. 1.– Ростов н/Д: ИУБиП, 2002. – С. 28-37.
3. Караулов Ю.Н., Черкасова Г.А., Уфимцева Н.В., Сорокин Ю.А., Тарасов Е.Ф. Русский ассоциативный словарь. В 2 т. Т. I. От стимула к реакции: Ок. 7000 стимулов. М.: АСТ-Астрель, 2002. 784 с; Т. II. От стимула к реакции: Более 100 000 реакций. М.: АСТ-Астрель, 2002. – 992 с.
4. Леонтьев А.А. Общие сведения об ассоциациях и ассоциативных нормах // Словарь ассоциативных норм русского языка. – М.: МГУ, 1977.
5. Уфимцева Н.В., Черкасова Г.А., Караулов Ю.Н., Тарасов Е.Ф. М., 2004. – 792 с.

Marjona SHOMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

BIR G'AZAL MATNI: TADQIQ VA TAHLIL

Annotatsiya: maqolada o'zbek mumtoz she'riyatining yirik vakili Muhammadniyoz Nishotiy qalamiga mansub bir g'azalning matniy tadqiqi amalga oshirilgan. Xususan, g'azalning devon qo'lyozmasi va nashrdagi matnlari o'zaro qiyoslanib, ular o'rtasidagi sezilarli tafovutlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *qo'lyozma, nashr, g'azal, bayt, she'riy san'at, matniy tadqiq, badiiy tahlil.*

Аннотация: В статье проводится текстологический анализ газели, написанной великим представителем узбекской классической поэзии Мухаммадниязом Нишоти. В частности, были сопоставлены деванская рукопись и опубликованный текст газели и проанализированы существенные различия между ними.

Ключевые слова: рукопись, издание, газель, байт, поэтическое искусство, текстологическое исследование, художественный анализ.

Annotation: the article provides a textual analysis of the ghazal written by the great representative of Uzbek classical poetry Muhammadniyaz Nishoti. In particular, the Devan manuscript and the published text of the ghazal were compared and the significant differences between them were analyzed.

Key words: *manuscript, publication, ghazal, beit, poetic art, textual research, artistic analysis.*

XVIII asr Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Muhammadniyoz Nishotiy o'zbek adabiyotiga o'zining lirik asarlari bilan salmoqli hissa qo'shgan ijodkor. Nishotiy hayoti va adabiy merosi to'g'risidagi tadqiqotlarda uning she'riy devoni haqida juda kam va umumiy ma'lumotlar berilgan.

Nishotiy hayoti va faoliyati borasida ma'lumotlar unchalik ko'p emas. Shoir hayoti va ijodi haqida fikr yuritilgan eng eski asar bu Muhammadyusuf Bayoniyning "Tavorix-i Xorazm" ("Xorazm tarixi") asaridir. Asarda Muhammadyusuf Bayoniy, Pahlavonquli Ravnaq va Muhammadniyoz Nishotiyning aynan bir paytda, aniqrog'i Xiva xoni Sherg'ozixonning jiyani Temurg'ozixon davrida yashab ijod qilganlari aytiladi. Shoirning hayoti va asarlari xususida qilingan ilk muhim ilmiy tadqiqotlar XX asrning birinchi yarmiga oiddir. Xususan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi a'zosi, adabiyotshunos olim Vohid Abdullayevning ilmiy izlanishlari Muhammadniyoz Nishotiyning adabiy jamoatchilik o'rtasida yaxshi tanitdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, Nishotiy qalamiga mansub "Husn-u Dil" dostonining tarixiy va badiiy qiymatini belgilashda Akademik Vohid Abdullayevning qo'shgan hissasi beqiyos.

O'z davri adabiyotining talabi va o'zidan avval ijod qilgan shoirlarga hurmat va havas belgisi sifatida Nishotiy ham xonlikdagi zamondosh shoirlar singari mumtoz adabiyotning yirik namoyondalaridan bo'lmish Atoyi, Lutfiy, Navoiy va Fuzuliy ijodiga ergashib, g'azallar yozgan. Hazrat Navoiy va Fuzuliy g'azallariga muxammaslar bog'lagan.

Albatta, mumtoz adabiyotning eng go'zal lirik janri g'azaldir. Unda ijodkorning ichki kechinmalari, avvalo, Alloh taolaga hamd, Muhammad alayhissalomga na't, munojot yoki lirik qahramonlar – oshiqning ahvoli, ma'shuqaning qiyofasi, ularning o'zaro munosabatlari yuksak badiiy-estetik tafakkur va lirik asarda so'zlarni

o'rinli va jozibador qo'llay olish mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Betakror tasviriy ifodaga ega bo'lgan lirik asar tildan tilga, dildan dilga ko'chib, nafaqat o'zining, balki shoirning ham umrini "uzaytiradi". Xususan, Muhammadniyoz Nishotiyning ham o'z nomini o'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga muhrlagan g'azaliyoti mavjud.

Bizgacha shoirning nisbatan kichik, ammo yuqori badiiy qiymatga ega "Devon"i yetib kelgan. Shoir nomi keltirilgan qo'lyozmalarning bir qismi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar bo'limida, Samarqand davlat universiteti kutubxonasida va Alisher Navoiy nomidagi davlat Adabiyot muzeyida saqlanmoqda. 156III raqam bilan qayd etilgan mazkur asar 38 g'azal, 14 musammal (1 musaddas, 13 muxammas) va bitta qasidadan iboratdir. Nishotiyning "Devon"i sifatida qabul qilinayotgan ushbu to'plam salkam 3500 baytlik hajmga ega[4:8].

Akademik Vohid Abdullayev ta'biri bilan aytganda, "Nishotiy lirikasi XVIII asrdagi o'zbek poeziyasining go'zal namunasi" [1:193]. Quyida ana shunday badiiyatan betakror g'azallardan birining matniy tadqiqi va mohiyatini sharhlashga harakat qilamiz.

Nishotiy "Devon"idan o'rin olgan g'azallardan biri "Bazmimiz ichra bu kun ul so'zi shakkarmu ekan?" deya boshlanuvchi g'azali bo'lib, mazkur g'azalni Tajohil ul-orif (bilib turib bilmaslikka olish) she'riy san'atining boshdan oyoq qo'llanilishiga misol bo'ladigan mumtoz adabiyotning yorqin namunasi, deysh mumkin [3:398]. G'azal o'n baytdan iborat. Matla' quyidagicha:

*Bazmimiz ichra bu kun ul so'zi shakkarmu ekan?
Yo magar anjumanoro shahi xovarmu ekan?*

Avvalo, bayt matni to'g'risida to'xtalaylik. Yuqorida shoir devonining Alisher Navoiy nomidagi Davlat ad-

abiyot muzeyi fondidagi 156-raqamli qo'lyozmasidagi matn berilgan. Biz quyida ana shu qo'lyozma bilan Nishotiy "Tanlangan asarlari" nashridagi matnini o'zaro qiyoslaymiz.

Birinchi misradagi "Bazmimiz" so'zi nashrda "Bazmi may" tarzida xato berilgan. Bir qarashda to'g'ridek ko'ringan bu tafovut baytning umumiy mazmunini to'laqonli anglashga to'sqinlik qiladi. Ikkinchi misradagi "anjumano" so'zi ham nashr matnida "anjuman aro" tarzida xato berilgan. Endi baytning asliyadagi umumiy mazmuniga diqqat qilaylik: "*Bugun bazmimiz ichra hozir bo'lgan so'zi shakar ma'shuqami yoki anjuman bezovchi quyoshmi?*". Nashrdagi mazmun biroz farqli: "*Bugunga may bazmi ichra hozir bo'lgan so'zi shakar ma'shuqami yoki anjumandagi quyoshmi?*". Shuningdek, nashrda "ichra" va "aro" so'zlarining bir bayt tarkibi kelishi ham mazmun va vazn buzilishiga sabab bo'lgan. Biroq badiiy tasvir juda go'zal. Oshiq o'z ma'shuqasini tasvir etar ekan, yorning to'la-to'kis qiyofasini ko'rib, bilib turib ham xuddi bundan bexabar kabi oshiqona kalomlarini savol tarzida bayon etadi. Ma'shuqasini bazm ichra "so'zi shakkar"ga, yoki anjuman (majlis, bazm) aro "shahi xovar" (Sharq quyoshi) ga mengzaydi. Baytda istiora ("so'zi shakkar", "shahi xovar"), tanosub ("bazm", "anjuman") kabi she'riy san'atlardan unumli foydalanilgan.

Aksi ruxsora-yi soqiyu qadah ko'zguvida,
Jomi Jamshidmu, miroti Sikandarmu ekan?

Oshiq qadah yuzasida soqiy (may quyuvchi; tasavvufda dunyo tashvishlaridan ozod qiluvchi, Haqqa yetaklovchi pir) yuzining aksi ekaniga shubha qilib, qadahni mumtoz adabiyotda an'anaviy obrazlar bo'lmish "Jomi Jamshid"ga, may to'la qadahning ko'zgu kabi akslanib turuvchi yuzasini "mir'oti Sikandar" (Iskandar oynasi)ga qiyoslaydi. Mazkur baytda tanosub ("Jomi Jamshid", "soqiy", "qadah", "aks", "ko'zgu"), talmeh ("Jomi Jamshid", "mir'oti Sikandar") kabi san'atlar qo'llanilgan. "Tanlangan asarlar"da baytdagi "soqiyu" so'zining "soqimu" tarzida berilishi vazn saktaligiga sabab bo'lgan.

Otashin la'lig'a ko'nglim qushi aylar parvoz,
O'tga tashlar o'zini, yo'qsa samandarmu ekan?

Ushbu baytda oshiq ma'shuqani emas, aksincha, yorini ko'rgandagi o'z ko'nglining ahvolini ifodalab, ko'ngil qushi yorning "otashin la'li" (labi) tomon parvoz qilib, o'zini o'tga tashlaydi, oshiq bu holatda ko'nglini "samandar" (go'yo o'tdan paydo bo'lib, o't ichida yashaydigan afsonaviy jonivor)mi, deb gumon qiladi. Baytda istiora ("la'l", "ko'ngil qushi"), tanosub ("otashin", "o't", "samandar") singari she'riy san'atlar mavjud.

G'azalning to'rtinchi bayti qo'lyozmada quyidagicha:

Baski, tikdim ko'zim ul mah yuziga bilmonkim,
Ko'zlarim mardumi, yo xoli *muanbarmu* ekan?

Ko'rinib turibdiki, baytda oshiqning ma'shuqa suvratiga hayrati baland pardada tasvirlangan. Bas, ko'zlarimni yorning yuziga tikdim. Yuzdagi xoli ko'zlarimning qorachig'imi yoki xoli muanbarmi, deya hayratlanadi oshiq. Biroq nashrda "baski" so'zining "balki", "muanbarmu" so'zining "muambarmu" (aslida bu so'z hech qanday ma'no anglatmaydi) tarzi berilishi mazmunga putur yetkazgan.

Keyingi baytlarda ham nashrda vazn buzulishi sabab bo'ladigan tarzda xatolik bilan berilgan. Avvalo, qo'lyozmadagi matnni ko'ramiz.

Durfishon la'li labing shavqi bila qatra fishon,
Ko'zuming xalqasi, yo chashmai Kavsarmu ekan?

Mazkur baytda oshiq yoriga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilib, "dur fishon" (dur sochuvchi) "la'li labing shavqi" bilan "qatra fishon" (tomchi, ko'z yosh sochuvchi, to'kuvchi) ko'zimning xalqasi (kosasi)mi yoki Kavsar (Jannatdagi daryo nomi) chashmasimi, deb so'raydi.

Qoshi mehrobodin aylar ko'zikim man'i sujud,
Ka'ba toqida siyah mast iki kofarmu ekan?

Nishotiy go'zal yorning kishiga hayiqmay tik qarashini ifodalash uchun islomiy e'tiqod atamalaridan mohirona foydalanadi. Ya'ni, ko'zlar qosh mehrobidan (ostida) turib, sajdani man' qiladi, uning bu ko'rinishi Ka'ba toqida turgan ikki qora, mast kofirga o'xshatiladi. Bu tanosub ("qosh", "ko'z"; "mehrob", "sujud", "Ka'ba toqi", "kofar") she'riy san'atining yuzaga chiqishini ta'minlagan.

Biroq nashrda "ko'zuming" so'zining "ko'zimning", forsdiy izofali birikma tarkibidagi "man'i" so'zining "man" tarzida berilishi vazn sifatiga ta'sir qilgan.

G'azalning sakkizinchi bayti qo'lyozmada quyidagicha beriladi:

Qadr ila barqi sarim charxi barinso etgan,
Xoki poyingmu ekan, bosh uza afsarmu ekan.

Nashrda esa "etgan" so'zining "ekan" shaklida berilishi mazmun g'alizligini keltirib chiqargan bo'lsa, "afsarmu" so'zining hech qanday ma'no anglatmaydigan "afsormu" tarzida qo'llanishi ham g'alati.

Xuddi shunday to'qqizinchi bayt ham xatodan xoli emas. Dastlab qo'lyozmadagi matnga diqqat qilaylik:

Ne o't erdiki, meni o'rtadiyu kul qildi,
Jonda la'ling g'ami, yo hirmani axgarmu ekan.

Mazmuni: Bu qanday o't bo'ldiki, meni o'rtab kul qildi. Jonimni azoblagan narsa la'l labingmi yoki laxcha cho'g' xirmoni ekanmi?

"Tanlangan asarlar"da esa, "xirmoni" so'zi "hirmani" tarzida berilgan. Avvalo, bunday so'z hech bir tushuncha anglatmaydi. Agar bu so'zni "hirmon" deb o'qilsa,

u “mahrumlik, bebahralik, benasiblik, umidsizlik” singari ma’nolarni anglatadi va buning ortidan mazmun yanada g’alizlashadi. Demak, ushbu birikmani “xirmoni axgarmu” tarzida o’qilishi ijodkor badiiy niyatining yuzaga chiqishiga mos.

Bu kabi noo’rin tahrirdan nashrda keltirilgan g’azal maqta’si ham xoli emas. Maqta’ matni nashrda quyidagicha:

Ey Nishotiy, qalamingdin sochilur durri samin,
Durji kilkingda nihon mahzani gavharmu ekan?

Ikkinchi misradagi “mahzan” so’zi ham aslida “maxzan” tarzida tabdil qilinishi lozim. Negaki, “mahzan” hech qanday lug’aviy ma’noga ega emas. Shunda mazmun quyidagicha bo’ladi: – Ey Nishotiy, qalamingdin qiymatbaho durlar sochiladi. Qalaming og’zida gavharlar xazinasi (maxzani) yashirilganmi?

Xulosa o’rnida aytish joizki, Muhammadniyoz Nishotiyning ijodi, nozik iste’dodi, betakror so’z qo’llash mahorati e’tiborga molikdir. So’z avvalida ta’kidlaganimizdek, shoir ijodiy merosining hali yakuniga yetmagan, haligacha keng kitobxonlar ommasi uchun notanish bo’lgan qirralarga ega.

Biz ushbu maqolada Nishotiy qalamiga mansub birgina g’azalning matniy tadqiqi va mazmuni tahliliga to’xtaldik, xolos. Bunda shoir devonining birgina qo’lyozmasi va bitta nashrdan o’rin olgan g’azal matni tahlil qilindi. Agar shoir devonining bir necha nusxalari mavjud ekani va lirik asarlarining turli bayozlardan o’rin olgani hamda ularning bugunga qadar chop etilgan manbalarga kiritilgan matnlari o’zaro qiyosiy o’rganilsa, yanada ko’proq tafovutlarga duch kelamiz. Bu esa o’z o’rnida, Nishotiy nazmiy merosini matniy jihatdan qayta tadqiq qilish va o’quvchilarga uning xatoliklardan xoli mukammal variantini taqdim qilish zarurligini ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V. O’zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. – Toshkent: O’qituvchi, 1967.
2. Nishotiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.
3. Nishotiy. Husn va Dil. Doston. She’rlar. G’afur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent – 1967.
4. Recai Kiziltunç. Muhammed Niyaz Nişati. DIVAN. – Ankara: Fenomen yayincilik, 2019.

Mohidil USMONOVA,
Qarshi davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi.

RAVNAQ LIRIKASIDA MA’NAVIY SAN’ATLAR

Annotatsiya: maqolada o’zbek mumtoz she’riyatining zabardast vakili Pahlavonquli Ravnaq g’azallarining poetikasi tadqiq qilingan. Xususan, g’azallarda qo’llangan she’riy san’atlar shoir she’rlari asosida tahlilga tortilgan. She’riy san’atlarning lirik asar mazmunini boyitishdagi o’rni atroflicha yoritilgan.

Kalit so’zlar: g’azal, bayt, she’riy san’at, poetik mazmun, badiiyat, tadqiq va tahlil.

Аннотация: в статье рассматривается поэтика газелей Пахлаванкули Равнака, ведущего представителя узбекской классической поэзии. В частности, на основе стихов поэта проанализировано поэтическое искусство, используемое в газелях. Подробно рассмотрена роль поэтического искусства в обогащении содержания лирического произведения.

Ключевые слова: газель, байт, поэтическое искусство, поэтическое содержание, художественность, исследование и анализ.

Annotation: The article researches the poetics of the ghazals of Pahlavankuli Ravnak, the leading representative of Uzbek classical poetry. In particular, the poetic arts used in ghazals were analyzed based on the poet’s poems. The role of poetic arts in enriching the content of a lyrical work is detailed.

Key words: gazal, beyt, poetic art, poetic content, artistry, research and analysis

O’zbek mumtoz she’riyatining zabardast vakili Pahlavonquli Ravnaq o’zidan salmoqli nazmiy meros qoldirdi. Garchi bugunga qadar yaratilgan tadqiqotlarda shoir ijodi to’la o’rganilmagan bo’lsa-da, shoir lirik merosi ko’lamining miqyosini tasavvur qilish qiyin emas.

Ma’lumki, har bir davrning yetakchi adabiy tendensiyalari mavjud. Ayrim adabiy yo’nalish yoki lirik janrlar taraqqiyoti muayyan davr va adabiy muhit bilan bog’liq. Ravnaq yashagan XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr boshlari va undan keyingi davrlar Xorazm adabiy

muhitida lirik janrlar, xususan, g’azal, muxammas, mustazod, ayniqsa, qasida janrlari rivoj topdi. Ogahiy, Komil Xorazmiy, Tabibiy singari ijodkorlar qatorida Ravnaq ham ayni shu janrlarda ijod qildi va lirik merosini to’plab “Devoni Ravnaq”ni tuzdi.

Ravnaq devonining salmoqli qismini g’azallar tashkil etadi. Shoir g’azallari mavzuiy jihatdan rang-barang va ko’lami keng. Biz Ravnaq lirikasi bilan tanishar ekanmiz, ular orasida ishqi-y-tasavvufiy, ijtimoiy ruhdagi g’azallarni ko’p bora uchratamiz. Ravnaq g’azal-

lari, asosan, 7, 9, 10 va 11 baytli bo'lib, ularda Navoiy, Fuzuliy, Lutfiy va Mashrab singari salafariga izdoshlik yaqqol seziladi.

Mumtoz adabiyotimizda ilmlar uchligi sirasiga kiradigan "ilmi bade'" (ilmi sanoye') ga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, mumtoz she'riyatning yetakchi janri hisoblangan g'azalnavislikda badiiy san'atlar keng istifoda etilgan. Albatta, Ravnaq lirikasi ham bundan mustasno emas. Biz quyida shoir nazmiy merosida qo'llangan ma'naviy san'atlar to'g'risida atroflicha mushohada yuritamiz.

Ma'naviy san'atlar she'r ma'noviy xossalari, uning g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan san'atlardir. Atoullah Husayniy "Badoye' us-sanoye'" asarida ma'naviy go'zalliklar haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "...arab fusahosining bari bir bo'lib, ani nutqning zotiy go'zalliklaridin deb hisoblabdurlarkim, aning bayoni maoniy ilmi va bayon ilmining vazifasidur va badiiyat sanoye'idin deb hisoblabturlarkim, aning bayoni badi' ilmining vazifasidur, holbuki, tamhidda zikr etilganidek, ul oriziy go'zalliklardindur".

Ravnaq lirik asarlarida ma'naviy san'atlarning har bir turidan o'rinli va samarali foydalanadi. Mazkur badiiy san'atlar shoir badiiy niyatining ro'yobi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilganini ta'kidlash lozim. Quyida ularning ayrimlari ususida to'xtalib tahlilga tortamiz.

Mumtoz she'riyatimizda keng istifoda etilgan, "ko'p va xo'b" qo'llangan badiiy san'atlardan biri **talmeh** hisoblanadi. Mazmunan tarixiy, afsonaviy shaxslar, asar qahramonlari, ma'lum hodisalar yoki muayyan inshoot nomining zikr etilishi bilan bog'liq badiiy san'at. Quyidagi baytga diqqat qilamiz:

Ravnaq harami ko'yig'a yetkanga erur farz,
Gar **Ka'ba** tavofi ko'rinur or eshigida.

Bu o'rinda kitobxon diqqati "Ka'ba"ga qaratilgan bo'lsa, boshqa bir baytda ham shaxs, ham makon nomi – "Majnun" va "Eram" so'zlari talmeh san'atini hosil qilgan:

Yuzin ko'rgach bo'lur **Majnun** kabi sho'ridai shaydo,
Erur ruhi behishtiy yo parizodi **Eramdur** bu.

Mumtoz adabiyotda ijodkorlar ko'pincha payg'ambarlar ismini keltirish orqali ularning muayyan sifat yoki karomatlariga ishora qilishadi. Aynan Ravnaq g'azalyotida Xizr, Muso, Sulaymon, Yaqub, Yusuf, Iso, Muhammad alayhissalom singari obrazlar ko'p uchraydi. Ayniqsa, ularning faoliyati bilan bog'liq sifat va karomatlar tilga olingan baytlarga takror-takror duch kelamiz. Masalan, Iso Masih obrazini olaylik. Jonsiz jismga sohir nafasi bilan ruh baxsh etish Iso alayhissalomning sifati. Bu sifatni shoirlar ma'shuqaning oshiqqa jon bag'ishlovchi nafasi, labi, ba'zan so'zi singari unsurlarga ko'chirganlar. Masalan, Ravnaq g'azallaridan birining maqta'siga diqqat qilaylik:

Ishq aro, Ravnaq, Masih anfosi topmas dardingni,
La'li ruhafzosining anfosidur darmon sango.

Ya'ni, oshiqqa hatto Masih nafasi ham davo bo'lolmaydi. Uning uchun ma'shuqaning ruh bag'ishlovchi nafasi darmon bo'ladi. Yor nafasining jonbaxshligi bilan birga uning boshqa sifatlari ham vasf etiladi:

Ne dami Iso erur jonbaxsh anfosing kabi,
Ne quyoshning partavi ruxsori toboningcha xo'b.

Ma'shuqa yuzining ziyosi hatto quyosh nuridan-da yaxshiroq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yor nafasi, labi bilan birga uning so'zlari ham Iso anfosi kabi jonsiz tanlarga ruh bag'ishlash sifatiga ega. Shoir buni betakror poetik tasvir vositasida ochib beradi:

Tirguzur Iso-yu Maryam kabi o'lganlarni
La'li jonparvaridin so'zlari shakkarborim.

Boshqa bir o'rinda esa shoir talmeh bilan birga mubolag'a san'atini qo'llaydi:

Labi qilg'ach takallum jon topar ushshoqkim, go'yo,
Bo'lur zohir Masiho mu'jizi oning maqolidin.

Ya'ni, yor takallum qilsa uning jami oshiqqlar bundan jon topadi. Hatto Iso mo'jizasi ham uning kalomidan namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi baytlardan ko'rinadiki, Ravnaqning yori shunchalik karomatga egaki, u hatto o'lganlarga jon baxsh etadi, uning birgina so'zi xasta ko'ngillarga malham, o'ksik dillarga quvonch bag'ishlaydi.

Ravnaq lirikasida faol qo'llangan yana bir ma'naviy san'at **husni ta'lildir**. Bunda shoir yorining zohiriy va botiniy fazilatlarini shunday chiroyli dalillaydiki, o'quvchi beixtiyor bundan zavqlanadi. Xususan, quyidagi bayt fikrimizni dalillaydi:

Gul o'zin pora qilib, bulbul o'lur devona,
Bog' aro qo'ysa qadam sho'xi pari ruxsorum.

Ya'ni, bog'dagi gullar yorni ko'rgach, uning go'zalligiga chiday olmay o'zni pora qiladi (gul bo'lib ochiladi). Bulbullar ham shunchaki sayramaydi. Ular yor jamolini ko'rgach, aql hushini yo'qotib (devona bo'lib), uning vasfini madh etadi, nola chekadi.

Muncha qizarmish nedin, eyki, xijolat chekib,
Orazing oldida gul bo'lmasa betob ob.

Yor orazi (yuzi) shu qadar go'zalki, bu go'zallik oldida bog'dagi gullar xijolat chekadi. Biror sabab bilan xijolat bo'lib qizarish insonga xos xususiyat. Shoir ushbu holatni gulga ko'chirish orqali chiroyli dalil keltiradi. Gulning rangi shunchaki emas, balki ma'shuqa jamoli

hayratidan lol qolgani va o'zidan uyalgani uchun qizil rangga kiradi. Bu o'rinda shoir husni ta'lini tashxis san'ati bilan uyg'un holda qo'llab go'zal tasvir yarata olgan. Shu o'rinda shoir ijodida qo'llangan tashxisning mubolag'a bilan mutanosib holda tasviri boshqa baytlarda ham ko'plab uchraydi. Masalan,

Ul o'tlig' chehrakim olamg'a o't solmish jamolidin,
Quyosh parvona yanglig' o'rtanur ruxsori olidin –

Baytida quyoshning inson kabi o'rtanishi, dard chekishi kamyob tashxis. Olamga o't solgan yor jamoli atrofiga aylanishi esa (quyoshning go'yoki yer atrofida aylanishi emas) mubolag'aning noyob namunasi.

Ravnaq lirikasida faol qo'llangan san'atlardan yana biri **mubolag'a** bo'lib, uning vositasida ijodkor badiiy niyati yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, quyidagi baytga diqqat qilaylik:

Fig'onkim, la'li xandoning ko'zumdin bo'lg'ali pinhon,
Jahon g'arq o'ldi seli ashki chashmi xunfishonimg'a.

Bunda lirik qahramon yor kulgusi pinhon bo'lganligi (ko'rinmay qolganligi) uchun shunchalik qayg'uqa botganki, ko'z yoshlari seli dunyoni g'arq qilish darajasiga yetgan. Keyingi baytda esa shoir mubolag'aviy tasvirni yanada quyuqlashtiradi:

Bir o'tdur manda, vahkim, uchqunidin kul bo'lur
olam,
Keturmay tog' toqat so'zishi dog'i nihonimg'a.

Dastlabki tasvirda Ravnaq ko'z yoshlari yig'ilib dunyoni g'arq qilsa, keyingi baytda olamning kulga aylanishi uchun oshiq ohining bir uchqunigina kifoya qilishi bayon qilinadi. Bu esa mubolag'aning mumtoz poetika-da qo'llangan eng yuqori bosqichi – **g'uluvdir**.

G'am tuni zulfig xayolidin tushub chashmimg'a
pech,
Dudi ohim osmonni qildi sar to sar qaro.

Oshiq yor zulfi xayolida o'rtanadi va bu uning ko'zlarida aks etadi. Natijada u oh chekadi, bu oh dudi esa musaffo osmonni boshdan oyoq qora qiladi. Baytdagi zulfning qoraligi va dudi ohning ko'kni qora qilishida mantiqiy bog'liqlik va ohoriy tashbeh ham bor. Shuningdek, baytda yaqqol ko'zga tashlanib turgan badiiy san'at, shubhasiz, mubolag'adir.

Chashmi xunxori chekib mujgonlaridin tig'i kiyn,
Har taraf oshiqqlarining qonidin to'fon borur.

Yorning jallod (jon oluvchi) ko'zlari va kipriklari tig'i nechalab oshiqqlari qalbini yaralaydi. Oshiqqlar yuragidan oqqan qonlar esa to'fonni paydo qilib har tarafga yoy-

iladi. Odatda, mubolag'a uchun "seli ashkim to'foni", "hasrat to'foni" kabi vositalar qo'llanadi. Lekin to'fonning qonga nisbatan ishlatishi mumtoz she'riyatda kamdan-kam uchraydigan holat.

Noma yozg'onda sorig' qog'azga tomgan qonidin,
Ul guli ra'nog'a holimni qilur e'lon ko'z.

Mazmuni: Oshiq o'z tuyg'ularini bayon etish uchun yorga maktub yozadi. U shunchalik ishq o'tida yonadiki, uning ko'zlaridan yosh emas, balki qon to'kilaadi. Shunda yor maktubni o'qimasdanoq undagi qonni ko'rib oshiq holatini tushunadi.

Ma'naviy san'atlardan yana biri **tamsil** bo'lib, Ravnaq g'azaliyotida uning betakror namunalarini ko'zga tashlanadi. Masalan,

Bu kun bir dilrabo ko'rduмки, sochi ol yangog' uzra
Anga mengzarki, sunbul chirmashibdur gulga bog' uzra.

Shoir bunda yorning qizil yonog'iga tushib turgan zulfini qizil gulga chirmashib o'sgan sunbulga mengzaydi. Ya'ni shoir o'ziga qadar mavjud tasvirga o'ziga xos yondashadi. Boshqa bir o'rinda esa gulgun pardaning ko'tarilib ma'shuqa yuzining namoyon bo'lishi shafaq ostidan quyoshning yuz ko'rsatishiga qiyoslanadi:

Chehra ochib ul pari pardai gulfomdin
Zeri shafaqdin magar bo'ldi ayon oftob.

Yuqoridagi baytlarning barchasida tabiatdagi ma'lum hodisaga ishora qilingan holda shoir o'z fikrlarini yanada aniqroq va yorqinroq ifoda etadi.

Ma'naviy san'atlar ichida eng ko'p qo'llaniluvchi va lirik asarlarning asosini tashkil etuvchi san'at bu tashbehdir. **Tashbeh** o'xshatish demakdir. Har bir she'riy asarning badiiy qiymati unda qo'llangan tashbehlarining ohoriyligi, o'ziga xosligi va betakrorligi bilan o'lchanadi. Masalan:

Ul parivashki quyoshdek guli ruxsorasi bor
Oshiq o'lturmak uchun g'amzai xunxorasi bor –

Baytida yorning gul kabi go'zal yuzini quyoshga, uning nozli nigohini oshiq qonini to'kuvchi tig'ga qiyoslaydi. Shu kabi tashbeh keyingi baytda ham uchraydi:

Somiriydin o'turub sehr fusunsozlig'in,
Joduyi mast iki nargisi ayyorasi bor.

Somiriy – diniy afsonaga ko'ra Muso alayhissalom zamonida Musoga qarshi chiqib, gapiradigan oltin buzoq yasab, shu bilan kishilarni o'ziga qaratishga uringan kishi. Undan adabiyotda sehrigar, jodugar, aldoqchi va o'ziga qaratuvchilikdan kinoya yo'sinida ishlatiladi. Shoir shunga tashbeh qilib ma'shuqaning sehru afsun-

ni kasb qilib olganini Somiriy obrazi bilan qiyoslaydi. Ko'zning jodugarligi shu qadarki, sehru fusunda Somiriydan ham ortiqroq.

Mumtoz adabiyotimizda keng qo'llaniluvchi **irsoli masal** san'ati Pahlavonquli Ravnaq g'azallarida o'ziga xos tarzda qo'llangan. Yani shoir xalq maqollarini to'g'ridan to'g'ri keltirmasdan, ularni tahrirlab bayt mazmuniga singdirib yuboradi. Masalan:

Tut bu fursatni g'animat, qo'y ko'ngul toatig'a,
Xonayi tan ichra besh kun jon erur mehmon sanga.

E'tibor qaratisla, ushbu satrlardan birdaniga uchta maqolni chiqarish mumkin. Yani, xalqimiz orasida "Fursat g'animat", "Besh kunlik dunyo", "Jon omonat" kabi naqlar ko'p uchraydi. Ravnaq bularning hammasini mahorat bilan bir bayt zamiriga sig'dira olgan.

Odam odamg'a g'animatdur o'tar dunyoda,
Mohipaykarni quyosh chehrani jonon, ma'zur.

Bu baytda esa "Odam – odamga g'animat", "Inson – insonga g'animat" singari maqollarga ishora mavjud.

Ne samar hosil bo'lur yuzda degandin sizuz biz,
Yaxshiroq ming sizuz bizdin ko'rinar bir jizu biz.

Mazkur baytda esa irsoli masal san'atini "Mingta siz-bizdan bitta jiz-biz yaxshi" maqoli hosil qilgan. Biroz hazil-mutyobaga, xalqona qochirimga ega maqol mazkur bayt mazmuniga ijodkor tomonidan mahorat bilan singdirilgan. Ravnaq g'azallarida qo'llangan bunday san'atlar she'rning xalqona va o'qishli bo'lishini ta'minlash bilan bir qatorda, teran va chuqur, falsafiy ma'no tashishga ham xizmat qilgan.

Ravnaq lirikasi bilan tanishar ekanmiz bu kabi badiiy go'zalliklarning bir qanchasini uchratishimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, Ravnaq g'azallari poetikasini mukammallashtirishga, shakl va mazmun jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.
2. Хусайний А. Бадоеъ ус-саноеъ. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги АСН, 1981.
3. <https://ziyouz.uz/uzbek-sheriyati/uzbek-mumtoz-sheriyati/ravnaq/>

Jalilova Muxlisa Zafarjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti 1-bosqich magistranti

BOLA TUG'ILISHI VA TARBİYASI BILAN BOG'LIQ AYRIM ETNOGRAFIK ZAMIRLAR HAQIDA

(Samarqand viloyati, Toyloq tumani misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada Toyloq tumani hududidagi bola tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq etnografizmlarning paydo bo'lishi va ularning leksik-semantik xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *etnografik leksika, semantika, izohli lug'at, lingvomadaniyat, kulturema, antroposentrik nazariya.*

Аннотация: В данной статье анализируется возникновение этнографий, связанных с рождением и воспитанием детей в Тойлокском районе, и их лексико-семантические особенности.

Ключевые слова: этнографическая лексика, семантика, толковый словарь, лингвокультура, кulturema, антропоцентрическая теория.

Annotation: In this article, the emergence of ethnographies related to the birth and upbringing of children in Taylyak district and their lexical-semantic features are analyzed.

Keywords: *ethnographic lexicon, semantics, explanatory dictionary, linguistic culture, cultureme, anthropocentric theory.*

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida antroposentrik nazariyaga asoslangan tadqiqotlarning o'rni va salmog'i kengayib bormoqda. Bu paradigma asosida til sohibi bo'lgan insonning til birliklarini uni ishtirokida o'rganish asosiy planga chiqdi. Bu nazariya asosida shu paytgacha an'anaviy yo'nalishda o'rganilgan tilshunoslikning ma'lum yo'nalish-

lari ham tadqiq etilmoqda. Shu yo'nalishlardan biri sifatida etnografik leksikani keltirishimiz mumkin. Etnografizmlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar biz bilgan M.Koshg'ariyning "Devoni-lug'atit turk" asaridan boshlangan. Biroq bizda islomgacha bo'lgan davrda ham etnografizmlarning turi va soni ko'p bo'lgan. Bugungi kunda etnografik leksikaning o'rganilishi

juda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Har bir avlod xalqning madaniy, ma'naviy idrokini ruhiga singdira olsagina, uni o'zidan keyin kelayotgan avlodga yetkaza oladi. Unutilsa keyingi avlodlarga yetib bormaydi. Buning natijasida har qanday yaxshi rasm-rusum ham asta-sekin e'tibor topmay, qadrlanmay, nazardan chetlashib, yo'qolib ketadi. Ularning yo'qolishi barobarida xalqning ruhiyatida qadimdan ota-bobolaridan meros sifatida saqlanib kelgan fazl-u fazilatlar ham, xos-u xususiyatlar ham unutiladi. [2:4] Biz ham Samarqand viloyati Toyloq tumanining o'ziga xos sohaviy leksikasi bo'lmish etnografik leksikasining ayrimlarining izohi va ular bildirgan lingvomadaniy xususiyatlarga to'xtalib o'tamiz.

Inson tug'ilganidan boshlab, u bilan bog'liq marosim va an'analar boshlanadi. Aslida chaqaloq tug'ilmasidanoq uning tug'ilishiga atab bir qancha marosimlar ham bajariladi. Fanda qabul qilingan o'ziga xos mezonlarga ko'ra insoniyat hayotining muhim burilish nuqtalari bilan bog'liq tarzda o'tkaziladigan tadbirlar oilaviy marosimlar deb yuritiladi. Tug'ilish, nikoh va o'lim bilan bog'liq marosimlar – bu nainki tafakkurga yo'naltirilgan, balki hissiyot var uh bilan bog'liq muhim bosqichlardan iborat bo'lib, ularning ko'plari kelib chiqish asoslariga ko'ra, qadimiy e'tiqodlar va diniy qarashlarga borib taqaladi. [1:74] Toyloq tumanida ham bolaning tug'ilishi va uni voyaga yetguniga qadar ko'plab urf-odat va an'analar amalga oshiriladi. Biz quyidagi ayrim urf-odatlarining semantikasi va morfologik tuzilishiga alohida ahamiyat qaratdik:

Chaqaloq dunyoga kelishi bilan unga atab **“haq berish”** udumi amalga oshiriladi. Bu aslida, bolaning boshidan sadaqa uchun qilinsa ham, bu jumla polisemantik ma'noda ko'p ishlatiladi. Bu jumla **“Haq berdi”**, **“Ziyofat berdi”** kabi fe'lli birikmalar bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Bola tug'ilgan kundan uning yaqin qarindoshlariga chaqaloqning otasi (dadasisi) tomonidan bazm uyushtiriladi.

Gävräbännän – O'zbek xalq shevalar lug'atida bu so'zga quyidagicha ta'rif berilgan: (Qashqadaryo) chaqaloqni beshikka solish marosimi. [5:63] So'z aslida *forscha-tojikcha* gavora – beshik, bannon ya'ni bandon – bog'lamoq fe'lidan tashkil topgan qo'shma so'z. Ayrim hududlarda bu so'z **“Beshikka solish”** **“Beshikka belash”** kabi jumlar bilan ifodalandi. Haqiqatan ham, chaqaloq tug'ilganidan ko'p o'tmay yoshi ulug' ayollar tomonidan beshikka solish marosimi o'tkaziladi. Bizni sheva bilan aytganda, beshikka belanadi. Ushbu marosimni amalga oshiruvchi ayolga ham bir qancha talablar qo'yiladi. Ya'ni, u ayol qishloqda obro'ga ega bo'lgan, o'zidan tinchigan, farzandlari bor va bir qancha yaxshi fazilatlariga ega bo'lishi lozim. Chunki chaqaloq bu dunyoga endigina kelgan embrion, uning keyingi taqdiri yaxshi va chiroyli kechishi uchun beshikka soluvchi kishi ham

yaxshi xulqli bo'lishi kerak, degan tushuncha saqlangan. Bu albatta, dono xalqimizning o'rinli qarorlaridan biri deb bilamiz. Ma'lumki, bolani beshikka parvarish qilish qadimdan O'rta Osiyo xalqlari orasida beshik va beshikka belash bilan bog'liq juda ko'plab urf-odatlar yuzaga kelgan va ularning tilda aks etishi alohida etnografik leksika qatlamini shakllantiradi: beshikka belash (*gavhorabaron*), beshik boshi (*sari gavhora*), beshik eltish (*gavhorabaron*) kabilar. [8:10] Beshikka belashda, aynan shu ayollar tomonidan quyidagicha jumlar ham ishlatiladi:

Egasi keldi, endi babasi qoch kabi.

Bu yerda baba so'zi bo'ri yoki hayvonlarning istalgan bir turiga nisbatan ishlatiladi. Ya'ni shu beshikka chaqaloq belangacha ins-jins yoki nimadir egalik qilayotgan bo'lishi mumkin degan fikr mavjud. Asl egasi kelgandan so'ng ana o'sha **“babalar”** haydaladi.

Lekin, bu haqida A.Ashirov o'zining **“O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari”** nomli kitobida **“O'zbek xalqi orasida bolani beshikka belashda qarindosh-urug'lar va mahallada hurmat-e'tiborli, uvali-juvali, nikohi buzilmagan ayollar tanlangan. Bulardan biri doya momo (enaga) yoki o'zining katta buvisi bo'lishi shart edi. Bolani beshikka belash jarayonida **“Qorqmas botir bo'lg'in, sog'lom bo'lg'in, uzoq yashagin”** degan niyat bildirilib turilgan”** [1:69,70]

Halbo (sochaloq) sochar – bu marosim chaqaloqni beshikka solish marosimi bilan birgalikda o'tkaziladi. Sochaloq marosimi ham deyiladi. Ya'ni bunda chaqaloqning onasi yoki buvisi tomonidan kichik bolalarga holva, turli-xil shirinliklar ulashiladi yoki bolalarning ustidan sochiladi. Kim ko'proq tersa o'shanga pul ham berishadi. So'z (soch+a+loq.) -Loq bu yerda kichraytirish ma'nosida kelib, marosimga yaqin ma'no berishga xizmat qilgan. Misol, Sochaloqqa buncha ko'p bachala kelipti.

Chaqaloqqa atab tug'ilgandan uch kundan boshlab, **“Aqiqa”** to'y qilinadi. **“O'zbek tilining izohli lug'ati”** da ushbu so'zga **“(yarim qimmatbaho tosh, chaqaloq sochini olish, qurbonlik qilish) Oilada yangi mehmon ya'ni chaqaloq dunyoga kelishi munosabati bilan uning tug'ilganiga yeti yoki o'n to'rt yoxud yigirma bir kun bo'lganda o'tkaziladigan ziyofat, marosim. Kitoblarda farzandning otaga bir necha haqqi bor deganlar: agar bola o'g'il bo'lsa, ikki qo'y so'yib, agar qiz bo'lsa, bir qo'y so'yib tug'ilgan kunining yettisi aqiqa qilish farz. S.Ayniy. Doxunda.”** [6:63] Bu marosim ham bizda xuddi izohli lug'atda izohlangani-day bajariladi.

“Mo'ygiron” “Mo'ysargiron”– ushbu marosim ya'ni soch olish marosimi ham deyiladi. Toyloq tumaning tojik tilli aholisi o'rtasida ushbu ikki atama faol qo'llaniladi. *Mo'y* - fors-tojikcha soch, *giron* – olmoq so'zlaridan yasalgan qo'shma so'z hisobla-

nadi. Bu soʻzga sinonim sifatida “Soch olish”, “Soch kesish”, “Soch qirqish” kabi birikmalarni olishimiz mumkin. Bola yoshga yetganda, uning sochidan oz miqdorda oʻsha xonadonning yoshi katta bobosi tomonidan qaychilanadi, qirqiladi. Soʻngra oʻsha soch tolalari biror bir mevali daraxt tagida koʻmiladi. Bu marosim ham qadimiy diniy tasavvurlar bilan bogʻliq. Masalan, qadimda ajdodlarimiz sochda insonning kuch qudrati mujassamlashadi deb eʼtiqod qilishgan. Sochi uzun odamlar hurmat qilingan. Qozoq elshunosi A.Toleubayev bolaning datslabki sochini olishdagi oʻziga xos gʻamxoʻrlikni partsional magiya bilan ham bogʻlaydi. Soch bilan bogʻliq bunday odat dunyoning koʻplab davlatlarida saqlanib qolgan. Dun-

yo xalqlari etnografiyasida soch bilan bogʻliq koʻplab etnografik leksikaga oid soʻzlar uchraydi.

Umuman olganda, tugʻilish bilan bogʻliq tushunchalar asosidagi ayrim soʻzlar maʼlum maʼnoda ichki derivatsiyani hosil boʻlishiga sabab boʻladi. Ularning biri beshik paradigmasi yoki konsepti asosida bir qancha maʼnodosh yoki uyadosh soʻzlarning paydo boʻlishi natijasida bevosita tugʻilish davriga bogʻliq maʼlum urf-odatlariga ishora kuzatiladi. [3:48] Chaqaloq yoki bola leksemasining “tugʻilish”, “parvarish”, “gʻamxoʻrlik”, “qulaylik”, “rivojlanish”, “oʻsish” singari semalarini ifodalash uchun yuqorida sanalgan marosimlarning ayrim jihatlarini koʻrib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ashirov A. Oʻzbek xalqining qadimiy eʼtiqod va marosimlari. – Toshkent, 2007. – 276 b.
- 2.Mahmud Sattor. Oʻzbek udumlari. – Toshkent: Choʻlpon, 2007. – 192 b.
- 3.Murodova N. Oʻzbek dialektologiyasi. Darslik. – Toshkent, 2019. – 182 b.
- 4.Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Тошкент: Фан, 1971. – 196 б.
- 5.Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент, Фан, 1971. – 410 б.
- 6.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006.
- 7.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2003.
- 8.Хонхужаева А. Тожик тилининг тўй ва мотам маросимларига оид этнографик лексикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори PhD дисс. автореферати. – Самарқанд, 2019. – 50 б.

Navruza FAYZULLAYEVA

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti 4-bosqich talabasi

LUTFIY “DEVON” IDAGI ANTONIMLARNING BAʼZI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Lutfiy “Devoni” tarkibidagi janrlarda qoʻllanilgan antonimlarning soʻz turkumlari doirasidagi xususiyatlari oʻrganiladi. Ularning eski va hozirgi oʻzbek adabiy tiliga boʻlgan munosabati yoritiladi.

Kalit soʻzlar: Lutfiy ijodi, antonimiya hodisasi, antonim juftlik, ziddiyat, tazod.

Аннотация: В данной статье исследуется характеристика антонимов, используемых в жанрах «Девони» Лютфия внутри словосочетаний. Освещается их связь со старым и нынешним узбекским литературным языком.

Ключевые слова: творение Лютфи, феномен антонимии, антонимическая пара, конфликт, контраст.

Annotation: this article explores the properties of antonyms within word categories used in genres within the Lutfian ‘Devonian’ I. Their attitude towards the old and current Uzbek literary language is highlighted.

Keywords: Lucid creativity, antonymic phenomenon, antonymic couple, conflict, contrast.

Mumtoz adabiyotda antonimlardan foydalanish ijodkorga fikrni taʼsirchan, mazmunni teran ifoda etishda keng maydon vazifasini oʻtaydi. Badiiy sanʼat turlaridan biri boʻlgan tazod ham oʻzaro qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar asosida hosil boʻladi.[6: 65] Lutfiyga xos lutf bilan bitilgan baytlarda qoʻllanilgan antonimlar takrorlanmas tasvirlarning yuzaga kelishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Maʼlumki, soʻzlar oʻrtasidagi antonimlikning yuzaga kelishida ularning turli talaffuzga ega boʻlishi, maʼno qarama-qarshiligining borligi asos vazifasini bajaradi. [8:215-216] Antonimiya hodisasi asosan sifat soʻz turkumi doirasida kuzatiladi. Feʼl soʻz turkumiga oid birliklarda ham bir qancha antonim juftliklarni uchratamiz. Shuningdek, ot va ravish soʻz turkumida antonimiya hodisasi qisman yuzaga keladi. Lutfiy ijodida antonimiya

hoidisasi ot, fe'l, ravish va sifat so'z turkumiga mansub birliklar ishtirokida hosil bo'ladi. Shoir devonida ot so'z turkumi doirasidagi antonimiya hoidisasi asosan shaxs va mavhum, o'rin-joy va payt otlari doirasida yuzaga kelib, bir qancha ma'no nozikliklarini keltirib chiqaradi.

1. **Shaxs otlari doirasida antonimlikning yuzaga kelishi:**

*Gar tilarsen husn mülkin, qullanḡni qāvlama,
Shāh cheriksiz bēlsā mulk anḡa mūsāllām bēlmāḡ'ay.*
[7. 330]

Baytdagi antonimiya hoidisasi **qul** va **shoh** birliklari asosida yuzaga kelyapti. Baytda yor agar husn mulkining sohibasiga aylanishni istasa, qullarini (ya'ni oshiqqlarini) o'zidan uzoqlashtirmasligi ta'kidlanadi. Chunki shohning qullari (cheriklari) bo'lmasa, mamlakat unga bo'ysunmaydi. Oddiy hayotiy haqiqatni o'zaro qarama-qarshi so'zlar juftligini keltirish orqali shoir o'ziga xos tarzda tasvirlaydi. Bilamizki, mumtoz adabiyotda shoh va gado obrazlari alohida ahamiyat kasb etadi. Lutfiy ijodida ham ushbu antonim juftlik oshiq va ma'shuqa holatini aks ettirishda qo'llaniladi. Quyidagi baytda esa podshoh va gadoy so'zlarining antonim bo'lishi kuza-tiladi:

*Dārdi bedārmāni birlā jān yāvushti chiqqal,
Pādshāhedūr qachān kelsun gadāyin korgal.*
[7. 321]

Jon bedavo dardi bilan oshiq tanasini tark etishga yaqinlashdi. Yordan esa hamon darak yo'q. Qachon podshohlar gadoylarni ko'rgani boradi. Bayt shunday ma'noni kasb etadi.

*Sen husn eliniḡ xānisen-u banda tilanchi,
Sen dilbari gulruhsen-u men bulbuli mahjur.* [7 .59]

Ushbu misralarda **xon** va **tilanchi** so'zlari antonimik juftlikni hosil qiladi. Baytda yor husn elining xoniga, oshiq esa tilanchiga qiyoslanadi. Bu orqali oshiqning yori oldida naqadar chorasizligi, muhtojligi tasvirlanadi.

2. **Mavhum otlar asosida antonimlikning yuzaga kelishi:**

*Gah-gah tegar erdi maḡa dashnāmiḡ, ul ham
qālmadi,
Izzatliq erdim vasl ila hajriḡ meni xār ayladi.*
[7 . 317]

Baytda **vasl** va **hajr** so'zlari o'zaro antonim juftliklardir. Yorning vasli oshiq'iga dashnom berib turishida namoyon bo'lardi. Shu sababli oshiq izzatli edi. Ammo yor dashnom bermay qo'ydi. Bu hajrda oshiqi zor xor bo'ldi. Antonimlar asosida yuzaga chiqqan ma'no kishiga estetik zavq beradi.

“Devon” da o'rin-joy otlarining ham antonim juftlik sifatida kelishi kuzatiladi:

*Tāsh ichrā siym mūzmar erur, yoḡki tāsha siym
Hayratḡa qālmışham men aniḡ ich-u tāshina.*
[7 .19]

Antonimiya hoidisasi fe'l so'z turkumida ham kuza-tilib, antonim juftlikni hosil qiladi. Fe'l so'z turkumida antonimlik borasida tilshunosligimizda bir qancha qarashlar mavjud. Ayrim tilshunoslarimiz fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari o'rtasidagi munosabatni ham antonimlik deb hisoblaydi. Ammo bunday munosabat antonimlikni emas, tasdiq-inkorni yuzaga chiqaradi. Lutfiy ijodida fikr ta'kidini kuchaytirish maqsadida fe'l so'z turkumiga oid antonim birliklardan foydalaniladi.

1) **Yashurmoq-fosh qilmoq** so'zlari o'zaro antonimlik hosil qilgan:

*Lutfiy g'amiḡizni kop yashurdi,
Kēz yāshi, netayki, fāsh qıldı.* [.328]

Baytda lirik qahramonning yor g'amini qanchalar yashirishga urinmasin, ko'z yoshlari oshkor qilib qo'ygandagi holati antonimlar orqali ifodalanmoqda.

1) **Jafo qilmoq-vafo qilmoq** so'zlari o'zaro antonimlik hosil qilgan:

*Har nekim kēḡlūḡ tilar javr-u jafādin qıl, begim,
Sen nechā qılsaḡ jafā, banda vafālar qılḡ'usi.*
[7 .319]

Misralarda ma'shuqa har qancha jafo qilmasin, lirik qahramon doimo unga vafo qilishi tasvirlanadi. **Ot+fe'l** qolipidagi yasama fe'l orqali ifodalangan antonim juftlik asosiy ma'noni aks ettirmoqda.

Lutfiy “Devon” ida sifat so'z turkumiga mansub birliklar o'rtasida antonimiya hoidasining yuzaga kelishi anchagina sermahsul. Bu hodisa asosan belgi-xususiyat, rang-tus, hajm-o'lchov sifatleri ishtirokida hosil bo'ladi. Otlashgan sifatlarining ham antonim juftlik holida kelishi kuzatiladi. Baytlardagi antonim juftliklar bir tomondan tazod san'atini hosil qilsa, ikkinchi tomondan sifatlash (epitet) ni ham yuzaga chiqaradi. Kontrastlikni kuchaytirib, ma'noni ta'sirchan ifodalaydi.

Sifat so'z turkumi doirasida antonimlikning hosil bo'lishi:

*Ul yuz-u kēzūḡ qāshina jān bermāk āsān erdi, kor,
Āsān ishimni ul sānām bārdi-yu dushvār ayladi.*
[7 .317]

Baytda **oson** va **dushvor** so'zlari o'zaro antonim juftliklardir. Go'zal yor husni uchun osongina jon beradigan ma'shug'ining bu ishini ham qiyin qilib qo'ydi.

Shakkar āgʻzi kim kichiklikdā yashurdi zarrani,
Ul quyāsh yuz uzra gah **paydā**-u gah **pinhān** erur.
[7 .80]

Mumtoz adabiyotda ogʻiz va labning kichikligi goʻzal-likning bosh belgisi sanaladi. *Misralarda tasvirlangan zeboning ham “shakkar” dek shirin “ogʻzi” shu qadar kichik ekanki, quyoshdek porloq yuzida goh koʻrinib, goh koʻrinmas ekan.* Baytdagi **paydo** va **nihon** antonim juftligi ana shu ifodani yuzaga chiqaryapti.

Mumtoz adabiyotda ogʻiz va labning kichikligi goʻzal-likning bosh belgisi sanaladi. *Misralarda tasvirlangan zeboning ham “shakkar” dek shirin “ogʻzi” shu qadar kichik ekanki, quyoshdek porloq yuzida goh koʻrinib, goh koʻrinmas ekan.* Baytdagi **paydo** va **nihon** antonim juftligi ana shu ifodani yuzaga chiqaryapti.

Otlashgan sifatlar oʻrtasida antonimlikning hosil boʻlishi:

*Koʻzūng qārası fitna, vale āqı balādur,
Jānlar āladur, vah, ne balā kēzi qarādur.* [7 . 52]

Sifatning otlashishi uning otga xos grammatik kategoriyalarni olib oʻzgarishi asosida yuzaga chiqadi. Baytda rang- tus sifatleri **oq** va **qoraning** III shaxs birlik egalik qoʻshimchasini olishi natijasida otlashishi va antonimiyaning hosil boʻlishi kuzatiladi. *Yorning koʻzining qorasi fitna boʻlsa, oqi balodir. Ikkisi birgalashib os-*

hiqning jonini olguvchi koʻzi qarodir. Misralarda Lutfiyga xos soʻz oʻyinini ham koʻrishimiz mumkin.

Yoq turur yālgʻuz bu Lutfiy jonigʻa javri raqib
Qayda bir dānā durur, ul javri nādān tārtadur.
[7. 65]

Sifat otlashishi metonimiya hodisasi tufayli ham hosil boʻlishi mumkin. Bunda sifat+ot qolipidagi birikmada ot turkumiga mansub soʻz tushib qoladi. Uning vazifasi esa sifatga yuklanadi. Natijada sifat otlashadi. Yuqoridagi misolda aynan shu hodisani koʻramiz. Dono va nodon soʻzlari otlashgan sifatlar boʻlib antonim juftlikni hosil qilypati. Ular orqali azaldan mavjud boʻlgan hayotiy haqiqat ochiqlyapti, yaʼni bu dunyoda donolar hamisha nodonlarning jabrini tortib kelganlar.

Xulosa qilib aytganda, Lutfiy “Devon” idagi gʻazal, ruboiy, tuyuq, qitʼa, toʻrtlik janrida yozilgan ijod namunalarida antonimlar faol ravishda qoʻllanilib, fikrni qarama-qarshi, ziddiyatda, yaqqol oppozitsiyada ifodalashga xizmat qilgan. Shuning bilan birgalikda tazod, epitet, tajnis kabi badiiy sanʼat turlarini, estetik zavq beruvchi soʻz oʻyinlarini yuzaga keltirgan. Lutfiy ijodida antonim sifatida qoʻllangan juftliklarning baʼzilari hozirgi oʻzbek tilida aynan, baʼzilari maʼlum tovush oʻzgarishlari bilan qoʻllaniladi. Ayrimlari tarixiy soʻzlar qatoridan joy olib isteʼmoldan chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1983. - 656 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1983. - 644 б.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1983. - 624 б.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1985. - 636 б.
5. Абдураҳмонов Ф., Шукуров Ш., Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008 – 528 б.
6. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.: Зарқалам, 2006 – 128 б.
7. Лутфий. Сенсан севарим. Девон. – Т.: Фафур Ғуллом, 1987. -352 б.
8. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси.– Т.: Мумтоз сўз, 2010. – 288 б.
9. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи , 1995. -161 б.

Sabina RUZIYEVA,
SamDChTI o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi talabasi

ERKIN A'ZAM ASARLARI LINGVOPOETIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada Erkin A'zamning "Shovqin" romani hamda "Jannat o'zi qaydadur" hikoyalar, qissalar, dramatik asar va publitsistik miniaturalar to'plamidagi kinoyalar lingvopoetik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, poetik semantika, adresant, estetik effekt, uslubiy bo'yoqdorlik, kinoya, piching, kesatiq, qochirim.

Аннотация: в данной статье романы Эркина Азама «Шум» и «Рай - это путь» представляют собой лингвопоэтический анализ иронии в сборнике рассказов, рассказов, драматических произведениях и публицистических миниатюрах.

Ключевые слова: лингвопоэтика, поэтическая семантика, адресат, эстетический эффект, стилистический колоризм, ирония, высота звука.

Abstract: in this article, Erkin Azam's novels "Noise" and "Heaven is the Way" present a linguistic and poetic analysis of irony in a collection of short stories, short stories, dramatic works and journalistic miniatures.

Key words: linguopoetics, poetic semantics, addressee, aesthetic effect, stylistic colorism, irony, pitch.

Lingvopoetikaning o'rganilishi filologiya fanining mustaqil tarmog'i sifatida o'tgan asrning 70-yillariga to'g'ri keladi. Lingvopoetikaning dolzarbligi sistem-struktur paradigmadan antroposentrik paradigmaga o'tish vaqti oralig'ida yaqqol namoyon bo'ldi. Zero, tilni inson bilan bog'lab o'rganish muhim masalalardan biridir.

Lingvopoetikaga salmoqli hissa qo'shgan rus filologi A.A.Lipgart shunday degan edi: "Lingvopoetika- bu filologiyaning bir bo'limi bo'lib, unda badiiy matnda qo'llaniladigan stilistik jihatdan belgilangan til birliklarining vazifalari ma'lum bir g'oyaviy-badiiy mazmunni yetkazish va qiyosiy ahamiyati masalasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi" [1;18-19]. Bu fikrdan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, tilning asosiy birligi va adabiyotning birinchi unsuri bo'lgan so'z asar mazmunini ochib berishda asosiy rol o'ynaydi, albatta, bu uning semantikasi bilan bog'liq. Poetik semantika esa so'zlar-da ma'no ko'chishini, badiiy tasvir vositalarini, uslubiy bo'yoqdorlik kabi jihatlarni tahlil qiladigan sohadir.

Kinoya ham til birliklarida ma'no ko'chishining bir turi bo'lib, unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Kinoya – til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda, kesatiq, piching, qochirim bilan ishlatishdan iborat ko'chimidir" [2;49]; Badiiy asarda qo'llaniladigan kinoyali so'zlar nafaqat informatsiya berish, balki uslubiy vazifani ham bajaradi, shu orqali adresantda estetik effektini ham yuzaga keltiradi.

Yozuvchi til birliklari imkoniyatidan qay jihatdan foydalana olishi, shubhasiz, uning uslubi va mahorati bilan bog'liq. Erkin A'zam asarlarida ham kinoyalardan turli xil maqsadda o'rinli foydalanganligining guvohi bo'lamiz:

– Ichmayman, – dedi rahbar norozi xo'mrayib. Hammayoq o'zbekcha, O'zbekiston bo'lib ketganiga falon yil o'tdi-yu, bular hamon o'sha "ikkinchi ona til"laringni qo'ymaydi. Filmni ovozlashtirganda binoyidekkina

o'zbekcha sayrab berishadi-yu, o'zaro tilga kelganda mana shu ahvol [5;10]!

"Ikkinchi ona til" kinoyasi bilan so'zlovchining o'zbek tilini qo'yib rus tilidan foydalanayotganligi uchun jamiyatdan oshkora norozilik, kesatiq ma'nolarini o'quvchiga yetkazib beradi. Necha yillardan beri kutilayotgan mustaqillikka erishish orzusi amalga oshay deb qolganda, jamiyatning hali ham rus tiliga yon bosishidan shikoyat ruhi sezilib turadi.

Yangi yil arafasida ham chorlanib, "bepoyon yurt"ning bepoyon shimolidagi tuprog'i ishlovtalab dalalarda jonbozlik namunasini ko'rsatib mehnat qilayotgan yosh yurtdoshlarimizning fidokorona faoliyatini madh etuvchi bir film yaratish zarurligi, buning uchun esa, dastavval, komsomol markaziy idorasi tashabbusiga ko'ra "Agitpoezd" ishtirokchilari safida u yerlarga borib, turmush va ish sharoiti bilan yaqindan tanishib, iloji bo'lsa, yozilajak ssenariyning xomakisini tayyorlab kelish borasida o'ta mas'uliyatli topshiriq olgan edik... [5;51-52].

Ushbu abzasdagi "bepoyon yurt" so'z birikmasi kitobxonning e'tiborini tortadi, mushohada qilishga chorlaydi. Nafaqat SSSR ma'muriy hududi, balki yuritgan siyosati, kommunistik g'oyalarini singdirilishga qaratilgan harakatlariga qarshi ekanligini yozuvchi kinoya orqali ifodalaydi. Bu o'rinda kinoyalardan o'rinli foydalangan, kinoyalarda stilistik vazifa bajaragan.

...– Obbo, aralashqo'rg'on ekan-da bu yog'i! – deb yubordim xuddi o'zim ham shu qo'rg'onga kirib aralashib ketgan kabi ko'nglim g'ash tortib. –Birortayam o'zbekka tekkani yo o'zbekdan uylangani yo'g'-a!

Chol yo pinhona pichingimni anglamadi, yo buni rag'bat deb bildi – zavq bilan tasdiqladi:

– Ha, ha, shunday. Zo'r-da, qayoqqa bormang-o'zimizniki! Zamon talabi bu. Hamma bir millat bo'lsa nimasi yomon? Baynalminalchilik degani shuku! [5;57].

Keltirilgan parchada ham o'sha davr mafkurasidan bir namunani ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi bu mafkura qarshi ekanligini personajlar yordamida namoyon qilgan. Baynalminalchilikni yoqlab o'zlikni yo'qotib bo'rayotganini kinoya qilib, real muhitni o'quvchi tasavvurida yaratib bera olgan.

Bundan tashqari, kinoyalardan aks ma'nosida ham unumli qo'llangan. Bu esa asarda o'zgacha ruh yarata-di va o'quvchiga estetik ta'sir beradi. Bu holatlarni quyidagi namunalar yordamida ko'rishimiz mumkin.

Raisning qo'lyozmasi qarab bo'lmaydigan bir ahvolda edi. Boz ustiga, "soqov" moshinkada ko'chirilgan bu dardisarni poytaxtga qatnab o'qigan o'sha yerlik bir adabiyot muallimi o'zicha tuzatmoqchi bo'lib battar rasvo qilgan ekan-xuddi a'lochi o'quvchining "to'ppa-to'g'ri" yozilgan inshosiga o'xshaydi: "borgan edi", "kelgan edi", "aytgan edi";

...Ko'zlari chaqchaygan, o'qdek teshaman deb turadi. Basharani har xil chandig'-u tirtiq "bezagan". Oyoq-qo'l va badanning-ku sog' joyi yo'q – vatanga muhabbatdan tortib, behisob ishq jafolarigacha turli yo'sinda ifodasini topgan [6;28].

Soqov so'zi tilsiz, gung, gunchalak ma'nosini bildirsa-da, matnda teskari ma'noda, ya'ni qattiq ovoz chiqarib ishlaydigan moshinkani anglatmoqda. Bezamoq fe'li ziynat, bezak berib chiroyli qilmoq, husn kirgizmoq, ko'zni quvontiradigan holga keltirmoq kabi ijobiy ma'nolarni ifodaydi, ammo kontest ichida salbiy bo'yoqdorlikka ega so'zni anglatmoqda. To'ppa-to'g'ri esa xatodan xoli; yanglishi, noto'g'ri yeri yo'q; bexato ma'nolarining kuchaytirilgan shakli umuman aks ma'noda ishlatilgan.

Erkin A'zam o'z asarlarida o'zbek tilining til imkoniyatlaridan keng va o'rinli foydalangan. Kinoyaviy so'zlar orqali voqea-hodisalarni, obrazlarning xarakterini yaqqolroq namoyon qilish bilan birga o'quvchiga estetik ta'sir o'tkazish, uni mushohada qilishga undashini ko'rishimiz mumkin. Albatta, til birliklarining asarda bajargan vazifasi asarning uslubiyligi va qiymatini baholaydi. Yozuvchi esa til birliklari imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanib, o'zining g'oyalarini va badiiy mahoratini personaj tilida aniq bayon qila olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Липгарт А. А. Основы лингвопоетики. – Либроком, 2006, 166-ст.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'ME", 2002. 128-b.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008. 166-b.
4. Yo'ldoshev. M. Badiiy matn va uning lingvopoetik asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. 170-b.
5. Erkin A'zam. Shovqin. – Toshkent, 2011. 184-b.
6. Erkin A'zam. Jannat o'zi qaydadir. – Toshkent, 2007.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Madvaliyev A. tahriri ostida. – Toshkent, 2021.

Нигора АБДУЛЛАЕВА,
ТГПУ имени Низами,
преподаватель кафедры Общего языкознания

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы, методы и эффективность формирования профессиональных коммуникативных компетенций при обучении студентов иностранным языкам.

Ключевые слова: учебный процесс, профессиональная коммуникативная компетентность, способность моделировать, сущность.

Abstract. This article discusses the theoretical foundations, methods and effectiveness of developing professional communicative competencies when teaching students foreign languages.

Key words: educational process, professional communicative competence, modeling ability, essence.

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarga xorijiy tillarni o'rgatishda kasbiy kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari, usullari va samaradorligi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: o'quv jarayoni, kasbiy kommunikativ kompetensiya, modellashtirish qobiliyati, mohiyat.

ВВЕДЕНИЕ. Проблема формирования качества коммуникативной компетентности у студентов, способности свободно, активно, самостоятельно мыслить, моделировать учебный процесс, а также самостоятельно создавать новые идеи и технологии образования и реализовывать их, является акту-

альной проблемой.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. Слово «коммуникация» происходит от латинского слова «communico», что означает «общаться, связываться, иметь дело». «Коммуникационный» означает «обладающий способностью общаться». Общение – это, прежде все-

го, способ деятельности, показывающий приспособление людей к взаимодействию. Поэтому общение можно рассматривать как уникальный процесс обмена идеями, в результате которого обеспечивается взаимная поддержка и координация действий на разных уровнях сложности. Также общение можно определить как один из компонентов общения. По мнению Е. Н. Зарецкой, коммуникативная деятельность представляет собой систему последовательных действий, выполняемых в определенном порядке, каждое из которых направлено на решение определенных задач и может рассматриваться как своеобразный «шаг» к цели общения [2].

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

К профессиональным компетенциям отнесены компетенции в организационно-управленческой, информационно-аналитической и предпринимательской деятельности.

В рамках компетентностного подхода специалисты в области иностранных языков рассматривают различные компетенции, в том числе такие как предметная, коммуникативная, деятельностная, развивающая; но всегда коммуникативная компетенция выделяется как основная, поскольку именно данная компетенция является базой для развития всех остальных компетенций.

